

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI VAZIRLIGI**

**NAVOIY VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI  
METODIKALARGA O‘RGATISH MILLIY MARKAZI**

**TA‘LIMDA INNOVATSIYALAR, INVESTITSIYALAR VA  
INTELLEKTUAL SALOHIYAT: MUAMMOLAR,  
TAHLILLAR VA ISTIQBOLLAR**

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA  
MATERIALLARI**

# **T O ‘ P L A M I**



**Navoiy-2023**

Ta'limda innovatsiyalar, investitsiyalar va intellektual salohiyat: muammolar, tahlillar va istiqbollar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Navoiy: Navoiy viloyati PYMO‘MM nashri, 2023. 233 b.

*Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazida tashkil etilgan “Ta’limda innovatsiyalar, investitsiyalar va intellektual salohiyat: muammolar, tahlillar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plamida uzluksiz ta’lim tizimida tadqiqot olib borayotgan mutaxassis-olimlar, mustaqil izlanuvchilar ilmiy-nazariy izlanishlarining amaliy tadbirlari keltirilgan. Raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish borasidagi tajribali maktab o‘qituvchilarining taklif va tavsiyalari, umumta’lim fanlarini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda ta’lim, fan, xalqaro aloqalar va boshqaruv faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini rivojlantirish hamda “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” Davlat dasturida belgilangan vazifalar doirasida bajarilayotgan izlanishlarga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot natijalari yoritilgan.*

*Konferensiya materiallaridan oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, umumta’lim maktablari o‘qituvchilari, magistrantlar va iqtidorli talabalar hamda shu sohada ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin.*

## **TAHRIR HAY’ATI**

<i>Ro‘ziqulov F.R.</i>	<i>- psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.</i>
<i>Pulotov A.M.</i>	<i>- pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.</i>
<i>Suvonov O.O.</i>	<i>- texnika fanlari nomzodi, dotsent.</i>
<i>Pulatov J.N.</i>	<i>- falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).</i>
<i>Shomiyev G‘.O‘.</i>	<i>- iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.</i>
<i>Safarov D.X.</i>	<i>- psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).</i>
<i>Usmonova R.M.</i>	<i>- dotsent.</i>
<i>Boboqulov.J.Q.</i>	<i>- UKTTE bo‘limi boshlig‘i.</i>

Texnik muharrir:

Axmedov S.T.

**Maqolalar mazmuni va ma’lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar mas’ul.**

*Konferensiya materiallari to‘plami Navoiy viloyati PYMO‘MM Ilmiy-metodik kengashi (2023-yil 30-oktyabr, 6-sonli) qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.*

## KIRISH SO‘ZI

**Assalomu alaykum!**

Assalomu alaykum, hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Aziz mehmonlar!

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahbarligida jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda **“Insonga e’tibor va sifatli ta’lim”** tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilashda muhim poydevor bo‘lgan **“Yangi hayot uchun – Yangi O‘zbekiston uchun”** ezgu shiori asosida beshta ustuvor yo‘nalishdan iborat **“O‘zbekiston 2030 strategiyasi”** qabul qilindi. Bu esa, mamlakatimizda ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o‘qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo‘lgan hurmat-e’tiborni yanada oshirish, maktab o‘quvchilarining bilimi va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, darsliklar va o‘quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni keng ommalashtirish, sohada chuqurlashtirilgan ilmiy tadqiqot olib borish, fan sirlarini ilmiy asoslab berish yo‘lida olib borilayotgan izchil islohotlar natijasida davlatimizning rivojlangan mamlakatlar qatoridan munosib o‘rin egallashiga mustahkam zamin yaratildi.

Eng muhimi, ta’lim-tarbiya sohasiga qaratilayotgan e’tibor va rag‘bat amalda o‘z samarasini berib, bugungi oldimizga qo‘ygan maqsadlar, bu malakali kadrlar tayyorlash, ta’limni sifat va samaradorligini ta’minlash, o‘quv jarayoni me’yoriy hujjatlarini uslubiy jihatdan takomillashtirish, o‘quv-axborot manbalarini rivojlantirish, ta’limning pedagogik, psixologik va uslubiy muammolarini chuqur o‘rganish, ta’limga oid ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish va bu borada talab etiladigan axborotlarni tayyorlashga yo‘naltirilayotganligi bilan ahamiyatlidir.

Bugun bo‘lib o‘tayotgan **“Ta’limda innovatsiyalar, investitsiyalar va intellektual salohiyat: muammolar, tahlillar va istiqbollar”** mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumanni maqsadi ham uzluksiz ta’lim tizimida tadqiqot olib boruvchi ilmiy izlanuvchilarning nazariy va amaliy tavsiyalarini, ta’lim jarayoniga innovatsiyalarni tadbiq etish borasidagi taklif va tavsiyalarni umumlashtirish, pedagog kadrlarni kompetensiyalarga asoslangan va kasbiy

ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan metodikalar bo'yicha o'qitish amaliyotini joriy qilishdan iboratdir.

**Qadrli anjuman ishtirokchilari va aziz mehmonlar!**

Shu fursatdan foydalanib, anjumanda ishtirok etayotgan hurmatli professor-o'qituvchilar, ustoz va murabbiylarga, ilmiy konferensiyaga tashrif buyurganingiz uchun o'z minnatdorchiligimni bildirgan holda, Sizlarga mustahkam sog'lik, ilm-fan yo'lidagi xayrli ishlaringizda omadlar tilayman. Anjumanni o'z nufuzi jihatdan yuqori ilmiy saviyada samarali o'tishiga tilakdoshman.

***F.R. Ro'ziqulov***  
***Navoiy viloyati PYMO'MM direktori***

## **1-SHO'BA: TA'LIMDA INNOVATSION TADQIQOTLAR VA TEXNOLOGIYALAR: IMKONIYATLAR, TAHLILLAR VA ISTIQBOLLAR.**

### **NIKOH-OILA MUNOSABATLARINING TASHKILIY- PSIXOLOGIK JIHATLARI MUSTAHKAMLIGINI TA'MINLASH**

*Ro'ziqulov F. R.,  
Navoiy viloyati PYMO'MM direktori*

Sharq xalqlari hayotida oila qadriyat sifatida, hatto, hozirgi globalashuv davrida ham o'zining yuksak mavqei saqlab qolayotganini e'tirof etish uchun asoslar yetarlidir. Oila milliy madaniy o'ziga xoslikning asosiy tashuvchisi ekani, qolaversa, yangi davrda yangicha fikrlab, yangicha yashashga o'rgangan odamlar, avvalo, oilada voyaga yetishi mumkinligi sababli barcha davrlarda, ayniqsa, milliy istiqbol yillarida o'zbekistonlik psixologlar tomonidan oila psixologiyasi muammolarini o'rganishga katta qiziqish bildirilmoqda. Bu sohadagi ilmiy izlanishlarning salmoqli qismi aynan oilaviy munosabatlar bilan bog'liq muammolarni o'rganish yo'nalishida o'tkazilgan.

O'zbekistonlik psixologlarning oilaviy munosabatlar psixologiyasi sohasidagi aksariyat tadqiqotlari er-xotin munosabatlarining xususiyatlari va buzilish holatlari, bu munosabatlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik omillarni o'rganishga qaratilgan.

Oilaviy munosabatlar psixologiyasi sohasida o'zbekistonlik psixolog tadqiqotchilar o'tkazgan bir qator tadqiqotlarda oilada er-xotin hamda boshqa oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarga xos xususiyatlar unda voyaga yetayotgan bolalar psixik rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi muammosi o'rganilgan. Jumladan, O.A.Abdusattorovanning dissertatsion tadqiqot ishida oila muhitida ustuvor bo'lgan er-xotin munosabatlarining o'smir farzandlarda jinsiy identifikatsiya shakllanishiga ta'sir ko'rsatish xususiyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqot natijalari oila muhitida ustuvor munosabatlar uslubi va ayniqsa, er-xotin munosabatlari o'smir yoshlarning jinsiy identifikatsiya jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatishi, uning mazmuni va yo'nalishini belgilab berishini tasdiqlanmoqda. Tadqiqotda er-xotin munosabatlarining farzand jinsiy identifikatsiyasiga ta'sirida ularning bir-birlarini qarama-qarshi jins vakili sifatida idrok etish xususiyatlari, oilaviy munosabatlar tizimida liderlikning shakli va namoyon bo'lishi xususiyatlari aks etishi o'z tasdig'ini topdi. Aniqlanishicha, oilaviy munosabatlarda liderlikning hamkorlik va sherikchilikka asoslangan uslubi o'smir yoshlarda jinsiy identifikatsiyadagi ijobiy jarayonlarni ta'minlaydi. Xususan, tadqiqot natijalari to'liq oila muhitida hamkorlik va sherikchilikka asoslangan er-xotin munosabatlaridagi erkakning o'rni va roli ham o'g'il bolada erkak jinsiga oid identifikatsion sifatlarning namoyon bo'lishi va shakllanishiga maqbul shart-sharoit sifatida rol o'ynashi mumkinligini ko'rsatdi. Shuningdek, tadqiqotchi tomonidan erkakning faol va yetakchi mavqei, undagi liderlikning sifati va turidan qat'iy nazar qiz bolada istiqboldagi

oilaviy munosabatlarda zamonaviy ayol-ona obraziga ega bo'lish va gender muomala maromlarini aniq tasavvur etishga imkon berishini ta'kidlamoqda

G.V.Xrulnova o'z tadqiqotida o'smirlarning stress holatiga xos reaksiyalarini keltirib chiqaruvchi omillar orasida oiladagi shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq muammolar alohida o'rin egallashi haqida xulosa chiqaradi. Albatta, oilaning va ota-ona bilan munosabatning psixik rivojlanishga hal qiluvchi darajada ta'sir ko'rsatishini aksiomatik holat sifatida tan olsak, tadqiqotchining ushbu xulosasi qanchalik haqiqatga yaqin ekanini tushunamiz. Biroq ilmiy jihatdan va ayniqsa amaliy jihatdan ota-ona bilan munosabat yoki ularning o'zaro munosabati xususiyatlari o'smirga stressogen omil sifatida ta'sir ko'rsatishi hodisasini e'tirof qilishdan ko'ra bunda qanday jarayonlar va mexanizmlar faollashishi, umuman, bunday ta'sirlashuv zamiridagi qonuniyatlar mazmunini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchi G.V.Xrulnova o'z tadqiqoti vazifalaridan kelib chiqib, ota-ona bilan munosabatning o'smir emotsional holatiga ta'siri nimaning evaziga ro'y berishini aniqlashtirmaydi. Uning bu boradagi xulosasi ko'proq sog'lom aql nuqtai nazaridan shakllantirilgani tufayli, nazarimizda, shunday vaziyat, ya'ni murakkab psixologik bog'lanishni ta'kidlash, ammo ichki mexanizmlarini e'tiborsiz qoldirish holati yuzaga kelmoqda.

G.T.Yadgarovanning tadqiqotida noto'liq oilada shakllanadigan o'ziga xos shaxslararo munosabatlar xususiyatlari tadqiq etilgan. Umumiy ravishda, tadqiqotchi noto'liq oiladagi shaxslararo munosabatlar unda salbiy ma'naviy - psixologik muhitni keltirib chiqarishi, bunday sharoit esa bola shaxsi taraqqiyoti va ijtimoiylashuvida buzilishlarga sabab bo'lishi aniqlanganini ta'kidlaydi. Uning tadqiqotlari natijalaridan ma'lum bo'lishicha, noto'liq oilada vujudga keladigan o'ziga xos shaxslararo munosabatlar muhitining bolalar psixik rivojlanishiga salbiy ta'siri avvalo, o'zaro munosabatlarni idrok etish, oilaviy rollarni bajarishga ruhiy-emotsional tayyorlik, oilani qadriyat sifatida baholash, ayniqsa, oilaviy munosabatlar, nikoh, jinsiy munosabat, baxt haqidagi qarashlar mazmunida aks etadi. Shubhasiz, oilaning noto'liqligi uning a'zolari o'rtasidagi munosabat xususiyatlariga ta'sir ko'rsatib, oilada o'ziga xos ijtimoiy-psixologik muhitni yuzaga keltiradi. Bunday muhit oilaning barcha a'zolari va avvalo, unda voyaga yetayotgan bolalar ruhiy holati umuman, ruhiy-asabiy salomatligi, ularning ham individual, ham ijtimoiy-psixologik taraqqiyotida o'z izini qoldirmasligi mumkin emas. Ammo noto'liq oilada o'rnatiladigan shaxslararo munosabatlar va ularning bolalar psixik taraqqiyotiga ta'sirini bir yoqlama talqin etish hamda noto'liq oila muhiti muayyan shart-sharoitlar hukm surganda nafaqat salbiy ta'sir ko'rsatmasligi, balki, hatto, oila tinchligi, bolalar ruhiy salomatligini ta'minlash nuqtai nazaridan ijobiy holat ekanini inkor qilish ancha bahslidir. Shunga muvofiq tadqiqotchi noto'liq oiladagi shaxslararo munosabatlar har qachon emas, balki aksariyat hollarda salbiy bo'lishi haqida xulosa qiladi. Biroq uning tadqiqot ishida aynan qanday shart-sharoitlar holatida oilaning noto'liqligi bola psixik va psixologik salomatligiga hamda taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omilga aylanishi aniqlashtirilmaydi.

Oila psixologiyasi va maxsus psixologiya sohasidagi muammolarni o'zaro uyg'un tarzda o'rganishga intilgan Z.Mustafayevaning tadqiqotida oiladagi shaxslararo munosabatlarning maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bola shaxsining rivojlanishiga ta'siri xususiyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, duduqlanuvchi bolalar "Oila rasmini chizish" proyektiv metodikasi bo'yicha chizgan rasmlari tahliliga ko'ra, ularning oilalarida har besh holatdan to'rttasida oilaviy munosabatlarning nosog'lomligi qayd etiladi. Umuman, tadqiqotda oilaviy munosabatlarga xos bo'lgan hamda bolalarda logonevrozning rivojlanishiga olib kelishi kuzatilayotgan holatlar aniqlangan. Xususan, tadqiqotchi oilaviy munosabatlardagi nizolashuvchanlik, bolalarga munosabatda ota-onaning beqarorligi, ichki qarama-qarshiliklardan holi bo'lmagan yondashuvni namoyon etishi maktabgacha yoshdagi bolalarda logonevrozning rivojlanishiga olib kelishi mumkinligi xususida xulosa chiqaradi. Eng muhimi Z.Mustafayeva, noxush oilaviy munosabatlarning nutqida nuqsoni bor bolalar psixik rivojlanishiga ta'siri qanday mexanizm asosida ro'y berishi haqida o'z qarashini bayon etadi. Jumladan, uning ta'kidlashicha, o'zaro nizolar natijasida ota-onada psixik zo'riqish kuchayib boradi, bunday vaziyatda esa xarakterdagi ayrim salbiy xususiyatlarning kuchayishi va nevrotizatsiya uchun qulay sharoit yuzaga keladi. Albatta, oiladagi muhit va uni hosil qiluvchi asosiy omil, ya'ni ota-ona o'zaro munosabatlaridagi nosozlik bolalarda psixosomatik buzilishlarni keltirib chiqarishi mumkinligining isbotlangan. Oilaviy munosabatlar, avvalo albatta, bolaga ota-ona munosabati qolaversa, ularning o'zaro munosabati qanday ahamiyatga egaligi bu yerda e'tiborsiz qolib ketmoqda.

## **YOSHLARNI INTELLEKTUAL SALOHIYATINI OSHIRISHDA TA'LIMGA YO'NALTIRILGAN INVESTITSIYALASHNING STRATEGIK YONDASHUVI**

*Xolbayev Sh.,*

*Davlat boshqaruvi akademiyasi Samarqand  
hududiy filiali bosh mutaxassisi*

Hozirgi kunda jahonda ro'y berayotgan globallashuv sharoitida mamlakatimiz barqaror taraqqiy etib borish uchun har tomonlama modernizatsiyalashgan tizimli yondashuvni taqozo qilayotganligi munosabati bilan, olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023-yil 11-sentyabrda PF-158-sonli "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni imzolandi. Mazkur Farmon Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston-2030" strategiyasi tasdiqlandi.



“Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish” deb nomlangan birinchi yo‘nalishida 44 maqsadni o‘z ichiga olgan ta‘lim tizimi islohotlari, aholi salomatligini ta‘minlash bo‘yicha islohotlar, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha islohotlar, yoshlarga oid davlat siyosati va sport yo‘nalishlaridagi islohotlar va ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha islohotlar bilan bog‘liq ustuvor vazifalar ta‘lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatida bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishda ta‘lim tizimini rivojlanishining yangi bosqichini belgilab berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Yana bir muammoni hal etish ham o‘ta muhim hisoblanadi: bu – pedagoglar va professor-o‘qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta‘lim olish, ma‘naviy-ma‘rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko‘mak beradigan muhitni yaratish zarur”<sup>1</sup> - deya ta‘kidladilar. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta‘limdan tortib to oliy ta‘lim jarayonlaridagi dars va darsdan tashqari ta‘limda pedagoglarimizning har tomonlama kompetentligini oshirishni taqozo qiladi.

Olimlarning ta‘kidlashicha inson o‘z hayoti davomida oladigan barcha ma‘lumotning yetmish foizini besh yoshgacha bo‘lgan davrda olib ulgurishi keltirilgan. Darhaqiqat, bu davrda inson bolasi dunyoni anglaydi, o‘z ona tilini o‘zlashtiradi, ota-ona, oila, mahalla, Vatanga mehri uyg‘onadi, umr davomida oladigan bilimlarga poydevor quradi. Bunda eng avvalo oila asosiy rol o‘ynasa, maktabgacha ta‘lim muassasasining hissasi ham bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mamlakatimizda aynan maktabgacha ta‘lim uzluksiz ta‘lim tizimining ajralmas bo‘lagiga aylanib bormoqda.

Muhtaram yurtboshimiz bu borada Oliy Majlisga murojaatnomasida ham “Farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta‘lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi katta o‘rni va ahamiyatini e‘tiborga olib, Maktabgacha ta‘lim vazirligini tashkil etdik. Biz ushbu sohaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashimiz, jumladan, yaqin 3-4 yilda barcha hududlarda minglab yangi bog‘chalar qurishimiz, ta‘lim-tarbiya sifati va darajasini yangi bosqichga ko‘tarishimiz lozim”<sup>2</sup> deya ta‘kidladilar. Yurtboshimiz 2017-yil 19-oktyabr kuni maktabgacha ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan yig‘ilishda “Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o‘zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog‘lom genofondini tayyorlash avvalo, maktabgacha ta‘lim tizimidan boshlanadi”, deb ta‘kidladilar. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta‘lim tizimiga e‘tibor berilayotganligi, uning

<sup>1</sup> Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак! «Халқ сўзи» газетаси, 2017 йил 14 январь сони.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга murojaatnomasi «Халқ сўзи» газетаси, 2017 йил 23 декабрь сони.



qamrovini yildan yilga oshirib yurtimizdagi barcha bolalarimizni tizimga yuz foiz qamrab olishdagi chora-tadbirlar belgilanganligi kelajakda o'zining albatta samarasini beradi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining “Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish” ustuvor yo‘nalishining “Umumiy o‘rta ta’lim tizimida “Ta’lim uchun qulay muhit” dasturini amalga oshirish” deb nomlangan 2-maqсадida 2023/2024 - o‘quv yildan boshlab har yili 500 ming yangi quvvatlarni tashkil etib borish, O‘quv o‘rinlari sonini 7,5 milliongacha yetkazish, 100 foiz umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini toza ichimlik suvi va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan to‘liq ta‘minlash va 2,5 million o‘quvchi o‘rniga ega maktablar qurishga 8 milliard dollar ajratish tadbirlarini davlat va hukumat o‘z zimmasiga olish belgilanmoqda. Har bir ota va ona oilada ta’lim uchun qulay muhitni yaratishda chora-tadbirlarni amalga oshirishni, ya’ni nafaqat davlat balki jamiyatni oldiga ham bir qator vazifalarni qo‘ymoqda.

Xorijiy davlatlar, jumladan Janubiy Koreya tajribasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 1982 – yilda maktabgacha tarbiya haqida qonun qabul qilinganligi va hozirgi kundagi tizimga bolalar 95 % qamrab olinganligi, maktabgacha tarbiyaning tashkil etilgandan so‘ng yillar o‘tib rivojlangan davlat statusini olishga sabab bo‘ldi. Zero, yurtimizda ham “O‘zbekiston-2030” strategiyasining “Maktabgacha ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to‘liq qamrovini ta‘minlash” deb nomlangan 1-maqсадida:

- bolalarni maktabgacha ta’lim va tayyorlov guruhlarini bilan to‘liq qamrab olish;

- davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini 100 foiz kompyuter sinfi bilan ta‘minlash orqali tarbiyalanuvchilarda boshlang‘ich kompyuter savodxonligi ko‘nikmalarini shakllantirish;

- 100 foiz maktabgacha ta’lim tashkilotlarini toza ichimlik suvi va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan ta‘minlash maktabgacha tarbiya tizimimizda islohotlarni izchil amalga oshirilayotganligi strategik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, barkamol avlodning ta’lim olishi va tarbiyalanishida davlat budjeti mablag‘larining sarflanishini ta’limga yo‘naltirilgan investitsiyalashning bir ko‘rinishida ifodalash mumkin. Buni quyidagicha jadvalda keltiridgan jarayonlarda tavsif qilamiz:

Yillar	Tarbiyalanuvchining yoshi	Jarayon
2023 -yil	3 yosh	MTMga qabul qilindi
2023-yildan - 2026-2027 -yilgacha	6-7 yosh	MTMda ta’lim va tarbiya jarayonida
2027-2028-yildan 2031-2032 –yilgacha	6-7 yoshdan 10-11 yoshgacha	Maktabda boshlang‘ich ta’lim va tarbiya jarayonida
2032-2033-yildan 2039-2040-yilgacha	10-11 yoshdan 17-18 yoshgacha	Maktabning yuqori sinf ta’lim va tarbiya jarayonida (Prezident

		maktablari, Prezident ta'lim muassasalari agentligi tasarrufidagi ixtisoslashtirilgan maktablar)
2040-2041-yildan 2044-2045-yilgacha	17-18 yoshdan 21-22 yoshgacha	Oliy ta'limning bakalavr bosqichi ta'lim va tarbiya jarayonida
2044-2045-yildan 2046-2047-yilgacha	21-22 yoshgacha 23-24 yoshgacha	Oliy ta'limning magistratura bosqichi ta'lim va tarbiya jarayonida (Xorijiy davlatlarning eng nufuzli OTMlarida magistratura)
2046-2047-yildan 2049-2050-yilgacha	23-24 yoshdan 26-27 yoshgacha	Doktarantura jarayonida (Xorijiy davlatlarning eng nufuzli OTMlarida magistratura)
2049-2050-yildan 2052-2053 – yilgacha	27 yoshdan umrining oxirigacha	Texnologiya yaratish, bilim va ilmni eksport qilish

Yuqoridagi keltirilgan jadvalimizda ko'rinib turibdiki, ta'lim tizimining sifatini qay darajada eng quyi pog'onasidan ko'tarish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishida turganligi, shuningdek, O'zbekiston yoshlari kelajakda xorijdagi texnologiyalarni o'rganib, yangi texnologiyalarni yaratib bilim va ilmga tayangan innovatsion iqtisodiyotning salmog'ini oshirish nazarda tutilgan. Ibn Sino, Beruniy, Forobiy, Mirzo Ulug'bek, Xorazmiy kabi mutafakkirlarimiz qadimda yaratuvchanlik va ilmiy salohiyati bilan butun dunyo taraqqiyotining tamal toshini quygan edilar. Mazkur jarayonni o'z davrida amalga oshirgan sharq mutafakkirlarining davomchilari - yosh avlodlarimiz to'lqinida amalga oshirilsa albatta jonajon vatanimizda buyuk davlat barpo etiladi.

## **ONLAYN TA'LIMNING PAYDO BO'LISHI VA UNING IMKONIYATLARI**

*Ortiqboyev F.Q.,  
IIV Sirdaryo akademik litseyi direktori, polkovnik*

Bugungi kunda axborot texnologiyalari an'anaviy ta'limning barcha turlariga chuqur kirib bordi. Ayniqsa, pandimiya davrida axborot texnologiyalarning o'rni yaqqol ko'rindi. Hozirda masofadan o'qishning ikkita strategiyasi bor:

- tinglovchi ro'yxatdan o'tadi va o'qish imkoniyatini qo'lga kiritadi;
- bepul ta'lim olishi ta'minlanadi.

Onlayn-ta'limning jadal rivojlanishi tinglovchi va o'quvchilar uchun raqobatni kuchaytirmoqda. Lekin masofadan o'qish pragmatik bilim olish bilan cheklanib qoladi, an'anaviy ta'lim esa - bu doim o'qituvchilarning tinglovchilar

bilan, bir-birlari bilan bevosita muloqoti, psixologik ruh va boshqa imkoniyatlari mavjuddir. Ijodiy fanlar bilan qanday yo'l tutish ham tushunarsizligicha qolmoqda, axir bunda o'qituvchi-o'quvchi aloqasi ta'lim jarayonining majburiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Bunda o'qituvchi aktyorlik mahorati kun tartibidagi asosiy masala bo'lib qoladi. Shuningdek, onlayn "o'qish"ni boshlab bergan iqtisodiy fanlarni aniq shaklga keltirish qiyin, chunki bu yerda gumanitar jihat ustunlik qiladi.

Umuman olganda esa masofadan o'qish unchalik yangilik emas. O'n yillar davomida mamlakatimizda sirdan o'qish usuli bo'lgan. Ammo hech kimda hech qanaqa savol tug'ilmagan. Internetdagi masofadan o'qish esa o'ziga xos yo'lni bosib o'tdi. Hammasi 90-yillarda, umumjahon tarmog'i makonida onlayn o'qish kurslari paydo bo'lganda boshlandi. Onlayn ta'lim loyihalarining keyingi bosqichi nisbatan yaqinda boshlandi.

Muhim jihati shundaki, onlayn kurslarning yangi dizayni paydo bo'lmoqda. Bu endi auditoriyada yozib olingan ikki soatlik leksiyalar emas, balki batafsil sharh berilgan qisqa videoroliklar. Rolik, odatda, 7-12 daqiqa davom etadi. Aytish lozimki, bunday format zamon talablariga mutlaqo javob beradi. Yaqinda olimlar zamonaviy yoshlar fiziologik jihatdan o'z diqqatlarini muayyan narsaga 10 daqiqadan ko'p qaratib tura olmasliklarini isbotladilar. 2000-yillar boshlarida masofadan ta'lim olish qiyin masala edi, eng yaxshi o'qituvchi ma'ruzani onlayn o'qiydi. Ammo, na mashhurlik va na originallik suratni tirik insonga aylantira olmaydi. Rivojlangan madaniyatlarning ko'pchiligi ko'p kontekstli, oddiy qilib aytganda asosiy bilimlar auditoriyadagi leksiyalar orqali emas, balki o'qituvchi bilan o'quvchining suhbatida, mashg'ulotlardagi bahs-munozaralar chog'ida orttiriladi.

Ta'lim sohasidagi onlayn-yangilikning yaqqol ustunliklarini ham aytib o'tishimiz adolatdan bo'ladi. Masofadan turib o'qish - bu tashqaridan majburan tiqishtirilgan tizim emas, balki insonning ongli, aniq maqsadga yo'naltirilgan tanlovidir.

Tarixda ko'plab jarayonlarni ko'rish mumkinki, ularni ijobiy yoki salbiy, ijtimoiy manfaat nuqtai nazaridan baholab bo'lmaydi. Ishtirok etmasligimiz mumkin emas chunki jadal rivojlanayotgan ilmiy-texnikaviy taraqqiyot bunga yo'l qo'ymaydi. Faqat 10-15 yildan keyin, hozirgi avlod uzil-kesil shakllangandagina baholashimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari o'qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar). T.: Iste'dod, 2010.
2. Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. T.: "Nihol" nashriyoti, 2013, 2016.279b.
3. Mutalipova M., Imomov M. Ta'limda ilg'or xorijiy tajribalar moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. T.: TDPU, 2017.
4. Sattorov Sh. Hayotiylikka asoslangan ta'lim tizimi yoxud Finlyandiya ta'lim tajribasining siri. "Yangi O'zbekiston", 2020-yil 4-noyabr, 211-son.

## TA'LIM JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISHDA MULTIPARAMETRLI O'QITISH JARAYONINING MATEMATIK MODELI HAQIDA

*Suvonov O.O.,  
Navoiy viloyati PYMO'MM dotsenti, texnika fanlari nomzodi,  
Jurakulov T.T.,  
NavDPI tayanch doktoranti*

Ijtimoiy tizimlarning ko'p parametrli ob'ekti sifatida o'quv jarayonlarini nazariy o'rganish va modellashtirishda "o'qituvchi – talaba" didaktik tizimini ko'rib chiqishga asoslangan kibernetika fanining tizimli yondashuvi alohida o'rin tutadi. Boshqaruv nazariyasi nuqtai nazari, shuningdek, matematik va simulyatsiya (kompyuter) modellashtirish usullari. Ushbu yondashuvning mohiyati shundan iboratki, haqiqiy o'quv jarayoni mavhum model - o'rganilayotgan tizim kabi o'zini tutadigan qandaydir ideallashtirilgan ob'ekt bilan almashtiriladi. Bunday model mantiqiy qoidalar tizimi, differensial tenglamalar yoki turli parametr qiymatlari, boshlang'ich shartlar va tashqi ta'sirlar uchun bir qator hisoblash tajribalarini o'tkazish imkonini beruvchi kompyuter dasturi bo'lishi mumkin. Dastlabki ma'lumotlarni va model parametrlarining qiymatlarini o'zgartirish orqali tizimni rivojlantirish yo'llarini o'rganish, berilganlarni aniqlash va tizimning kelajakdagi holatini bashorat qilish mumkin.

Avtomatik yondashuv va differensial tenglamalarni yechishga asoslangan diskret va uzluksiz modellar ma'lum [4,7,10]. Ba'zi hollarda ko'p agentli modellashtirish qo'llaniladi, bunda har bir talaba boshqa agentlardan mustaqil ravishda ishlaydigan dasturiy ta'minot agenti bilan almashtiriladi [6]. Petri tarmoqlari, genetik algoritmlar, matritsali modellashtirishdan foydalangan holda simulyatsiya modellari ham mavjud [4-7].

Sanab o'tilgan modellar o'quvchi tomonidan o'rganilgan o'quv materialining elementlarini hisobga olmaydi, ular teng emas. O'quv materialining o'quvchi faoliyatiga kiritilgan elementlari mustahkam bilimga aylanadi va sekinroq unutiladi, kiritilmaganlari esa tezroq. O'rganish jarayonida zaif bilimlar asta-sekin mustahkamlanadi. Tadqiqot o'quv materialining turli elementlarini unutilish tezligidagi farqni va zaif bilimlarning mustahkam bilimlar toifasiga o'tishini hisobga oladigan o'quv jarayonining simulyatsiya modelini yaratishdan iborat. Keling, shunday da'vo qilaylik Quyidagilarni hisobga olgan holda kompyuter simulyatsiyasi haqiqiy o'quv jarayoniga yaqinroq mos keladi:

- 1) o'quv materialining turli elementlarini o'zlashtirish kuchi bir xil emas, shuning uchun o'quv materialining barcha elementlarini bir necha toifalarga bo'lish kerak;
- 2) kuchli bilim zaif bilimga qaraganda ancha sekin unutiladi;
- 3) mo'rt bilim o'quvchilar tomonidan qo'llanilsa, asta-sekin mustahkamlanadi.

**O'quv jarayonining ko'p parametrli modeli.**

O'tkazilgan ma'lumotlarni o'zlashtirish va yodlash jarayoni yangi va mavjud bilimlar o'rtasida assotsiativ aloqalarni o'rnatishdan iborat. Natijada, o'zlashtirilgan bilimlar mustahkam bo'ladi va juda sekin unutiladi. Bilimlardan qayta-qayta foydalanish talabada uzoq vaqt saqlanib qolgan tegishli ko'nikma va malakalarning shakllanishiga olib keladi.  $T$  o'quv materialining hisobot elementlari soniga teng.  $Y_0$  Birinchi, ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi toifadagi bilimlarni o'z ichiga olgan talabning umumiy bilimi bo'lsin  $Y = Y_1 + Y_2 + Y_3 + Y_4$ .  $Y$  Qachon  $Y_1$ - unutilish koeffitsienti yuqori bo'lgan birinchi toifadagi eng nozik bilimlar  $\gamma_1$  va - past  $Y_4$  assimilyatsiya koeffitsienti  $\alpha_i$  bilan to'rtinchi toifadagi eng kuchli bilimlar  $\gamma_4$  ( $\gamma_4 < \gamma_3 < \gamma_2 < \gamma_1$ ). toifadagi bilimlarning toifali bilimlarga  $i$  o'tish tezligini tavsiflash ( $i-1$ ). Taklif etilayotgan to'rt parametrli o'rganish modeli differensial tenglamalar bilan ifodalanadi:

$$\frac{dY_1}{dt} = k\alpha_1(T - Y)Y^b - k\alpha_2Y_1 - \gamma_1Y_1;$$

$$\frac{dY_2}{dt} = k\alpha_2Y_1 - k\alpha_3Y_2 - \gamma_2Y_2;$$

$$\frac{dY_3}{dt} = k\alpha_3Y_2 - k\alpha_4Y_3 - \gamma_3Y_3;$$

$$Y = Y_1 + Y_2 + Y_3 + Y_4.$$

O'quv jarayonida ( $k=1$ ) o'quvchining mo'rt bilimining o'sish sur'ati quyidagilarga mutanosibdir: 1) o'qituvchining talab darajasi  $T$  va umumiy bilim darajasi o'rtasidagi farq  $Y$ ; 2) daraja bo'yicha  $b$  allaqachon mavjud bo'lgan bilimlar miqdori  $Y$ . Ikkinchisi, bilimlarning mavjudligi yangi assotsiativ aloqalarni o'rnatishga va yangi ma'lumotlarni eslab qolishga yordam berishi bilan izohlanadi. Agar talabalar bilimining o'sishi ularning umumiy miqdoridan sezilarli darajada kam bo'lsa, u holda  $b=0$ . O'rganish to'xtasa ( $k=0$ ),  $Y$  unutilish tufayli kamayadi. Unutilish koeffitsienti  $\gamma = 1/\tau$ , bu erda  $\tau$ -chi qismning  $e=2.72$  bilim miqdori  $i \dots$  marta kamayadi. Ta'lim natijasi o'zlashtirilgan bilimlarning umumiy darajasi va kuch omili  $Pr = (Y_2/4 + Y_3/2 + Y_4)/Y$  bilan tavsiflanadi  $Y = Y_1 + Y_2 + Y_3 + Y_4$ . Agar mashg'ulot davomida olingan barcha bilimlar kiritilgan bo'lsa ( $Y_1 = Y, Y_2 = Y_3 = Y_4 = 0$ ), unda kuch omili  $Pr = 0$ . Biz barcha olingan bilimlar mustahkam bo'lgan vaziyatga intilishimiz kerak ( $Y_4 = Y, Y_1 = Y_2 = Y_3 = 0$ ), keyin  $Pr = 1$ . Bitta mavzuni uzoq vaqt o'rganish bilan bilim darajasi  $Y$  yuqoriga ko'tariladi  $T$ , keyin mustahkam bilimlar ulushi ortadi  $Y_4$ ,  $Pr$  kuch ortadi.

### Ta'lim modelidan foydalangan holda hisoblash tajribasi.

O'quv jarayonida yuzaga keladigan ba'zi holatlarni tahlil qilamiz.

1. O'qituvchi uchta dars o'tkazadi, talablar darajasi  $T_i$ ,  $i$ -chi dars davomida ( $i=1,2,3$ ) beriladi. Biz to'rtta parametrik model yordamida talabning o'quv jarayonini tahlil qilamiz. Grafikdan ko'rinib turibdiki, mashg'ulot jarayonida o'quvchining umumiy bilim miqdori  $Y$  o'sadi, zaif bilimlarning bir qismi

mustahkamlanadi (1.1-rasm). Tanaffuslar va mashg'ulotlardan keyin past bilim darajasi  $Y_1$  tez pasayadi, va mustahkam bilim  $Y_4$  sekinroq unutiladi.


2. O'qituvchi uchta dars o'tkazadi, talablar darajasi  $T(t)$   $i$ -dars davomida qonunga muvofiq o'sadi  $T_i = a_i(t_i - t_{i0}) + b_i$ ,  $i = 1, 2$ .

3. Ikki parametrlil model yordamida o'quv jarayonini tahlil qilaylik. Ikki parametrlil o'rganish modeli qo'yidagi differensial tenglamalar bilan ifodalanadi:

$$\frac{dY_1}{dt} = k\alpha_1(T - Y)Y^b - k\alpha_2Y_1 - \gamma_1Y_1;$$

$$\frac{dY_2}{dt} = k\alpha_2Y_1 - \gamma_2Y_2;$$

$$Y = Y_1 + Y_2.$$



Guruch. 1. O'quv jarayonida o'qituvchining  $Y_1$  talab darajasi va  $T$  talabaning bilim hajmini o'zgartirish.


Har bir darsda o'qituvchi talabalardan talab qiladi (1.2-rasm):

- 1) oldingi darslarda o'rganilgan materialga ega bo'lish;
- 2) o'quv materialining yangi elementlarini o'zlashtirish.

Trening davomida zaif bilim mustahkam bo'ladi va mashg'ulotdan so'ng ular sekinroq unutiladi.

3. O'qituvchi talabaga  $i$ -muammoni hal qilish uchun zarur bo'lgan  $Y$  bilim miqdoriga teng deb hisoblangan murakkabligi ortib borayotgan  $\omega_i = i\Delta\omega N$  ta masalani echishga o'rgatishi kerak. O'qituvchi vazifalarni murakkabligini oshirish tartibida tartibga soladi va ularni muntazam ravishda talabaga qo'yadi  $\Delta t$ . Agar talaba  $i$ -muammoni hal qilmagan bo'lsa, u holda o'qituvchi unga vaqt o'rgatadi  $\Delta t$  va keyin yana bir xil yoki shunga o'xshash murakkablikdagi masalani taklif qiladi  $\omega_i$ . Agar talabaning bilim darajasi  $Y$  dan katta bo'lsa  $\omega_i$ , talaba katta ehtimol bilan muammoni ichida hal qiladi  $\Delta t$ . Bunday holda,  $Y$  ko'paymaydi, ammo zaif bilimlarning bir qismi mustahkam bo'ladi. Shundan so'ng, o'qituvchi unga  $(i + 1)$ -murakkablik darajasi yuqori bo'lgan muammoni taqdim etadi  $\omega_{i+1}$ . Agar talaba etarli bilimga ega bo'lmasa, katta ehtimollik bilan u muammoni darhol hal qila olmaydi. O'qituvchi vaqt davomida  $\Delta t$  materialni tushuntiradi yoki talaba darslik bo'yicha o'qiydi; talablar darajasi  $T = \omega_i$ , bilim

$Y_1$  va  $Y_1$  o'sib bormoqda. Shundan so'ng talaba muammoni qayta ko'rib chiqadi. Darslar davomiyligi  $T_3 \square \Delta t$  o'zgarishlar, davomiylik bilan almashinadi  $T_{II} \square \Delta t$ .



*Guruch. 2. O'quv jarayonining kompyuter modeli: 1- murakkabligi ortib borayotgan masalalarni yechish; 2 - maktabda o'qish davrida va o'qishni tugatgandan keyin bilimlar hajmining o'zgarishi.*

Amaldagi dasturda masalani yechish tasodifiy jarayon sifatida qaraladi, uning ehtimoli Roche formulasi bilan hisoblanadi:

$$p_i = 1 / (1 + \exp(-\lambda(Y(t) - \omega_i))).$$

Da  $Y = \omega_i$  - muammoni yechish ehtimoli  $p_i$  ga teng = 0,5. To'rtta darsda o'qitishni simulyatsiya modellashtirish natijalari rasmda keltirilgan. 2.1. Bosqichli chiziq  $T(t) = \omega t$  hal qilinayotgan vazifalarning murakkabligi (talablar darajasi) qanday o'zgarishini ko'rsatadi; grafiklar  $Y(t) = Y_1 + Y_2$  va  $Y_2(t)$  barcha va mustahkam bilimlarning o'sish dinamikasini tavsiflaydi. Olingan egri chiziqlar rasmdagi grafikga o'xshaydi. 1.2, dars davomida talablar  $T$  vaqtga mutanosib ravishda o'sganda.

4. Maktabda o'qish 11 yil davom etadi. O'quv yili 9 oylik mashg'ulotlar va 3 oylik ta'tildan iborat. *I -sinfda* o'qituvchi tomonidan o'quvchiga qo'yiladigan talablar darajasi matritsa orqali beriladi.  $(T_1, T_2, \dots, T_n)$ . O'quv jarayonida va uni tugatgandan keyin o'quvchi bilimining o'zgarishini o'rganamiz. Uch parametrli o'rganish modeli qo'llaniladi, odatiy simulyatsiya natijalari shaklda ko'rsatilgan. 2.2. Mashg'ulot jarayonida o'quvchining bilim saviyasi qanday oshib borishini, mustahkam bilim miqdori ortib borishini ko'rish mumkin.  $Y(t)$  grafigidagi davriy pasayish bayramlarda unutilish bilan izohlanadi. Trening tugatgandan so'ng, talaba kamdan-kam qo'llaydigan nozik bilim tezda unutiladi va mustahkam bilim sekinroq unutiladi.

Uch parametrli o'rganish modeli bilan empirik bilimlar tizimini shakllantirish masalalari qo'llanildi. Shu bilan birga, maktabda o'rganilgan barcha omillar to'plami uchta toifaga bo'lingan:

- 1) kundalik hayotda aniqlanishi mumkin bo'lgan faktlar;
- 2) fizik laboratoriyada aniqlangan faktlar;
- 3) o'qitish sharoitida aniqlanmagan va spekulyativ tarzda o'rganiladigan faktlar.

Kompyuter modelini pedagogik eksperiment natijalari bilan muvofiqlashtirgandan so'ng, o'quvchi maktabda o'qiyotganda turli toifadagi faktlarni bilish darajasining o'zgarishini tavsiflovchi grafiklar olindi.



Modelni umumlashtirish uchun, faraz qilaylik,  $Y$  o'quvchining umumiy bilimi,  $Y_1$  unutish darajasi yuqori bo'lgan birinchi toifadagi eng zaif bilim  $\gamma_1$ ,  $Y_2$  unutish darajasi past bo'lgan ikkinchi toifadagi bilim  $\gamma_2, \dots$ , va  $Y_n$   $n$ - toifadagi eng kuchli bilim bo'lsin. bilimlarni o'rganishning past  $\gamma_n$  ( $\gamma_1 > \gamma_2 > \dots > \gamma_n$ ). darajasi  $\alpha_i$  ( $i - 1$ ) - toifadagi  $i$  - toifadagi yanada mustahkam bilimga. Unutish koeffitsienti  $\gamma = 1/\tau$ ,  $\tau$  vaqt qayerda, bilimni 2,72... marta kamaytirish. Murakkablik koeffitsienti  $S$  ( $0 \leq S \leq 1$ ) o'quv materialining  $i$  - elementini o'zlashtirishning sub'ektiv murakkabligini hisobga olishga imkon beradi .

O'rganish o'zlashtirilgan bilim miqdori  $Y$  va kuch omili bilan tavsiflanadi:

$$\text{Pr} = \left( \frac{Y_2}{2^{n-2}} + \dots + \frac{Y_{n-1}}{2} + Y_n \right) / Y.$$

$Y$  oshadi, keyin mustahkam bilim ulushi ortadi  $Y_n$  va kuch  $\text{Pr}$  ortadi. Har qanday vaqtda:

$$Y(t) = Y_1(t) + \dots + Y_n(t).$$

Trening davomida:

$$\frac{dY_1}{dt} = r(1-S)(\alpha_1 F Y^b - \alpha_2 Y_1) - \gamma_1 Y_1;$$

$$\frac{dY_2}{dt} = r(1-S)(\alpha_1 Y_1 - \alpha_3 Y_1) - \gamma_2 Y_2$$

... ..

$$\frac{dY_n}{dt} = r(1-S)\alpha_n Y_{n-1} - \gamma_n Y_n.$$

Tanafus vaqti:  $T = 0$ ,  $dY_1 / dt = -\gamma_1 Y_1$ ,  $dY_2 = -\gamma_2 Y_2, \dots, dY_n / dt = -\gamma_n Y_n$ .

Taklif etilayotgan modeldan foydalanish pedagogik amaliyotda uchraydigan turli vaziyatlarni tahlil qilish va o'rganilayotgan materialning murakkabligi va boshqa omillarning ta'lim natijasiga ta'sirini hisobga olish imkonini beradi [9].

### Xulosa

Taklif etilayotgan kompyuter modellari sifatli fikrlashni to'ldiradi, ularni yanada ob'ektiv, asosli qiladi va pedagogik eksperiment o'tkazish noqonuniy yoki salbiy natijalarga olib kelganda foydalanish mumkin. O'quv materialining turli elementlarini o'rganish ketma-ketligini, darslarning davomiyligini va boshqalarni o'zgartirib, muayyan holatda o'rganishning optimal usulini topish mumkin.

O'quv jarayonini kompyuter simulyatsiyasidan foydalanish yo'nalishlaridan biri maktabdagi o'quv jarayonini simulyatsiya qiluvchi va pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalarini tayyorlash uchun mo'ljallangan o'quv dasturini yaratish bilan bog'liq. Bu o'quvchilarning parametrlarini, darslar davomiyligini, o'quv materialini taqsimlashni va o'qituvchining xatti-harakatlari strategiyasini o'zgartirishga imkon berishi kerak. O'qituvchi rolini o'ynagan talaba o'z ishini bajarish jarayonida o'quv ma'lumotlarini etkazib berish tezligini o'zgartiradi, o'quvchilarning savollariga tez javob beradi, testlarni

o'tkazadi, baho qo'yadi, ma'lum vaqt ichida eng yuqori bilim darajasiga erishishga harakat qiladi. "Mashq" tugagandan so'ng, ekranda "sinfdagi o'quvchilarning bilimlari miqdori" o'zgarishi, "tugallangan testlar" uchun baholar va boshqalarni ko'rsatadigan grafiklar ko'rsatiladi. Bundan tashqari, o'quv dasturida "o'qituvchi" (talaba) ning ishini tahlil qiladi va unga baho beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Suvonov O.O., Jo'raqulov T.T. Boshqarish ob'ekti sifatida o'quv jarayonlarini matematik modellashtirishning bir muammosi bo'yicha - Zamonaviy fan, ta'lim va kadrlar tayyorlashning dolzarb muammolari elektron jurnali. iyun, 2020-III. ISSN 2181-9750 Urganch 56-67 bet.
2. Yodgorov G.R., Jo'raqulov T.T., Boshqarish nazariyasi asosida o'quv jarayonlarini matematik modellashtirish -: AIP konferensiyasi materiallari 2365, 070016 (2021); <https://doi.org/10.1063/5.0057821> Onlayn nashr etilgan: 16 iyul 2021-yil.
3. Suvonov O.O., Juraqulov T.T. O'quv jarayonlarini matematik modellashtirish negizida Boshqarish nazariyasi. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL TEORIYA I KOMPYUTER NAUKI. <http://cajmtcs.centralasianstudies.org/index.php/CAJMTCS> Jild: 03 Nashr: 04 | 2022 yil aprel ISSN: 2660-5309
4. Dobrynina N.F. Bilimlarni tarqatish va talabalar bilimni boshqarishning matematik modellari// Fundamental tadqiqotlar. - 2009. - 7-son.
5. Dorrer A.G., Ivanilova T.N. Interaktiv adaptiv o'quv kursini modellashtirish // Fan va ta'limning zamonaviy muammolari. - 2007. - 5-son.
6. Ivashkin YU.A., Nazoikin E.A. Bilimlarni to'plash jarayonini ko'p agentli simulyatsiya modellashtirish // Dasturiy mahsulotlar va tizimlar. - 2011. - 1-son. – B. 47–52.
7. Kudryavsev V.B., Vashik K., Strogalov A.S., Aliseichik P.A., Peretruxin V.V. O'quv jarayonini avtomatik modellashtirish to'g'risida // Diskret matematika. - 1996. - V. 8, №. 4. – B. 3–10.

## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI O'QITISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

*Pulotov A.M.,*

*Navoiy viloyati PYMO'MM direktor o'rinbosari*

Umumta'lim maktablarida matematika fanini o'qitishning nazariy va amaliy ahamiyati, uning ob'yekti real olamning aloqa formalari va munosabatlari ekanligi bilan ifodalanadi. Matematika fani umumta'lim maktabining tayanch predmetlaridan biridir. U boshqa fanlarni o'rganishni ta'minlaydi. Bu birinchi navbatda tabiiy fanlar xususan, fizika, kimyo, biologiya va geografiya hamda informatika va axborot texnologiyalariga taaluqlidir. Matematika fani o'quvchilardan aqliy va irodaviy zo'r berishni, diqqatni to'play olishni, faollik, izchillikni, tasavvur rivojlangan bo'lishini talab eta borib

shaxsning axloqiy sifatlarini aniq bir maqsadga intilish, ijodiy faollik, mustaqillik, mas'uliyat, mehnatsevarlik, imtizom va tanqidiy fikrlash hamda o'zining qarash va e'tiqodlarini dalillar asosida himoya qila olish ko'nikmalarini rivojlantiradi [1,2].

O'quvchilarning mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirish maktab sohasining muhim vazifasi hisoblanadi. Mantiqiy xulosalar ob'yektning o'zi va ularni ifodalashning matematika fanida qabul qilingan qoidalar, mulohazalarni asoslash va rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. O'quvchilarga bunday ko'nikmalarni berish yo'llarini metodika deb ataladi.

Shuning uchun matematika fani o'quvchilarning ilmiy-nazariy tafakkurini shakllantirishda hal qiluvchi o'rinni egallaydi. Maktabda matematika fani o'quvchilarning ichki garmoniyasini ocha borib, ularda mulohaza yuritishning nafisligi va go'zalligini tushunishni shakllantirib, olamni idrok qilish imkonini bera borib, matematik tushunchalarni egallash orqali o'quvchilarni estetik tarbiyalashga o'zining hissasini qo'shadi. Matematika fanini multimedia vositalari asosida o'rganish o'quvchilarning fantaziyasi hamda ularning mantiqiy tasavvurlarini keskin boyitadi va rivojlantiradi.

O'quv jarayonini zerikarli darslar o'rniga multimediali zamonaviy darslarni tashkil etishga mas'uliyat bilan yondashadigan, kasbiy bilimdon, metodik mahoratga ega mas'uliyatli, o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini mukammal o'zlashtirib olgan, innovatsiyalar asosida ta'limni tashkil eta oladigan o'qituvchilarga talab oshib bormoqda. Ta'limda moddiy-texnik baza, standart, o'quv rejalar, dastur va darsliklar qanchalik takomillashtirilmasin, kutilgan asosiy natijaga erishish, chuqur va puxta bilim berish, yuqori sifatdagi o'zlashtirishga erishish bevosita nazariy va amaliy mashg'ulotlarni olib boruvchi o'qituvchining ijodkorligi, izlanuvchanligi, malakasiga pedagogik mahoratiga bog'lanib qolaveradi, o'quv-biluv markazida esa o'quvchi turmog'ini taqozo etadi. Har qanday ta'lim o'quvchi shaxsiga, uning qizikishiga, hoxish istagiga, ehtiyojiga qaratilmog'i lozim. Ta'lim-tarbiya sifati va smaradorligi o'quvchining o'quv mazmunini o'zlashtirishga yo'naltirilgan mustaqil mutoala bilan samarali shug'ullanishi, mustaqil fikr yuritishi va tafakkur faoliyatiga bog'liq.

Umumta'lim maktablarida matematika fanini o'qitish samaradorligini oshirish yo'llaridan biri ta'limning multimedia vositalaridan o'rinli foydalanishdir. Bu vositalardan - o'tilgan materiallarni takrorlashda, yangi materialni bayon qilish, mustahkamlashda, mustaqil ishlarda, og'zaki va yozma ishlar o'tkazishda, uy vazifalari berish va uning mazmunini tushuntirishda samarali foydalanish mumkin.

Masalan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida matematika fanini o'qitishda "Geogebra" dasturidan foydalanilganda o'quvchilarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini kengaytirishga ko'maklashadi. "Geogebra" dasturi shunisi bilan qulayki, o'quvchilar matematik formulalar, geometrik shakllar, algebraik ifodalar, jadvallar, grafikalar, statistika va arifmetikalar bilan ishlash va geometrik figuralar ustida ishlab, masalalarning natijasini mustaqil ravishda hal qilish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Bu mashqlar o'quvchilarning mantiqiy

fikrlash qobiliyatini o'zlashtirish bilan birga geometrik figuralarni tasavvur qilish malakalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Yangi materialni bayon etish va mustahkamlashda ta'limning multimedia vositalaridan samarali foydalanish asosida o'quvchilar bayon qilingan matematik tushunchalarni yaxshi o'zlashtirib oladilar va fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga zamin yaratiladi.

Ta'limning multimedia vositalaridan foydalangan holda o'qituvchi-o'quvchilar orasidagi savol-javoblarda [3]:

- o'qitish samaradorligini jonlantiradi;
- o'quvchilarni fikrlashga, uylashga majbur etadi;
- mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;
- ijodiy qobiliyatlarini shakllantiradi.

Bu esa o'rganilayotgan materialni chuqurroq va puxta o'zlashtirishga hamda multimedia vositalari asosida Matematika fanidan olgan bilimlarini kengaytirishga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Pulotov A.M. Oliy o'quv yurtlarida mustaqil ta'lim olishning ilmiy-uslubiy jihatlari. // Uzluksiz ta'lim jurnali. -2007. - № 2. – 14-17 betlar.
2. Pulotov A.M. Scientific-methodological aspects of uninterrupted in-service training based on the principle "lifelong learning". // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. ISSN: 2249-7137 Vol. 10, Issue 12, December 2020. URL: <https://saarj.com/wp-content/uploads/ACADEMICIA-DECEMBER-2020-FULL-JOURNAL.pdf>.
3. Pulotov A.M. Kompyuterli imitatsion ta'limda o'qitish faoliyatini modellashtirish. //Uzluksiz ta'lim sifat va samaradorligini oshirishning nazariy-amaliy muammolari Respublika ilmiy-metodik seminari materiallari. Samarqand, 2008-y. 27-28-iyun. 63-65-betlar.

### **PEDAGOG KADRLAR TAYYORLOVCHI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY: IJTIMOYIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH**

*Xolmirzayev N.,  
NavDPI doktoranti*

Mamlakatimizda ta'lim tizimini takomillashtirish orqali har tomonlama yetuk, barkamol, mustakil fikrlashga qodir, irodali, tashabbuskor va fidoiy kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi davrda ishlab chikarish texnologiyalarning rivojlanayotganligi, ilm va fanning jadal taraqqiyoti mutaxassis kadrlardan o'z bilim va ko'nikmalarini mustaqil hamda doimiy ravishda chuqurlashtirib, yangilab, to'ldirib va kengaytirib takomillashtirib borishni talab etadi. Yangilangan ta'lim tizimini joriy etishda har bir bo'lajak o'qituvchining o'z faniga va barkamol avlod ta'lim-tarbiyasiga

oid kasbiy kompetentligini shakllantirish va ularni pedagogik faoliyatda izchil qo'llay bilish mahoratiga ega bo'lishi bugungi kunning muhim talabidir.

Pedagogik kadrlar tayyorgarligi sifatini sezilarli darajada oshirish uchun pedagogik va ijtimoiy-madaniy bilimlar sintezini ta'minlash zarur. Bo'lajak o'qituvchisini kasbiy shakllantirish ijtimoiy-pedagogik va ijtimoiy-madaniy bilimlarni fan, ta'lim, ijtimoiy-madaniy sohalaridagi o'zgarishlarga asoslangan integratsiyasi ta'lim jarayonining ijtimoiy-madaniy samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu jarayon bo'lajak o'qituvchini tayyorlash mazmunini asoslash va ijtimoiy-madaniy kompetentligini shakllantirish texnologiyasini yaratishda muayyan o'zgarishlarni amalga oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Bo'lajak o'qituvchining ijtimoiy-madaniy kompetentligini shakllantirish muammosini o'rganish ishiga bir qator ilmiy ishlar bag'ishlangan. Biroq bu muammoning turli jihatlari va aspektlariga olimlarning qiziqishlari kamaygan emas, bu esa uzluksiz ta'lim tizimini modernizatsiyalash va rivojlantirishning hozirgi zamon bosqichida alohida ahamiyatga egaligidan va uning dolzarbligidan guvohlik beradi.

Nazariy manbalar mazmuni bilan tanishish, pedagogik kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari ijtimoiy-madaniy faoliyatini o'rganish va dalillarni taxlil etish bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-madaniy kompetentligini shakllantirishda bir qator qarama qarshiliklar mavjudligini ko'rsatdi, xususan:

– pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining yetuk mutaxassis ma'lumoti darajasi bilan Davlat ta'lim standartining modernizatsiyalashgan mazmuni va xajmiga qo'yilayotgan meyoriy talablar hamda uning shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish darajasi o'rtasida;

– pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini takomillashtirish jarayonida qo'llanilayotgan an'anaviy hamda innovatsion metodlar o'rtasida;

– bo'lajak o'qituvchi shaxsi va uning ijtimoiy-madaniy kompetentligini takomillashtirishda pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan oliy ta'lim muassasalari faoliyati bilan talabani ijtimoiy-madaniy komponentli o'qituvchi sifatida tayyorlash jarayonini rivojlantirish mexanizmi hamda qonuniyatlari o'rtasida;

– pedagogik turkum fanlarning bo'lajak o'qituvchisi shaxsiy hamda ijtimoiy-madaniy kompetentligini shakllantirish borasida umumkasbiy va mutaxassislik fanlari bilan integratsiyalash imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmayotganligi o'rtasidagi ziddiyatlar kabilarni ko'rsatish mumkin.

Bu kabi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish yo'llaridan biri bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-madaniy kompetentliklarini takomillashtirishdan iboratdir.[3]

Bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-madaniy kompetentligini takomillashtirish, pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarida ularning ijtimoiy-madaniy va shaxsiy kamolotini ta'minlash uchun zarur pedagogik, ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlarni yaratish, bo'lajak o'qituvchilarni

tayyorlash mazmuni va tuzilmasini modernizatsiyalash, ijtimoiy-madaniy sharoitlarini aniqlash hamda uning sifatini nazorat qilish va baholash mexanizmini ishlab chiqish orqali ijtimoiy-madaniy kompetentligini shakllantirishning asosiy maqsadini belgilaydi.

Ta'lim jarayonini takomillashtirishning muhim omili oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarini ijtimoiy-madaniy kompetentligini yuqori darajada shakllantirilishi bilan uzviy bog'liq. Shu sababli, zamonaviy ta'lim texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish negizida bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-madaniy kompetentligini shakllantirish jarayonining nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish dolzarb vazifalardan biri ekanligini belgilaydi. Shu munosabat bilan bo'lajak o'qituvchilarini oliy ta'lim muassasasida tayyorlash davridan talab qilinadigan ijtimoiy-madaniy kompetentlik darajasini ta'minlaydigan yangicha yondashuvlarni ilmiy asoslash dolzarb vazifa bo'lib kelmokda.

Mamlakatimizning milliy ta'lim tizimi mohiyatiga ko'ra ta'lim mazmunining minimal talablari bilim, ko'nikma va malakaga asoslanadi. Agarda "kompetent" va "kompetentlik" tushunchalarining etimologik taxliliga nazar tashlasak, ular tasodifan yuzaga kelmaganligini anglash mumkin.

Kompetentlik bo'lajak o'qituvchi tomonidan alohida bilim va malakalarni egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. [1]

Bitiruvchilarning ijtimoiy-madaniy tayyorgarligi darajasiga qo'yiluvchi talablar nuqtai nazaridan kompetentlik talabalarning muayyan vaziyatlarda bilim, malaka va faoliyat usullari to'plamini maqsadga muvofiq qo'llash qobiliyatini anglatadi.

Kompetentlik - bu talabaning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatni amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo'llay olishi bilan ifodalanadi. Mazkur fanda "kompetentlik" tushunchasining mohiyati ham to'la ochiladi, u quyidagi ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi: kompetentlik talabalarning shaxsiy sifatleri hamda kasbiy sohaning tayanch talablari sifatida shakllantiriladi.

Ta'lim mazmunining o'quv rejadagi fanlar bloklari (barcha fanlar uchun), fanlararo (fanlar to'plami uchun) va predmetli (ma'lum bir fan uchun) tarzda guruxlanganligi bois quyidagi uch darajani namoyon etuvchi kompetentlikni e'tirof etiladi: tayanch kompetentlik, fanlararo kompetentlik, bitta fan bo'yicha kompetentligi[4].

Shunday qilib, tayanch kompetentlik oliy pedagogik ta'limning har bir bosqichi uchun ta'lim bloklari va o'quv fanlari darajasida aniqlanadi. Tayanch kompetentlik tartibini belgilashda kasbiy pedagogik ta'limning asosiy maqsadlariga muvofiq ijtimoiy va shaxsiy tajribaning mohiyati, ijtimoiy jamiyatda ijtimoiy-madaniy faoliyatni tashkil etish jarayonida hayotiy ko'nikmalar asosida belgilanadi.

“Ijtimoiy-madaniy kompetentlik” atamasi so‘nggi vaqtlarda kasbiy-uslubiy adabiyotlarda eng tez-tez uchraydigan terminlardan biriga aylanib bormoqda. Turli mualliflar unga turlicha izoh bermoqdalar.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar unversiteti tadqiqotchisi N.Narziyevaning talqinicha, sport turlari bo‘yicha trener-o‘qituvchining ijtimoiy-madaniy kompetentligi – pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun umuminsoniy, maxsus va kasbiy fazilatlarga egalik, o‘zida bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, o‘z Vatani, xalqi, uning tili, dini, azaliy urf-odatlarini, madaniy o‘zigaxosligini to‘la idrok eta olish, boshqa mamlakat an‘analari, qadriyatlarini to‘g‘risida ma‘lumotlar, o‘zaro munosabat va hamkorlikdagi faoliyatni bilish, boshqa millat sportchilari bilan do‘stona munosabat o‘rnatish, turli millat vakillari bilan o‘zaro hamjihat bo‘lish, barcha millat va elatlarning tillari, tarixi, madaniyati, ma‘naviy qadriyatlarini, urf-odatlarini va an‘analari, fikrlari hamda e‘tiqodlarini hurmat qilish, boshqa dinlar vakillariga nisbatan do‘stona munosabat, millatlararo totuvlikni mustahkamlashga o‘z hissasini qo‘shish, samimiyluk, bag‘rikenglikni anglatuvchi tushunchadir[2].

Talaba chuqur o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan bilim va faoliyat tajribasining doirasi bo‘lib, milliy va umuminsoniy madaniyatlar hususiyatlari, inson va insoniyat xayotining ma‘naviy-ahlokiy asoslari, oilaviy va ijtimoiy an‘analarning madaniy asoslari, inson xayotida fan va dinning roli, ularning moddiy borliqqa ta‘siri, turmush va dam olish borasidagi bilimlar, masalan, bo‘sh vaqtini samarali tashkil etish usullaridan xabardor bo‘lish ijtimoiy-madaniy kompetentlik belgilari hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bo‘lajak ijtimoiy-madaniy kompetentli mutaxassisni tayyorlash bo‘yicha o‘quv va ijtimoiy-madaniy bilish faoliyatini o‘z ichiga oladigan meyoriy modelini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Pedagogik kadrlar tayyorlovchi oliy ta‘lim muassasasi bitiruvchisi tegishli yo‘nalish va ijtimoiy-madaniy tayyorgarlik darajasining malakaviy xarakteristikasida ifodalangan va ilmiy asoslangan bilim, ko‘nikma va malakalar shaxsning ijtimoiy-madaniy xislatlari tarkibini aks ettiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Муслимов Н.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантириш. Монография. – Тошкент: Фан, 2004. – 128 б
2. Нарзиева Н.Н. “Спорт турлари бўйича тренер-ўқитувчиларнинг ижтимоий-маданий компетентлигини ривожлантириш”, Ветеринария соҳасида инновацион технологияларни ишлаб чиқиш ва жорий этиш истиқболлари. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. 2022 й. 14-15 окт. 983 б.
3. Haydarov R.M. O‘qituvchining kasbiy kompetentligini takomillashtirish. Maqola.<https://art.jdpu.uz/index.php/phystech/article/download/6096/4344/1524>
4. Запаров А.А.ва б. Олий таълим муассасаларида бўлажак технологик таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш.



“Ўзбекистонда фанлараро инновациялар ва илмий тадқиқотлар” журналі.  
20.01.2023. 15 сон.

## ТА‘ЛИМГА Е‘ТИБОР – КЕЛАЖАК КАФОЛАТИ

*Xoliqulov Sh.,*

*IIV Sirdaryo akademik litseyi o‘qituvchisi*

Ilm-fan ravnaqi, kitob o‘qish madaniyati, ta‘limdagi islohatlar, jamiyatning rivoj topib borishi bugungi kun uchun yangi bosqichga ko‘tarildi. Su sababli barcha jabhalarda bo‘lgani singari akademik litseylar tizimida ham o‘ziga xos islohotlar amalga oshirilmoqda. Binobarin, ta‘lim va tarbiya yo‘nalishida izlanishlar hamda yangiliklar kun sayin ortib bormoqda. Davlatimiz rahbarining yangi farmon va qarorlari bu sohani ham tubdan isloh qilish fursati yetganligini ko‘rsatmoqda. Akademik litseylar tizimida, pedagoglar faoliyatida olib borilayotgan izlanishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, soha vakillari har bir yangilikka befarq emas. O‘qituvchilarga berilayotgan imkoniyatlar, yaratilgan sharoitlar, turli ko‘rik tanlovlar-u, xalqaro malaka oshirish tizimlari, ustozlarga hurmat an‘anasi, o‘qituvchi mavqeini tiklanishi, ortiqcha qog‘ozbozliklardan voz kechilishi, o‘qituvchining vakolatiga kirmaydigan turli-tuman yig‘inlardan ozod etilishi hech bir davrda bugunchalik bo‘lmagan.

Muhtaram Prezidentimiz – Sh. M. Mirziyoyev - “Moddiy va ma‘naviy hayotni uyg‘un rivojlantirishimiz kerak. Maktab bu borada asosiy bo‘gin bo‘lishi lozim. Maktab ta‘limini rivojlantirish biz uchun buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanishi zarur” deganida ma‘naviy hayotni isloh etish fursati kelganligiga sha‘ma qilgan edilar. Darhaqiqat, ma‘naviyat faqat kitoblarda emas, turmush tarzimizda aks etmog‘i lozimligi uqtirilmoqda. Buning uchun maktab hayoti asos vazifasini o‘tasa-da, inson omili yetakchi o‘rinda turadi. Inson omili har bir oilada shakllantirilib maktab hayotida mustahkamlanadi. O‘rta maxsus ta‘lim va oliy ta‘lim tizimi har bir inson hayotida ma‘naviyat qay darajada shakllanganligini o‘rganmog‘i kerak.

Shunday ekan har bir pedagog oldiga bir maqsad qo‘yadi: ta‘limni yangi bosqichga olib chiqish uchun, uni amalda qo‘llangan tajribaga asoslangan holda, jahon tajribasini o‘rganib yosh avlodni bor mahorati bilan o‘qitish. Bu esa har bir o‘qituvchining bosh maqsadi bo‘lishi, bizningcha, ijobiy natijaga olib keladi.

Davlatimiz rahbari tomonidan muallimlarga berilayotgan e‘tibor: **“O‘zbekistonda eng obro‘li inson – Muallim bo‘lishi, butun jamiyat shunga e‘tiborini qaratishi kerak”** degan shior ostida ko‘zga yaqqol tashlanmoqda. Bu esa kelajak farzandlarini ta‘lim va tarbiya olishlari bilan bir qatorda jahonning yetuk davlatlari bilan raqobatdosh bo‘la oladigan, bilimli, zakovatli, irodali, jismonan va ma‘nan sog‘lom farzandlarimizga berilayotgan ta‘limda ko‘rinmoqda. Bugungi kun islohatlaridan yana biri xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining qabul qilinganligidadir. O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for international Student Assessment) Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash

dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish, uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek, professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish maqsad qilib qo'yilganligi ham insonni quvontiradi.

Yangi pedagogik texnologiyalar emas, ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan holda ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqishimizda akademik litseylarning o'rni katta. Oliy ta'lim nazariyalari yaxshi singmay qoladi, kadrlarning keyingi hayotida o'zgarish qilish qiyinlashadi. Shu sababli ham ta'lim va tarbiyani avvalambor oilada, maktabgacha ta'lim muassasalarida, maktab va akademik litseyda berish qomusiy olimlarimiz tajribasidan ham ma'lum.

Hayot kun sayin jadallashib bormoqda. Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo'l avvalo ta'lim-tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki bu haqda gap ketsa, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosni eslash bilan birga, ota-onalarimiz hattoki biz uchun eng yaqin bo'lgan yana bir buyuk zot - o'qituvchi va murabbiylarning olijanob mehnatini hurmat bilan tilga olamiz.

Darhaqiqat biz pedagoglar, o'quvchilar balki butun kelajak avlod oldida mas'ulmiz. Ehtimol bu mas'ullik bizdan tinmay izlanishga, ilm sirlarini ochishga, yangiliklarni tezda ilg'ab olishga da'vat etib tursa ajabmas.

Bugungi kun o'quvchisi ehtimol ko'p kitob o'qimas, ammo juda hushyor, atrofdagi voqea-hodisalarga nisbatan u qadar befarq emas.

Ularni diqqatini bir joyga jamlash, ta'bir joiz bo'lsa o'z yo'limizga yurgazish, uchun ancha aql, bilim, salohiyat kerak bo'ladi.

Bugun qay tomonga qaramaylik, Innovatsiya, Innovatsion loyiha, Innovatsion usullar, Innovatsion ta'lim kabi tushunchalarga ko'plab duch kelamiz.

Avvalo, innovatsiya haqida. Innovatsiya (inglizcha-innovation)-yangilik kiritish, yangilik demakdir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, undan amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Xo'sh, darsga o'quvchilarni qiziqtirish uchun qanday usullardan foydalanganimiz samaraliroq?

Har bir o'quvchi bu bir olam. U xoh darsdan yaxshi o'zlashtirsin, xoh darsingizni umuman yoqtirmasin.

Men o'quvchilarimga hafta so'nggida namunali, barakalla, ota-onangizga rahmat degan kartochkalar taqdim etaman.

O'quvchilarim har gal ota-onangizga rahmat kartochkani sohibi bo'lishga harakat qilishadi.

Ushbu kartochkadan olishning o'ziga yarasha shartlari bor:

1. Har bir darsda o'zlaridan na'munali xulq-atvorlarini namoyish etishlar; ga yaqin ijobiy baho olishlari;

3. Sinfdozlari bilan samimiy munosabat o'rnatish;
4. O'qituvchilar topshiriqlarini o'z vaqtida bajarishlari;
5. Kitob–daftarlari toza-ozoda bo'lishi;
6. Haftada biron badiiy asar mutolaa qilganliklari va shunga o'xshash vazifalardan bajarib ota-onalariga rahmat kartochkalarini qo'lga kiritishlari mumkin.

Dunyo tajribasidan ma'lumki, qaysi mamlakatda ta'lim-tarbiya sohasiga jiddiy e'tibor qaratilgan bo'lsa, shu yurtning iqtisodiy-madaniy qiyofasi texnik va texnologik imkoniyatlari yuksak cho'qqilarga ko'tarilgan. Buni jahonning rivojlangan davlatlari misolida ko'rishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yurt kelajagi bugun ta'lim dargohlarida o'qiyotgan o'quvchilarimiz qo'lida. Buning uchun mas'ul bo'lgan pedagog va rahbarlar bor imkoniyatlarini ishga solib, o'z vaqtining ma'lum qismini ta'limga ajratsa, befarqlik qilmasa, kelajakda biz kutgan kadrlar o'zlari shakllanadi. Yaxshi kadr ta'limga e'tibor qaratadi bu esa kelajakni kafolatlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Avliyakov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar. T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008.
2. Turdiyev N va boshqalar. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. (I qism). T., 2015, 160 b.
3. Ishmuhammedov R, Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. T., 2016.
4. Ro'ziyeva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.

### **BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUV MASHG'ULOTLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH**

*Hamdamova N.X.,  
Navoiy viloyati PYAMO'MM katta o'qituvchisi*

**Biz o'g'il - qizlarimizni o'zlarini anglashga, mustaqil, ongli fikrlashga o'rgatishimiz, ularning tafakkurida bo'shliq vujudga kelishiga yo'l qo'ymasligimiz lozim.**

**Sh. Mirziyoyev**

Yosh avlodni har tomonlama shakllantirish, uni barkamol inson etib tarbiyalash jamiyatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Bugungi yoshlarni ertangi kun kelajagini barpo etadigan, yurtning rivojlanishiga va ravnaq topishiga o'z hissasini qo'sha oladigan va keyingi avlodga yetkaza oladigan voris qilib tarbiyalash lozim.

Hozirda yangi metodlarni yoki innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish haqida gap borganda interfaol usullarining o'quv jarayoniga qo'llanilishi tushuniladi. Interfaollik bu o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni o'quv – biluv

jarayoni o'zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o'quvchi – o'qi- tuvchining o'zaro muloqoti asosida kechadi. Interfaollik – o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, u o'quvchi va o'qituvchi muloqotlarida sodir bo'ladi. Interfaol usul- ning bosh maqsadi o'quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin fikr yuritishiga muhit yaratishdir. U o'zining intellektual salohiyatini, imkoniyatlarini namoyon etadi, va o'quv sifati va samaradorligini oshiradi. Interfaollik asosida o'tgan darsni tashkil etish shunday kechadiki, bu jarayonda birorta ham o'quvchi chetda qolmaydi, ya'ni ular ko'rgan, bilgan, o'ylagan fikrlarini ochiq – oydin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'quvchilarning har bir bildirgan fikrlari, u to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishidan qat'iy nazar, tanqid qilinmaydi. O'quvchilar hamkorlik, ham ijodkorlikda ishlashda mavzu mazmunini bilish va o'zlashtirishda o'zlarining shaxsiy hissalarini qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'zaro bilimlar, g'oyalar, fikrlarni almashish jarayoni sodir bo'ladi. Bunday holatlar o'zaro samimiyligni ta'minlaydi, yangi bilimlarni olish, o'zlashtirishga havas ortadi. Dars jarayonida bir – birlarini qo'llab – quvvatlash, o'zaro samimiy, do'stona munosabatlar vujudga keladi. Bu muhitni yaratilishi juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Dialog asosida kechgan jarayonlarda o'quvchi tanqidiy fikrlashga, murakkab masalalarni ham tahlil asosda yechimini topishga, shunga yarasha axborotni izlash, ayrim alternativ fikrlarni o'zaro muzokaralarda erkin bayon qilishga o'rganadi va shunday ko'nikmalar shakllanib boradi. Interfaol darslarni tashkil etishda o'quv jarayonida yakka tartibda, juft bo'lib ishlash, guruhlarda ishlash, izlanishga asoslangan loyihalar, rolli o'yinlar, hujjat bilan ishlash, axborot manbalari bilan ishlash, ijodiy ishlashlardan foydalanish mumkin.

Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlaridan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat.

O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi.

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjixatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

Ma'lumki har bir malakali o'qituvchining dars jarayonida foydalanadigan innovatsion metodlari bor bo'ladi. Pedagog bu usullardan o'zining faoliyatining eng asosiy va markaziy masalasi o'quv jarayonida samarali va sifatli tashkil etish- dan iboratdir. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda bu muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgan sinf hi- soblanadi. Bu paytda yosh bolalarning aqliy holati mukammal rivojlanib borishiga katta e'tibor qaratish zarur. Sababi ular endigina maktab ostonasiga qadam qo'yib kelayotgan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirish, zamonaviy

bilim olishlariga yo'l ochib berishlari zarur bo'ladi. Quyida boshlang'ich sinf dars jarayonlarida foydalaniladigan bir nechta interfaol metodlardan namunalar keltirib o'tamiz.

1. **“Rasmlı rebus”** Mazkur metod asosan darsning “Mustahkamlash qismida qo'llansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu metod yordamida o'quvchilar shoir ijodiga doir asarlari rasmlarga qarab aniqlashi kerak bo'ladi. Masalan, rebusda baliqcha, hovuz, tilla tanga rasmlari aks etgan bo'lsa, demak bu yerda shoirning “Tilla baliqcha” she'ri tasvirlangan bo'ladi. Bu bolalarda aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishda qo'l kelishi mumkin.

2. **“Tezkor savol-javob”** metodi. Ushbu metodni biz darsning “O'tilgan mavzuni takrorlash va uyga vazifa so'rash” qismida qo'llashni lozim. O'quvchilarga o'tgan mavzu yuzasidan savollar beriladi. O'quvchilar esa savollarga tezkorlik bilan javob berishlari kerak bo'ladi. Bunda o'quvchilar javoblarini yozma tarzda berganlari maqsadga muvofiq, chunki bunda ularning o'z sheriklarining javoblarini o'zlashtirishi inobatga olinadi.

3. **“Qiziqarli krossvord”** metodi. Ushbu metod orqali o'quvchilar darsning “Yangi mavzu bayoni” qismida olgan bilimlarini mustahkamlashda qo'l kelishi mumkin. Ya'ni, bunda sinfdagi o'quvchilar guruhlariga bo'lingan holda ishlasalar samaraliroq bo'ladi.

4. **“Loyiha”** metodi. Bu metodni biz darsning “Yakuniy qismi”da qo'llasak yaxshi bo'lardi. Chunki, darslikdagi o'tilgan o'qish uchun berilgan ma'lumotlar nisbatan kam hajmda hamda dars vaqtining chegaralanganligi bois, o'quvchilar keng va to'liq ma'lumotlar olishi qiyin bo'lishi mumkin. Ana shunday vaziyatlarda ushbu usul yaxshi samara berishi mumkin. “Loyiha” metodi o'quvchilarni mustaqil o'rganishga va izlanishiga turtki bera oladigan metoddir. O'qituvchi dars yakunida o'quvchilarga qiziq bo'lgan mavzuni o'rta tashlaydi va sardori tayinlanadi. Keyingi darsgacha ularga berilgan topshiriqlar bo'yicha ma'lumotlar topish, so'ngra taqdimot loyihasini tayyorlash vazifasi yuklatiladi

**“Qizil va yashil kartochkalar bilan ishlash”** metodi Bu metodda o'qituvchi to'g'ri va noto'g'ri ta'rif, jumalarni aytadi, to'g'ri va noto'g'ri yechilgan misollarni ko'rsatadi. O'quvchilar to'g'ri jumlagaga yashil kartochkani, noto'g'ri jumlagaga esa qizil kartochkani ko'rsatadi. Bu metod o'quvchilarni tezkor fikrlashga va topqirlikka, chaqqonlikka, aqlni charxlashga undaydi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'qituvchi har bir mavzuga mos interfaol metodni tanlasa va undan ta'lim jarayonida to'g'ri foydalana olsa, ta'lim mazmuni o'quvchi shaxsiga aniq va tushunarli, esda qolarli bo'ladi. Yuqorida aytganimizdek, biz o'quvchiga osonlikcha to'g'ri javobni, haqiqatni aytib qo'yishimiz emas, balki ularga haqiqatni topadigan yo'lni ko'rsatib qo'yishimiz kerak. Toki ularning o'zi to'g'ri javobni izlasin, marraga o'zining harakati bilangina borsin. O'qituvchidan yordam esa o'sha to'g'ri yo'lni ko'rsata olishdir.

**Dialog** metodi muammoli vaziyat yechimini topishga qaratiladi. O'qituvchi muammoli vaziyat asosida o'quvchini fikrlashga undaydi. Javoblar asoslanilayotganda mantiqiy izchillik, fikrlar ketma - ketligiga alohida e'tibor

qaratiladi. Muammo yechimini topishda o'quvchilar o'qituvchiga savollar bilan murojaat etishlari mumkin. Savollar shunday alfozoda tuzilgan bo'lishi kerakki, ulardan maksimal darajada axborot olishga imkon yaratilsin. Bu metod o'quvchilarning intellektuallik va kreativlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

## GEOGRAFIYA DARSLARIDA INNOVATSION VA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

*Narzullayev N.H.,  
Navoiy viloyati PYMO'MM o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada Ta'lim metodlari jumladan geografiya darslarida innovatsion va interfaol metodlar, va ulardan foydalanish yo'l – yo'riqlari, yangi metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga egaligi ko'rsatib o'tilgan.

**Аннотация:** В статье показано значение образовательных методов, в том числе инновационных и интерактивных методов на уроках географии, и их использование, а также важность использования новых методов в повышении эффективности урока.

**Abstract:** The article shows the importance of educational methods, including innovative and interactive methods in geography lessons, and their use, and the importance of using new methods in improving the effectiveness of the lesson.

**Kalit so'zlar:** Metod, ko'nikma, taqqoslash, solishtirish, interfaol, xarita.

Geografiya asoslarini puxta o'zlashtirish, o'quvchilarning bilim olish qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni hayotga tayyorlash ma'lum darajada ta'lim metodlariga bog'liq. Ta'lim metodlari – o'qituvchi tomonidan o'quvchilar faoliyatini belgilaydigan ish usullaridir.

Ta'lim metodlari o'quvchilarga bilim berish, ko'nikma va malakalari egallash bilangina cheklanib qolmaydi. Ta'lim metodlari deganda, o'quvchilarning ijodiy faoliyatlarini rivojlantiradigan, bilim asoslangan to'g'ri dunyoqarash va e'tiqodini tarbiyalaydigan usullar tushuniladi.

Metodlar o'quvchilarning ish usullari bo'lishi bilan birga o'quvchilarning qay tariqa fikirlashlarini belgilaydigan imkon beradigan yo'l hamdir.

Geografiya o'qitish metodikasida "Metod", "usul" degan so'zlar yonma-yon uchraydi. Geografiya metodikasi adabiyotlaridan "Metod" va "usul" so'zlari bir-biridan farq qilmaydi, ba'zan bu xil ma'noda yuritib kelinadi. Masalan, xaritalarni solishtirish usuli ko'pincha "taqqoslash metodi" deb yuritiladi. Xaritalarni solishtirish metod emas, solishtirish usulidir. Bunday noaniqliklar ta'lim metodlarini takomillashtirishni qiyinlashtiradi.

O'zbekiston tilidagi mavjud metodik qo'llanmalarda "Taqqoslash" ham "Solishtirish" ham "Taqqoslash" deb ishlatiladi.

Bunday chalkashlik va noaniqliklarga yo'l qo'ymaslik lozim; Taqqoslash-o'rganilayotgan geografik joyni ilgari o'rganilgan joy bilan taqqoslash tufayli o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishdir.

Masalan: Janubiy Amerika cho'lini Osiyo cho'li bilan, Turon past tekisligini G'arbiy Sibir past tekisligi bilan, Amudaryoni Volga bilan taqqoslab har qaysi joyni o'ziga xos xususiyati aniqlanadi. Solishtirish-xaritalarni solishtirish va tahlil qilish bilan geografik joyga xos bo'lgan joy va hodisalarning sabablarini aniqlashdan iborat. Masalan: turli mazmundagi xaritalar tahlil qilish va solishtirib, Shimoliy Amerikaning sharqiy qismidagi tabiat zonalarining meridional joylashish sabablari yoki Himolayning shimol tomoni bilan, janubiy tomoni tabiati o'rtasidagi keskin farqlarning sabablari aniqlanadi. Solishtirish-"Xaritalar bilan ishlash metodi"ning bir usulidir. Metod-usullar yig'indisidan iborat. Usul esa metodning tarkibiy qismidir. Ayrim hollarda bir usul bir necha xil metod tarkibida ham ishtirok etishi mumkin. Masalan: Taqqoslash usuli og'zaki bayon etish metodida ham, suhbat metodida ham, xarita bilan ishlash metodida ham ishtirok etadi. Har bir metod ma'lum bir masalani o'rganishda hal qiluvchi bo'lsa, boshqa bir masalani o'rganishda yordam sifatida keladi. Demak, metod bilan usul o'rtasida o'zaro uzviy bog'lanish bor.

Geografiyadan o'qitishning interfaol usullari geografiya darslarida yangi texnika vositalarini joriy etilishi, darsda o'quvchilarning mustaqilligini oshirilishi metodlarning mavjud jamlanmasi o'zgartirishi ham mumkin. Ta'lim metodlari uning maqsad va mazmuniga bog'liq. Ta'limning maqsad va vazifasi ilmiy texnika ta'sirida o'zgaradi masalan maktab darsliklarini o'rganishda kompyuterlardan foydalanish metodini vujudga keltiradi. Internet yordamida jahon yangiliklari qabul qilish eng muhim usullardan biri hisoblanadi. Eng ko'p tarqalgan va barqaror klassifikatsiya (metodlar jamlanmasi) - bilim olish manbalari asos qilib olingan

klassifikatsiyadir. Metodlar jamlanmasi u quyidagicha:

- 1) O'qituvchining og'zaki bayoni (nutq,hikoya tushintirish,suhbat).
- 2) Darslik bilan ishlash
- 3) Xaritalar qo'llanmalari (xarita, xarita tizimi, yozuvsiz xarita)
- 4) Statik (aniq) ashyolar (jadval, jadvallar) bilan ishlash.

Bu ta'lim metodlari boshqa o'quv fanlarida ham qo'llaniladi. Ta'lim metodining geografiyaga xos tomonlari bir necha metod usulning bir-biri bilan moslashib, to'ldirib borishidir. Xarita bilan ishlash darslik mavzusi bilan, o'qituvchining og'zaki bayoni xaritada ishlash bilan rasmlar bilan test savollari bilan ishlash shular jumlasidandir. Takomillshgan dastur asosida ta'lim berish bir necha metodlardan birgalikda foydalanishni taqoza etadi. Bunda o'quvchilarning mustaqil ishlari ham takomillashib boradi.

Geografiya ta'limi jarayonida kamdan-kam hollarda bir metoddan foydalaniladi. O'qituvchi bir darsda bir necha xil metod va usullardan



foydalanadi. Metodlar biri o'quvchi xotirasini, ikkinchisi- taffako'rini, uchunchisi – idrokini, to'rtinchisi-his va tuyg'usini faollashtirishi mumkin. Har bir metodning o'ziga xos tomonlari bor, ular ta'lim – tarbiya masalalarini turlicha hal qiladi. Bir xil metod xarita bilan ishlash malakasini hosil qiladi, ikkinchi xili kuzatuvchanligini, boshqa biri mustaqillikni tarbiyalaydi, yana biri nutqni o'stiradi. O'qituvchi metod va usullardan mohirlik bilan foydalansagina o'quvchilarga bilim berishda va ularda ko'nikma malakalar hosil qilishda yaxshi natijaga ega bo'lishi mumkin. Geografiyani o'qitishda Samarali natijalarga erishishning asosiy yo'li metod va usullardan ijodiy tarzda foydalanishdir.

O'qituvchi geografiya darsida tadbiq etiladigan metod va usullarni qay biridan foydalanishdan qat'iy nazar jonli so'zdan foydalanishga to'g'ri keladi. Og'zaki bayon metodidan mohirlik bilan foydalanilsa 10-15 daqiqa davomida ko'p malumotga erishish mumkin. Ammo og'zaki bayon metodi maktab geografiyasi oldidagi barcha vazifalarini hal eta olmaydi. Shunday ekan og'zaki bayonga ozroq vaqt ajratish maqsadga muvofiqdir.

Geografik xaritalar bilan ishlash geografiyani xaritasiz tasavvur qilib bo'lmaydi, geografiyaning tili bu xaritadir geografiyani o'rganadigan barcha jixozlar va hodisalar haqida hikoya qila oladi, xarita tez, aniq va lo'nda qilib hikoya qilishda kitobdan ham avzallik qilishi mumkin. Xarita-geografiya darslarida bilim olishning asosiy manbaidir. Shunday ekan har bir o'quvchi xaritani o'qiy olishi lozim. Agar o'quvchi xaritaga qarab hali o'rganilmagan dengiz yoki daryo haqida gapira olsa, tog'larning balandligi va yo'nalishini aniqlay olsa ma'lum bir joyning yer yuzasini yoki iqlimini ta'riflay olsa, bu o'quvchi xaritani biladi, deyish mumkin.

Xaritadan to'g'ri foydalana olishni o'rganish uchun geografiya o'qituvchi o'quvchilarni har qaysi yangi xarita mana bunday tartibda tanishtirib borishi lozim.

Xaritaning turi, undan qanday maqsadda foydalanish va uning shartli belgilarini tushuntirish, o'quvchilar e'tiborini xarita mashtabiga jalb etish lozim.

Bundan tashqari, o'qituvchi o'quvchilar e'tiborini gradus to'ring holati, meridian va paralellarning qanday o'tkazilganligiga kenglik va uzunlikni belgilagan o'rniga, ekvator, bosh meridian, qutubiy va tropik doiralarga jalb qilish lozim.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki keltirib o'tilgan metodlarni mustaqil o'rganishda qo'llashda juda samarali hisoblanib, o'quvchilar ayniqsa o'z ustida ko'proq ishlashi uchun juda foydali metod hisoblanadi. Hozirgi o'quvchi yoshlarni iqtidorli, aqlli, innovatsiyaga ega bo'lishlari bilan bir qatorda har tomonlama yetuk va barkamol shaxsga aylanishi bugungi ta'lim sohasidagi olib borilayotgan ishlarning natijasidir.

#### **Foydalaniladigan adabiyotlar**

1. Qurbonniyozov R. Geografiya o'qitish metodikasi. Xorazm 2001.
2. Abdug'aniyev I. Geografiya maydonchasida meteorologik kuzatishlarni olib borish. Toshkent. 2010.

## 2-SHO'BA: UMUMIY O'RTA TA'LIM FANLARINI O'QITISHGA INNOVATSION YONDOSHUVLAR.

### TA'LIM VA YOSHLAR INTELLEKTUAL SALOHIYATINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOIIY OMILLARI

*Yuldashev S.U.,*

*Farg'ona davlat universiteti v.b.dotsenti,  
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Bugungi murakkab zamonda yoshlarni jismoniy va ma'naviy barkamol insonlar etib tarbiyalash biz uchun g'oyat muhim vazifa bo'lib qolmoqda. "Shu ma'noda, mutafakkir Abdurauf Fitratning "Bu dunyo-kurash maydonidir. Bu kurashning quroli sog'lom jismu tan, o'tkir aql va yaxshi axloqdir"<sup>1</sup>. Yoshlarning intellektual salohiyatini jamiyat manfaatlari bilan mutanosib ravishda yuksaltirish yo'llari ta'lim sifatini oshirish bilan amalga oshiriladi. Bu borada ta'lim darajasi, unda berilayotgan bilimlar saviyasi va ko'nikmalarni rivojlantirish orqali yangi dunyoqarashni shakllantirish jarayonlarini hisobga olish zarur. Bunda yoshlar intellektual salohiyatini ijtimoiy-madaniy jihatlari "intellektual salohiyat" sifatida "inson faoliyatining intellektual tomonini aks ettiradi, bu esa kasbiy vakolatlarga oid masalalar bilan chambarchas bog'liqdir"<sup>2</sup>. Zamonaviy jamiyatlardagi yoshlar intellektual salohiyat samaradorligini quyidagi mezonlar bo'yicha baholash mumkin.

**Birinchi**dan, yoshlarning ilmiy-tadqiqot faoliyati (ilmiy nashrlar, grandlar, akademik harakatchanlik, tanlovlarda va konferentsiyalardagi faolligi).

**Ikkinchi**dan, mehnat bozorida bitiruvchilarga talab (ish bilan ta'minlangan bitiruvchilar soni).

**Uchinchi**dan, ish beruvchilarning o'quv jarayonidagi ishtiroki (tashkilotlar buyurtmasi bo'yicha bitiruv malakaviy ishlarni bajarish, nazariy va amaliyot uygunligini ta'minlash).

Shunday qilib, yoshlarning bilim darajasi o'sishi, intellektual salohiyatning shakllanishi va rivojlanishi zamonaviy mehnat bozorida yuqori raqobatbardoshlikning kafolati hisoblanadi.

Uzluksiz ta'lim va kasbiy rivojlanish yoshlarning intellektual qobiliyatlari va imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi, bu esa kasbiy o'sish va turmush darajasini ko'tarish istiqbollarini oshiradi. Shu bilan birga, yangi O'zbekiston taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlari mehnat munosabatlariga jalb qilingan yoshlarning kasb-hunar ta'limi darajasining o'sishi va imkoniyatlarining kengayishi bilan bog'liqdir. Bandlik siyosatini amalga oshirish, intellektual salohiyatni rivojlantirish, ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish, mintaqaviy va mehnat bozori sharoitida

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққийёт стратегияси. Тошкент. Ўзбекистон. 2022. – Б 250.

<sup>2</sup> Слободчикова И.В., Боджаева в.в. Интеллектуальный потенциал молодежи как фактор развития экономики региона // Фундаментальные исследования. – 2015. – № 11-1. – С. 199-202.

yoshlarning raqobatbardoshligini kuchaytirish davlat tomonidan tartibga solishning ustuvor vazifalari hamdir.

Yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlanishining pedagogik va sotsiologik jihatlar nuqtai nazaridan quyidagi xususiyatlarini o'rganishni taqozo etadi. Ya'ni hozirgi kunda ta'lim sifatini yaxshilash, o'quv-uslubiy ta'minotni ta'minlash, yosh pedagog-o'qituvchilarning kasbiy darajasini oshirish, turli ta'lim muassasalarining o'qituvchilari bilan o'zaro hamkorlik va yagona axborot-ta'lim muhitini yaratish nafaqat ijodiy faoliyatga, balki yosh kadrlarni ham intellektual yuksalishlariga xizmat qiladi.

Bu borada qabul qilingan bir nechta kontseptsiyalar va ularda ilgari surilgan ustuvor yo'nalishlar dolzarb ahamiyatga ega. Jumladan, 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiya" PQ-4312-son Qarorida belgilanganidek, "Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish..." zarurligi belgilangan bo'lib, u esa aynan ta'limni rivojlantirish orqali intellektual salohiyatli avlodni kamol toptirishga kafolatdir.

Shu o'rinda dunyo tajribasiga e'tibor beradigan bo'lsak, yoshlar siyosatini tartibga solishning davlat va huquqiy shakllaridagi o'zgarishlarni taqlid darajasi va rasmiyatchilik darajasini pasaytirishdan iborat tashkiliy shakllariga e'tibor berilayotganiga guvohi bo'lamiz. Masalan, yoshlarning intellektual salohiyatini o'rganishning dolzarbligi rivojlangan davlatlarda kelajakdagi rivojlanish muammosining dolzarbligi masalasi bilan taqqoslanmoqda. Xususan, "...kelajak yoshlar intellektual salohiyatining o'zaro bog'liqligi, aholining texnik va ijtimoiy innovatsiyalarga ko'proq moyilligi bo'lgan qismi, ya'ni yoshlarning xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanadi"<sup>1</sup>. "Intellektual salohiyatni shakllantirish shaxsning hayoti davomida amalga oshirilganiga qaramay, uni shakllantirishning asosiy davri ta'lim olish davridir"<sup>2</sup>. Bundan ma'lumki, yoshlarning istiqboli intellektual salohiyatini shakllantirishning asosiy muammolari sifatida, birinchidan, samarali intellektual kapitalning o'sishiga hissa qo'shadigan qulay ijtimoiy kapitalni shakllantiradi.

Ikkinchidan, o'quv jarayoni darajasini yuksaltirish muammosini hal etadi.

Uchinchidan, yoshlarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishining tegishli darajasini belgilashda namoyon bo'ladi.

To'rtinchidan esa, "intellektual salohiyat"li avlod vakillarini yetishib chiqishi yangi taraqqiyot bosqichida mavjud ziddiyatlarini hal qilishga imkon beradigan universal uslubiy norma sifatida samaradorlik ko'rsatishi mumkin. Tadqiqotchilar fikricha, "Zamonaviy o'quvchining shaxsiy muvaffaqiyatga erishish vositasi sifatida bilimga bo'lgan munosabat, o'ziga ishonchi

<sup>1</sup> Rossiya Federatsiyasining 2025 yilgacha bo'lgan davrdagi yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari. // Rossiya Federatsiyasi Hukumatining 2014 yil 29 noyabrdagi 2403-r-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan. URL: <http://government.ru/media/files/ceFXleNUqOU.pdf>

<sup>2</sup> Скоблякова И.В., Семенова Е.М. Интеллектуальный потенциал студентов и его формирование в университете // Материалы IX Международной научно-практической конференции «Актуальные проблемы бизнес образования». 8-9 апреля 2010 г. г. Минск.

darajasining yuksalishi bilan bir vaqtning o'zida intellektual salohiyatini oshib borishi bilan izohlanishi mumkin"<sup>1</sup>.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ta'lim tizimidagi islohotlar yoshlar intellektual salohiyatini shakllantirish quyidagi jihatlarini o'z ichiga olishi zarur. *Birinchidan*, uzluksiz malaka oshirishning ijtimoiy-madaniy darajani oshirish, yani sifat darajasini oshirish, *ikkinchidan* ta'lim tizimidagi islohotlarni va yangilanishlarni butun Respublika bo'yicha keng rivojlantirish orqali intellektual salohiyatli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, *uchinchidan* esa inson kapitalidan oqilona foydalanish maqsadida mehnat bozorida barqaror raqobatni ta'minlovchi muhitni shakllantirish kerak.

## **JAHON TAJRIBASIDA ZAMONAVIY PEDAGOG RAHBARNI YETISHTIRISHGA DOIR PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR TAHLILI**

*Safarov D.X.,  
Navoiy viloyati PYMO'MM kafedrasi mudir,  
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent*

Bugun mamlakatimizda iqtisodiy rivojlanish o'zining yangi sifat bosqichiga ko'tarildi. Rivojlanishning tez sur'ati yangi iqtisodiy mentalitetning asosi bo'lgan yuqori darajadagi boshqaruv madaniyatini talab qiladi. Jamiyat ijodiy, tashabbuskor, mustaqil, bozor iqtisodiyoti sharoitida o'z qobiliyatini muvaffaqiyatli amalga oshiradigan va uning natijalari uchun javobgar bo'lgan odamlarga har doimgidan ham ko'proq ehtiyoj sezadi. Menejment sohasidagi mutaxassisning kasbiy darajasi zamonaviy jamiyatning ilmiy, amaliy, axborot, texnologik, axloqiy va madaniy ehtiyojlariga mos kelishi kerak, boshqacha qilib aytganda, u yuqori boshqaruv madaniyatiga ega bo'lgan mutaxassis bo'lishi kerak. Boshqaruv madaniyatini shakllantirish vazifasi globallashuv davrida mamlakatning milliy manfaatlariga javob beradigan mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, etno-demografik iqtisodiy amaliyot haqiqatlari bilan bog'liq holda mutaxassislarni kasbiy tayyorlash sohasida yangi ishlanmalarni barpo etishni talab qiladi. Zamonaviy menejerlarni tarbiyalash ta'lim tizimi uchun yana bir mas'uliyatni yuklaydi. Chunki har qanday yetuk kadr samarali ta'lim tizimining mevasi hisoblanadi.

Ta'lim faoliyati hodisalarni o'rganishda asosiy e'tiborni tegishli tushunchalar tarkibini aniqlashtirishga qaratadi. Har bir fan o'z tadqiqot mavzusini tushunchalar va toifalarda aks ettiradi, ularsiz haqiqatni tushuntirib beradigan nazariyani qurish mumkin emas. Ta'lim bir-biridan farq qiluvchi tushunchalar to'plamiga emas, balki ularning terminologik apparatda aks etgan kontseptual ravishda o'zaro bog'liq tizimiga ega bo'lishi zarur. So'nggi paytlarda bu muammo juda dolzarb bo'lib qoldi, chunki ko'plab yangi

---

<sup>1</sup> Самыгин С.И., Верещагина А.В., Белов М.Т. Угрозы национальной идентичности в информационном пространстве современного социума и риски информационной безопасности // Экономические и гуманитарные исследования регионов. 2015. № 4. С. 78-85.

kontseptsiyalar va atamalar paydo bo'lganligi sababli, ushbu jarayonning tartibga solinmaganligi, boshqaruvda o'zining nazariy va kontseptual apparati yo'qligi turli chigal vaziyatlarni yuzaga keltirdi. Bilishning dialektikasi shuki, har qanday yangi bilim bizga yangi tushunchalarni tushuntirish uchun zarur bo'lgan eski tushunchalar qobig'ida paydo bo'ladi.

Menejmentda yuzaga keladigan zamonaviy jarayonlarni tushuntirishga hissa qo'shadigan tushunchalardan biri "menejning boshqaruv madaniyati"dir. Ushbu kontseptsiya hali tegishli ilmiy tushunchaga ega emas, shuning uchun biz, avvalambor, uni boshqarish nazariyasida foydalanish zaruriyati va imkoniyatini asoslashga harakat qilamiz, muhim xususiyatlarni ko'rib chiqamiz va nihoyat bularning maxsuli sifatida menejning boshqarish madaniyatining tarkibiy qismlari aniqlashimiz mumkin. "Menejning boshqaruv madaniyati" tushunchasini aniqlash uchun uning tarkibiy qismlarining semantik maydonini ko'rib chiqamiz. "Menejning boshqaruv madaniyati" tushunchasi negizidagi tarkibiy qismlardan biri bu "menejer" atamasidir. Menejerlar (inglizcha menejer - boshqaruvchi) - zamonaviy ishlab chiqarish sharoitida menejment bo'yicha mutaxassislar (korxonalar, firmalar, tashkilotlar rahbarlari, turli menejerlar). "Menejment" so'zi ingliz tilida ko'p qo'llaniladigan tushuncha hisoblanadi. V. Kollinz lug'atida ushbu so'zning ikkita asosiy ma'nosi berilgan: boshqaruv jarayoni; boshqaruv jarayonini tashkil etuvchi bir guruh odamlar. Asosiy Oksford Ingliz Lug'atida menejment odamlar, hokimiyat va boshqarish san'ati bilan ishlash usuli (uslub), mahorat va ma'muriy mahoratning o'ziga xos turi, boshqaruv organi, ma'muriy birlik deb ta'riflanadi. Xorijiy adabiyotlarda menejment kadrlarni boshqarishning tashkiliy va psixologik usuli sifatida tushuniladi. Ayrim manbalarda "menejment" so'zi quyidagicha tarjima qilingan: "ishlab chiqarishni boshqarish, ishlab chiqarish samaradorligi va rentabelligini oshirish maqsadida ishlab chiqarishni boshqarish tamoyillari, usullari, vositalari va shakllari to'plami". "Menejment" tushunchasi bilan taqqoslaganda "etakchilik", "jamoani boshqarish", "ishlab chiqarishni boshqarish" atamalari xususiydir. Ilmiy terminologiyada "menejment" atamasidan foydalanishning zamonaviy amaliyoti uning uchta asosiy ma'nosini qamrab oladi: tashkilotlarda odamlarni boshqarish jarayoni; boshqaruv fanlari; boshqaruv organi va uni tashkil etuvchi shaxslar. E.A. Utkin menejment "bu boshqaruvning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmining xilma-xil tamoyillari, funktsiyalari va usullarini qo'llash asosida bozor sharoitida ishlaydigan korxonalar tomonidan optimal iqtisodiy natijalarga erishishga qaratilgan kasbiy faoliyatning maxsus turi", deb hisoblaydi<sup>1</sup>. Averchenkoning fikricha: Psixologik nuqtai nazardan menejment - bu insonning fe'l-atvori va xulq-atvori haqidagi asosiy g'oyalarni hisobga olgan holda odamlar tomonidan etakchilikni amalga oshirish jarayoni.<sup>2</sup> Menejment soxasiga taaluqli adabiyotlarda ushbu atama yanada ko'p tomonlama ma'noda talqin etiladi. Ammo ushbu tushunchaning turli xil ta'riflari o'rtasida ziddiyatlar mavjud emas, ular bir-birini to'ldiradi va konkretlashtiradi. Bu menejmentning

<sup>1</sup> E.A.Utkin, V.P.Kravchenko "Proyekt menejment": Teys, 2002-207 bet.

<sup>2</sup> Yu.K.Averchenko "Psixologiya upravleniya": INFRA-M 2002-150 bet.

mohiyati va mazmunini chuqurroq anglash, uning ijtimoiy ahamiyati va o'rganish zarurligi to'g'risida to'g'ri xulosa chiqarish imkonini beradi. Menejmentning mohiyati va mazmunini belgilashda, avvalo, uning jarayon sifatidagi mohiyatiga urg'u beriladi.

Menejment integratsiyalashuv jarayoni sifatida tavsiflanadi, bu orqali professional ravishda o'qitilgan mutaxassislar maqsadlarni belgilash va ularga erishish yo'llari va usullarini ishlab chiqish orqali tashkilotlarni shakllantiradi va boshqaradi. Ko'pincha menejmentni tavsiflashda uni menejment haqidagi fan, menejment jarayoni, menejment san'ati, menejment funktsiyasi, boshqaruv organlari yoki apparatlari, tashkilotni boshqaradigan odamlar sifatida talqin qiladigan yondashuvlardan foydalaniladi. E.A. Utkin ta'kidlashicha, menejment ko'pincha menejerlar bilan, shuningdek organlar yoki ma'muriy apparatlar bilan aniqlanadi. Deyarli barcha ijtimoiy fanlar (falsafa, sotsiologiya, siyosatshunoslik va boshqalar) "menejment" ni bir xil talqin qiladi. Ularning o'ziga xos tuzilishini saqlashni, faoliyat rejimini saqlashni, dasturni amalga oshirishni, faoliyat maqsadlarini ta'minlaydigan turli xil tabiatdagi (biologik, ijtimoiy, texnik) tizimlangan elementlar, funktsiyalarni nazarda tutishadi. S.A. Jdanov bu boshqaruvni boshqarish organining boshqariladigan ob'ektga ta'sirini tsikl bilan takrorlanadigan jarayon deb belgilaydi.

B.A. Raisberg "menejment - bu kerakli natijalarga erishish uchun amalga oshiriladigan ob'ektlar va jarayonlarga va ularda ishtirok etayotgan odamlarga insonning ongli ta'siridir" deb ta'rif bergan. Boshqarish muammosini falsafiy tahlil qilishda asosiy e'tibor sub'ekt va ob'ekt, maqsadlari va vositalari, ongli va ongsiz toifalariga qaratiladi. Agar "menejment" ning ixtisoslashtirilgan ta'riflari haqida gapiradigan bo'lsak, unda boshqaruv nazariyasi uchun asos bo'lgan iqtisodiyotda uning izohlanishiga e'tibor qaratish lozim. Boshqaruv funktsiyalarini aniqlashda turli xil yondashuvlar mavjud, shuning uchun ushbu atamani turli xil talqin qilish mumkin. M. Meskon, M. Albert va F. Xeduriylar "menejment" ni tashkilotning maqsadlarini boshqa odamlar orqali shakllantirish va ularga erishish uchun rejalashtirish, tashkil qilish, rag'batlantirish va boshqarish jarayoni"<sup>1</sup> deb ta'riflaydilar. Ushbu ta'rif asosiy boshqaruv funktsiyalarini ko'rsatadi. V.V. Gluxovning yozishicha, "menejment" atamasini tushunish nihoyatda qiyin. Bu funktsiyani belgilaydi, lekin uni bajaradigan odamlar ham ijtimoiy va rasmiy pozitsiyani bildiradi, shu bilan birga o'quv intizomi va ilmiy tadqiqotlar sohasini anglatadi.

O.S. Vixanskiy va A.I. Naimov ta'kidlashicha, tashkilot ichida menejmentning menejment faoliyati boshqaruv funktsiyalariga mos ravishda quriladi, bu ularning umumiy hajmida boshqaruv ishining o'ziga xos xususiyatlarini, uning mazmuni, tartibliligi va tizimli yaxlitligini aks ettiradi. Shu munosabat bilan mualliflar boshqaruv faoliyatining quyidagi turlarini ajratadilar: axborot-tahlil faoliyati; motivatsion-maqsadli; rejalashtirilgan prognostik; tashkiliy va ijro etuvchi; nazorat va diagnostika; tartibga soluvchi va tuzatuvchi. Boshqaruv

<sup>1</sup> M.X.Meskon "Osnovi menejmenta": "Delo", 2000. – 704 bet.

faoliyatining ushbu turlari tashkilotning shakllanishi va rivojlanishining har bir bosqichida amalga oshiriladi va menejering tashkilot jamoasini boshqarish bo'yicha sub'ekt-sub'ektlararo ta'sir doirasini aks ettiradi. Muxin xulosasiga ko'ra boshqaruvning mohiyatiga mos keladigan shunday ta'rifni joriy etish zarur: u boshqaruv faoliyati maqsadini ham, boshqaruv harakatini rivojlantirishni va uni amalga oshirishni aks ettiradi: umuman tizimning maqsadiga samarali erishish. Shunday qilib, menejer faoliyati polisubektiv sifatida tavsiflanishi aniq bo'lib, menejer, birinchidan, o'zi tomonidan boshqariladigan shaxs bilan o'zaro aloqada ta'lim ta'sirining sub'ekti sifatida harakat qiladi, ikkinchidan, u o'zini shaxsiy va kasbiy rivojlanishining sub'ekti (o'zini rivojlantirish), uchinchidan, - u boshqaradigan jamoani shakllantirish va rivojlantirish mavzusi va to'rtinchidan, - tashkilot rahbariyati bilan o'zaro aloqalari.

S.D. Reznik va uning hamkasblari menejer muvaffaqiyati omillariga katta e'tibor berib, shaxsni o'zini o'zi boshqarish masalasini fan sifatida shaxsiy boshqaruv turlarini ko'rib chiqadilar. Ularning ta'kidlashicha, "rahbarning shaxsiy ishini tashkil qilish faqat uning ishi emas". G.M. Andreeva fikricha, inson uchun o'zini o'zi boshqarish - bu nimani va qanday qilish kerakligi haqidagi savollarni hal qilish; u uzoq muddatli istiqbolga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin: hayot yo'lini tanlash, o'z-o'zini rivojlantirish maqsadlarini belgilash, o'z-o'zini tarbiyalash g'oyalarini konkretlashtirish, zarur ish uslubini rivojlantirishdir.

O'z-o'zini boshqarish - bu maqsad qilingan narsani amalga oshirish yaqin kelajakdagi muammolarni hal qilishga va o'zgaruvchan sharoitlarda o'z xatti-harakatlarini sozlash qobiliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Biz yuqorida aytib o'tgan boshqaruvning yana bir darajasi - jamoadagi boshqaruv faoliyati to'g'ridan-to'g'ri menejer bilan bog'liqdir. Menejer o'zining kasbiy faoliyati davomida jamoani boshqaradi, xodimlarning faoliyatini boshqaradi.

A.Ya. Kibanov xodimlarni boshqarish uchun rahbarlarga muhim ahamiyatga ega masalalarni ko'rib chiqadi: xodimlar bilan ishlashni rejalashtirish, tashkil etish xodimlarni boshqarish va uning rivojlanish, kadrlar xatti-harakatlarini boshqarish texnologiyalari, tashkilot xodimlarining faoliyatini baholash. B. V. Gluxov jamoada boshqarish faoliyatini amalga oshirishda rahbar shaxsning shaxsiy fazilatlarini, amaliy ish tajribasi, o'qitish va o'z-o'zini tarbiyalash ta'siri ostida ishlab chiqiladigan kerakli etakchilik uslubini alohida ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi.

## **TARIXIY XARITALAR VA ILLYUSTRATSIYALARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

*Qlichev U.A.,  
IIV Sirdaryo akademik litseyi kafedrasi mudiri,  
tarix fanlari nomzodi (PhD)*

Tarixiy xarita bilan ishlash geografik muhitga xarakteristika berishning



asosiy metodini tashkil etadi. Tarixiy xaritalarda mavzu va voqea-hodisalar, jarayonlarning mazmuni, davlatning chegaralari va boshqalar beriladi. Tarixiy kartalarning bir necha turlari bor: *tarixiy iqtisodiy, tarixiy etnografik, arxeologik, tarixiy-siyosiy, harbiy-tarixiy, tarixiy-madaniy*.

O'quv tarixiy xaritalari esa ta'limda foydalaniladi. Xaritalar hech qachon eskirmaydi. Eskirganlari ham o'z qadrini yo'qotmaydi, aksincha dolzarbligi yanada oshadi. Ammo o'sha davr tarixiga arxeologik izlanishlar yoki boshqa yozma manbalarning topilishi bilan yangi o'zgarishlar kiritilishi mumkin bo'lsada, baribir o'tgan davr tarixshunosligi haqida ham ma'lumot berish vazifasini o'taydi. Ularga qarab tanqidiy fikrni rivojlantirish ham mumkin.

6-sinfda o'quvchilarga geografik muhit bilan odamlarning mashg'uloti o'rtasidagi aloqani ochib berish, xalqlarning tarixiy rivojlanishiga geografik muhitning ta'sirini ko'rsatish uchun katta imkoniyat bor.

Xarita yordamida biror mamlakatning tarixiy taraqqiyotida bosib o'tgan turli bosqichlardagi ahvolini aniq tasvirlab berish, o'quvchilarda birinchidan, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi haqida aniq tasavvur yaratishga, ikkinchidan, inson ajdodlari mehnatining bunyodkorlik kuchini puxta tushunib, anglab olishlariga yordam beradi. Binobarin, xarita bilan ishlash juda katta ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Darsda xaritadan foydalanib tarixiy voqea sodir bo'lgan joyni ko'rsatish, o'quvchilarda geografik muhitning roli haqida tasavvur yaratish uchungina emas, balki tarixiy voqealarning mohiyatini, ularning qonuniyatlarini, o'zaro aloqalari va sabab-natijalarni ochib berishda ham muhim rol o'ynaydi. Xaritadan tarixiy voqeani tushuntirib berishdagina emas, balki uni tahlil qilishda va umumlashtirishda ham foydalaniladi.

Xarita yordamida tarixiy voqealarning sabab-alloqalari ochib beriladi. Masalan, Amir Temur saltanatining yuksalishi sabablari ochib beriladi. Xarita darsning boshida o'rganilgan materialni tahlil qilish, umumlashtirish, tarixiy taraqqiyot rivojlanishining qonuniyatlarini ochib berishga yordam ko'rsatadi.

Tarixiy xarita o'quv materialini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi voqea bo'lib o'tgan joyini devorga osilgan xaritadan ko'rsatgan vaqtda o'quvchilarning o'sha joyni o'z xaritasi yoki atlasidan izlab topishi, o'qituvchi rahbarligida xaritaning tahlil qilinishi, o'quvchilarning o'z daftarlaridagi eskizlar va darslikdagi xaritalar ustida uyda mustaqil ishlashi, navbatdagi darsda berilgan savollarga xaritadan foydalanib javob berishi o'quv materialining puxta o'zlashtirilishi va uzoq vaqt esda saqlanishiga yordam beradi.

Tarix o'qitish tajribasida tarixiy xaritalarning uch turidan foydalaniladi:

1. Umumiy xaritalar. Ular bir mamlakat yoki bir guruh mamlakatlardagi tarixiy voqealarni, ularning mavqeini, tarixiy taraqqiyotning ma'lum bosqichidagi ahvolni aks ettiradi.

2. Obzor xaritalar. O'rganiladigan voqealar rivojlanishining izchilligini uzoq davr mobaynida hududning o'zgariganligini aks ettiradi.

3. Mavzuga doir xaritalar. Ma'lum tarixiy voqealarga yoki tarixiy

jarayonning ayrim tomonlariga bag'ishlanadi. Masalan, Muqanna qo'zg'oloni.

Mavzuga doir xaritalarda ijtimoiy hayotga doir masalalar, chunonchi iqtisodiy masalaga, harakatlarga, mustaqillik uchun milliy ozodlik kurashlari yoki harbiy o'tmishga doir masalalar to'laroq yoritiladi. Darslik va atlasdagi xaritalarning ko'pchiligi tematik xaritalardir. O'qituvchi bosma yoki qo'lda tayyorlangan osma tematik xaritalardan ham foydalanadi.

Sxematik xaritalar yoki xarita-sxemalar ham tematik xaritalarning bir turidir.

Tarix darslarida o'quvchilarni mamlakatimizning tabiiy sharoiti va iqtisodiyotining rivojlanish tarixi bilan chuqurroq tanishtirish maqsadida tabiiy va iqtisodiy geografik xaritalardan ham foydalaniladi.

Birorta ham darsni xaritasiz tasavvur etish qiyin. Xarita tarix darsining eng zaruriy qo'llanmasi bo'lib hisoblanadi. Xarita avvalo o'rganiladigan mavzuga mos bo'lishi lozim. O'qituvchi voqealar rivoji davomini bayoni jarayonida xaritadan ko'rsatib borishi, ayni vaqtda o'quvchilar o'qituvchi ko'rsatadigan joyni qo'llaridagi xarita yoki atlasdagi xaritadan izlab topishlari lozim.

Har bir yangi xarita o'rgana boshlanganda unga qisqacha obzor berish, uni o'rganilgan eski xarita bilan solishtirib, o'quvchilarni yangi xaritadagi o'zgarishlar bilan tanishtirish, ularning tarixiy taraqqiyotning izchilligi va har bir bosqichning o'ziga xos muhim xususiyatlarini anglab olishlariga yordam beradi. O'quvchilar ikki xaritani solishtirib mamlakat hududi toraygan yoki kengayganini, shaharlarning o'sganligi va boshqa o'zgarishlar yuz berganligini aniq tushunib oladilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'qituvchi xarita yuzasidan savollar va topshiriqlar berish yo'li bilan o'quvchilarni 5-6-sinfdan boshlab xarita ustida ishlashga o'rgatib boradi. O'quvchilarni xaritani o'qib tushinishga, ulardan tarixiy bilimlar manbai sifatida foydalana bilishga o'rgatish kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ilhomov Z. Tarix fani metodologiyasi. T., 2012.
2. Raxmatullayeva A.R., Ismatullayev F.O., Berdiev S.R., Narziev N.N. Tarix fanini o'qitish metodikasi.// O'quv-uslubiy majmua. T., 2017.
3. Sobirov A. Vatan va millat tarixi manbai. "Yangi O'zbekiston", 2020-yil 9-oktabr, 193-son.
4. Toshpo'latov T., Gafurov Ya. Tarix o'qitish metodikasi. T., 2010.

### **KASBGA TAYYORLASH JARAYONIDA BO'LJAK TARIX O'QITUVCHILARINING KOMPETENTLILIGINI SHAKLLANTIRISHNING INTEGRATSION PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI**

*Boboyorov Sh.S.,  
NavDPI tarix kafedrasi dotsenti*

Ta'lim jarayoniga bo'lgan zamonaviy talablar bizga kasbiy kompetentlikning tashkil topishi va shakllanishini pedagogik jarayon sifatida

ham qabul qilish imkoniyatini beradi. U talabalarda ahamiyatli- motivatsion sohani va kasbiy muloqotning shaxslararo va madaniyatlararo amaliy kompetensiyalarni rivojlantirish bilan sifatli kasbiy kommunikativ kompetensiyalar bilan ta'minlashga yo'naltirilgan. Bo'lajak tarix o'qituvchilarida integrativ yondashuv asosida kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonini baholar ekanmiz, ta'limda, ayniqsa, yuksak samaradorlikka erishishga ko'maklashuvchi qator integratsion pedagogik shart-sharoitlarga diqqatni qaratish zarur. O'qituvchining talabalar bilan muloqotini insonparvarlashtirish integrativ yondashuv asosi sifatida baholanadi.

Integratsion shart-sharoitlarni birma-bir tahlil qilib ko'rsak. Ta'lim olayotganlar ijtimoiy tarbiyasining asosiy omillaridan biri, ta'lim makoni yoki muhiti hisoblanadi, u pedagogik tizimni tashkil qiluvchi tizim vazifasini bajaradi. V.A. Levin ta'lim makoni - uni to'laqonli rivojlantirish uchun imkoniyatlar mavjud bo'lganda, ijtimoiy-madaniy va predmetli sharoitda shaxs shakllanishining alohida, o'ziga xos ta'siri va shart-sharoitlari tizimi, deb hisoblaydi. Bunda muhit bir zaylda bo'lmasligi kerak

O'z navbatida V.Bondarevskaya, esa ta'lim makoni "tarbiyalanuvchini qurshab turgan barcha narsa va atrofida, ya'ni: tabiat, shahar yoki qishloq muhiti, hayotning moddiy va ma'naviy sharoitlari, maishiy buyumlar va madaniy boyliklar, oila va jamiyat hayotidagi voqea-hodisalar"dir, deya tabiatda bir-biriga o'zaro bog'liq bo'lganlarning hammasini birgalikda tushunadi.

G.N. Serikovning fikricha, oliy o'quv yurti ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyati shundaki, u talabalar mustaqil o'qishini ma'lumotlar bilan ta'minlashga yordam beradi va bu atrofida bilan alohida ma'lumot almashinish jarayonlarida ko'rinadi.

Psixologiya-pedagogika fanlarini o'qitishning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- talabalarga o'z psixologik portretlarini tuzish orqali o'z-o'zini anglashga ko'maklashish,
- ularga atrofida insonlarni tushunishni o'rgatish,
- talabalarda psixologik to'g'ri va tushunarli muomalada bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish,
- ularga o'zining shaxsga oid va kasbiy rivojlanish istiqbollarini ko'ra olishni o'rgatish.

Bundan tashqari psixologiya, pedagogika va sotsiologiya fanlari talabalarda kommunikativlik, kreativlik, tolerantlik, tahlil qilishga moyillik kabi ijtimoiy kompetensiyalarni, shuningdek, butun umri davomida ta'lim olishga bo'lgan motivatsiyani rivojlantirishga qodir. Bunda kommunikativ kompetentlikning muhim zaruriy qismi bo'lgan o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi munosabatlarni insonparvarlashtirish quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanishi mumkin

Bunda insonparvarlikning eng muhim elementi o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi sub'ekt-ob'ektga oid muloqotning o'zgarishi muhimdir. O'qituvchi va uning o'quvchilari alohida "o'zlarining ijodiy individualliklarini to'laqonli rivojlantirish sub'ektlari"ga aylanadilar, bunda pedagogik jarayon, avvalo,

muloqot jarayoni hisoblanadi. Bizga ma'lumki, uzoq o'tmishdan ayon bo'lgan insonparvarlikni targ'ib qiluvchi komil inson sifatleri muloqot jarayoni bilan bog'liq. Masalan, "Avesto"da komil inson sifatleri bir-biri bilan chambarchas bog'liq, bir-birini to'ldiruvchi va biri birini taqozo etuvchi ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal birligida namoyon bo'ladi. Demak, "Avesto" inson shaxsining takomilini insonlarga, tabiatga nisbatan ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal birligining uzviy bog'liqligini o'zida mujassam etgan dastlabki pedagogik asar hisoblanadi. Integrativ pedagogik yondashuvning asosiy prinsiplarini o'zida mujassam etgan bu axloqiy uchlik eng qadimgi davrlardan boshlab undan keyin yaratilgan barcha ma'rifiy asarlarga asos bo'lgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. "Zero, unda insonning inson sifatida ma'naviy va moddiy kamol topishi uchun zarur bo'lgan muayyan talablar o'z ifodasini topib, hayot kodeksi sifatida faqat Sharq xalqlarining emas, G'arb xalqlarining ham muqaddas merosi bo'lib qoldi. Demak, eng qadimgi yodgorliklar ezgulik, vatanparvarlik, samimiylik, oqko'ngillik, xushmuomalalik haqida ta'lim beradi".

Ta'lim va tarbiyaning kommunikativ sohasiga o'z munosabatlarini bildirgan zamonaviy mualliflar (X. Abdulkarimov, G.G. Chanisheva, B.D. Elkonin, F.R. Yuzlikayev) pedagogik jarayonning insonparvarlashayotgani haqida ta'kidlab, bu o'rinda uning ishtirokchilari dialogi talabalarning o'qituvchi bilan to'la teng huquqli bo'lishlari kerakligini tasdiqlaydilar. Bunda shaxslararo muloqotlarning tashkil topishi va talabalarning kommunikativ sifatlerini to'kis rivojlanishiga ta'sirining keng samaradorligi, pedagogik faoliyatning kerakli sharti hisoblanadi. Lekin bunda eng murakkab jihat talaba shaxsini boshqarish bilan bog'liq muammodir. Bu muloqot bilan M.N. Berulava hali-hanuz zamonaviy ta'lim jarayonida an'anaviy pedagogikaning mohiyatiga to'xtalib istehzo bilan: "Ta'lim oluvchi xuddi uni tashqi ta'sirlar, yangi texnologiyalar, umumiy standart va normativlar yordamida boshqarish mumkin bo'lgan qandaydir muhandislik- texnologik mexanizm sifatida gavdalanadi" deb yozadi.

Ta'limning umumdidaktik integratsion prinsiplari samarali tarbiyalovchi ta'lim jarayonini tashkillashga, bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan nazariy konsepsiyalar asosini egallashga yo'naltirilishi kerak.

Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy yo'naltirilganligi taqdim qilingan prinsiplarga tayanishni anglatib, ular o'qituvchi faoliyatining eng muhim tomonlarini modellashtirish imkonini beradi va kelgusida talabalarga o'z kasbiy faoliyatini malakali bajarishini ta'minlovchi muhim kasbiy kommunikativ kompetensiyalarni yanada muvaffaqiyatliroq egallashga yordam beradi.

Bunda birinchi prinsip -bu kommunikativ kompetensiyalarning kasbiy maqsadga muvofiqligi bo'lib, u oliy kasbiy-pedagogik ta'limning tuzilish komponentlari o'zgartirilishining tizim yasovchi omili sifatida baholanadi.

Ikkinchisi-bu kasbiy-pedagogik jarayonda funksionallik prinsipi. Ta'kidlash joizki, funksionallik prinsipi ko'p aspektli bo'lib, pedagogik vositalarni funksional tanlab olish va tashkil qilishni ko'zda tutadi.

Uchinchi-kasbiy yo'naltirilgan mashqlarning ko'pvazifaviylik prinsipi kommunikativ ta'limning kasbiy-intensiv metodikasida mashqlar tizimining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

To'rtinchi-kasbiy-kommunikativ vaziyatlilik prinsipi. Pedagogika OO'Yuda kasbga yo'naltirilgan fanlarni o'qitishda talabalar bo'lajak kasbiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini ham e'tiborga olish kerak.

Shunday qilib, biz "o'qishdan tashqari faoliyat" tushunchasi tavsifini qisman to'ldirar ekanmiz, uni o'qishdan tashqari faoliyatning shaxsni ijodiy o'z-o'zini rivojlantirishga hamda kommunikativ ta'lim olishga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik ta'lim muhiti doirasidagi talaba va o'qituvchilarning integratsion alohida tizimi sifatida baholaymiz. Bunday talqin qilish bizga pedagogik OO'Yu talabalarining o'qishdan tashqari faoliyatini ta'lim jarayonida kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda ularning malakali kasbiy tayyorgarligini ta'minlash uchun alohida ahamiyatini ta'kidlash imkonini beradi.

## **DARS TUZILMASIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING METODIK JIHLTLARI**

*Sobirov D.S.,  
UrDU tadqiqotchisi*

Ta'limdagi kompyuter texnologiyalari o'qitish jarayonini butunlay o'zgartirishga, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish modelini amalga oshirishga imkon beradi. Zamonaviy o'qitish vositalari (kompyuterlar, dasturiy ta'minot va metodik jihozlar) o'qitishning turli shakllarini takomillashtirishga imkon beradi, bundan tashqari, ularning o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalashini tashkil etishning uslubiy vositasi sifatidagi faoliyati katta ahamiyatga ega. Albatta, zamonaviy kompyuter va interfaol dasturiy-uslubiy vositalar o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro munosabatlar shakllarini o'zgartirib, o'qituvchiga o'qituvchidan ko'ra ko'proq yordam beruvchi maslahatchi sifatida qaraladi. Va bunday o'zgarish talabaning bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi va uni darsni samarali nazorat qilishning yangi modellarini izlashga undaydi.

"OTMlarda o'quv jarayonining ajralmas qismi hisoblanuvchi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish ishlari talabalar tomonidan o'qituvchi ishtirokisiz yoki bilvosita boshqaruvida individual bajariladigan ishlar bo'lib, bu o'rinda talaba va pedagog jamoasida har ikkala taraf ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o'rganish ularning manfaati uchun olib borilishini tushunishi ham kerak. Ya'ni, talaba egallayotgan bilimni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o'rganish yanada samarador ekanligi va natijasiga o'zi mas'ulligini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o'rganayotgan, bajarayotgan ishlari pedagog uchun emas, balki o'zi uchun ekanligini, ularga kelajakdagi muvaffaqiyatlarini ta'minlovchi omil sifatida qarash kerakligini tushunib yetishi, pedagog esa axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasidan foydalanishni to'g'ri yo'lga qo'yish

o'z faoliyatining natijadorligini ta'minlashga va ish faoliyatini osonlashtirishga xizmat qilishini anglashi darkor"<sup>1</sup>.

Multimedia texnologiyalari o'quvchining hissiy komponentlariga ta'sir ko'rsatish orqali ularning samaradorligini oshiradi va o'qitish jarayonini jonlantiradi. Hozirgi vaqtda multimedia texnologiyalari o'quv jarayonidagi axborotning istiqbolli yo'nalishi hisoblanadi. O'qituvchilarning ta'lim sifatini oshirishda dasturiy, uslubiy va moddiy fondlarni takomillashtirish bilan bir qatorda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning ham oqilona istiqbollari mavjud. Multimedia - bu matn, tovush, grafik, fotosurat va videolarni birlashtirgan va ularni raqamli ravishda taqdim yetadigan zamonaviy texnik va dasturiy vositalardan interaktiv foydalanish. Gipermedia - bu multimedia ob'ektlari o'rtasida aloqalarni o'rnatadigan gipermatnli havolalarga ega kompyuter fayllaridir. Maktablarda kompyuter sinflarini tashkil etishda Internet texnologiyalari jozibador bo'lib bormoqda. Tayyor dasturiy mahsulotlar, elektron darsliklar va kitoblar ta'lim samaradorligini oshiradi.

Hozirgi vaqtda o'qituvchilar ko'pincha darsda o'quvchilarning bilim faolligi darajasining pasayishi, mustaqil ishlashga va umuman o'qishga intilmasligi kabi muammolarga duch kelishadi. Bolalarning o'rganishga e'tiborini yo'qotishining sabablaridan biri, shubhasiz, sinflarning xilma-xilligidir. Kundalik tadqiqotlarning yetishmasligi o'rganishdagi tanaffusga olib keladi va bu barqarorlikning paydo bo'lishi bolalarning e'tiborini yo'q qiladi. Darsning tuzilishiga ijodiy yondashish, uning o'ziga xosligi, rang-barangligi, turli usul va shakllardan foydalanish samaradorlikni ta'minlaydi. O'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishning ko'plab usullari mavjud. Ushbu usullardan biri o'quvchilarning faolligini oshirish va o'quvchilar e'tiborini jalb qilish imkoniyatini yaratadigan video va multimedia texnologiyalaridan foydalanishdir.

Ta'lim muassasalarining ish tajribasiga ekranli taqdimot ko'rinishidagi ma'lumotlarni taqdim etadigan video usulining intensiv kirib borishi uni shaxsiy o'qitish metodikasi sifatida ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Video metoddan o'quv materialini, nazoratni tashkil etish, tasdiqlash, takrorlash uchun foydalanish mumkin, u barcha didaktik funksiyalarni muvaffaqiyatli bajaradi. Usulning afzalligi - xabarni ajoyib qabul qilish. Ushbu usulning ta'lim va tarbiya funksiyalari ajoyib tasvirlarni ta'sirining samaradorligi bilan ajralib turadi. Ko'z oldida xabarning yorqin taqdimoti qabul qilish uchun juda qulaydir.

O'qitish jarayonida video metoddan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- o'qitilayotgan hodisa va jarayonlar haqida talabalarga to'liq va to'g'ri ma'lumot berish ;

---

<sup>1</sup> Низамов Ф.М. Ахборот-коммуникация технологиялари воситасида талабаларининг касбий коммуникатив компетенцияларини ривожлантириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (ПхД) диссертацияси  
Автореферати. –Тошкент, 2023. –Б.12.

- ta'lim jarayonida ko'rgazmali vositalarning rolini oshirish;
- talabning savol va istaklarini qondirish ;
- ota-onalarning fikr-mulohazalarini o'rnatish;
- to'liq va tizimli nazoratni o'rnatish, bajarilgan ishlar bo'yicha xolis hisobotni tashkil etish.

Video usuli tufayli ko'plab didaktik va ta'lim maqsadlari samarali hal etiladi:

1. Yangi bilimlarni taqdim etish;
2. Murakkab mexanizmlar, jarayonlar dinamikasini, grafik modellarning harakat tamoyillarini tushuntirib berish;
3. Ko'p jarayonlarni nazorat qilish;
4. Video hujjatlarni taqdim etish, hayot bilan aloqani mustahkamlash;
5. Yopiq ta'minot ichida sodir bo'ladigan yashirin jarayonlarni nazorat qilish;
6. Kadrlar tayyorlash va ilmiy tadqiqotlar uchun ma'lumotlar bazasini yaratish;
7. Ta'lim jarayonini oqilonlashtirish, unumdorligini oshirish va ilmiy axborotlarni o'zlashtirish orqali pedagogik boshqaruv sifatini oshirish.

Ushbu usulning samaradorligi bevosita video hujjat sifatiga va foydalanilgan texnik vositalarga bog'liq. Video metodi o'quv jarayoniga katta talablar qo'yadi, bu o'zining aniqligi va o'ychanligi bilan ajralib turadi. Video usulini qo'llagan o'qituvchidan o'quvchilarni o'qish masalalari doirasi bilan tanishtirish, ularning kasbga yo'naltirish, xulosalar chiqarish, individual yordam ko'rsatish kabi ilg'or ishbilarmonlik ko'nikmalariga ega bo'lishi talab etiladi. Informatika va AT fanini o'qitishda zamonaviy multimedia texnologiyalaridan foydalanish o'quv dasturlarini, jumladan, slayd-prezentatsiyalarni ajoyib tarzda namoyish etishni ta'minlaydi va o'quv samaradorligini oshirish imkonini beradi. Dars tuzilmasida axborot texnologiyalaridan foydalanish o'qitishda turli uslub va shakllardan foydalanishga sezilarli ta'sir ko'rsatishi shubhasiz. Ba'zi tadqiqotchilar ta'lim texnologiyalarini "maqsadlarga eng samarali erishishni ta'minlaydigan o'quv shakllari, usullari va vositalari tizimi bo'lgan o'quv dasturlarida ko'zda tutilgan ta'lim mazmunini amalga oshirish usuli" deb hisoblashadi<sup>1</sup>. Boshqalar esa ta'lim texnologiyasini turli xil sifatli protseduralarning ajralmas to'plami sifatida tushunishadi (psixologik, o'quvchilarning xatti-harakatlari va faoliyati shakllarini talab qilinadigan o'zgarishlarni (yangilari paydo bo'lgunga qadar) amalga oshirish uchun mo'ljallangan didaktik, umumiy pedagogik va boshqalar<sup>2</sup>.

Ijodiy loyihani tayyorlashda talabalarning yangi, samarali, raqobatbardosh, inson ehtiyojlarini qondira oladigan, xaridorlarning talablarini qondira oladigan mustaqil ishlari oldindan inobatga olinadi. Loyihani amalga oshirish kognitiv va

<sup>1</sup> Компьютерная технология обучения. Словарь – справочник / Под ред. В.И. Гриценко, А.М. Довчяло, А.Я.Савельева. Киев: Наукова думка, 1992. – 652 с.

<sup>2</sup> Окопелов О.П. Теория и практика интенсификации процесса обучения в вузе: автореф. дис.... док.пед.наук / О.П.Окопелов. - М., 1995. – 45 с.

tarbiyaviy funksiyalarni rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash, ishtiyoq, ijodiy fikrlash, ishbilarmonlik ko'nikmalari rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.

## **TABIY FANLARNI O'QITISHDA O'QUVCHILARDA AMALIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH TAJRIBALARI**

*Xasanova Sh.B.,*

*Navoiy viloyati PYMO'MM dotsenti,*

*pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'quvchilar amaliy ko'nikmalarini shakllantirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalari yoritib berilgan

**Kalit so'zlar:** muhandislik, texnologiya, science, loyihalar, modellashtirish Tabiiy fanlarni o'qitishda innovatsion yondashuvlar.

*Dars o'qituvchining umumiy va pedagogik madaniyatining ko'zgusi, uning intellektual boyligi mezoni, dunyoqarashi va bilimdonligi ko'rsatkichidir".*

*V. Suxomlinskiy*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026 yillarda Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" PF-134-sonli farmonida maktab ta'limiga ilg'or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan Milliy o'quv dasturini to'laqonli joriy etish hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritish belgilangan. Milliy dastur asosida 1-6 sinflar uchun "Tabiiy fanlar" darsliklari xorijiy tajribalar asosida yaratildi.

Tabiiy fanlar nima uchun o'qitiladi? Tabiiy fanlar - kuzatuv va tajribalarga, dalillarga asoslanib, tabiat hodisalarini tasvirlash, bashorat qilish, tushunish, qaror qabul qilish va tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantiradi. Tabiiy fanlar o'z ichiga biologiya, geografiya, fizika va astronomiya, kimyo, matematika o'quv fanlarini qamrab oladi hamda ularning o'zaro integrasiyasini ta'minlaydi. Tabiiy fanlar – *amaliyot va tajribalarga* asoslangan. J. Dyu o'qitishni o'quvchilarning qiziqishi va ehtiyojini hisobga olgan holda o'quvchilarning muayyan maqsadga yo'naltirilgan faoliyatini faollashtirish orqali tashkil etishni taklif etgan. Buning uchun o'quvchilarga o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotga qo'llash, ulardan kelgusi hayotda foydalanish yo'llarini ko'rsatish, ya'ni nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'liq holda o'qitish lozimligini o'qtirgan. Bu jarayonda o'quvchilar tanish vaziyatdagi ahamiyatga molik muammolarni avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikmalarini amaliyotga qo'llab, hal etish orqali yangi bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtiradilar. Muammoni hal qilish orqali o'quvchilar bilimi mustahkamlanadi, ijodkorlik qobiliyatini namoyon qiladi, nazariy olgan bilimni real hayotda qo'llashga o'rganadi. Biz yoshlarga shunday ta'lim berishimiz kerakki,

- olimlar kabi tajribalar o'tkazsinlar



- texnologlar kabi modellashtirsinlar
- muhandislar kabi konstruksiyalar yaratsinlar,
- rassomlar kabi ijod qilsinlar
- matematiklar singari analitik fikrlasinlar
- bolalar kabi o'ynasinlar.
- 6-sinfda "Tabiiy fan" darslarini o'qitish tajribalari bilan tanishaylik.
- **Amaliy mashg'ulot. 29-mavzu. Tirik organizm – yaxlit sistema.**

Maqsad: modellashtirish orqali o'simlik va odamni yaxlit organizm sifatida odam va o'simlik organlarining bir-biriga bog'liqligini o'rganish.

• Bizga kerak: Ishni bajarish tartibi ▶ plastili; ▶ karton (A3); ▶ rangli qog'ozlar; ▶ qaychi; ▶ yelim; ▶ oq vatman qog'oz; ▶ rangli qalamlar. 1. Odam organlari modelini yasang. 2. Plastilindan odamning ichki organlarini yasang. 3. Kartonga odam siluetini chizing. 4. Plastilindan yasalgan organlarni kartonga tartib bilan joylashtiring. 5. Rangli qog'ozlardan yorliqchalar qirqib oling va ularga organlar nomini yozing, keyin yelim yordamida kartonga yopishtiring. 6. Model asosida odam organlari funksiyalari va organlarning bir-biri bilan bog'liq holda ishlashi haqida guruhlarga bo'linib muhokama o'tkazing.

Bu mashg'ulotlar davomida o'quvchilar

Odam organizmi yaxlit sistemaligi, barcha organlar faoliyatining bir-biriga bog'liq holda ishlashi va ularning tuzilishi hamda organizmda joylashishi to'g'risida tasavvurga ega bo'ladilar.



Shu bilan birga ularning hamkorlikda ishlash, ijodiy qobiliyati rivojlanadi, irodasi mustahkamlanadi. O'quvchilar amaliy ko'nikmalarini shakllantirish uchun faqat "Tabiiy fan"ga oid darslarni emas, balki biologiya darslarini ham shu tariqa amaliy yo'nalishda tashkil etish orqali ularda Xaqaro baholash dasturlari topshiriqlari asosida ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

#### Foydallanigan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026 yillarda Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" PF-134-sonli farmoni.
2. Tabiiy fanlar 6-sinf uchun darslik / Z. B. Sangirova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 192 b
3. Shaxmurova G., Raxmatov U., Xo'janazarov O'., Tog'ayeva G. "Biologiya fanini o'qitish metodikasi" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent

davlat pedagogika universiteti huzuridagi xalq ta'lim xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi, Toshkent, 2018-yil.

### Internet saytlari:

1. [www.inetlibrary.com](http://www.inetlibrary.com). Internet-kutubxona
2. [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)
3. [www.nature.uz](http://www.nature.uz)

## O'SMIRLAR XULQIDA PAYDO BO'LADIGAN PSIXOLOGIK MUAMMOLAR

*Dusanov E.A.,  
Navoiy viloyati PYMO'MM katta o'qituvchisi (PhD)*

**Annotatsiya:** maqolada o'smirlar muammosi yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari va kompyuter o'yinlari oqibatida o'smirlar xulqida paydo bo'ladigan salbiy sifatlar va ularni oldini olish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Agressiv xulq, axborot-psixologik, xavfsizlik, virtual, kompyuter o'yinlari, emotsional, tafakkur, tashxis, ong.

**Kirish.** Bizning dunyomizda axborot texnologiyalari inson faoliyatining barcha sohalariga joriy qilingan. Bugungi kunda ko'p odamlar internetsiz xayotini tasavvur qila olmaydi. Bir tomondan, internet har xil turdagi ma'lumotlarga deyarli vaqt sarflamasdan kirishni ta'minlaydi. Boshqa tomondan, global tarmoqlar ko'pincha shaxs va jamiyatga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'pchilik kompyuterda o'tirishga juda ko'p vaqt sarflaydi. Internetga qaramlik jamiyatda jiddiy muammoga aylandi, chunki u odamlarning ijtimoiy munosabatlarga va mehnatga e'tibor bermasligiga olib keladi, bizning hayotimizga zarar etkazadi. Ayniqsa, internet makonida himoyalangan bolalar va o'smirlar. Global tarmoqda doimiy bo'lish, nazoratning yo'qligi ot-onalar tomonidan, axborot sohasida xabardorlik etishmasligi bolalar madaniyati ko'pincha o'smirlarda internetga kompyuter o'yinlari qaramlikni keltirib chiqarmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Olimlarning fikricha, shaxsda aggressiv xulq-atvor shakllanishiga bevosita ijtimoiy muhitning tasiri kuchli ekan. Agressivlik, tajovuzkorlik salbiy xulq ko'rinishlaridan biri bo'lib, sub'ektning-sub'ektga bo'lgan munosabati tushuniladi.

A. Bandura, R. Uolterslarning ta'kidlashlaricha, aggressiya motivlangan harakatdir, unda me'yor va qoidalar buziladi, u og'riq va azob chekishga olib keladi. Bu yerda qasddan qilingan va instrumental aggressiya farqlanadi. Instrumental agressiyada inson o'z oldiga aggressiv tarzda harakat qilishni maqsad qilib qo'ymaydi, lekin "shunday bo'lib qoladi" yoki "boshqa iloji bo'lmaydi". Bunday harakatda motiv bor, lekin to'la tushunilmagan. Qasddan qilingan aggressiv harakatda esa zarar keltirish motivlangan holda amalga oshiriladi [3.74.].

G'arb psixologlarining ishlarida o'smirlik davri agressiyasiga

bag'ishlangan tadqiqotlar tobora kengayib, ko'payib bormoqda. Shu bilan bir qatorda o'smirlarda agressiv xulq shakllanishiga sabab bo'luvchi omillardan biri sifatida kompyuter o'yinlari deb e'tirof etilmoqda. Adabiyotlar tahlilining ko'rsatishicha, bu muammo bo'yicha olingan tadqiqot natijalariga qarab ikki xil xulosa kelib chiqishi mumkin: ba'zi tadqiqotchilar kompyuter o'yinlari o'smirda agressiv xulq rivojlanishiga sabab bo'ladi degan fikrni olg'a sursalar, ba'zilari bu fikrga mutlaqo teskari bo'lgan fikrni aytadilar, ya'ni ularning fikricha, kompyuter o'yinlari bilan o'smirning agressivligi o'rtasida hech qanday bog'liqlik yo'q, balki kompyuter o'yinlari agressiyaning pasayishiga olib kelar ekan.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Mazkur tadqiqot ishimizda biz virtual kompyuter o'yinlari bilan o'smirlar agressiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish maqsadida A. Bass - A. Darkining agressiyani o'rganishga bag'ishlangan metodikasidan foydalandik, chunki bu metodika psixologik tadqiqotlarda, tashxis amaliyotida eng ko'p ishlatiladigan klassik metodikalar sirasiga kiradi va o'smirlar agressiyasi bo'yicha to'la ma'lumot bera oladi.

A. Bass-A. Darki metodikasi bo'yicha olingan natijalar tahlili o'smirlarda agressivlikka moyil ekanliklarini va bu o'z navbatida bunday o'smirlarda tajovuzkor xulq rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvni qiyinlashishi mumkinligini ko'rsatdi.

Psixolog Deyvid Grossman O'zining "qotillik haqida" kitobida yozishicha, elektron o'yinlar jangovor tayyorgarlikka o'xshaydi, bunda askarlar qotilliklar oldidan tayyorlanadi. Misol uchun: ko'pgina piyoda askarlarda mashq jarayonida odam figurasi singari nishonlarga qarab o'q uzganlarida, ularda qotillikka qarshi g'azablari yo'qolib ketadi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Mixon universiteti gumanitar va tabiiy fanlar kolleji professori Akio Mori 6 yoshdan 29 yoshgacha bo'lgan 240 odamning miyasining faolligi o'rtasida tajriba olib borgan. Tajribadagilarni Mori 3 ta gruppaga ajratadi. Birinchi guruhga kompyuter umuman o'ynamagan yoki onda-sonda o'ynagan kishilarni, ikkinchi guruhga o'rtacha o'ynovchilarni, uchinchi guruhga ashaddiy o'ynovchilarni kiritadi. Professor vertual o'yinlarning miyaga ta'siri va buning natijasida odamning bu ta'sirga emotsional va ijodiy javobini kuzatadi. Mori alfa va beta ritmlarining muvofiqligini o'rganadi (1-chisi harakatsizlikni, 2-chisi miyani old peshona qismining aktiv ishini ko'rsatadi). Natijada u shuni isbotladiki, kompyuterga qiziqmaydigan odamlarda beta-ritmlar alfa-ritmlarning ustidan hukmron bo'ladilar. Normal kam o'ynasalar ham hech narsa o'zgarmaydi. Ikkinchi guruhda o'yin vaqtida beta ritm kuchsizlanadi. Uchinchi guruh video o'ynovchilarda esa kompyuterdan uzoqda bo'lsalar ham, ularda alfa-ritmlarning ustuvorligi hukmron bo'ladi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).**

Yoshlarni tarbiyalash uchun quyidagilarga alohida e'tibor qaratishimiz lozim:

- yoshlar ongiga sharm-u hayo, odob-andisha, ota-onalarga hurmat, kattalarga izzat-ehtiro, kichiklarga shafqat kabi olijanob fazilatlarini shakllantirish;

–o'quvchilar ongida yurtga muhabbat, vatanga sadoqat, unga daxldorlik tuyg'ularini shakllantirish;

–yuksak g'oyalar asosida yangi fikriy kashfiyotlar yaratishga safarbar qilish;

–bilimsizlik va madaniyatsizlik illatlariga murosasiz bo'lish zarurligini anglatish.

–yoshlarni ma'naviy axloqiy va kasb hunarga muhabbat ruhida tarbiyalash;

–yoshlar ongida turli zararli oqimlarga nisbatan "g'oyaviy immunitet"ni shakllantirish;

–yoshlarga ilm va tafakkur odamlar qalbiga nur, ongiga ziyo, xonadoniga fayz-baraka keltiradigan buyuk mo'jiza ekanligini anglatish;

–mustaqillikka xavf tug'diruvchi tashqi omillar: diniy ekstremizm, aqidaparastlik, vahhobiylik, oqimlarining g'arazli maqsadlarini yoshlarga anglatish va bunday tahdidlardan ogoh bo'lishga undash;

Shuningdek, yoshlarda insoniy munosabatlar masalasida munozaraga kirisha olish malakasini shakllantirish. Uzluksiz ta'lim tizimida bu fazilatlarini shakllantirish uzviylik va uzluksizlik tamoyili asosida amalga oshirilishi amaliy natija beradi.

#### **Foydalanilgan adabyotlar**

1. Белинская Е.П. К обоснованию социокультурного подхода в исследованиях виртуальной реальности. [http://www.Ish.Ru./info/seminar-doc\(1\).doc](http://www.Ish.Ru./info/seminar-doc(1).doc)
2. Библиотека практической психологии «Психология зависимости» Минск. 2004г
3. Бэрн Р., Д.Ричардсон «Агрессия» С.Петербург 2000г.
4. В.И.Козлев, Д.Фербер "Физиология развития ребенка". М.1983г.
5. Д.Б.Эльконин "Психология" М.1978г.
6. Д.Н.Исаев, В.Е.Коган "Психологические поля у детей". Л.1986г.
7. Е.И.Рогов "Настольная книга практического психолога в образовании". М.1996г.

### **TARIX VA HUQUQSHUNOSLIK FANLARINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANI QO'LLASH VA NOAN'ANAVIY DARSLARNI TASHKIL ETISH**

*Shaymatov R.,  
IIV Sirdaryo akademik litseyi o'qituvchisi*

Professor N. Sayidahmedov ta'kidlaganidek "Aqliy hujum" texnologiyasining asoschisi bizning ajdodlarimiz, o'z aql mash'ali bilan dunyoni yoritgan qomusiy olimlar Ahmad al-Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy va boshqalardir.

Bahslar - O'quvchilarni ikki guruhga bo'lib, biror mavzu bo'yicha o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladi.

**Muzokara** - ma'lum bir muammo bo'yicha muhokama, fikr almashinuv ko'rinishida o'tadi.

**Munozara** - bu usul o'quvchilarni bir mavzu ustida fikr yuritishga, mavzuning yaxshi ochib berilmagan tomonlarini yoritishga, bilimlarni mustahkamlashga imkon beruvchi usuldir. Bu usul avvalo o'qituvchi bilan o'quvchilar orasidagi munosabatning yaxshi yo'lga qo'yilishini ta'minlaydi, o'quvchilarning mavzu bilan bog'liq tushunchalarini ayta olishlari, mustaqil fikr yuritishlariga yordam beradi.

Sinfni munozaraga tayyorlayotgan paytda munozara qilinishi kerak bo'lgan mavzu va savollar o'quvchilarga oldindan beriladi. Munozara shaklidan biri tanlab olinadi.

Munozarada o'quvchilarning to'la ishtirok etishiga erishish kerak. Munozara davomida o'quvchilarga o'z tushuncha va fikrlarini erkin ifodalashlariga imkon berish kerak. Munozara darsi tartibli va samarali o'tishi uchun o'qituvchi tomonidan boshqarib turilishi kerak.

Taqdimot yoki muzyoralar - bu mashg'ulotni boshlash uchun mo'ljallangan qisqa mashqdir. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi "to'siq"ni yo'qotishga qaratilgan usul. Bu metod asosida guruhdagi o'quvchilarni o'zaro ishonch, hurmat, o'zaro yaqinlikni his etishga o'rgatish yotadi.

**Aqliy hujum** - bu metod asosida cheklangan vaqt ichida aqlning tezkor harakati orqali o'ziga xos muammo, vazifa xususida barcha ishtirokchilarning imkon qadar ko'proq g'oyalarini yaratishi belgilangan, ya'ni topshiriq barchaga yakka holda bajarish uchun berilgan bo'lib, har bir o'quvchining fikri yozilishi so'raladi va fikrlar umumlashtirilib, birortasi ustida to'xtaladi.

**Davra suhbat** - Bunda ma'ruzachi o'qituvchi bosh tashkilotchi bo'lib qoladi. Bu usul o'quvchilarga tanish yoki yaqin mavzularda o'tkaziladi. O'quvchilarga oldindan davra suhbatining mavzulari, rejalari, savollari berib qo'yiladi.

O'quvchilar uchun mustaqil tayyorgarlik ko'rishga, ularni bir-birlari bilan avvaldan o'zaro fikr almashishga, kutubxona, internetdan ayrim ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, kichik test tuzish imkoniyati yaratiladi. Bu usulning afzalligi shundaki, har bir o'quvchi alohida tayyorgarlik ko'radi. Har ikki tomon davrani o'tkazishga tayyorgarlik bilan keladi.

Davra suhbatining yana bir afzalligi shundaki, har bir o'quvchi o'z bilimini, og'zaki nutqini, shaxsiy fikrini erkin namoyish etishiga muhit yaratiladi. O'quvchi va o'qituvchining ma'suliyati oshadi.

Pedagogik texnologiya asosining mazmun va mohiyati shundah iboratki, dars jarayonida o'quvchining roli, uning faolligi ortadi, o'qituvchi esa kuzatuvchi, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi vazifasini bajaradi.

Darsda turli usullarni qo'llash, o'quvchining mustaqil bilim olishi imkoniyatini kengaytiradi. Dars samaradorligini oshiradi.

Buning uchun darsda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

1. Dars mavzusi o'quvchilar yoshi, bilim saviyasi, hayotiy tajribasiga mos kelishi kerak.

2. Dars mazmuni, maqsadi, shakl va usullari o'zaro mos bo'lishi zarur.

3. Darsning ta'limiy, tarbiyaviy, o'quvchi shaxsini rivojlantirish kabi didaktik maqsadlarini yaxlitlikda amalga oshirish lozim.

4. O'qituvchi o'z pedagogik mahorati ish tajribasidan kelib chiqib, darsning mavzusi, mazmuni, maqsadi, shakli hamda usulini tanlashi shart.

Pedagogik texnologiya asosida dars berishda o'quvchilarni joylashtirish katta ahamiyatga ega. Agar ma'ruza darsi bo'lsa o'quvchilar o'z joylarida o'tiradilar. Agar bahs-munozara darslari bo'lsa, o'quvchilarni davra-doira usulida o'tirishlarini taklif etaman. Agar o'quvchilar guruhlarga bo'linsa, unda tanaffus paytida navbatchilar partalarni joylashtirib chiqishadi.

Guruhlardagi ishni qanday tashkil etish kerak:

• Dars boshlanishdan oldin materiallarni tayyorlab, partalarni mo'ljallangan joylarga qo'yish;

• Materiallar har bir guruhga tarqatilib, topshiriq belgilab beriladi yoki topshiriqni sinf taxtasiga yozsa ham bo'ladi;

• Topshiriq bilan tanishish uchun guruhlarga 5-10 daqiqa vaqt ajratiladi;

• Berilgan topshiriqlarni bajarish uchun vaqt belgilanadi.

Belgilangan vaqt tugagandan so'ng har bir guruh topshiriqni bayon qiladi. Agar topshiriq to'liq bajarilmasa, boshqa guruh o'quvchilari to'ldirishlari mumkin.

Baho qo'yish usulini o'qituvchi o'zi belgilaydi. Albatta, bu masalada adolatli bo'lish, o'quvchining qobiliyati, mehnati va izlanishiga to'g'ri baho berish shart. Eng yuqori ball to'plagan o'quvchi rag'batlantiriladi.

Darsda yana o'quvchilar uchun alohida oltin qoida, tamoyillar belgilab qo'yilgan:

• Darsda har bir o'quvchining faol ishtirokini ta'minlash;

• Yuksak intizom namunasini ko'rsatish, ya'ni dars qoldirmaslik, darsga kechikmaslik, o'zaro hurmat;

• Sinfning tozaligini saqlash;

• O'zaro bir-biriga yordam qilish;

• Bir-birlarining fikrlariga qarshi chiqmaslik;

• Guruhdagi o'quvchilar javoblarini navbat bilan tinglash va hokazo.

Mana shunday pedagogik texnologiyaning turli usullarini qo'llab, qiziqarli darslarni tashkil etish mumkin.

Xullas, dars uslublarining almashtirib turilishi bilan o'quvchilarning zerikib qolishi, natijada darsga bo'lgan qiziqishi susayishining oldi olinadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Inoyatov U. I., Muslimov N. A., va boshq. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. 2012 y. Toshkent.

2. Avliyakov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar. T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008.

3. Turdiyev N va boshqalar. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. T., 2015, 160 b.
4. Ishmuhammedov R, Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. T., 2016.

## TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI PEDAGOGIKANING O'RNI VA AHAMIYATI

*Baxronov D. D.,  
Xujamov M.E.,  
USAT katta o'qituvchilari*

**Annotatsiya:** Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli pedagogikadan foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lim resurslari, ta'lim tizimida yangi sifat o'zgarishlari, fanning o'quv rejasiga raqamli texnologiyalarni qo'llash, dasturiy-texnik vositalarni takomillashtirish haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, strategiya, taraqqiyot, raqamli pedagogika, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, raqamlashtirish, multimedia, videokonferensiya, taqdimot.

Hozirgi davrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim tizimiga kirib kelishi kuchayib bormoqda. Bunday taraqqiyot yo'lini tanlagan davlatlar muvaffaqiyatga erishib borayotir. Aksincha, eski usulda ishlayotgan davlatlar esa taraqqiyotdan ortda qolayotganini ta'kidlash zarur.

Respublika ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan unumli foydalanish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrda "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida axborot texnologiyalari sohasida ta'lim berish va malaka oshirishning ustivor yo'nalishlari belgilab berildi.[1]

Shu jumladan, ta'lim pog'onasining boshlang'ich bosqichida o'quvchilarga raqamli texnologiyalarni taqdim etish orqali raqamli ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish, tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, kelajakda zarur bo'ladigan keng ko'lamlil raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarga bilim va ko'nikmalar berish, yagona masofaviy ta'lim platformasini kelajakda ta'limning barcha yo'nalishlarida tatbiq etish maqsadida yaratish va amalga oshirish, texnologik kasblar va innovatsion faoliyat sohasida o'qishni tashkil etishga qaratilgan yuqori samarali xalqaro amaliyotni ta'lim tizimiga joriy etish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilayotganligini qayd etish lizim..

Oliy ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta'limning ajralmas qismi hisoblanadi, chunki ko'plab oliy o'quv yurtlarining o'quv rejasida talabalarda zamonaviy apparat va texnik vositalardan, shuningdek, dasturiy ta'minotdan hamda kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda professional ma'lumotlarni saqlash, taqdim etish, qayta

ishlash va uni uzatish bo'yicha malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga imkon beradigan axborot texnologiyalari bilan bog'liq fanlar mavjud.

Qayd etish lizimki AKT o'qitishning muhim vositalariga aylanib bormoqda va shuning uchun zamonaviy o'quv jarayonini elektron pochta, multimedia ilovalarini yaratish uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minotsiz (taqdimotlar, video va audio materiallar va boshqalar) tasavvur etib etib bo'lmaydi.

Oliy o'quv yurtlarida - fanlar bo'yicha ta'lim resurslari va topshiriqlarni joylashtirish, talabalar bilimni nazorat qilish, o'qituvchi bilan fikr almashishni tashkil etishga yordam beradigan tegishli vositalarni o'zida mujassamlashtirgan ta'limni boshqarish LMS (Learning Management System) tizimlari joriy qilinmoqda.

Ta'limni raqamlashtirish - ta'lim jarayoniga va ta'lim jarayoniga joriy etilayotgan zamonaviy texnik vositalarning yagona transformatsiyasidir. Raqamli pedagogika ta'limning nazariy va amaliy muammolarini, ta'lim jarayoning asosiy tarkibiy qismlarini, shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim xizmatlarini samarali taqdim etishni ta'minlaydigan shart-sharoitlarni o'rganadi.[2]

Raqamli ta'lim resurslarining turli turlari mavjud, masalan, onlayn kurslar, onlayn konferensiyalar web-saytlar, forumlar, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn maqolalar kabi. Bu resurslarning har biri o'quvchilarga o'z xususiyatlarini taqdim etadi. Misol uchun onlayn kurslar o'quvchilar uchun turli dasturlarni o'rganishga yordam beradi, web-saytlar esa o'quvchilarni qisqa vaqt ichida bilim olishga yordam beradi. Raqamli ta'lim resurslarining bu turi, masalan kichik biznesni boshlash uchun mo'ljallangan. Bu resurslar, o'quvchilarga biznes tadbirlari, korxonalar va startaplar haqida ma'lumotlarni taqdim etadi.

Ular, o'quvchilarni o'z bizneslarini boshlash va rivojlantirishga yordam berishga xizmat qiladi. Raqamli ta'lim tizimini joriy etmasdan ma'lum yutuqlarga erishib bo'lmaydi. Har qadamda yangilanishlar, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishlar bo'layotgan bizning hozirgi zamonimizda axborot texnologiyalari va raqamli pedagogikaning o'rni beqiyosdir.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida aytganlaridek: "Yoshlarimizga munosib ta'lim berish, ularning iln-fanga bo'lgan intilishlarini ro'yobga chiqarishimiz kerak. Shu maqsadda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishimiz, o'rta va oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini, ilmiy va o'quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilashimiz kerak" [3].

Darhaqiqat, agar ta'lim sifatini ko'tarsak, yaqin kelajakda bu o'z mevasini beradi. Raqamli texnologiyalarning asl mazmuni nima? "Texnologiya" so'zi yunoncha "techne"-san'at, mahorat va "logos"- ta'limot so'zlaridan olingan bo'lib, san'at haqidagi fan, ta'limot degan ma'noni bildiradi.

Kompyuter xotirasi bu, maxsus elektron yacheykalar to'plami bo'lib, ularning har biri nol va birlar kombinatsiyasidan iborat bir axborot saqlab qoladi. [4] Aynan shu sababli ham bu turdagi texnologiyalar raqamli texnologiyalar deb ataladi. Kompyuterning asosini tashkil etishi bilan bir qatorda raqamli texnologiyalar zamonaviy hayot asosi bo'lgan Internetning



o'zagi hisoblanadi. Internet-bu yagona standart asosida faoliyat ko'rsatuvchi jahon global kompyuter tarmog'idir. Uning nomi "tarmoqlararo" degan ma'noni bildiradi.[5]

Dars jarayonida aynan internetni kiritsak qanday bo'ladi? WiFi orqali har qanday kerakli ma'lumotni tezda qidirib topish bilan birga, guruhda turli munozaralar olib borish imkoni bor. Bundan tashqari Internetdagi "Imo" programmasi orqali dunyoning istalgan yerida turgan xorij professori, talabasi qo'yingki istalgan insoni bilan fikr almashiladi.

Darhaqiqat, axborot texnologiyalarining faol joriy etilishi tufayli ta'lim sohasida yangi holat yuzaga keldi. Bunday vaziyatda ko'p qirrali pedagogik merosning saqlanishi kuzatiladi, ammo u amaliy pedagogik faoliyat modeli bilan bog'liq quyidagi yangi imkoniyatlar bilan to'ldiriladi. [6]

1. O'quv materiallarini oliy ta'limni qo'llab-quvvatlash tizimlarida yoki o'qituvchining shaxsiy veb-saytida joylashtirish;

2. Materiallarni elektron pochta orqali tarqatish;

3. Testlar yaratish bo'yicha maxsus dasturiy ta'minot asosida nazorat faoliyatini amalga oshirish;

4. Xorijiy va milliy ta'lim platformalaridan taniqli universitetlarining ommaviy ochiq onlayn kurslarini kuzatish va ulardan amaliyotda foydalanish;

5. O'quv mashg'ulotlari va qo'shimcha maslahatlar sifatida talabalar bilan onlayn ma'ruzalar yoki onlayn seminarlar o'tkazish uchun veb-seminarlar va videokonferentsiyalardan foydalanish, taniqli professor-o'qituvchilarning nutqlaridan takroriy foydalanish uchun yozib olish, talabalar bilan masofadan turib ishlash, xorijda stajirovka o'tash;

6. Maxsus tayyorlangan (pedagogik jihatdan moslashtirilgan) hamda tarmoqdagi audio va video materiallardan foydalanish va hokazolar.

Zamonaviy ta'lim sharoitida pedagogika oldida turgan vazifalar hajmining ortib borishi pedagogik tadqiqotchilardan ham, pedagogik amaliyotchilardan ham jiddiy harakatlarni talab qiladi. Ta'limni axborotlashtirishga mutanosib va asosli yondashuvlarni izlash zarur, bunda axborotlashtirishning o'zini yakuniy maqsad deb hisoblab bo'lmaydi, balki talabalarni o'qitish samaradorligini oshirish bilan bog'liq muammolarni hal qilishga yo'naltirish kerak.

Qisqacha xulosa qilib aytganda, jadal rivojlanayotgan axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish o'qituvchiga aniq ta'limiy natijalarga erishish uchun oqilona va samarali o'qitish yo'llarini ta'minlash imkonini beradi.

O'qituvchi bu borada to'g'ri tanlovni bajara olishi uchun esa oliy ta'lim zamonaviy ta'lim muhitida axborot texnologiyalari qamrovining oshishi bilan yuzaga kelgan o'zgarishlardan foydalanish bo'yicha o'z tavsiyalarini ham ishlab chiqishi kerak bo'ladi. Buning uchun esa pedagog-tadqiqotchilar tomonidan doimiy ravishda izlanishlarni olib borishlari maqsadga muvofiqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlarini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-6079-son Farmoni
2. Бережнова Е.В. Условия организации скуре конференций в профессиональной подготовке переводчиков /Е.Б.Бережноваб Д.А. Петрова// Образования и общество. – 2017. – Т.4. - № 105. – 85-88.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018-yil 28-dekabr.
4. Alimov.R.X. Axborot texnologiyasi va tizimlar, T.: 2011 36-bet
5. Miraximov. A.R. S.I.Raxmonqulova. Internet va undan foydalanish asoslari, T.: 2001.- 38 bet

## TARIX FANINI O'QITISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA VOSITALARIDAN FOYDALANISH

*Yuldashev U.,*

*IV Sirdaryo akademik litseyi o'qituvchisi*

Tarix darslarida ta'limning axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanish darsning samaradorligini oshiradi. Axborot kommunikatsiya vositalari o'qitish va o'rganish sifatini ko'tarishga o'quvchilarning o'quv materialini qiziqib o'rganishga va puxta o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

O'qitishning axborot kommunikatsiya vositalari ekran qo'llanmalar ya'ni animatsiyalar, internet ma'lumot, videofilm, kinofilm, radio-teleeshittirishlar kiradi. Ammo axborot kommunikatsiya vositalari o'qitish jarayonida o'qituvchining o'rnini bosa olmaydi. Shuning uchun o'qituvchi moderatorlik vazifasini a'lo darajada bajarishi kerak bo'ladi. Amaliyotda qo'yidagicha situatsiya yuz berishi mumkin, ya'ni bitta mavzudagi dars bo'yicha darslikda illyustratsiyalar, devoriy (tablitsa) jadvallar, doskaga sxematik suratlar ishlanishi mumkin, yana film va boshqa xillari ham bo'lishi mumkin. Masalan: uyg'onish davri madaniyati haqidagi darsda darslikdagi (rangli) illyustratsiyalar, davriy tablitsalar, teleko'rsatuvlardan ham foydalanish mumkin.

O'quvchilar bilan ishlashni qanday tashkil qilish mumkin? Bu savollarga o'qituvchi o'qitish sharoitini va sinfning xususiyatlarini hisobga olib javob beradi. Dastavval bu qo'llanmalarining mazmunligi, qulayligiga e'tibor berish kerak. Masalan, "Yevropada uyg'onish davri madaniyati" mavzusi bo'yicha darsda ko'proq internet saytlaridan olingan rasm, videorolik yoki diafilmlardan parchalar darsning yaxshi qabul qilish imkoniyatini bera oladi. O'quv filmlarida tasviriy materiallar ko'p berilgan bo'ladi, va ularni bu mavzu bilan birinchi bor tanishtirishda qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shuning uchun videoprektor orqali mavzuga oid surat, xarita, jadvallardan keng foydalaniladi. Mavzuni uyda mustahkamlash va takrorlash uchun darslik illyustratsiyalari beriladi. Dars jarayonida qo'llanilgan filmlar esa kelgusi darslarda parchalarda bo'lsa ham qo'llanilishi mumkin. Unda o'quvchilar ulardan yangi bo'lgan tomonlarini anglay olishlari kerak.

Axborot kommunikatsiya vositalari ko'rsatmaliligining o'qituvchi uchun eng qulaylisi bu-videofilmlardir. Tarixiy voqealarni qamrab olish, syujetlarning har xilligi bo'yicha, tasviriy materiallarga boyligi bilan boshqalaridan ustun turadi.

Axborot kommunikatsiya vositalari orqali ko'rsatish izchilligini o'qituvchining o'zi aniqlab beradi. Kadrlarga tayanib o'qituvchi hikoya qilish, tushuntirish va suhbat o'tkazish mumkin. Bu o'quvchilarning materialni nafaqat ko'rishlarini balki matnlardan kerakli joylarini daftarlariga yozib olishlariga ham imkon beradi. O'qituvchi ham o'quvchilar bilan kontakti yo'qotmaydi.

Teleeshitirishlar, ma'naviy-ma'rifiy filmlar qisqa vaqt ichida keng ma'lumot bera oladi. Ular orqali tarixiy voqealar qatnashchilarining (aktyorlar ijasida) jonli ovozi eshita oladi. Teleko'rsatuvlar filmlarga nisbatan (aktual) dolzarblikga ega. Ular orqali ayniqsa o'quvchilar yaqin vaqtlardagi voqealar bilan tanishib boradi.

Axborot kommunikatsiya vositalari orqali o'quv materialini o'quvchilarga ko'rsatishdan oldin, o'qituvchining o'zi uni sinchiklab ko'rib chiqishi va o'rganishi lozim. Tarix o'qitish tajribasida o'quv filmlaridan foydalanishning bir qancha usullari bor:

a) O'qituvchi o'z bayonini o'quv filmining eng muhim va yorqin sahifalarini ko'rsatish bilan bog'lab olib boradi;

b) 10-15 minutda qisqa o'quv filmlariga bag'ishlab dars o'tkaziladi;

v) Axborot kommunikatsiya vositalari orqali darslari tashkil etiladi.

Axborot kommunikatsiya vositalari orqali o'quv darslarini qabul qilish uchun maxsus tarix xonasi bo'lishi kerak. O'qituvchi darsda internet ma'lumoti, videorolik kirgazganda, ularning bilim berish jarayonidagi funksiyasini aniq bilish kerak bo'ladi.

Murakkab va ma'suliyatli, axborot kommunikatsiya vositalari orqali mavzu bo'yicha bilim berilganda buni asosiy bilim manbai sifatida qabul qilishidir. Bunga o'qituvchi ham, o'quvchilar ham e'tiborsiz qaramasligi kerak va u katta tayyorgarlikni talab qiladi. Dars oldidan o'quvchilarni ekrandan qanday ma'lumot olishlari kerakligini aytib, tushuntirilib, tayyorlanish ham yaxshi usul. Unda film ko'rish paytida bajarishlari lozim bulgan topshiriqlar berish mumkin. Bunga film bo'yicha savollar, reja tuzish (ular doskaga yozib qo'yiladi) kiradi. O'quvchilar javob izlashi kerak. Ko'rish paytida bunday topshiriqlar ko'pincha yuqori sinf o'quvchilariga beriladi.

Axborot kommunikatsiya vositalari orqali ko'rish paytida o'qituvchi muhim kadrlar paytida o'quvchilarning e'tiborini jalb qilib, tanish bo'lmagan terminlarga, geografik atamalarga aniqlik beradi, ismlar, sanalar doskaga yozib qo'yiladi. Shuningdek, axborot kommunikatsiya vositalari tarix fanini o'qitishda ko'rsatmalilikning samaradorligini yanada oshiradi. Bundan tashqari, dars so'nggida axborot kommunikatsiya vositalari imkoniyatlaridan yana foydalangan holda mavzuni sust o'zlashtirgan o'quvchilar bilan mavjud bo'shliqlar ustida ham ishlaydi.

Xulosa qilinadigan bo'lsa, interfaol usullar - tarix ta'limi va tarbiya sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o'qituvchi (pedagog) va ta'lim oluvchi (o'quvchi)lar, o'quvchi va o'quvchilar guruhi, shuningdek, jamoa o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish, g'oyaviy va ruhiy birlikka erishish, yagona maqsad sari intilish, har bir ta'lim oluvchi (o'quvchi)ning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, shaxs sifatida namoyon bo'lishi uchun zarur shart-sharoit hamda muhitni yaratishda katta imkoniyatlarga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sa'diev A. Maktabda tarix o'qitish metodikasi. T., 2011.
2. Shaxmaev N.M. Didakticheskie probleme primeneniya texnicheskix sredstv obucheniya v sredney shkole. M., 2012.
3. Babanskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktabida o'qitish metodlari. T., 2000.
4. Toshpulatov T, G'afforov Ya. Tarix o'qitish metodikasi. T., 2000.

### **UMUMIY O'RTA TA'LIMDA INNOVATSION USUL VA TEKNOLOGIYALARNI TA'LIM JARAYONIGA QO'LLANISH**

*Djurayeva P. S.,  
Navoiy PYMO'MM dotsenti v/b*

**Annotatsiya.** Globallashuv davri talablari asosida ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi shaxsini har tomonlama takomillashtirish, ta'limdagi innovatsion jarayonning natijasi, innotexnik darajasiga ko'tarilishi uchun o'qituvchi innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirib olishi kerak.

**Kalit so'zlar:** innovatsion jarayon, global tafakkur, bolani tarbiyalash, mustaqillik, izlanuvchanlik, ijodkorlik, interfaol ta'lim usuli.

**Абстрактный.** Исходя из требований периода глобализации, учителю необходимо овладеть инновационными технологиями, чтобы всесторонне совершенствовать личность учащегося в образовательном процессе, в результате инновационного процесса в образовании подняться на уровень технотехники.

**Ключевые слова:** инновационный процесс, глобальное мышление, воспитание детей, самостоятельность, любознательность, креативность, интерактивный метод обучения.

**Abstract.** Based on the requirements of the globalization period, the teacher should master innovative technologies in order to comprehensively improve the personality of the student in the educational process, the result of the innovative process in education, to rise to the level of technotechnics.

**Key words:** innovative process, global thinking, raising children, independence, inquisitiveness, creativity, interactive teaching method.

**Kirish.** Bugungi globallashuv davri talablari asosida ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi shaxsini har tomonlama takomillashtirish, bilish faoliyatini rivojlantirish, shuningdek, global tafakkurini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Har bir davlatning maqsadi tarix sahnasida o'z o'rnini egallash va

sivilizatsiyalashgan davlatlar qatoriga qo'shilish bo'lsa, u holda iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning asosiy yutuqlari yer osti boyliklarining ko'pligi yoki hajmi emas yerdagi boylikdan foydalanish qobiliyatiga bog'liqdir. Bu ehtiyojni qondirish uchun bugungi yosh avlodga sifatli, ongli ta'lim-tarbiya berishga e'tibor qaratish - bugungi kunning katta muammosidir.

**Izlanish materiallari va metodologiyasi.** Ulug' Abayning "Insonni zamon ulg'aytiradi, kim yomon bo'lsa, barcha zamondoshlari aybdor" degan mashhur so'zlarini eslasak, endi yurtimiz yuksalib, ma'naviy qadriyatlarimiz va milliy taraqqiyotimiz jahon sivilizatsiyasi tomon rivojlana boshladi. Zamonaviy maktabda haqiqiy pedagogik faoliyatda qo'llanilishi mumkin bo'lgan juda katta miqdordagi pedagogik tajriba to'plangan, ammo ularning hammasi ham bir xilda qo'llanilmaydi, chunki ko'plab o'qituvchilar va rahbarlar ushbu tajribani o'rganish, foydalanishga muhtoj emaslar, shuningdek, ular bu tajribalarni tahlil qilish uchun ko'nikma va malakaga ega emas. O'qituvchilar o'zlarining hamkasblari kabi pedagogik tajribasini tahlil qilish zarurligiga e'tibor bermaydilar. Ushbu yo'nalishda o'qituvchilar innovatsion ta'lim taraqqiyotiga murojaat qilishlari kutilmoqda. Umuman olganda, pedagogikaning ikkita muhim muammosi innovatsion ta'lim taraqqiyotining asosi hisoblanadi:

-pedagogik tajribani o'rgatish muammosi;

-psixologiya-pedagogika fanining yutuqlarini amaliyotga joriy etish muammosi.

Ta'limdagi innovatsion jarayonning natijasi - nazariy va amaliy jihatdan nazariy va amaliyot chorrahasida paydo bo'ladigan yangiliklardan foydalanish. Yangi texnologiyaning asosiy maqsadlaridan biri - bolani tarbiyalash, uning erkinligini, faolligini shakllantirish, mustaqil qaror qabul qilishdir. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish - hayot talabidir. Barchamizga ma'lumki, zamonaviy fan o'qituvchilarining asosiy vazifasi - ta'limni natijaga yo'naltirish, ya'ni, innovatsion yangi texnologiyani o'zlashtirishdan iborat. Jamiyatning yangi ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish - o'qituvchidan tinimsiz izlanuvchanlik va ijodkorlikni talab etadi. Shu munosabat bilan har bir o'quvchining qobiliyatiga qarab ta'lim beradigan, uni mustaqillikka, izlanuvchanlikka, ijodkorlikka tarbiyalaydigan zamonaviy innovatsion texnologiyani o'zlashtirishga intilish zarur. Chunki, ta'lim jarayonini davlat ta'lim standarti asosida tashkil etish o'quvchilar bilimini monitoring qilishda yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsion nazorat-o'lchov vositalarini joriy etishni taqozo etadi. O'qitishning yangi pedagogik texnologiyasi o'qitishni insonparvarlashtirish, o'z-o'zini rivojlantiradigan va tarbiyalay oladigan, zamonaviy tendentsiyalardan ham foydalangan holda malakali, har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgan.

O'quvchilarning kasbiy ta'lim sifatini oshirish bilan birga, ularning o'z imkoniyatlarini ko'rish, o'z-o'zini rivojlantirish, o'ziga tanqidiy nazar bilan qarash imkonini beradi. Kognitiv faollikni oshiradi va ijodkorlikni rivojlantiradi. O'qituvchining shaxsni o'rganishi, uni har tomonlama bilishi, ta'lim maqsadiga erishishi uchun samarali va aniq yo'l ochadi. Olim va o'qituvchilar ta'lim tizimi

talablarini bajarish uchun bilish faolligini rivojlantirish yo'llarini izlamoqda. I. P. Pavlov "...yaxshi usul bilan iste'dodsiz odam ko'p ish qiladi, yomon usul bilan esa buyuk odam ham behuda ishlaydi", - degan. Shuning uchun ham ma'lum usullarning shaxsni tarbiyalash va kamol toptirishdagi rolini baholar ekan, shuni aytish kerakki, har bir rivojlanish bosqichida inson ongining "chuqur manbasiga kira oladigan" usullardan foydalanish bo'yicha tadqiqot va takliflar jamiyatning bugungi kundagi dolzarbligini hisobga olish kerak. Mamlakatimizda mavjud ta'lim tizimida milliy ta'lim moduliga o'tish orqali yosh avlodning bilim darajasini xalqaro darajaga olib chiqish eng muhim vazifadir. Zamon talabiga ko'ra fan o'qituvchisi bo'lishning o'zi yetarli emas, o'qituvchi - moderatot, innovator, texnolog bo'lishi kerak.

**Izlanish natijalari.** Innotexnik darajasiga ko'tarilishi uchun o'qituvchi innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirib olishi kerak, shundan so'ng fan bo'yicha qaysi mavzudan foydalanish samarali o'rganiladi. Ya'ni, har bir innovatsion texnologiyani o'rganadi, so'ngra o'zlashtirilgan texnologiyalarni aprotatsiya (dars davomida qo'llash) orqali o'tadi, o'qituvchi tahlil qiladi va mavzuga muvofiq texnologiyani tanlaydi. O'qituvchi o'quvchining tabiiy iste'dodi va qobiliyatining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda texnologiya elementlaridan unumli foydalana olishi kerak.

Innovatsiya – yangi g'oyaning laboratoriyada emas, balki fanda paydo bo'lgan bo'lsa ham, amaliyotga asoslangan birinchi tatbiqidir. Innovatsiyalar muassasa, tashkilot, mahalliy, mintaqaviy va davlat muassasalariga qaratilgan. Innovatsiya so'zi lotin tilidan tarjima qilingan bo'lib, yangilikni kiritish degan ma'noni anglatadi. Innovatsiya - bu shunchaki biron bir yangilik yoki yangilik emas, u mavjud bilimlar tizimining samaradorligini oshiradigan jarayondir. Innovatsion faoliyat - bu ta'limning har qanday darajasida innovatsion jarayonni ta'minlaydigan chora-tadbirlar va jarayonning o'zi. Pedagogik innovatsiyalar ta'lim tizimini qayta qurish, takomillashtirish, o'zgartirish, yoki uning ayrim xossalari va jihatlarini (yangi qonun hujjatlari, tuzilmalar, tushunchalar va integratsiya aloqalari va boshqalar) yaratish bilan bog'liq. Innovatsion jarayon tashkilotning maqsadi, tuzilishi, vazifalari, texnologiyasi va inson resurslarini o'z ichiga oladi.

Texnologik innovatsiyalar zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalaridir. Texnologik innovatsiyalar xo'jalik mexanizmlarini, o'qituvchi va talabalar mehnatini tashkil etish, o'qituvchilik faoliyatining xarakterini tubdan o'zgartirishga katta hissa qo'shadi. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari quyidagi talablarga ega: ta'lim maqsadini aniq belgilash, uning ilmiy asoslanishi, faoliyatning yuqori sifatli natijalari bilan; o'quv materialini to'liq qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lishi; o'quv jarayonida erkin muloqot qilish; uni doimiy ravishda takomillashtirish va to'ldirish qobiliyatiga ega bo'lish. Eng asosiy innovatsion usullardan biri "interfaol ta'lim usuli"dir. Asosiy tamoyil - pedagogik muloqot va muloqot dialogi orqali shaxsni shakllantirish, rivojlantirish. Interfaol usul - metodlardan tez-tez foydalanish, uning imkoniyatlarini har bir darsda o'zgartirish - o'qituvchilar jamoasining asosiy

vazifasidir. Interfaol ta'lim texnologiyasi (ITT) - o'qituvchi va o'quvchining o'quv faoliyati bo'lib, u o'quv faoliyati davomida motivatsion, intellektual, hissiy va boshqa jihatlarida o'zaro muvaffaqiyatga erishish holatini yarata oladi, o'quvchilar uchun pedagogik jihatdan samarali kognitiv munosabatlarni yaratishni kafolatlaydi. Interaktiv usullarga quyidagilar kiradi:

- ◆ aqliy hujum usuli;
- ◆ guruhda ishlash;
- ◆ muammoli kompozitsiya usullari;
- ◆ rolli o'yinlar; o'qish;
- ◆ biznes o'yinlari;
- ◆ tanqidiy fikrlash usuli;

◆ munozaralar va boshqalar. b. Innovatsion faoliyatning asosiy funksiyalariga pedagogik jarayonning tarkibiy qismlarini o'zgartirish kiradi: maqsadlar, ta'lim mazmuni, ta'lim shakli, usullari, yondashuvlari, texnologiyalari, boshqaruv tizimi va boshqalar. Shu bilan birga, barcha tadqiqotchilar innovatsiyani innovatsiyani o'z-o'zidan izlash deb hisoblamaslik kerak, chunki innovatsiya maqsadli, ongli o'zgarishdir.

**Munozaralar.** Bugungi kunda turli yo'nalishlarda innovatsion o'zgarishlar ro'y bermoqda, ta'limning yangi mazmunini shakllantirmoqda; ta'limning yangi texnologiyalarini qayta ishlash va joriy etish; yangi dasturni o'rganish usullari va usullaridan foydalanish; o'quv jarayonida o'quvchilarning o'z taqdirini o'zi belgilashi uchun sharoit yaratish; fikrlash uslubining o'zgarishi, o'qituvchi va talabaning o'zaro munosabatlari, ta'lim muassasalarida ijodiy va innovatsion jamoani yaratish va rivojlantirish. Bu jarayonlarning barcha qarama-qarshiliklari, xarajatlari va kamchiliklarida ular ijobiy xarakter beradi. Ushbu yangilik ijtimoiy institut sifatida ta'limga xos bo'lgan yukni bartaraf etishga imkon beradi, bugungi kunda dolzarb vazifalar sifatida qaralayotgan ijtimoiy tuzum, davlat va individual ehtiyojlarning o'zgarishiga tez va moslashuvchan javob berish mexanizmini yaratish, mahalliy ta'limni rivojlantirish uchun sharoit yaratadi. Demak, yuqorida ko'rib chiqilgan pedagogik innovatsiyaning mohiyatini tushunish metodlarida umumiy jihat shundaki, ularning asosiy yo'nalishi pedagogik ijod jarayoni va natijasiga qaratiladi. Barcha tadqiqotchilar ta'lim innovatsion jarayonlarning mohiyatini yangicha nazariy tahlil qilish va tushunishni ta'minlash, uzluksiz innovatsion harakatni ta'minlash zarurligini ta'kidlaydilar. Bu ehtiyoj, o'z navbatida, maxsus mutaxassislar tayyorlash, jumladan, pedagogik innovatsiyalar sohasida malakali o'qituvchilar tayyorlash masalasini ko'taradi. Innovatsion ta'limni rivojlantirish muvaffaqiyati o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash va uzluksiz innovatsion rejimda ishlash bilan belgilanadi. Ushbu treningning muhim tarkibiy qismi o'z kasbiy faoliyatida jamiyat, mehnat bozori, shaxs, texnologiyalar va uzluksiz axborot muhitini yangilash uchun moslashuvchan va faol bo'lish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Shunday qilib, o'qituvchining malakasi ta'limda innovatsiyalar rivojlanishining barqarorligining muhim shartlaridan biridir. Shunday ekan,

pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini maqsadli rivojlantirish ta'limni innovatsion rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

**Xulosalash.** O'qituvchilar malakasini oshirib, amaliyotga jalb qilingandan so'ng an'anaviy o'qitish usullariga o'tmasliklari uchun maktab ichidagi, tuman, shahar, viloyat, respublika miqyosida uslubiy ta'minotni tizimli yo'lga qo'yish va hamkorlikda harakat qilish muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda tarmoq hamjamiyatlari, turli shakllarda o'zaro tajriba almashish, mushtarak g'oyalarni targ'ib qiluvchi nashrlar, ish tajribasini onlayn platformada ommalashtirish tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Bu, o'z navbatida, o'qituvchining kasbiy qo'llab-quvvatlashi, rivojlanishi va kasbiy malakasini oshirish uchun qulay omildir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Skakun V.A. Ishlab chiqarish ta'limi ustasi kasbiga kirish: Uslubiy qo'llanma.-M.: Vyssh.shk., 2010.
2. Qabdiqayrov Q., Innovatsion texnologiyalar diagnostikasi. - A, 2015 yil
3. Rojers E. Innovatsiya tushunchasi. – //Qozog'iston maktabi, 2011 yil 4-son. "Ijtimoiy sheriklik sharoitida texnik va kasb-hunar ta'limi", Ta'lim muassasalari rahbarlarining qo'llanmasi № 2 (26) 2013 yil;
4. Shishov S.E. Ta'lim sifati muammosi kontekstida kompetentsiya tushunchasi. "Davlat va ta'lim, 2002"
5. Trener uchun qo'llanma. "Nazarboyev intellektual maktabi" DBU, 2012., 6-7-betlar

## HUDUDLARDA XIZMATLAR SOHASINI JADAL RIVOJLANTIRISHDA IQTISODIY TARBIIYANI ZAMONAVIYLASHTIRISH MASALASI

*Raxmatullayev B. R.,*

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil izlanuvchisi*

Har bir insonni mustaqil hayotda o'z munosib o'rnini topishi, o'zining farovonligini yanada oshirishning omili bo'lgan iqtisodiy tarbiya muhim hamiyat kasb etadi. Davlat rahbari "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz"<sup>1</sup> - deya ta'kidlaydilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 - yil 11 - sentyabrda PF-158-sonli "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston-2030" strategiyasi "Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash" deb nomlangan ikkinchi ustuvor yo'nalishining "Hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish" deb nomlangan 59-maqсадiga muvofiq hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish orqali xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish vazifasi kun

<sup>1</sup> Шавкат Мирзиёев. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. «Халқ сўзи» газетаси, 2016 йил 8 декабрь сони.



tartibiga qo'yildi. Bu esa o'z navbatida aholini moliyaviy savodxonligini oshirish, iqtisodiy tarbiyaning yangicha uslub va vositalarini taqazo qiladi.

Yoshlarga iqtisodiy bilimlarni berish va ularda iqtisodiy faoliyatni yurita olish ko'nikma, malakalarni shakllantirish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy tarbiya-o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat oila budjetini shakllantirish, oila xo'jaligini yuritishda xizmatlardan foydalanish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, xizmatlar sohasi mazmun mohiyatini anglab yetish, iqtisodiy ta'lim va tarbiyaga oid ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat bo'lib, ijtimoiy ta'lim va tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida o'rganishni taqazo qiladi. Iqtisodiy tarbiya ta'lim muassasalarida yo'lga qo'yilayotgan iqtisodiy ta'lim bilan chambarchas holda olib boriladi. Iqtisodiy tarbiyani tashkil etishda oila, ta'lim muassasasi va jamoatchilik o'rtasidagi mustahkam hamkorlikka tayanish ijobiy natijalarni kafolatlaydi. Shuningdek, hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlanishi yoshlarimizda iqtisodiy ta'lim va tarbiyaga ehtiyoj sezmoqda. Hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirishda talaba-yoshlar ongida tejamkorlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik kabi iqtisodiy jihatlarni o'z ichiga oluvchi xislatlarga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ta'limda kompetensiyaviy yondoshuv o'quvchilarning shaxsiy kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallagan turli tipdagi malakalarni samarali ravishda qo'llashga o'rgatish tushuniladi. Ya'ni, kompetentlik – o'quvchining o'zlashtirgan bilimi, o'quv ko'nikmalari va malakalarini kundalik hayotiy faoliyatida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanishga tayyor ekanligi (qobiliyatiga ega ekanligi) ni ko'rsatishdir.

Iqtisodiy fanlarni o'qitishda tegishli kompetentlik albatta kommunikativ (o'zaro muloqotga kirishish) va axborotlarni mustaqil izlash kabi kompetentlik bilan uzviy bog'langan holda olib boriladi. Bunda iqtisodiy qonun va qonuniyatlarga eng to'g'ri ta'riflarini bayon eta olish, hodisalarning mohiyatini boshqalarga tushuntirib bera olishlariga ham e'tibor qaratiladi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir o'quvchining tahsil olishdagi muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda va samarali aqliy mehnat qilishga, o'rtoqlari bilan hamkor bo'lib, o'zaro yordam uyushtirishiga zamin tayyorlaydi. Eng muhimi hamkorlikda o'qitish texnologiyalari orqali o'quvchilarda iqtisodiy madaniyatga ega bo'lish, mantiqiy, metodologik qiyoslay olish, idrok qilish, tatbiq etish, tajriba o'tkazish, analiz-sintez qilish, o'z-o'zini baholash kompetensiyalari muvaffaqiyatli shakllantiriladi.

Iqtisodiy ta'limda "Keys-stadi" texnologiyasidan foydalanish ushbu darslarning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. O'quv keysni ishlab chiqishda kompetensiyaviy yondoshuvga asoslangan Davlat ta'lim standartlaridan kelib chiqib o'qituvchi kasbiy mahorati va ijokorligini oshirgan holda quyidagi omillarga e'tibor qaratishi lozim:

- maqsadning belgilanishi;

- muammoning shakllanishi;
- keys dasturiy kartasining ishlab chiqilishi;
- institutsional tizimni izlanishi;
- axborotni yig'ish usullari va vositalarining tanlanishi;
- axborot yig'ilishi, keys mavzulari bo'yicha tanlash;
- vaziyat modelining qurilishi;
- keys matnining yozilishi;
- keysning to'g'riligi va samaradorligining tekshirilishi;
- keysning natijaviy variantining tayyorlanishi;
- keysning ta'lim amaliyotiga joriy etilishi.

Keysda vaziyat tavsifi va axborot ta'minoti har xil hajmda bo'lishi, tahlil etish uchun taklif etilayotgan vaziyatlar tavsifida detallashtirish darajasi ham turlicha bo'lishi, axborot ko'pligi darajasi ham o'zgarishi mumkin bo'lgan – tahlilga aloqasi bo'lmagan ma'lumotlar ham bo'lishi mumkin. Amaliy vaziyatni tahlil qilish vaqtida:

- taklif etilayotgan axborotlarni ko'rib chiqishda adashmang, ular orasida eng zarurini belgilang;
- vaziyatni tor istiqbolda ko'rib chiqmang: muammo birdaniga kichiklashib yoki umuman g'oyib bo'lishi mumkin;
- harakatlar rejasini vaziyatning tahlili tugallangan va muammo aniqlangandan so'ng shakllantirish mumkin.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni mazmun mohiyatini o'quvchi va o'qituvchilar ongiga yetkazish maqsadida "O'zbekiston — 2030" strategiyasi "Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash" deb nomlangan ikkinchi ustuvor yo'nalishini quyidagi jadval asosida dars mashg'ulotlarini tashkil qilish mumkin.

### 1-jadval.

#### "O'zbekiston — 2030" strategiyasi maksadlarini ijroga yo'naltirishda keys tahlili va yechimlari

Keys vaziyat turi	Keys vaziyatning kelib chiqish sabablari	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari
1. Hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish.		
2. O'zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish.		
3. Qishloq xo'jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish.		
4. Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish.		
5. Fiskal barqarorlikni ta'minlash va davlat		

majburiyatlarini samarali boshqarish		
--------------------------------------	--	--

Jadvalni to'ldirishda har bir o'quvchi yosh va psixologik xususiyatlardan hamda o'qituvchilarning mutaxassisligidan kelib chiqqan holda yondoshish tavsiya etiladi. Har bir o'quvchi yosh va o'qituvchi jadvalni to'ldirayotganda o'zining mustaqil pozitsion nuqtai nazardan yondoshishni o'rganadi hamda o'zlarining keyingi 7 yildagi istiqbol rejasini tuzadi va taqdimot qiladi. Natijada kompetentlikni oshirishga erishadi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy fanlarini o'qitishni zamonaviylashtirish orqali o'quvchilar kompetensiyasi oshib boradi va o'z navbatida har tomonlama barkamol avlodni shakllanishi uchun xizmat qiladi, shuningdek darslarda olingan bilim, malaka va ko'nikmalarni ijtimoiy hayotda amalda qo'llash imkonini beradi.

## **UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA "OQSILLAR, YOG'LAR, UGLEVODLAR" MAVZUSINI O'QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI**

*Esimbetova D. M.,  
Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti*

Bugungi kunda ta'limga ko'rsatilayotgan e'tibor o'quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Ta'lim jarayonida o'qitishning yangi shakl va metodlaridan foydalanish butun mazmun-mohiyati bilan ta'lim oluvchilarni ma'naviy jihatdan tarbiyalashga qaratilgan.

Kimyo fanini o'qitishni tashkil etishda bugungi kunning dolzarb talablari, ya'ni yangi pedagogik texnologiyalar asosida darslarni tashkil qilish, loyihalash talabi qo'yilyapti. Maqsad o'quvchilarda mustaqil, erkin fikrlashni shakllantirish. Dars yakunida qaytar aloqaga, kafolotlangan natijaga erishi. Natijada "sub'ek-ob'ekt" munosabatlari "sub'ekt-sub'ekt" munosabatlariga aylanadi. Bu jarayonni yanada muvofaqiyatli amalga oshirishda interfaol metodlardan maqsadga muvofiq o'rinli foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi. [1,23].

Ta'lim jarayonida ta'lim metodlari ta'lim maqsadini yoritishga xizmat qiladi, u yordamida ta'lim mazmunini o'zlashtirish yo'llari ifoda etiladi, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro harakati, xususiyati aks ettiriladi. Ta'lim jarayonida ta'lim metodlari doimo u yoki bu o'qish vositalari yordamida joriy etiladi, shu bois ularning o'zaro shartlanganligini ta'kidlash joiz.

Maktab kimyo kursi dastur asosida belgilanadi va o'quvchilarning fikrlash darajasini sinfdan-sinfga o'tish davomida doimiy ravishda oshirib borishni, ularni dunyo haqidagi tasavvurlarini umumlashtirishni nazarda tutadi. 7-sinfda "Oqsillar, yog'lar, uglevodlar" mavzusi doirasida ushbu organik moddalarning tuzilishi va xossalari bo'yicha dastlabki tushunchalar beriladi.

Oqsillar – makromolekulalari o'zaro peptid (amid) bog' bilan birikkan aminokislota qoldig'dan tuzilgan murakkab tuzilishga ega biopolimer hisoblanadi. Molekulyar massasi  $5 \cdot 10^3 \approx 1 \cdot 10^6$  bo'lganda oqsillar,  $5 \cdot 10^3$

oralig'ida-piptidlar deyiladi. Oqsillar o'simlik va hayvon organizmlarining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, hayotiy jarayonlarda ishtirok etuvchi eng muhim murakkab tuzilishli birikmalardir. Insonlar oqsillarni asosan oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish orqali qabul qiladi. Siz go'sht va go'sht mahsulotlari, tuxum, loviya, mosh, no'xat kabi oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilasiz. Bu mahsulotlar oqsillarning asosiy manbasidir. Oqsillar – organizmning qurilish materiali, muskul va teri qoplamalari. Oqsillar – organizmning transporti, o'pkadan kislorodni hujayraga olib boradi va u yerda hosil bo'lgan karbonat angidridni o'pkaga olib keladi

Yog'lar yuqori bir asosli karbon kislotalar va uch atomli spirt – glitserindan hosil bo'lgan murakkab efirlardir. Ushbu birikmalarning umumiy nomi triglitseridlardir. Demak, yog'lar glitserin va yog' kislotalaridan tashkil topgan organik birikmalardir. Ularning organizmdagi roli yog' kislotalarining kimyoviy tuzilishiga bog'liq. Yog' kislotalari ikki xil: to'yingan va to'yinmagan bo'ladi. Yog'lar ko'p funksiyalarni bajaradigan ovqatlanishning zarur tarkibiy qismidir: u bizga energiya beradi, miya faoliyatini rag'batlantiradi, hujayralar va to'qimalar uchun qurilish materiali bo'lib xizmat qiladi, A, D, E, K vitaminlarini so'rilishida ishtirok etadi va moddalar almashinuvini tartibga solishga yordam beradi

Uglevodlar molekulasi uglerod, vodorod va kislorod atomlaridan iborat organik birikmalardir. Bunday atalishiga sabab molekulasi tarkibidagi uglerod, vodorod va kislorod atomlari  $C_n(H_2O)_m$  ko'rinishiga ega bo'lgandir. Tabiatda uchraydigan uglevodlarni asosan uchta katta guruhga ajratish mumkin: [2, 153].

Monosaxaridlar	Disaxaridler	Polisaxaridlar
Glyukoza	Saxaroza	Sellyuloza
Fruktoza	Laktoza	Kraxmal
	Maltoza	

Ushbu mavzuni o'qitishda interfaol usullardan foydalanilsa, o'quvchilarda mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalar hosil bo'lishida, dars samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Masalan, "Pinbord metodi", "VENN diagrammalari", "Keys-stady", "T-sxemasi", "Baliq skeleti", "Aqliy hujum" metodlaridan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ushbu metodlardan Pinbord metodining qo'llanish texnologiyasini ko'rib chiqamiz:

Pinbord metodi - (inglizcha: "pin"-mustahkamlash, mahkamlab taqib, qadab qo'yish, "board"-yozuv taxtasi (doska) ma'nosini bildiradi). Pinbord metodi bilimlarni mustahkamlash, va yangi bilimlarni o'rgatishga xizmat qiladi. Bu metod bo'yicha mashg'ulotda ishtirokchilarning vazifalari qo'yidagicha belgilanadi:

Ta'lim beruvchi:

-mashg'ulot manzusi bo'yicha hal etish lozim bo'lgan muammoni eshishni taklif etadi;

-Taklil etilgan muammoni eshish bo'yicha o'z nuqtai nazarini bayon qiladi;

-Ta'lim oluvchilar bilan aqliy hujum mashg'ulotini tashkil qiladi va boshqarib boradi.

Ta'lim oluvchilar:

-muammoni muhokama qiladilar, uning eshimi yuzasidan takliflar bildiradilar, o'z g'oyalari asoslaydilar;

-bildirilgan g'oyalardan eng ko'p ma'qul bo'lgan samarali g'oyalarni tanlaydilar;

-tanlangan g'oyalarni qog'oz varag'iga asosiy so'zlar (2 so'zdan ko'p bo'lmagan) ko'rinishida yozadilar va yozuv taxtasiga mustahkamlaydilar.

Guruh a'zolaridan – (ta'lim beruvchi tomonidan belgilangan) 2-3 o'quvchi yozuv taxtasi oldiga chiqadilar va boshqalar bilan maslahatlashib:

-xato deb hisoblangan va takrorlangan g'oyalarni ajratadilar;

-bahsli tartishuvlarning to'g'ri echimlarini aniqlaydilar;

-g'oyalarning tizimlashtirish mumkin bo'lgan belgilarini aniqlab tizimlashtiradilar;

-shu belgilar bo'yicha hamma g'oyalarni guruhlariga ajratib yozuv taxtasiga joylaydilar (varaqlar yoki boshqa ko'rinishda).

Ta'lim beruvchi: -

-mavzu bo'yicha muhokama jarayonidagi fikrlarni umumlashtiradi va ish natijalarini baholaydi. [3, 67].

Bu metodni “Oqsillar, yog'lar, uglevodlar” mavzusi darsning mustahkamlash bo'limida qo'yidagicha foydalanish mumkin:

### **Pinbodr metodi**

Mavzu: “Oqsillar, yog'lar, uglevodlar”

<b>Oqsillar</b>	<b>Yog'lar</b>	<b>Uglevodlar</b>

Shu ko'rinishda yozuv taxtasiga batman qog'ozi ilib qo'yiladi. O'qituvchi mavzu bo'yicha ko'rsatigan moddalarning xossalari yozib, belgilangan tartibda (stikerlarga yozib) batman qog'ozga mustahkamlashni aytadilar. O'quvchilar guruhlarda yoki yakka tartibda topshiriqni bajaradilar. Berilgan javoblar tahili qilinadi va baholanadi.

Shunday qilib, kimyo darslarida interfaol metodlardan foydalanish, ayniqsa, “Pinbord metodi”, “VENN diagrammalari”, “Keys-stady”, “T-sxema”, “Baliq skeleti”, “Aqliy hujum” metodlaridan foydalanish o'quvchilarni fanga qiziqishini oshirishga, ularni tanqidiy va kreativ fikrlashga, darsda faolligini yanada oshirishga yordam beradi. Eng asosiysi darsning sifat samaradorligini oshirilishiga zamin yaratiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. M.Nishonov, Sh.Mamajonov, B.Xo'jayev «Kimyo o'qitish metodikasi» (Kimyo o'qituvchilari tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma) Toshkent “O'qituvchi”-2002.
2. “Kimyo” fani umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Toshkent-2022.

3. A.Abduqodirov, R.Ishmuxamedov, A.Pardaev. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste'dod, 2008.

### **SHAXSDA IRODAVIY SIFATLARINING RIVOJLANISH VA UNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

*Rahmatova N. S.,*

*Navoiy innovatsiya universiteti o'qituvchisi*

Kishining irodasi o'z sifatleri, ya'ni kuchi, axloqiyliqi, mustaqilliqi jihatidan ayrim hollarda turlicha namoyon bo'ladi. Iroda ma'lum kuchga ega bo'ladi, ba'zi hollarda irodasi kuchli, boshqa hollarda esa kuchsiz namoyon bo'ladi. Kuchli irodaga kosmonavtlarning irodasi misol bo'ladi. Kishi irodasining kuchsizliqi uning juda arziyas qiyinchiliklarining ham eng olmasligida ko'rinadi. Masalan, biror ishni bajarishga yoki biror ishni boshlashga o'zini majbur qila olmaydi. Iroda kuchi - o'zini tuta bilishda, jasurlik, qat'iyat, matonat va chidamlilikda namoyon bo'ladi. O'zini tuta bilish - kishining oldiga qo'ygan maqsadlarining amalga oshirishga qarshilik qiladigan ichki holatini engishda ko'rinadigan irodadir. O'zini tuta bilish og'riq hissini, toliqish, qo'rquv va g'azabni engishda namoyon bo'ladi. O'zini tuta bilish ayni paytda keraksiz bo'lgan reflekslarga, odatlarga yo'l qo'ymaslikdir.

Dadillik - kishilik hayoti va omonliqi uchun xavfli bo'lgan qarshiliklarni engishda ko'rinadigan kuchli iroda. Masalan, parashyutchi har gal sakraganda dadillik qiladi. Dadillik o'zini tuta bilish bilan bog'liqdir. Mustaqillik - irodaviy harakatlar motivlarida va shu bilan birgalikda qaror qabul qilishda namoyon bo'ladi. Mustaqillikning mohiyati shundan iboratki, odam o'zining ish - harakatlarining tevarak - atrofdagilarining tazyiqi, tasodifiy taassurotlar bilan emas, balki o'z ishonch e'tiqodlarini, bilimlari va tegishli vaziyatda qanday ish to'tish kerakliqi haqida tasavvurlariga asoslanib belgilaydi.

Mustaqillikning qarama -qarshi tomoni tasirlanuvchanlikdir. Bu shundan iboratki, bunda odam o'zgalarning ta'siriga tez beriladi, hamda uning harakat motivlari o'zida tarkib topgan xususiy qarashlar, ishonch aqidalar asosida emas, balki tashqaridan ko'rsatilgan ta'sir natijasi sifatida paydo bo'ladi. Qat'iyat-o'ylab qo'yilgan qarorni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlovchi g'oyat muhim sifatdir. Qat'iylik odamdan uzoq vaqt davomida hech bir pasaymaydigan irodaviy zo'r berish va kuch - quvvatni taqozo qiladi. Belgilangan maqsadga erishishdagi qiyinchiliklar odamni hayiqtirmaydi, og'ishmay intila boradi. Qaysarlik - odam oqilona asoslarga ega bo'lishga qaramay harakat qilish illatidan, ilgari oz o'ylab qabul qilingan qarordan voz kechish qobiliyatiga ega bo'lishidir. Qaysarlik real sharoitga tik qaramay, o'zgargan vaziyatga epchillik bilan moslasha olmaslikdir. Mana shunday hollarda odam irodasining sustliqi namoyon bo'ladi.

Iroda nazariyalari: Irodaviy, ya'ni ixtiyoriy harakatlar odamga irsiy yo'l bilan tug'ma ravishda beriladigan harakatlar emas. Irodaviy harakatlar har doim ma'lum sabablarga ko'ra yuzaga keladi. Chet el psixologiyasida iroda erkinliqi

degan ta'limot yuzaga kelgan bo'lib, bu ta'limotga ko'ra, odamning irodasi azaldan belgilangandir. Irodaviy harakatlar odamning shaxsiga, ongiga mutlaqo bog'liq emas. Iroda qandaydir iloxiy kuchga bog'liqdir. Shuning uchun iroda o'z mohiyati jihatidan doimo erkindir. Chet el olimlarining iroda erkinligi, ya'ni irodaviy harakatlar hech qanday sababga bog'liq emasligini haqidagi ta'limotlari batamom xatodir. Biz yashab turgan moddiy dunyoda sababsiz hech narsa va hech qanday hodisa bo'lmaganidek irodaviy harakatlarning ham o'z sabablari mavjuddir.

Irodaviy, ya'ni ixtiyoriy harakatlarning nerv - fiziologik asosida bosh miya katta yarim sharlari po'stining shartli reflekslar hosil qilishdan iborat bo'lgan murakkab faoliyati yotadi. Irodaviy harakatlar ongli harakatlar sifatida ikkinchi signallar tizimi asosida ro'y beradi. Gumanitar, ya'ni inson muammolariga e'tibor ortishi bilan o'z - o'zidan irodani o'rganish ham dolzarb masalaga aylanib bormoqda. XVIII - XIX asrlarda bu muammo eng markaziy psixologik tadqiqot masalalaridan biri edi. Biroq psixologiya fanida XX asr boshlarida ro'y bergan inqiroz tufayli u ikkinchi rejaga o'tib qoldi, uni mutlaqo inkor etish mumkin emas.

Arastu o'z davrida irodani jon haqidagi fanning muhim tushunchasi deb e'tirof etgan. Uning fikricha, iroda inson xulq - atvorini o'zgartirishga, boshqarish imkoniyatiga ega bo'lgan omil hisoblanadi. Psixologiyada mavjud oqimlar ham irodani turli jihatlariga ko'ra tadqiq etadilar. Masalan, bixeviorizm - xulq - atvor shakli, motivatsiya psixologiyasi - shaxsning ichki ziddiyatlari, shaxs psixologiyasi - insonning muhim shaxsiy xususiyati sifatida o'rganadi. V. A. Ivannikov fikricha, iroda - inson xulq - atvoridagi reaktivlik va faollikning o'zaro ko'rinishidir. V.I.Selivanov esa, irodani ongli boshqarilishi maqsadga yo'naltirilgan harakatni amalga oshirish uchun ichki va tashqi qiyinchiliklarini engib ketish imkoniyati borligini bilish deb ta'riflaydi. Inson irodaviy faoliyati ongli, maqsadga yo'naltirilgan faollikdir. Asab tizimining umumiy sog'lomlik holati katta ahamiyatga ega. Kasallik paytida, charchagan vaqtida inson irodasi bo'shshadi.

### ***Irodani tarbiyalash***

Inson xulq - atvorining irodaviy boshqarilishi bir necha yo'nalishda amalga oshiriladi:

1. Ixtiyorsiz xatti - harakatlarni ixtiyoriy harakatlarga qayta o'zgartirish.
2. O'z xatti - harakatlari ustidan nazorat o'rnatish.
3. Shaxsning irodaviy sifatlarini tarbiyalash.

Bu jarayonlar bola tomonidan nutqning o'zlashtirilish va xulq - atvorini boshqara olish bilan boshlanadi. Irodaning rivojlanishida shaxs tomonidan o'z oldiga tobora murakkablashib boruvchi maqsadlarni qo'yib borish muhim ahamiyatga ega.

Masalan, o'smir o'z oldiga o'zida layoqat bo'lmagan qobiliyatni rivojlantirishni maqsad qilib qo'yishi mumkin. Bolalarda irodaning rivojlanishi motivatsion va axloqiy sohaning rivojlanishi bilan bog'liq holda boradi. Faoliyatga yuqori darajadagi motivlar va qadriyatlarining qo'shilishi -irodaviy

sifatlarning rivojlanishiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Iroda asosan o'smirlik va o'spirinlik davrida jadal sur'atlar bilan rivojlana boshlaydi. Irodani tarbiyalash va qayta tarbiyalashda badiiy adabiyot va kinofil'mlarning o'rnini katta. Biroq ota - ona va pedagoglarning o'rnini hech narsa to'ldira olmaydi. Inson irodasini tarbiyalashning eng muhim sharoitlari - kun tartibiga rioya qilish, butun hayotiy talablarga to'g'ri amal qilishdir. Irodali kishi o'z vaqtining xo'jayinidir. O'z faoliyatini oqilona tashkil etadigan kishi o'z ishini shoshilmay bajarishi, faoliyati esa uyushqoqlik va maqsadga yo'naltirilganligi bilan ajralib turishi mumkin.

Shaxsning irodaviy sifatlari har doim boshqalar bilan faol munosabat jarayonida shakllanadi.

## DEZADAPTATSIYA VA UNING O'SMIR XULQIDA NAMOYON BO'LISHI

*Axmadov N. R.,  
BuxDU o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'smirlardagi dezadaptatsiya jarayonining paydo bo'lish sabablari hamda dezadaptatsiya jarayonining oldini olish bo'yicha amaliy ko'rsatmalar berilgan

**Kalit so'zlar:** dezadaptatsiya, adaptatsiya, Begonalashuv sindromi, dialog, "tashqi" va "ichki" yo'nalganlik, nevrozlar, astenik sindromi, diqqat etishmovchiligi, giperaktivlik.

O'smirlar xarakterida ijtimoiy psixologik dezadaptatsiya xolatlarining shakllanish omillari. Adaptatsiya (moslashish) tushunchasi zamonaviy psixologiya fanida katta o'rin egallaydi. Shuning bilan bir qatorda ushbu muammoga nisbatan turli nuqtai nazarlar mavjud. Pedagogik endiklopediyada Adaptatsiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: «Adaptatsiya (yunon adaptatio - moslashish), organizmning tashqi sharoitlarga moslashish. Adaptatsiya asosini orgnanizmning tashqi muxitdagi vaziyatlarda ichki barqarorligini saqlab turish imkonini beruvchi reaksiyasi tashkil etadi. "Adaptatsiya organizmni turli sharoitlarda me'yoriy rivojlanish, optimalishlash qobiliyatlarini saqlab turishini ta'minlaydi "Pedagogika va psixologiyada adaptatsiya tushunchasining shaxs rivojlanishi nazariy taxlilida shaxs rivojlanishining nisbatan turg'un bosqichiga o'tish jarayoni sifatida qaraladi

Shaxs rivojlanishi ushbu tadqiqotchilar tomonidan yangi ijtimoiy muxitga kirib borishi, va integratsiyalashuvi sifatida ko'riladi Shaxs shakllanishining birinchi bosqichini A.V.Petrovskiy adaptatsiya bosqichi deb xisoblaydiyu Bu bosqichda shaxs tomonidan jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy me'yor va mezonlarni, Shuningdek faoliyatni ma'lum usul va vositalarini egallashi tushiniladi. Sub'ekt, yangi ijtimoiy muxitga kirar ekan avvalo o'rnatilgan me'yorlarni o'zlashtirib olishi zarur, shundan keyingina u o'zini shaxs sifatida namoyon eta oladi. Agar individga adaptatsiya jarayonidagi qiyinchiliklarni engib o'tish imkoni bo'lmasa shaxs rivojlanishidagi asoratli buzilishlariga sabab



bo'lishi mumkin. Ya'ni adaptatsiya ijtimoiylashuv jarayonidagi individuallashuvdir. Dunyoga kelibqatib bola uni o'rab turgan atrof muxit bilan o'ziga xos munosabatlarga kiradi. Atrof muhit nafaqat bolaning yashash tarzini belgilab beruvchi omil, balki uning ruxiy jarayonlari rivojlanishini taraqqiy ettiruvchi yoki aksincha tormozlovchi asosiy manbaasi xamdir. L.S.Vigotskiy, bola rivojlanishi haqidagi fikrlarida "Tarbiyaning natijasi uning boshida beriladi deb ta'kidlagan. G'.B.Shoumarov fikriga ko'ra o'smirlik davrining og'ir, murakkab davr ekanligi ko'plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlari: jismoniy, aqliy, ahlokiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun-mohiyati ham o'zgaradi. Bu davrda o'smir hayotida, ruhiyatida, organizmining fiziologik jarayonlarida, uning ijtimoiy holatida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Aksariyat vaziyatlarda ularda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli xil holatlar kuzatiladi. A.A.Nalchadjyan adaptatsiya psixologik bilishda katta ahamiyat kasb etishini ta'kidlagan holda, ushbu tushunchani keng ma'noda, Ya'ni sub'ektning muxit bilan munosabatlari jarayonidagi ikki qarama qarshi yo'nalgan jarayonlarning uzviy bog'ligida deb ta'riflagan. E.A.Orlova adaptiv jarayonlarni uch asosiy fundamental turlarga ajratadi:

1. **Birinchi tur** Shakllangan ijtimoiy vaziyatni o'zgartirishga qaratilgan faol urinishlar.

2. **Ikkinchi tur** "Begonalashuv sindromi" mavjud muammoni xal etishdan qochishga xarakat qilish.

3. **Uchinchi tur** "dialog" o'zgargan ijtimoiy muxit bilan o'zaro kelishuvga kelish.

P.S.Kuznetsov o'zining tadqiqotlarida adaptatsiyaning 3 ta bosqichini psixologik tafsifini keltirgan (yuqori, o'rta, past): Yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan adaptatsiyaga ega bo'lganlar uchun faollik, o'z kuchi va imkoniyatlariga ishonch xarakterili bo'lib, ular atrofida bo'lib o'tayotgan voqea va xodasilarga nisbatan samimiy qiziqish bilan munosabatlarda bo'ladilar. Ularning tutgan pozitsiyasini barqaror deb baxolanishi mumkin. O'rta adaptatsiya bosqichida impulsivlik, xayotidagi omadli va omadsizlik davrlarini boshdan kechirilishi, emotsional beqarorlik xosdir. Bu bosqichdagilar xolatining beqarorligi shu bilan izoxlanadiki ular yo ijtimoiy adaptatsiyaning yuqori bosqichiga intiladilar, yoki adaptatsiyaning quyi bosqichiga tushib qoladilar. Quyi adaptatsiya xolatlari namoyon bo'lishida xayotiy faollikning past darajasi kuzatiladi. Bu bosqichdagilar uchun o'ziga ishonmaslik, boshqalar fikriga tobelik, bo'ysunuvchanlik xos bo'lib, ko'pincha davomli tushkunlik kayfiyati paydo bo'lishi xosdir. M.I.Enikeev ijtimoiy adaptatsiya jarayonini o'smir tomonidan ijtimoiy me'yor va mezonlarni o'zlashtirish va indivdning atrofi ijtimoiy muxitdagi yangi sharoitlarga faol moslashish sifatida ta'riflaydi A.A.Rean adaptiv jarayonlar kechishi yo'nalishining "tashqi" va "ichki" yo'nalganlikka ega ekanligini ta'kidlagan. Adaptiv jarayonning "Tashqi" yo'nalganlikdagi xolati shaxs tomonidan uni o'rab turgan ijtimoiy vaziyatni, faol o'zlashtirish, va o'zining extiyojlari, yo'nalganligiga moslashtirish tushuniladi. Adaptiv

jarayonning "ichki" yo'nalganlikdagi xolati shaxsning o'zidagi ijtimoiy ustanovkalarni ijtimoiy o'rnatilgan stereotiplar asosida korreksiya qilish bilan xarakterlanadi. Bu turdagi adaptatsiya insonning o'zini o'zgartirishga qaratiladi. Ijtimoiy adaptatsiyaning ikkita turi ham shaxs rivojlanishining bosqichi sifatida faol jarayon hisoblanadi. Muallif ikkala turdagi adaptatsiyani o'zida mujassam etgan uchinchi tipdagi adaptatsiya mavjudligini ham ta'kidlaydi. Ya'ni shaxs tomonidan qandaydir bir adaptiv jarayon mutanosibligi bo'lmagan xolatda ijtimoiy makonda o'ziga boshqa adaptiv manbaalarni topishga intiladi. "Konform" bo'lgan ijtimoiy muxitdagi shaxsning o'rnatilgan ijtimoiy ustanovkalar, me'yor va mezonlarni o'zlashtirishida o'z-o'zini rivojlantirish, o'zini-o'zgartirish, korreksiyalashga intilishi muallif fikricha adaptatsiya emas, balki dezadaptatsiya xolatini anglatadi.

Dezadaptatsiya sub'ekt tomonidan ijtimoiy me'yor va mezonlarga moslashaolmaslik Psixologik adabiyotlarda ijtimoiy psixologik dezadaptatsiyaning quyidagi turlari tasniflanadi. Psixogen dezadaptatsiya o'smirning atrofidagi ijtimoiy muxitdagi uning uchun ahamiyatli bo'lgan insonlar bilan muloqoti jaryonidagi buzilishlar natijasida kelib chiqadi. Ko'p xollarda bu uning tengdoshlari bilan bo'lgan munosabatlardagi buzilishlar natijasi bo'lishi mumkin. Emotsional yaqin insonlari bilan muloqot o'smirdagi xissiy kechinmalarining shakllanishining asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Bu jarayonda o'smirning yaqin ijtimoiy muxitdagi ayrim yaqin insonlar bilan negativ kechimalari, boshqa yaqin insonlar bilan muloqotda kompensatsiya qilinadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda o'qituvchilari, ota-onasi, oila a'zolari bilan muloqoti orqali kompensatsiya qilinsa, tengdoshlari bilan nizoli vaziyatlarning xammasi xam o'smirda patogen dezadaptatsiya xolatini keltirib chiqarmasligi mumkin. O'smirlarda dezadaptatsiya xolatini kelib chiqish extimoli uning muloqotdagi kompensatsiya jarayoni asotsial ijtimoiy muxit orqali amalga oshgan xollarda ortadi. Lekin boshqa tomondan o'smirning tengdoshlari bilan ijobiy muloqoti undagi oiladagi, yoki maktabda o'qituvchi bilan shaxslaro munosabatlaridagi buzilishlarni kompensatsiya qilish imkonini yaratadi. Dezadaptatsiya xolatlari keltirib chiqishida o'smirlar oilaviy anamnezining og'irlashuvi: noto'liq oilalar va oiladan tashqarida tarbiyalanishlik, ko'p ichuvchi ota, ota-onalardan birining ruhiy kasalligi, oiladagi disgarmonik munosabatlar va kelishmovchiliklar, bolalikda o'smirda ota-onaning noto'g'ri munosabati, psixopatologiya darajasining chegaraviy yoki yuqoriligi bilan farq qilishadi. Ko'p xollarda o'smirning ijtimoiy dezadaptatsiya xolatlarini bartaraf etishda oilaviy tarbiya metodlarini o'rganish, ota-onalarga oilaviy munosabatlarda o'zgartirish kiritish, qandaydir yangiliklar olib kirish, oilaviy tadbirlarni birgalikda o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Ayrim xollarda ota-onalar "Nima uchun o'qishdagi muammolarni biz hal qilishimiz kerak?", "Oilaning bu xolatga qanday aloqasi bor?", "O'qituvchi bola bilan to'g'ri munosabatlarga kira olmaydimi?" mazmunidagi savollar bilan murojaat etadilar. Vaxolan-ki, ota - ona o'z farzandlari ruxiyatidagi ayrim qirralarni o'qituvchidan ko'ra yaxshi bilishi, o'qituvchi esa o'smir xulqidagi ota-ona payqamagan

tomonlarni yaxshiroq tushunishi mumkin. Aynan shu bois ular o'rtasidagi o'smir ta'lim tarbiyasidagi pedagogik hamkorlik dezadaptatsiya jarayonini kelib chiqishini oldini olishi va bartaraf etish imkoniga egadir.

Dezadaptatsiya markaziy nerv sistemasi funksiyalaridagi buzilishlar natijasida ham shakllanishi mumkin. Psixologik tadqiqotlarda aniqlanishicha bu toifadagi o'smirlarning ma'lum qismida miya funksiyalarining ma'lum miqdorda o'zgarishi aniqlangan. Bu xolatlariga olib keluvchi asosiy faktorlar sifatida anamnezda onaning xomiladorlik va tug'ish jarayonining og'irkechadi. Bunday bolalar rivojlanishida nutq funksiyalari rivojlanishining kechikishi, diqqat, xotira rivojlanishdagi og'ishlar kuzatilgan umumiy intellektual rivojlanishda bunday bolalar meyor darajasida bo'lishi bilan birgalikda, ta'lim jarayonida ma'lum kognitiv qiyinchiliklarga duch kelganlar. Bunday xolatlar quyidagi sindromlarda namoyon bo'ladi:

- nevrozlar;
- astenik sindromi;
- Diqqat etishmovchiligi, giperaktivlik.

Shunday qilib markaziy nerv sistemasi funksiyalaridagi buzilishlar aniqlangan o'smirlar bilan psixologik pedagogik korreksion tadbirlar olib borilishi asosida nevrolog, psixolog, psixiatrlar logoped, pedagoglarning muntazam kuzatuvda bo'lishlari zarur. Dezadaptatsiya xolatida namoyon bo'luvchi neyrodinamik buzilishlarning namoyon bo'lish shakllaridan birini psixomotor sustlashuv tashkil qiladi. Bunday o'smirlar psixik faoliyat rivojlanishining sustlashuvi, xarakter faolligini pasayishi, emotsional reaksiyalarning past namoyon bo'lishi bilan ajralib turadilar. Bu o'smirlar turli vaziyatlarda tez reaksiya ko'rsata olmaganlari tufayli tengdoshlari bilan shaxslararo munosabatlar jarayonida, o'quv faoliyatida jiddiy qiyinchiliklarni xis etadilar. Neyrodinamik buzilishlar psixik jarayonlar kechishidagi notekisliklarda xam namoyon bo'ladi. Xulqiy ko'rinishlardagi emotsional beqarorlik, o'ta faollik darajasidan o'ta passivlik xolatga osonlik bilan o'tish va aksincha umuman xarakterdagi passivlikdan, boshqarib bo'lmaydigan giperaktivlik xolatiga o'tish xolatlari uchrab turadi. Darslarda tez charchash, o'zini yomon xis etish borasidagi shikoyatlar tez-tez qaytarilib, bu xolatlar ulardagi o'zlashtirish darajasidagi tez o'zgaruvchanlikka, undagi intellektual rivojlanish darajasining nisbatan rivojlanganligiga qaramasdan o'zlashtirish darajasining pastligi kuzatiladi. Bu toifadagi o'smirlardagi rivojlanish xususiyatlari ko'pincha ikkilamchi qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi, o'qituvchilar tomonidan ulardagi yosh va individual tipologik xususiyatlarini to'g'ri tushuna olmaslik oqibatida kelib chiqadi. . O'smirlardagi dezadaptatsiya xolatlarida o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri stress va frustratsiya vaziyatlarida faollikning yo'qotilishi, hisoblanadi. Bu vaziyatda o'smirlarning muloqot tizimi to'laqonli emasligi avvalo tengdoshlari, yaqin ijtimoiy muxitdagi odamlar bilan aloqalarning buzilganligi unda "yolg'izlik", "begonalashuv", "zerikish" kabi kechinmalarining paydo bo'lishiga olib keladi. Aynan o'smirlik davrida ijtimoiy psixologik dezadaptatsiya xolatlari

o'z vaqtida aniqlab bartaraf etilmasa, o'smir shaxsining kamolotiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ya'ni bu holat o'smirni o'z- o'ziga beradigan bahosining yanada pasayib ketishiga, turli tabiatdagi shaxslaro munosabatlardagi nizolarga, shaxs rivojlanishida aloxida ahamiyatga ega bo'lgan o'quv faoliyatiga nisbatan motivatsiyaning pasayishiga, nevroz holatining vujudga kelishiga va hatto psixik buzilishlarga sabab bo'lishi mumkin. Shu tufayli ham ko'pchilik psixologlar bu muammoni o'rganishga alohida e'tibor qaratganlar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Назиржон Рахматович Ахмадов. Подростковый суицид. причины и профилактика. Вестник интегративной психологии. (журнал для психологов). 2021 год, Выпуск 23. 30-34 ст.
2. Ахмадов Назир Рахматович. Суицидальное поведение подростков. Вестник интегративной психологии.(журнал для психологов). 2021 год, Выпуск 22. 13-15 ст.
3. Ахмадов Назир Рахматович. Причины суицидального поведения. Вестник интегративной психологии.(журнал для психологов). 2020 год, Выпуск 21. 60-62 ст.

## **BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLARNING O'RNI**

*Qurbonova X. T.,*

*Navoiy viloyati PYMO'MM katta o'qituvchisi*

**Xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. Kelajak yoshlarimizning qo'lida.**

**Sh.M.Mirziyoyev**

Ta'lim jarayonini innovatsion metodlardan foydalanib tashkil etish uchun, avvalo, darsning rejasi va loyihasi aniq ishlab chiqilishi zarur. Dars loyihasini tuzishda o'qituvchi o'zining ish shakllari va o'quvchilarning ko'nikmani egallash jarayonidagi ishlari doirasini aniq belgilab olishi lozim. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv uslublardan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish va e'tibor kundan – kunga kuchayib bormoqda. Ma'lumki, ta'lim – tarbiya uzluksiz, muayyan maqsadga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, unda barkamol shaxsni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Demak, pedagogik jarayonning asoiy maqsadi barkamol inson shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratdir. Yurtimizda barcha tarmoqlar kabi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar jadallik bilan rivojlanib borishi pedagoglar oldiga yangidan – yangi vazifalarni yuklamoqda. Ushbu tarmoqni yetuk malakali kadrlar bilan ta'minlash zamon talabi bo'lib, ta'limda axborot texnologiyalarini qo'llash pedagogdan quyidagilarni bilishni talab qiladi: axborotdan jarayon sifatida bilim olish va ijod qilish; fan-texnika va madaniyatdagi axborot va kreativ jarayonlar; axborotda jamiyatni rivojlantirish muammolari; sun'iy intellektning axborot

tizimlari va bilim berish usullari; axborotlashning texnik vositalari va telekommunikatsiya vositalari; o'quv materiallari haqida axborotli ma'lumot tizimini bilish va qo'llay olish; universal va muammoli-masofali axborot texnologiyalarini amalga oshirishning dasturiy vositalari haqida tasavvurga ega texnologiyalarni; axborotni modellashtirish asoslari; o'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirish tizimi; global internet kompyuter tarmog'idan foydalanish; o'quv jarayonida amaliy dastur paketlarini qo'llash; o'quv jarayonida elektron pochtdan foydalanish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lish; mustaqil ishlash, o'zlashtirish va mustahkamlash uchun savollar to'plamini ishlab chiqish; bilimni sinash uchun test savollarini tuzish, sinov va imtihonlarni o'tkazish; o'quv mashqlarini bajarish, ketma-ketligini nazorat qilish va baholash shakllarini aniqlash; o'qitish natijalarini tahlil qilish va takomillashtirish bo'yicha taklif berish; nazorat ishlarini o'tkazish. Bunda:

-o'quv jarayonini qiziqarli va natijaviyligini ta'minlash hisobiga ta'lim oluvchida o'quv materialini ongli ravishda o'zlashtirish va anglab olish motivatsiyasi ortadi;

-mustaqil izlanish, ishlash va o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmasi rivojlanadi;

-o'quv mashg'ulotlarining sifat va samaradorligini, har bir o'quvchining o'tilgan mavzuni to'liq o'zlashtirishini ta'minlaydi;

- ta'lim oluvchining mustaqil fikrlashini, bilishva o'zlashtirish hissiyotini, maqsadga erishishga intilishlarini, ijodiy tasavvurlarini rivojlantirish hisobiga faol rivojlanishga erishiladi;

- sinfdagi barcha o'quvchilarning faol faoliyat yurishi ta'minlanadi.

Bilimlarni o'rgatish hamda o'rganish jarayonida ta'lim beruvchi va o'quvchilarning o'zaro faolliklari va buning ahamiyati, interaktiv usullarni tashkil qilish, takomillashtirish, nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish masalasidir. O'tgan asrlarda mutafakkirlar, ustozlar o'z shogirdlari bilan o'tkazgan mashg'ulotlarida, hozirgi davrlarda esa, pedagog olimlar o'z tadqiqotlarida va amaliy faoliyatlarida bunday jarayonlarga jiddiy e'tibor berib kelmoqdalar.

Jumladan, Abu Ali Ibn Sino "Tib qonunlari" asarida yosh bolalarni tug'ilganidan boshlab voyaga yetguncha ma'lum tartibda tarbiyalab borish, lozimligini qayd etib o'tgan. Buyuk mutafakkir bolalarni nimalarga o'qitish va uqitish usullari haqida muhim fikrlarni olg'a suradi. Shu o'rinda Ibn Sinoning "Tadbir-ul manozil" asaridagi maxsus bo'limda, bolani o'qitishda qanday didaktik yondoshish zarurligi haqida so'z yuritilgan. Uning ta'kidlashicha:

- Bolani birdan kitobga jalb qilib qo'yimaslik kerak.

- O'qitish asta-sekin osondan qiyinga o'tish yo'li bilan olib borilishi lozim.

- O'quvchilar bilan amalga oshiriladigan tarbiyalarning yoshiga mos bo'lishi shart.

- O'qitish jamoa tarzida uyushtirilishi darkor.

- Bolaning mayli va qobiliyatini hisobga olgan holda olib borilishi kerak.

- Jismoniy mashqlar bilan qo'shib borilishi zarur.

Bu jarayonda, Ibn Sino o'qituvchining oldiga ham bir nechta talabni qo'yadi.

Uning fikricha:

Tarbiyachi bolalar bilan muomalada bosiq bo'lishi kerak. Pedagog o'qituvchilar ta'limni qanday o'zlashtirib borayotganini kuzatib borishi lozim.

O'qitish jarayonida pedagog har xil usullarni qo'llashi lozim.

O'qituvchi o'quvchining xotirasi va boshqa aqliy qobiliyatini bilishi lozim.

Ibn Sino bolalarni yakka tartibda o'qitishdan ko'ra jamoa tarzida o'qitishni afzal deb biladi va bu usulning ustunligi haqida shunday deb yozadi: "O'quvchilar o'qish va tarbiya davomida ilmga chanqoqlik sezadilar. O'z bilimlari bilan g'ururlanadilar, bir-birlarining bilimlariga havas qiladilar. O'quvchilar birga bo'lganlarida doim o'zaro gaplashadilar va bu bilan o'z xotiralari va nutqlarini rivojlantiradilar".

Allomaning bu fikrlarini tahlil qiladigan bo'lsak, bolalarni birgalikda, ya'ni interfaol jarayonda o'qitish va tarbiyalash ularda quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirishi to'g'risida xulosaga kelish mumkin.

Bular:

- o'zaro, muloqot-kommunikativ kompetensiya;
- motivatsiya;
- o'ziga ishonch;
- boshqalarning yutug'ini ko'rish, ya'ni tahlil qilish;
- o'z ustida izlanish, ya'ni ijodkorlik;
- sog'lom raqobatni yuzaga keltirish, ya'ni izlanuvchanlik;
- o'z fikrlarini bayon etish, ya'ni notiqlik kompetensiyasini rivojlantiradi.

Umuman olganda, kompetensiya so'zi XX asrning 70-yillarida paydo bo'lib, 80-yillarning oxirlarida pedagogik jarayonga kirib kelgan. Kompetensiya lotin tilidan olingan bo'lib, (competere)-mos, loyiq degan ma'noni anglatadi. XXI asrda o'quvchilarning ta'lim jarayoniga mos, loyqligini bildiruvchi shaxsiy va tayanch kompetensiyadan iborat ikkita asosiy kompetensiyalar yo'nalishini ko'rsatib o'tish mumkin:

Shaxsiy kompetensiyalar (ular o'quvchining shaxs sifatidagi kompetenliligini ifodalaydi), bular quyidagilar:

- tarbiyali;
- muloqotga kirishuvchan;
- fikrini mustaqil bayon etuvchi;
- lider, o'ziga ishonuvchi;
- o'zini va o'zgalarni hurmat qiluvchi;
- jamiyatning ijtimoiy hayotida faol ishtirok etuvchi;
- umummadaniy qadriyatlarga ega va ularni hurmat qiluvchi;
- sog'lom turmush tarziga amal qiluvchi.

Tayanch kompetensiyalar:

- bilimli;
- jodkor;
- izlanuvchan;

- zamonaviy texnologiyadan foydalana oladigan;
- xorijiy tillarni biladigan;
- tahliliy yondasha oladigan;
- obyektiv baholay oladigan.

Abu Ali Ibn Sino aynan shu masala yuzasidan o'z fikrlarini bayon etgan. Shunga ko'ra, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining kompetensiyasini rivojlantirish masalasi avvaldan ham mavjud ekanligi va hozirgacha o'z dolzarbligini yo'qotmaganligi ayon bo'ladi.

Yuqorida aytilganlardan xulosa qilish mumkinki, innovatsion ta'lim jarayonida o'quvchi kompetensiyasi an'anaviy ta'limga nisbatan samaraliroq shakllanadi va rivojlanadi.

## **ZAMONAVIY TA'LIM SHAROITIDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI O'QITUVCHISINING KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH**

*Xaliqova G.T.,  
Navoiy viloyati PYMO'MM katta o'qituvchisi*

Jahon ta'limi tizimdagi raqamli texnologiyalar orqali o'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya kompetensiyalarini individual rivojlantirish, ochiq, moslashuvchan, yangi bilim va pedagogik jarayonlar ta'lim jarayonida tashkil etishga qaratilgan modellardan foydalaniladi. Bu borada raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ularni ish bilan ta'minlash bosqichlarida zamonaviy pedagoglarni shakllantirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Keyingi yillarda respublikamizda fanning rivojlanishi ustuvor yo'nalishlardan biri davr talabi bo'lgan raqamli texnologiyalar o'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya kompetensiyasi ta'lim, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi aniq va tabiiy fanlar bo'yicha o'qitish jarayonlarini rivojlantirish takomillashtirish, onlayn ta'lim platformasini rivojlantirish amalga oshirish uchun normativ-huquqiy baza ishlab chiqilmoqda. Zamonaviy axborot jamiyatida kompyuter va axborot texnologiyalari hayotning turli sohalarida, masalan, biznes, ta'lim, ilmiy tadqiqotlar, tibbiyot va boshqalarda asosiy rol o'ynaydi.

Kompyuter va axborot texnologiyalari fanini o'qitishning dolzarb muammolaridan biri o'quv materiallari va o'qitish metodikasini doimiy ravishda yangilab turishdir. Texnologiyalar tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda va bir necha yil oldin dolzarb bo'lgan narsa allaqachon eskirgan bo'lishi mumkin. O'qituvchilar so'nggi tendentsiyalardan xabardor bo'lish va o'quvchilarga zamonaviy bilimlarni taqdim etish uchun o'qitishning yangi yondashuvlarini topishlari kerak.

Kompyuter va axborot texnologiyalarini muvaffaqiyatli o'rgatish uchun nafaqat texnik bilimlarga, balki bu bilimlarni o'quvchilarga samarali o'tkazish qobiliyatiga ham ega bo'lish zarur. O'qituvchilar texnologiya o'zgarishlariga moslasha olishlari va o'zlarini doimiy ravishda o'rganish va rivojlantirishga

tayyor bo'lishlari kerak. Informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchisi o'quvchilarda yuqorida qayd etilgan kompetensiyani tarkib toptirish maqsadida o'quv fani mazmunini tahlil etishi, o'qitishning barcha shakllari: dars, darsdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda olib boriladigan ishlarni tizimli va bir-biriga uzviy ravishda bog'lagan holda amalga oshirishni loyihalashi lozim. Zamonaviy dunyoda informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchisining roli tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi va ularning hayotning turli jabhalariga ta'siri sharoitida informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchisi kompetensiyalari nafaqat texnik bilimlarni, balki o'quvchilarning sifatli bilim olishiga hissa qo'shadigan pedagogik va shaxslararo ko'nikmalarni ham o'z ichiga oladi. U quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

1. Texnik bilim va ko'nikmalar: Informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi jumladan, dasturlash, ma'lumotlar bazalari, tarmoq texnologiyalari va boshqalar sohasida chuqur bilimga ega bo'lishi kerak. talabalarga tegishli va sifatli ta'lim berish.

2. O'qitish mahorati: Informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchisining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida o'qitish metodi va strategiyasini egallash muhim o'rin tutadi. Darslarni rejalashtirish, o'quv materiallarini ishlab chiqish, o'quvchilarning faol o'zaro munosabatini ta'minlash va rag'batlantiruvchi o'quv muhitini yaratish qobiliyati muhim kompetensiyalardir.

3. Moslashuvchanlik va innovatsiyalar: Zamon o'zgarimoqda va ta'lim texnologik taraqqiyot bilan hamnafas bo'lishi kerak. Informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi yangi o'zgarishlar va yangiliklarga moslashishga, o'quv jarayonini o'quvchilar uchun qiziqarli va samaraliroq qilish uchun yangi texnologiyalarni joriy etishga tayyor bo'lishi kerak.

4. Muloqot ko'nikmalari: Informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchisi talabalar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot qilish uchun yaxshi muloqot qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Murakkab tushunchalarni sodda va tushunarli tilda tushuntira olishi va sinfda ochiq va ishonchli muhitni saqlab turishi kerak. Informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchisining malakasini rivojlantirish uchun turli yondashuv va usullardan foydalanish kerak:

Kasbiy ta'lim va malaka oshirish:, seminar va treninglarda ishtirok etish imkonini beradi. Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish kerak. Informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish ularning kasbiy rivojlanishining ajralmas qismidir. Ixtisoslashtirilgan kompyuter dasturlari, onlayn kurslar va veb-platformalar kabi pedagogik dasturiy vositalar o'qituvchilarga informatika va axborot texnologiyalari sohasidagi ta'lim faoliyati uchun maxsus ishlab chiqilgan zamonaviy o'qitish usullari va vositalaridan foydalanish imkonini beradi. O'qituvchilarni kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish zarur.

**Pedagogik dasturlardan foydalanishning afzalliklari:**



1. Kasbiy bilimlarni kengaytirish: Pedagogik dasturiy ta'minot informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilariga axborot texnologiyalari ta'limi sohasida yangilangan ma'lumotlar, yangi yondashuvlar va ilg'or tajribalardan foydalanish imkonini beradi. Bu ularga bilimlarini kengaytirishga va sohadagi so'nggi yangiliklardan xabardor bo'lishga yordam beradi.

2. O'qitish malakasini oshirish: Informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilari pedagogik dasturiy ta'minotdan foydalangan holda o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, interfaol materiallar yaratish, o'quv dasturlarini o'quvchilar ehtiyojlariga moslashtirish va ularning muvaffaqiyatini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Bunday vositalar, shuningdek, o'qituvchilarga o'quv jarayonini shaxsiylashtirishga yordam beradi va uni o'quvchilar uchun yanada qiziqarli va rag'batlantiradi.

3. Hamkorlik va tajriba almashish: Pedagogik dasturiy vositalar ko'pincha informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilari o'rtasida hamkorlik qilish va tajriba almashish imkoniyatini beradi. Ular muloqot qilishlari, materiallar, g'oyalar va ilg'or tajribalarni almashishlari mumkin, bu o'qituvchilar jamoasining kollektiv va kasbiy rivojlanishiga hissa qo'shadi.

4. Zamonaviy talabalarning ehtiyojlariga moslashish: Pedagogik dasturiy vositalardan foydalangan holda informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilari o'z o'quvchilarining xususiyatlariga samarali moslasha oladilar va dars yanada samarali natijaga erishadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo'lajak o'qituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qo'llanma. – T.: TDPU Rizografi, 2014 yil. 6,5 b.t;
2. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: "Nihol" nashriyoti, 2013, 2016.–279
3. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: 2015. – 208 b.
4. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped.fan.dokt. ... diss. –T., 2007.-349 b.
5. Abduqodirov A.A., Ishmuxamedov R., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2008. – 180 b.

#### **Internet materiallari**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz),
2. [www.ref.uz](http://www.ref.uz)
3. [www.citforum.uz](http://www.citforum.uz)
4. [www.winfaq.com.ru](http://www.winfaq.com.ru)
5. [www.en.wikipedia.org/wiki/Windows\\_NT](http://www.en.wikipedia.org/wiki/Windows_NT)
6. [www.infocom.uz](http://www.infocom.uz)

## TASVIRIY SAN'AT YO'NALISHIDA INNOVATSIYALAR, INVESTITSIYALAR VA INTELLEKTUAL SALOHIYATNI OSHIRISHDA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

*Ilyasova U.A.,  
Navoiy viloyati PYMO'MM o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada ta'limda fan va ishlab chiqarish bilan integrasiyasining asosli mexanizmlarini ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy etish. Mustaqil masofaviy ta'lim tizimi bilan bilim olishni individuallashtirish texnologiyasini ishlab chiqish va axborot texnologiyalari asosida elektron ta'limdan foydalangan holda talabalar o'qishini jadallashtirish. O'quv jarayonini elektron ta'lim asosida tashkil etish, shu jumladan, o'quv materiallarini bayon etishni takomillashtirish tamoyillariga ma'lum o'zgartirishlar kiritish haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** axborot-kommunikasiya texnologiyalari, Internet texnologiyalari, elektron ta'lim, elektron ta'lim resurslar, multimedia, multimediali o'qitish.

Axborot jamiyatiga o'tish zaruriyati jahon iqtisodiyotida yangi texnologik tartib shakllanishi va ustuvorligi, axborot resurslarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning haqiqiy resurslariga o'tishi, jamiyatni axborot mahsulotlari va xizmatlariga bo'lgan talabini qondirish, ijtimoiy ishlab chiqish tizimida axborot kommunikatsion infrastruktura ahamiyatini oshishi, xalqaro axborot almashinuvlar asosida maorif, ilmiy-texnik va madaniy sohalarning takomillashuvi, "global axborot afzalliklarini" teng huquq asosida ishlatish bilan shartlanadi. Oxirgi yillarda elektron ta'limning an'anaviy ta'limga qaraganda afzallik jihatlari ko'proq aniqlanmoqda. So'nggi vaqtlarda ta'lim oluvchilar va o'qituvchilar an'anaviy ta'limning ba'zi turlariga qaraganda onlayn ta'limning afzalliklari ko'proq degan xulosaga kelmoqdalar. Sababi, ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan raqamli o'qitish platformalari ko'paymoqda, bunda an'anaviy va onlayn ta'limning eng yaxshi tomonlari birlashtirilib aralash ta'lim tizimi shakllantirilmoqda. Aralash ta'lim narxining pastligi, moslashuvchanligi, bepulligi, bundan tashqari ta'lim jarayonida murakkab texnologiyalarni qo'llash afzalligi ushbu alternativa uchun sabab bo'ladi. Bu tendensiyaga bo'lgan qiziqish ta'lim jarayonida talabalarga ta'sir etadi va ta'lim sifatini oshiradi. Ko'pgina tadqiqotlar onlayn ta'lim, kreativ fikrlashni rivojlantirishga sabab bo'lishini ko'rsatgan, ya'ni mustaqil ta'lim olishiga, individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda o'quv jarayoniga moslashtirish qobiliyatini shakllantirishga asos bo'ladi. Elektron ta'limda rivojlanishni, raqamli dunyoda o'zini erkin tutishni, ya'ni kerakli ma'lumotlarni yuklab olishni, tahlil qilishni, onlayn kontentlardan erkin foydalana olish qobiliyatini ko'rishimiz mumkin. Vaqt o'tgan sayin ushbu tendensiyaga texnologiyalarni qo'llash asosida an'anaviy ta'limning hohlagan turi, metodi, ta'lim berish usulini kiritishimiz mumkin. Hozirgi globallashtirish davrida internet tarmog'i orqali real vaqt tizimida

o'qitish tezlik bilan rivojlanib borayotgan ta'lim olish turlaridan biri hisoblanmoqda. Elektron ta'lim tizimi ixtiyoriy masofadan hech bir to'siqlarsiz ta'lim berish va ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, an'anaviy ta'lim tizimiga nisbatan real vaqt tizimidagi masofaviy ta'lim tizimida o'qitish samaradorligi yuqoriroqdir (Means, Toyama, Merfi, Bakiya va Jons, 2013). Real vaqt tizimidagi masofaviy o'qitish tizimida video ma'ruzalardan foydalanish eng samarali o'qitish usulidir. Misol keltiradigan bo'lsak, Vang (2008) Tayvand davlatida 10 yil meditsina sohasida o'qib, onlaynda o'qitilayotgan tibbiyot bo'yicha video ma'ruzalar yordamida aholi orasida tibbiy xizmatni yaxshilanganligini aytadi. Yana bir misol, Janubiy Koreyaning poytaxti Seul shahrida joylashgan Chung-Ang universitetida har bir fan bo'yicha onlayn elektron sinfi (e-class) mavjud. Fanga qatnashishga ro'yxatdan o'tgan talaba —e-class ga ham kirish huquqiga ega bo'ladi. Ushbu -e-class da nafaqat Microsoft Power Point dasturida qilingan prezentatsiyalar balki, video ma'ruzalar, uy vazifasi topshiriqlari ham mavjud. Mashg'ulotga ma'lum sabab bilan qatnasha olmagan yoki darsni yaxshi o'zlashtira olmagan talaba —e-class ga kirib video ma'ruzalardan foydalanishi mumkin. Bu albatta ta'lim olish samaradorligini yanada oshiradi va yetuk kadrlar tayyorlashga zamin bo'ladi degan fikrdaman.

Hozirgi kunda ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) shiddat bilan kirib kelishi bilan birga, u ta'limning samaradorligini oshirishda eng qulay omillardan biri bo'lib qolmoqda. Shuning uchun ham ilg'or mamlakatlar ta'lim tizimida kompyuter texnikasidan, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanishga qaratilgan izlanishlar to'xtovsiz kechmoqda. Umuman olganda, hozirgi kunda jamiyatni standart sanoatlashgan iqtisodiyotdan yangi iqtisodiyotga o'tishi kuzatilmoqda.

Yangi iqtisodiyot mijozlari – foydalanuvchilar iqtisodiyoti hisoblanadi, shuning uchun jahon axborot va telekommunikatsiya sanoatini rivojlanishini asosiy omili keng ko'lamda yangi avlod xizmatlarini taqdim etish bo'lib kelmoqda. Ta'limda fan va ishlab chiqarish bilan integrasiyasining asosli mexanizmlarini ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy etish, o'qishni, mustaqil masofaviy ta'lim tizimi bilim olishni individuallashtirish, texnologiyasini ishlab chiqish va o'zlashtirish, yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalari asosida ETdan foydalangan holda ta'lim jarayonini jadallashtirish ana shunday dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. O'quv jarayonini ET asosida tashkil etish, shu jumladan, o'quv materiallarini bayon etishni takomillashtirish tamoyillariga ma'lum o'zgartirishlar kiritish kerak bo'ladi. Bunda ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va ulardan foydalanish maqsadga erishishdagi eng samarali yo'ldir. Ta'lim tizimiga elektron axborot ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish, ta'lim muassasalarining moddiy texnik bazasini tanqidiy baholash va takomillashtirishdagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- ETni o'quv jarayoniga tatbiq etish uchun lozim moddiy texnika bazasini yaratish;

- o'quv jarayoni uchun ET mo'ljallangan ta'lim texnologiyalarini yaratish va qo'llash;
- jamiyatni zamonaviy ET texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalarini shakllantirish;
- ETni joriy etish orqali ta'lim tarbiya va o'qitish jarayonining samaradorligini oshirish.

Elektron axborot resurslari ta'limga oid axborotlarni yig'ish, saqlash, uzatish, qayta ishlash usul va vositalari majmuidan iborat bo'lib, u ta'limga oid turli axborotlarning yaratilishini belgilovchi ichki va tashqi omillarga bog'liq: - ichki omillar — bu axborotlarning yaratilishi, turlari, xossalari, axborotlar bilan turli amallarni bajarish, ularni jamlash, uzatish, saqlash va h.k.

### Foydalanilgan adbiyotlar

1. Nazarova, S. A., Mirzarahimov, B. H., Narmanov, U. A., Ortikov, O. H., & Uktamov, K. F. (2021). The Role Of Uzbek Tourism Culture And Its Historical And Cultural Transformation Processes In Economic Development. *Int. J. Of Aquatic Science*, 12(3), 2776-2785.
2. Baratova, D. A., Khasanov, K. N., Musakhonzoda, I. S. O., Tukhtarova, M. Y. Q., & Uktamov, K. F. (2021). Econometric Assessment of Factors Affecting the Development of Life Insurance in Uzbekistan. *REVISTA GEINTEC-GESTAO INOVACAO E TECNOLOGIAS*, 11(2), 1123-1138.
3. Measuring the Information Society (MIS). Executive Summary. ITU edition, 2015.

## MAKTABGA TAYYORLASHNING ILMIY PEDAGOGIK ASOSLARI

*Rahmonova D.M.,  
Navoiy innovatsiyalar universiteti katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida maktabga tayyorlov guruhlarining jismoniy rivojlanish, ma'naviy rivojlanish hamda bolalarda nutq rivojlanishini ilmiy va pedagogik jihatlariga oid taklif va tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** tarbiyachi, pedagog, hissiy rivojlanish, nutqni rivojlantirish, ma'naviy rivojlanish, jismoniy rivojlanish, variativ dastur.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarda bilimga, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, fikrlarini mustaqil va erkin ifodalay olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish bugungi kunning asosiy vazifalaridandir. Jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi siyosiy va iqtisodiy sohalar bilan bir qatorda ta'lim tizimini o'zgartirish, uni bugungi kun talablari asosida tashkil qilish maqsadida bir qator mazmunli ishlar izchil amalga oshirib kelinmoqda. Ta'lim sohasida keng joriy qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 8-moddasida: "Maktabgacha ta'lim yosh avlodni tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, yetik, estetik

va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek, bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir"<sup>1</sup> deyilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PQ-4312-sonli qarorida ham maktabgacha ta'lim muassasasida 6-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorgarlik monitoringini joriy etish va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish zarurligi ko'zda tutilgan. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash, u yerda beriladigan ta'lim-tarbiyani to'liq o'zlashtira olishlariga erishish maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarining asosiy faoliyatlaridan bir qismidir. Maktab ta'limiga tayyorgarlik - bu maktabgacha ta'lim muassasasi va oilada bolalarga berilgan ta'lim-tarbiyaning muhim natijasidir. U maktab bolaga qo'yadigan talablar majmui orqali aniqlanadi. Bu talablarning o'ziga xos tomoni o'quvchining yangi sotsial-psixologik o'rni, u bajarishi lozim bo'lgan yangi vazifa va burchlarni o'zida mujassam qiladi. Yetakchi mutaxassislarning fikriga ko'ra, "maktabga tayyorgarlik" tushunchasi bolani maktabga tayyorlashning quyidagi yo'nalishlarini o'z ichiga oladi:

- jismoniy;
- shaxsiy (ruhiy);
- aqliy;
- maxsus tayyorgarlik.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'lig'ini ta'minlash ularni maktab ta'limiga tayyorlashning vazifalaridir.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar, asosan, maktab ta'limiga maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va oilada tayyorlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni rivojlantirish va maktab ta'limiga tayyorlash 3 bosqichda amalga oshiriladi.

1. Bolalarning nutqini rivojlantirish.
2. Jismonan rivojlantirish.
3. Ma'nan rivojlantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari sog'lom va yetuk, maktabga, o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirib borishdan iboratdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama tarbiyalash muammosi tarixiy xarakter kasb etib, bu borada Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, A.Navoiy kabi sharq mutafakkirlari tomonidan yaratilgan ta'lim-tarbiyaga oid ilmiy adabiyotlar muhim ahamiyatga ega. Yosh avlodga har tomonlama ta'lim-tarbiya berish maqsadida B.Adizov, P.Jo'rayev, O.Jamoldinova, M.Inomova, O.Musurmonova, M.Quronov, Z.Ismoilova, U.Mahkamovlar tomonidan ijtimoiy-pedagogik, antropologik va akmeologik masalalar ilmiy darajada o'rganib chiqilgan. Psixolog olimlardan M.Davletshen, B.Karimova,

<sup>1</sup> "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun 2020-yil 23-sentyabr.

Z.Nishonova, N.Safayev, E.G'oziyevlar tomonidan muammoning psixologik jihatlari o'rganilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 6-7 yoshli bolalar uchun mo'ljallangan majburiy boshlang'ich bir yillik tayyorlash guruhlarida bola portfoliosini yaratish orqali bolani maktab ta'limiga tayyorlash va o'sib kelayotgan yosh avlod bilimlil va yetuk malakaga egaligini ta'minlaydi. Respublikamizda bu vazifalarni hal qilish borasida bir qator ilmiy-tadqiqot, o'quv-pedagogik, uslubiy va dasturiy ishlar amalga oshirilgan. Respublikada maktabgacha ta'lim tizimi bo'yicha qabul qilingan "Ilk qadam" tayanch dasturi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashdek zarur ishni ta'minlaydi. Ya'ni, bu o'rinda maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab ishidagi izchillik katta ahamiyat kasb etadi. Bu izchillik ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari orqali ta'minlanib, izchillikni amalga oshirishning mavjud imkoniyatlari, ta'lim tizimi va uning tarkibiy va g'oyaviy tuzilishi prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida bolalarni samarali maktab ta'limiga tayyorlash haqidagi qator qaror va farmoishlar ijro etilmoqda. P.Yusupova, R.M.Qodirova, D.Abdurahimova, X.B.Tulenova, D.R.Boboyeva, V.I.Loginova, P.R.Samorukova, M.A.Solihova, K.S.Shodiyeva, Sh.A.Sodiqovalar tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish va maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash muammolari o'rganilgan. Bolalarni maktabga tayyorlash, birinchidan, bolalar bog'chasida tarbiyaviy ishni maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni umumiy, har tomonlama rivojlantirishning yuqori darajasini ta'minlaydigan, ikkinchidan, bolalarni maktabning boshlang'ich sinflarida o'zlashtirishlari lozim bo'lgan o'quv fanlarini egallashga maxsus tayyorlashni ta'minlaydigan qilib tashkil etilishini nazarda tutadi. Shunga ko'ra zamonaviy psixologik-pedagogik adabiyotda (A.V.Zaparojets, A.A.Venger, G.M.Lyamina, G.G.Petrogenko, J.V.Taruntayeva va boshqalar) tayyorgarlik tushunchasi bola shaxsini rivojlantirish sifatida aniqlanadi va ikkita o'zaro bog'langan jihatlarda: "Maktabga o'qishga umumiy psixologik tayyorgarlik" va "Maxsus tayyorgarlik" tarzida ko'rib chiqiladi.

Bolalar oilada tarbiyalanadi va unda yuz beradigan voqealar ularga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari maktabgacha yoshdagi bolaning ilk tabiyachisi sifatida bola shakillanishida va rivojlanishida mas'uliyat bilan yondashmoqlari lozim. 6-7 yoshli bolani maktabga sifatli tayyorlash hamkorlik asosida shakllangan munosabatlarga tayanadi. Mutaxassislar tomonidan hozirda 6-7 yoshli maktabgacha yoshdagi bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik bepul tayyorlash bo'yicha guruh pedagoglarining lavozim yo'riqnomasi ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, boshlang'ich ta'limni majburiy bir yillik tayyorlash uchun guruhdagi pedagog lavozimiga asosiy xodimlar orasidan maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarning buyrug'i bilan tayinlanadi. Guruh pedagogi quyidagilarni bilishi zarur: O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiya" va sohaga oid normativ hujjatlarni bilishi lozim. 6-7 yoshli bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash

bo'yicha guruh tarbiyachisi guruhda o'z tajribalaridan kelib chiqqan holda pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega. Tarbiyachi tegishli ixtisoslashtirilgan ma'lumotga, kasbiy tayyorgarlikka va yuqori axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan shaxslar bo'lishi lozim. Bolalar nutqini rivojlantirishda lug'at ustida ishlash yaxshi samara beradi, ya'ni bola nutqidagi passiv so'zni faollashtirish eng sinalgan usullardandir.

Jumladan, buyumlarning nimadan yasalganini bildiruvchi so'zlar - temir, yog'och, loy, plastmassa, gazlama kabilarni o'zlashtirib boradilar. So'ng biz ularni o'zga tilga o'rgatib, so'z boyligini oshirib boramiz". Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining eng asosiy vazifalaridan biri bu "maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ona tilida nutq o'stirish ishlarini yo'lga qo'yish"dir. L.R. Mirjalolova shunday deydi: "Bola hayotining yettinchi yilida "undagi harakatlar ko'lami kengayadi va aniqlashadi, uning jismida harakatlarning o'zaro moslashuvi boshlanadi. 6-7 yoshli bolalar o'zini idora qilish va o'z harakatlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'la boshlaydi. Bu yoshdagi o'g'il bolalarda mustaqil faoliyat ko'rsatish, tashabbuskorlik rivojlanadi hamda kattalar fikrini tinglash ishtiyoqi shakllanadi". Demak, bolalarni maktabga tayyorlashda soha olimlari, tadqiqotchi-pedagoglarning ilmiy tadqiqot ishlari tarbiyachilarga yaqindan yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Xalq so'zi" gazetasi, 2020., 24 sentabr, 202 (7704)-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risi"da gi PQ-4312-sonli qarori (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.10.2018-y.
3. "Bolalarni maktabga tayyorlashning pedagogik-psixologik, tashkiliy-metodik jihatlari". Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Toshkent, 2015.

### **UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA FIZIKA FANINI LOYIHA ISHLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING AFZALLIKLARI**

*Rahmonov U. U.,  
Navoiy viloyati PYMO'MM metodisti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'quvchi yoshlarga tabiiy fanlarni chuqur o'rgatish ularda bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish, tinimsiz kuzatuvchanlikni rivojlantirish uchun ta'lim tizimini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish va shu orqali yoshlarda mustaqil fikrlash hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qarayilgan loyiha ishlarining afzalliklari o'z aksini topgan.

**Tayanch iboralar:** loyiha ishi, amalga oshirish va yashash orqali o'rganish, amaliy tajriba, idrok, vaqtni boshqarish, kreativ fikrlash, prognoz qilish, jamoa bo'lib ishlash.

**Abstract:** In this article, the advantages of the project work aimed at the in-depth teaching of natural sciences to young students, the formation of knowledge, skills and abilities, the organization of the educational system based on modern technologies for the development of constant observation, and thereby the development of independent thinking and creative abilities in young people. found his reflection.

**Key words:** project work, learning by doing and living, practical experience, perception, time management, creative thinking, forecasting, teamwork.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются преимущества проектной работы, направленной на углубленное обучение юных школьников естественным наукам, формирование знаний, умений и навыков, организацию образовательной системы на основе современных технологий развития постоянной наблюдательности, и тем самым развитие самостоятельного мышления и творческих способностей у молодежи нашло свое отражение.

**Ключевые слова:** проектная работа, обучение на практике и в жизни, практический опыт, восприятие, тайм-менеджмент, творческое мышление, прогнозирование, работа в команде.

Ta'lim - bu umr bo'yi sayohat. Bu atrofimizdagi dunyoni tushunish va u bilan amaliy darajada bog'lanishning bir usuli. Ta'lim olish jarayoniga yordam beradigan har qanday narsa(metod), olingan bilim va malakalarning uzoq vaqt davomida ishlatilishi uchun elementar vosita sifatida qaralishi mumkin. Bugungi kunda ta'lim muassasalari ixtiyorida laboratoriya ishlari, amaliy mashg'ulotlar, nazariy mashg'ulotlar, didaktik o'yinlar kabi bir nechta bunday vositalar mavjud. Ulardan yana biri amalga oshirish va yashash orqali o'rganishga undovchi loyiha ishi tushunchasidir.

Loyiha ishi - individual yoki jamoaviy tadqiqot qilish va tadqiqot davomida olingan natijalarni ma'lum bir tarzda taqdim etish kabi aniq vositalar orqali o'rganishni o'z ichiga olgan o'rganish usuli sifatida ta'riflanishi mumkin. U tajriba orqali o'rganish tamoyillarini singdiradi, targ'ib qiladi va qo'llab-quvvatlaydi.

Loyiha ishilariga tajribalar asosidagi o'rganish jarayoni sifatida qaralishi mumkin - to'g'ri kontekstda (jips, bog'lanish, qo'shilish) va to'g'ri foydalanilganda ham yaxlit, ham ta'lim beruvchi tajriba turi. Maktab o'quvchilarining loyiha ishlarini bajarishlari kerakligi talab qilinmoqda. Ular o'zlarini ta'lim tizimining bilimlarini o'zlashtirish jarayoni va atrof-muhitdan olgan ma'lumotlarini o'rganish yuki bilan haddan tashqari yuklaganliklarini his qilishadi va loyiha ishi unga faqat qo'shimcha bo'ladi. Biroq, bunday emas. Loyiha ishlarni maktablarda o'qitish vositasi sifatida qo'llashning ko'pgina afzalliklari bor.

#### **Maktabda loyiha ishining afzalliklari.**

Loyiha ishi bugungi kunda ta'limning juda muhim jihati ekanligining ba'zi sabablari:

- Idrokni yaxshilaydi



Idrok - fikrlash, tajriba va inson ong-u tafakkuri orqali o'rganish jarayonini anglatadi. U aql, diqqat, fikrlash, xotira, mulohaza yuritish, baholash va hokazo kabi intellektual jarayonlar va funksiyalarning barcha jihatlarini o'z ichiga oladi. Bunday kognitiv (ma'lumotni tushunish va xabardor bo'lish qobiliyati) jarayonlar yangi bilimlarni kashf qilish uchun mavjud bilimlardan foydalanadi. Shu nuqtai nazardan, loyiha ishi insonning ma'lumotlarni tushunish va xabardor bo'lish kabi qobiliyatlarini oshiradi va yaxshilashga yordam beradi. Hamda vaqt o'tishi bilan ularning olgan bilimlarini yanada aniqroq va chuqurroq o'rganishlariga xizmat qiladi.

- Ularga amaliy tajriba beradi

Loyiha ishining asosiy g'oyasi - o'quvchi o'z tadqiqot ishini amalga oshirishi, o'zi o'rganmoqchi bo'lgan konsepsiya (majmua, tizim) yoki hal qilmoqchi bo'lgan muammoga amaliy yechimlar topishiga ishonch hosil qilishidir. Loyiha ishidan o'quvchilar, faqat nazariy jihatdan o'rganishni emas, balki qo'lda bajarib boshdan kechirishlarini ta'minlaydigan vosita sifatida foydalanishadi. Amaliy tajriba orqali biror narsani o'rganganliklaridan ma'lum bir darajada qoniqish hissi vujudga keladi va bu ularda juda uzoq vaqt davomida saqlanib qoladi. Ular buni har qadamda amalda bajarganliklari sababli, ular nafaqat yakuniy natijani, balki ushbu muayyan faoliyatni amalga oshirishda xato qilishning ham turli usullarini bilishadi. Bu o'quvchiga nafaqat muayyan ishni qanday qilish kerakligini, balki xatolarni yana takrorlamaslik uchun uni to'g'ri bajarish jarayonini ham o'rganish imkoniyatini beradi.

- Ularning qobiliyatlarini sinovdan o'tkazadi

Loyiha ishlari asosida ta'lim olishning eng muhim jihatlaridan biri bu jarayonning o'zi va jarayondan bilim, malaka va ko'nikmalarni o'rganish mumkinligidir. Insonning qobiliyatlari - bu uning biror narsaga qodir bo'lgan mahoratidir. Turli odamlar turli xil qobiliyatlarga ega va ular biror narsaga qanchalik moyil bo'lsa, muvaffaqiyatga erishish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi. Uni amalda qo'llash va oxir-oqibatda yaxshi bo'lish uchun ularning qobiliyati nimada ekanligini aniqlay olishi kerak. Muayyan loyihaga o'xshab biror narsaga kirishayotganda, o'quvchi o'zining kuchli va zaif tomonlari nimada ekanligini birinchi qo'lda bajarib bilib oladi va shunga mos ravishda nimada yaxshi ekanini aniqlaydi. Ular bu tajribaga ega bo'lgach, o'zlarining kuchli tomonlarini yaxshilashga va zaif tomonlarini kamaytirishga e'tibor berishlari mumkin. Bunday o'rganish hayotning keyingi bosqichlarida juda foydalidir, chunki bu ularga nima qila olishi va qila olmasligi, eng muhimi, nima qilishni xohlayotgani va nima qilishni xohlamasligi o'rtasidagi mukammal chiziqni topishga yordam beradi.

- Vaqtning boshqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi

Loyiha ishi o'quvchiga topshirilganda, uni bajarish ko'pincha vaqt bilan bog'liq. Hujjat topshirishning boshlanish sanasi va vaqti bo'ladi, ya'ni o'quvchilar mavjud vaqtdan unumli foydalanish uchun jadval tuzishlari va unga rioya qilishlari kerak. Tuzilgan jadvaldan foydalanib, o'quvchilar o'z vaqtlarini

rejalashtirishlari va shunga mos ravishda biror faoliyat bilan shug'ullanishlari mumkin.

Amalga oshirish orqali o'rganish - bu o'quvchilarning faolligiga katta e'tibor beradigan nazariya bo'lib, amaliy, vazifaga yo'naltirilgan, ta'lim jarayonidir. Nazariya talabalarning ko'proq amaliy va tasavvurga ega bo'lgan o'rganish usullarida faol ishtirok etish jarayonini anglatadi. Bu jarayon boshqa ta'lim yondashuvlaridan ajralib turadi, chunki u ko'proq an'anaviy ta'lim uslublariga ko'plab pedagogik afzalliklarni beradi, masalan, inert bilimga ustunlik beradi. Amalga oshirib o'rganish sarguzashtli o'rganish, harakatli o'rganish, hamkorlikda o'rganish, tajribaviy o'rganish, tengdoshlarni o'rganish, xizmat ko'rsatish va joylashishni aniqlash kabi ta'limning boshqa turlari bilan bog'liq.

Yashash orqali o'rganish - bu o'quv dasturi sifatida real hayotdagi bilim va real hayotdan o'rganishdan foydalanadigan onlayn maktab.

Loyiha ishini bajarishda – o'quvchilar uchun maslahatlar

Loyiha ishi faqat o'quvchilar mustaqil ravishda o'rganishlari uchun mo'ljallangan, lekin biror loyiha ustida ishlashda o'quvchilar amal qilishlari lozim bo'lgan ba'zi narsalarni yodda tutishlari kerak. Ulardan ba'zilari quyida keltirilgan:

Taqdim etilgan muddat ichida topshirilganligiga ishonch hosil qiling. Ko'pincha, loyiha ishi o'quvchilar asosiy imtihondan o'tish uchun olishlari kerak bo'lgan ichki belgilar bilan bog'liq. Shunday qilib, bunday loyihaning vaqtni boshqarish jihatini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

Loyiha ishi haqida gap ketganda taqdimot juda katta ahamiyatga ega. Loyihaning dizayni shunday bo'lishi kerakki, u estetik jihatdan yoqimli ko'rinishi va ayni paytda minimalist va professional bo'lishi kerak. Agar loyiha ishi guruhga topshirilgan bo'lsa, jamoadagi har bir kishi loyiha haqida hamma narsani biladigan va har bir kishi o'z qismini aniq biladigan tarzda rejalashtiring. Ko'pincha shunday bo'ladiki, guruh yaxshi muvofiqlashtirilmaydi va natijada jamoa bir-biri bilan kurashadi va aybni o'zgartiradi. Har bir odamga o'ziga xos vazifalar to'plamini berish va har bir kishi o'z vazifasini bajarayotganini tekshirish orqali buni oldini olishga ishonch hosil qiling.

Xulosa qilib aytganda, loyiha ishi umumta'lim tizimining juda muhim qismidir. Shuning uchun o'quvchilar buni ko'p vaqt talab qiladigan va zerikarli deb bilishlari mumkin bo'lsa-da, uni mashq qilish kerak, chunki loyiha ishi yakunida ijobiy jihatlari kamchiliklardan ko'p.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Lesgold, Alan, and Martin Nahemow. "Tools to assist learning by doing: Achieving and assessing efficient technology for learning."
2. Morris, Thomas Howard (2019-01-24). "Experiential learning – a systematic review and revision of Kolb's model".
3. O'zbekiston Milliy axborot agentligi <https://uza.uz>.

## **YANGI BAHOLASH TIZIMINING AFZALLIKLARI**

*Niyozova G.E.,  
Navoiy viloyati PYMO'MM metodisti*

**Annotatsiya:** Maqolada ta'lim –tarbiya sifatini oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlardan biri mezonlarga asoslangan baholash tizimini joriy etish tartibi, uning ta'lim samaradorligini oshirishdagi roli, mavjud baholash tizimidan afzallik jihatlari to'g'risidagi fikrlar o'z ifodasini topgan.

**Tayanch iboralar:** formativ va summativ baho, bob bo'yicha summativ baho, chorak bo'yicha summativ baho, mezon asosida baholash, kreativ va kritik mulohazalar, prognoz qiluvchi, ta'limdagi partnyorlar.

**Abstract:** In the article, one of the reforms implemented in order to improve the quality of education, the procedure for introducing the evaluation system based on criteria, its role in increasing the effectiveness of education, and the advantages of the existing evaluation system are expressed.

**Key words:** formative and summative assessment, chapter summative assessment, term summative assessment, criterion-referenced assessment, creative and critical thinking, predictor, learning partners.

**Аннотация:** В статье выражена одна из реформ, реализуемых в целях повышения качества образования, порядок внедрения системы оценивания на основе критериев, ее роль в повышении эффективности образования, а также преимущества существующей системы оценивания. .

**Ключевые слова:** формирующее и суммативное оценивание, суммативное оценивание по главам, суммативное оценивание по срокам, критериальное оценивание, творческое и критическое мышление, предиктор, партнеры по обучению.

So'nggi yillarda ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar ta'lim sifatini oshiribgina qolmasdan, o'quvchi va o'qituvchilarni mustaqil ravishda izlanishga, o'z ustida ishlashga undamoqda. Shunday islohotlardan biri baholashning formativ va summativ ko'rishlaridir.

Butun dunyo olimlari o'rta yoshli o'quvchilarining bilim darajasini yaxshilash, ularning umumta'lim fanlariga qiziqishini orttirish maqsadida uzoq yillar ko'plab izlanishlar olib borib, ta'limda yangi baholash tizimining joriy etilishi shu kabi muammolarning yechimi bo'la olishi mumkinligini o'z tajribalari davomida isbotlashdi.

Mamlakatimizda ushbu islohotning natijadorligi Agentlik tizimidagi mutaxassislar tomonidan Yevropa va Markaziy Osiyoning 30 dan ortiq davlatlari tajribasi o'rganilib<sup>1</sup>, ba'zi o'zgartirishlar va qo'shimchalar asosida joriy qilindi. Respublikamizning bir qator maktablarida tajriba tariqasida o'quvchilar bilimni baholashning 5 ballik tizimi o'rniga mezonga asoslangan – 100 ballik baholash tizimi<sup>2</sup> joriy etildi. Ko'pgina davlatlarda o'quvchilar faqat summativ baholansa, bizda darslarda o'qituvchi rolini qaysidir ma'noda saqlab qolish maqsadida formativ baholash turi ham qo'shimcha sifatida kiritildi.

Zamonaviy ta'limga zamonaviy yondashish nuqtayi nazaridan joriy etilgan ta'limning yangi baholash turi formativ va summativ baho asosida shakllanadi.

Xo'sh, formativ va summativ qanday baholash turi, biz nimani baholaymiz? Keling, buni eski baholash tizimimiz bilan taqqoslab, ko'rib chiqamiz.

Shu paytgacha maktab o'quvchilariga nazariy bilimlar yetarli darajada berib kelindi. Bu nazariyaning qay darajada egallanganligi monitoring qilindi, ammo ushbu egallangan bilimning amaldagi ifodasi bilan hech kim qiziqmadi, o'quvchilarimizda ortiqcha parametrlil topshiriqlarni bajarish ko'nikmalari shakllanmadi, real hayotdagi muammolarni yechishda fikriy mustaqillikka erishilmadi, asoslashga doir masalalarni yechishda to'siqlarga duch kelsada, a'lo baholarda o'qishdi. Shu kabi muammolarni bartaraf etish maqsadida mezonlarga asoslangan baholash tizimi joriy qilindi. Mezonlarga asoslangan baholash tizimi bilish, qo'llash va mulohaza yuritish qobilyatlarining qay darajada shakllanganligiga ko'ra amalga oshadi. Buning ahamiyatli jihati nazariy ma'lumotga ega bo'lgan, uni real hayotda qo'llay olgan hamda mulohaza yurita olgan o'quvchida ko'nikma shakllanadi.

O'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishda mezonlarga asoslangan baholash tizimining o'rni beqiyos. Mavjud baholash tizimida baholashning subyektivligi, o'quvchining eslab qolgan ma'lumotlarini baholashgagina qaratilganligi, o'qituvchida ham, o'quvchida ham belgilangan maqsadning aniq emasligi, baholash uchun aniq mezonning yo'qligi hamda o'quvchining past o'zlashtirayotganligini bilsakda, uning asl sababini ko'ra olmayotganligimiz unchun ham bizni qoniqtirmadi. Yangi baholash tizimi esa mezonlar asosida shakllantirilib, o'quvchida o'z faoliyatini o'zi belgilashga, yangi bilimlarni kashf etishga, tadqiqot qilishga, o'z faoliyati uchun mas'ul bo'lishga va eng asosiysi, mustaqil xulosalay olishga imkon beradi. O'qituvchini ham o'z o'rnida o'quvchilarga ko'makdosh, yangi manbalarni tavsiya qiluvchi, o'quvchilar faoliyatini shakllantirishda yordam beruvchi, natijalarni prognoz qiluvchiga aylantiradi. An'anaviy baholash tizimida o'qituvchi sub'ekt, o'quvchi esa ob'ekt bo'lgan bo'lsa, tadqiqotlarga asoslangan ta'limda ularni partnyor sifatida ko'rishimiz mumkin.

Formativ va summativ baholash tushunchalariga keladigan bo'lsak, mezon asosida baholashda formativ baho – 10ball, summativ baho – 90ball miqdorida belgilangan. Formativda o'quvchi darsda ishtirok etishi hamda uyga vazifaning bajarilish darajasiga ko'ra baholansa, summativ baholash esa bo'lim yoki bob yakunida o'quvchi egallagan bilimlarini sarhisob qiluvchi nazorat ishlari (BSB) va chorak yakunida olinadigan sinov topshiriq (CHSB)lar asosida qo'yiladi. O'z o'rnida summativ baholashda BSBlar 50ball, CHSBlar 40ball qilib belgilangan. BSB topshiriqlari test, yozma ish, loyiha ishi, laboratoriya mashg'uloti, insho yoki amaliy topshiriq ham bo'lishi mumkin. CHSB faqat test ko'rinishida bo'lib, o'quvchining bilish, qo'llay olish darajasi, mulohaza yurita olish qobilyatlarini sinovdan o'tkazuvchi savollardan iborat. Har bir savollar va topshiriqlar belgilangan mezon asosida murakkablik darajasiga ko'ra ballanadi.

Mezonlar asosida baholashning afzallik jihatlaridan yana biri, o'qituvchi mezon bilan tanishgandan so'ng dars berayotganida o'quvchilarda qayna

bilimlarni, qaysi ko'nikmalarni rivojlantirishi kerakligini, mulohaza yuritishda nimalarga e'tibor qaratishi lozimligini biladi va shu tushunchalari asosida dars jarayonini olib boradi.

Ikkinchi tomondan, o'quvchilar ham endilikdan ulardan talab qilinayotgan bilimning turlari va ko'rinishlari bilan tanishgan holda, mustaqil ravishda hech qanday bosim va turtkisiz nazorat ishlariga puxta tayyorgarlik ko'rish kerakligini, egallagan bilimlarini nafaqat ma'lumot sifatida, balki mulohaza yuritib, kreativ va kritik yondashib, hosil bo'lgan bilimni amalda qo'llay olish ko'nikmalarini o'zlarida shakllantira boradilar.

Yuqorida sanab o'tilgan istiqbolli vazifalarni amalga oshirish maqsadida joriy o'quv yilida Respublikamizda 500 ta maktab tajriba-sinov asosida tanlab olingan bo'lib, har bir tajriba-sinov maktablarida belgilangan vazifaning qay darajada to'g'ri amalga oshayotganligini kuzatib borish, shuningdek, mavjud muammolarga yechim topib, amaliy yordam berish maqsadida Milliy markaz tomonidan kurator metodist hamda ixtisoslashtirilgan maktab o'qituvchilaridan iborat trenerlar ham birlashtirildi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi kelajak mutaxassislarini har tomonlama zamon talablariga mos ravishda kamol toptirishga qaratilgan, jumladan, yangi baholash tizimi ham. Demakki, maktablarimizda ushbu tizimning joriy etilishi o'qituvchi va o'quvchi portretini xalqaro ta'lim doirasida shakllanishiga asos bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Milliy axborot agentligi <https://uza.uz>.
2. <https://www.gazeta.uz>.

## **TA'LIM JARAYONIDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNING AHAMIYATI**

*Rahmonqulova S.,  
Navbahor tuman 5-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi*

Respublika ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollarini yaratish maqsadida amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasida mamlakatimiz ta'lim tizimi uning yangi negizlarini tashkil qilayotgan va jahon miqyosida tan olinayotgan bir qator yangi tamoyillar, texnologiyalar va usullar bilan boyitilmoqda.

Mamlakatimiz o'z mustaqilligiga erishgan dastlabki yillaridanoq ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, jumladan, yosh avlodga fan, texnika yangiliklariga tayangan holda chuqur va har tomonlama puxta bilim berish, davlatimiz ichki siyosatini ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralib kelinmoqda. Zero, dunyoning barcha rivojlangan davlatlari qatori, rivojlanish davrini o'z boshidan kechirayotgan respublikamizda ham ta'lim tizimi samaradorligini oshirish tobora birlamchi strategik vazifalar qatoriga qo'shilmoqda.

O'quvchilarning fundamental bilimlarni egallaganlik darajasini oshirish bu bilimlarni amaliyotga tatbiq eta olish malakalarini sifat jihatidan o'stirishga yo'naltirilgan vositalar sifatida yangi pedagogik texnologiyalar tatbiq etilmoqda.

Ta'lim jarayonida turli xil pedagogik texnologiyalar va innovatsion usullarni qo'llanilishi dars-mashg'ulotlarning samaradorligini oshiruvchi omillardan hisoblanadi. Ta'lim mazmuni, shakli va usullarini takomillashtirish, ularning uzviyligini ta'minlash, o'qitishning noan'anaviy usullari, zamonaviy axborot va ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, didaktik materiallar va texnik vositalarni qo'llash, fanlararo bog'lanishlarni hisobga olish bularning barchasi o'quvchilarning faolligini oshirishga qaratilgandir.

Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgani sababli ana shu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor berish lozim. Bu esa boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan juda katta mas'uliyat talab qiladi. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu esa boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik texnologiyalarini qo'llay olish mahoratiga asoslanadi. Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Bunday usullarda tashkil etilgan darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'lib hisoblanadi.

O'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo'zg'atish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega bo'lib bu o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Interfaol metodlar o'qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda ko'proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o'yin mashqlardan foydalanib, darslar o'tish yaxshi samara beradi. Ko'proq atrof-muhit bilan bog'lab o'tilgan mashg'ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkinfikrlash, bayon etish qobiliyatini, mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi. Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. O'z ishiga ixlos bilan qaragan o'qituvchida chinakam ehtiros bo'ladi. Ma'lumki, har bir dars mavzusini o'rganishda o'ziga xos texnologiya, usul va vositalarni tanlashga to'g'ri keladi. O'qitish jarayonida yuqori natijaga erishish uchun dars jarayonini oldindan ketma-ketligini mo'ljallash kerak bo'ladi. Bunda o'qituvchi predmetning o'ziga xos tomonlarini, o'quv jarayonini va sharoitini, o'quvchilarning ehtiyojini va imkoniyatlarini, bilim saviyasini, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiyalarni tanlashi lozim. Darsning oldindan loyihasi, ya'ni texnologik xaritasi tuziladi.

Texnologik xarita tuzish uchun o'qituvchi darsning har bir bosqichida amalga oshiriladigan ishlar, ularda o'qituvchining pedagogik va o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini tashkil etish, boshqarish va faollashtirish yo'llari, teskari aloqani amalga oshirish, ularga ajratilgan vaqtni aniq belgilash lozim. Texnologik xaritada albatta tashkiliy qism, yangi mavzuning motivatsiyasi, o'quvchilar bilimini tekshirish, yangi mavzuni o'rganish va uni mustahkamlash, erishilgan natijalarni tahlil qilish va yakun yasash kabi bosqichlari bo'ladi. Bunda o'qituvchi va o'quvchining dars davomida bajaradigan ishlari bosqichma-bosqich qayd etiladi. Dars texnologik xaritasining mukammal tuzilishi, maqsad va vazifalarini amalga oshirish, samaradorlikka erishish va bosqichlar o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash, vaqtda namunli foydalanish imkonini beradi.

Bugungi kunda interfaol usullarning juda ko'plab shakllari yaratilgan bo'lib, ulardan amalda samarali foydalanib kelinmoqda. Klaster, Aqliy hujum, Bumerang, Charxpalak, 6x6x6, zanjir, zig-zag, debat va shu kabi bir qator interfaol usulning shakllari majud bo'lib, ular ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish uchun respublikamiz o'rta maktablari, litsey va kollejlari hamda oliy ta'limdan iborat uzluksiz ta'lim tizimiga keng tatbiq etilmoqda.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalariga asoslangan ta'limning interfaol strategiyalari - ta'lim jarayonining yengillashuvini, aniqlashuvini, o'qitishning erkin va majburiyatsizligi hamda eng asosiysi o'quvchi-talabalar uchun o'ta qiziqarliligini va samaradorligini ta'minlaydi.

Didaktik o'yin jiddiy o'qish bilan juda yaxshi kirishadi. Darsda didaktik o'yin boshlash va o'yin jarayonida o'qitishni qiziqarli va zavqli qilish, bolalarni kayfiyatini xushchaqchaq bo'lishini, o'quv materiallarni o'zlashtirishda qiyinchiliklarni bardosh bilan yengillashtiradi. Turli-tuman o'yin harakatlarida, shu yoki boshqa aqlli masalalarni yechishda, bolalarni o'quv faniga qiziqishini orttirishga yordam beradi. Darsning turli bosqichlarida har xil interfaol usullardan foydalansa bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, an'anaviy tarzda o'qituvchining faolligi va barcha materialni tushuntirishga harakat qilishi bilan bog'liq bo'lgan darslarning o'rniga o'quvchining faolligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan noan'anaviy darslarni amalga oshirish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Endilikda o'qitish jarayonida o'quvchilarni zeriktirib qo'ymaydigan, fikrlashga, mustaqil ishlashga yo'naltiradigan har xil metodlar va o'qitish vositalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, o'quvchi an'anaviy o'qitish jarayonida obyekt hisoblansa, bugun u subyektga aylanmoqda. Ta'limning "obyekt-subyekt" tizimi o'z o'rnini "subyekt-subyekt" tizimiga bo'shatib bermoqda. Milliy ta'lim modelining o'ziga xos jihati va yangiligi ham shundan iborat. Innovatsion texnologiyalardan foydalanib, o'tilgan darsda o'quvchilar o'z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyish qilishga erishadilar, jamoa bilan ishlash malakasiga ega bo'ladilar, o'z g'alar fikrini hurmat qilishni o'rganadilar. Bu esa, darsning samaradorligini oshirib, ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

## **BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

*Eshonqulova X. A.,*

*Bobojonova N.R.,*

*Karmana tumani Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan kar bolalar  
uchun ixtisoslashtirilgan 25-sonli maktab- internat o'qituvchilari*

Ta'lim-tarbiyaning barcha bosqichlarida bo'lgani kabi boshlang'ich ta'limda ham innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalasiga jiddiy qaralmoqda. Chunki ta'lim muassasasining ishiga innovatsiyalarning joriy etilishi ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish va isloh etishning eng muhim shartidir.

Pedagogik innovatsiyalar deganda pedagogik faoliyatga yangiliklar kiritish, samaradorligini oshirish maqsadida ta'limning mazmuni va texnologiyasidagi o'zgartirishlarni tushunish lozim. Shunday qilib, innovatsiyalar jarayoni yangilik mazmuni va tashkil etilishining shakllanishidan va rivojlanishidan iborat.

Yangiliklar tashuvchisi-pedagog innovatsiyalar jarayoni tuzilishining elementi sifatida yangilikni idrok etish, o'zlashtirish va baholash, maqsad qo'yish va maqsadga erishish birligi jihatidan tavsiflanadi.

Motivatsiya (istayman), nazariy (qila olaman), texnologik (qilaman) va natija (olaman) intilishi va tayyorgarligining jamuljamligi kichik maktabgacha ta'lim pedagoglarining innovatsion uquvliligi tizimini tashkil qiladi.

Pedagogning yangilikka intilishi, innovatsion salohiyati va xulqi, yangilikni qabul qilishi kabi fazilatlar ham juda muhim. Yangilik kiritish fenomeni yangiliklarni joriy qilish, yuqori aqliy salohiyat, tanqidiy munosabat, muqobil yo'llarni izlashni o'ziga maqsad qilib qo'ygan pedagoglarning asosiy faoliyat turi hisoblanadi.

Innovatsion salohiyatning asosiy qismi bo'lgan qabul qilish yangilikni sezish, unga tayyorgarlik, muammo bilan tanishish, uni hal etishning mavjud yo'llarini tahlil qilish, qaror qabul qilish kabilar bilan belgilanadi.

Innovatsion ta'lim jarayonida pedagogik faoliyatning mazmuni an'anaviy faoliyatdan ancha farq qiladi.

Zamonaviy pedagogik jarayonning o'ziga xosligi shuki, pedagog markazi o'rin tutgan an'anaviy ta'limdan farqli ravishda, bu yerda asosiy diqqat bolaga-ning faolligi, tanlovi, kreativligiga qaratiladi.

Pedagogning muhim funksiyasi bolani o'z faoliyatida qo'llab-quvvatlash, uning muvaffaqiyatli ilgari lab borishiga yordam berish, yuzaga keluvchi muammolar hal etilishini osonlashtirish, turli-tuman ma'lumotni o'zlashtirishga yordam berish hisoblanadi. Bugungi kunda texnologiya ta'limda innovatsion



texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berilayotganining asosiy sababi quyidagilardir:

Birinchidan, innovatsion texnologiyalardan foydalanishda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligi.

Ikkinchidan, innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini berishi.

Uchinchidan, innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'qituvchini ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab samarali natija olgunga qadar bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undashi.

To'rtinchidan, innovatsion texnologiyadan foydalanish yangi vositalar va axborot usullarini qo'llashga asoslanganligi sababli, ularning qo'llanilishi Kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan zamonaviy talablarini amalga oshirishni ta'minlashi.

Beshinchidan darslarda innovatsion ta'lim texnologiyalardan foydalanish o'qitish jarayonini qiziqarli olib borish, har bir o'quvchiga individual-kreativ yondashish imkonini berishi.

Ta'lim-tarbiya jarayonidagi innovatsiyalar, ilg'or pedagogik texnologiyalar, yangiliklar, dars o'tishning interfaol usullari o'z-o'zidan ta'limga kirib kelmaydi. Demak, o'qituvchidan bilim, ijodiy mehnat va kasb mahorat talab qilinadi. Chunki o'qituvchi faoliyati yangilanmasa, ta'limda samaradorlikka erishib bo'lmaydi. O'qituvchi tomonidan o'quvchilarni ijodiy izlanish, faollik, erkin fikr yuritishga yo'naltiruvchi ta'lim shakli, metod va vositalarining to'g'ri tanlanishi darslarning qiziqarli, bahs-munozaralarga boy bo'lishi, ijodiy tortishuvlarning yuzaga kelishiga turtki bo'ladi.

Bugungi ta'lim-tarbiya sohasida turli xususiyatdagi, yo'nalishdagi ko'zga ko'ringan innovatsiyalar mavjud. Katta yoki kichik ko'lamli davlat islohotlari o'tkazilayotgan ta'lim-tarbiyaning tashkil etilishiga, mazmuniga, uslubiyotiga, texnologiyasiga yangiliklar kiritadi.

Har qanday innovatsion texnologiyaning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda, o'quvchilarni kim o'qitayotganligi va o'qituvchi kimni tarbiyalayotganiga bog'liq. Innovatsion texnologiya asosida o'tkaziladigan mashg'ulotlar bolalarning muhim hayotiy yutuq va muammolar shaxsiy munosabatlarini bildirishiga, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida o'quvchilarda kreativ yondashuvni shakllantirishida innovatsion ta'lim texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Shu bois ta'lim tizimiga yangi o'quv dasturlarini joriy etish, o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish bilan birga innovatsion ta'lim texnologiyalari qo'llashga ham muntazam ravishda e'tibor qaratib borish zarur.

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARINI SHAKILLANTIRISH**

*Shukurova M. E.,*

*Qiziltepa tuman 3-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi*

Bugungi kunda mustaqil respublikamiz dunyo hamjamiyati tomonidan tan olinayotgan ekan, uning kelgusidagi rivoji, gullab-yashnashi bugungi kun yoshlariga bog'liqdir. Demak, bugungi yoshlar har tomonlama rivojlangan, o'ziga, boshqa insonga, jamiyatga, tabiatga va mehnatga o'z to'g'ri munosabatini bildiradi oladigan, mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, ijodkor, tashabbuskor va tadbirkor bo'lmog'i lozim. O'quvchida ana shu xususiyatlarning rivojlanishi so'zsiz boshlang'ich sinf o'qituvchilariga, uning o'quv-tarbiya jarayonini to'g'ri boshqara olishiga va o'quvchilar bilan o'rnatilgan muomala va munosabatlariga bog'liq. Kommunikativ qobiliyat – bu pedagogik o'zaro harakat sohasida maxsus ko'rishga ega bo'lgan muloqotga qobiliyatlikdir.

Psixologik adabiyotlarda kommunikativ qobiliyatlarning bir qancha turlari ajratib ko'rsatiladi:

1. insonning insonni tushuna olishi (insonni shaxs sifatida, uning alohida jihatlari, motiv va ehtiyojlarini baholash, tashqi xulq-atvorini ichki olami bilan bog'liqlikda ko'rib chiqish, yuz, qo'l, gavda harakatlarini “o'qish” ko'nikmasi)

2. insonni o'z-o'zini anglay olishi (o'z bilimi, qobiliyati, o'z xarakteri va boshqa qirralarini baholash, inson boshqalar tomonidan qay tarzda qabul qilinishi va atrofdagilar ko'zi bilan baholash);

3. muloqot vaziyatini to'g'ri baholay olish ko'nikmasi (mavjud holatni kuzatish, uning namoyon bo'lish belgilari haqida ko'proq axborotlarni ajrata olish, ularga e'tiborni qaratish, yuzaga kelayotgan vaziyatning ijtimoiy va psixologik mohiyatini to'g'ri idrok etish va baholash).

#### **Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kommunikativ ta'sir etish usullari.**

Chunki aynan pedagogik voqelikda o'z-o'zini tahlil etish ko'nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati ularning o'zi haqidagi tasavvurlari, qiziqishlari, motiv, ehtiyojlari tizimi sifatida tushuniladigan “Men-kontseptsiyasi”ning rivojlanishiga undovchi ichki omillarning eng asosiylaridan biridir.

O'z-o'zini tahlil etish usullari quyidagilarga e'tibor qaratishni talab etadi:

1. ijtimoiylikka yo'naltirilgan o'zaro harakat vaziyatlaridan shaxsiy xulq-atvor, tarbiyalanuvchi shaxsi, uning o'ziga xosliklari, qadriyatlarini tizimi kabilarni obyekt sifatida ko'rib chiqish;

2. o'z xulq-atvori, shaxsiy fazilatlarini tahlil etish mezonlari tizimini aniqlash;

3. noma'lumdan ma'lumni ajratib olish;

4. qarama-qarshiliklarni aniqlash.

O'z-o'zini tahlil etish o'z-o'zini anglashdan avval kelib, aynan uning asosida shaxsning o'zi haqidagi tasavvurlari umumlashgan ko'rishga o'tadi. O'z-o'zini anglash natijasida shaxsda o'zining kimligini anglash, o'zining jamiyatdagi o'rnini tushunib yetish, boshqalarning ko'z o'ngida kim sifatida gavdalanishini his etish kabilar shakllanadi. O'z-o'zini anglash o'z-o'ziga munosabat sifatida shakllanuvchi hissiy va mantiqiy jihatlarni o'zida aks ettiradi.

Ma'lumki, o'z-o'zini anglash usullari ham mantiqiy, ham emotsional darajada o'z-o'zini tahlil etish natijasida olingan axborotlarni aniqlashtirish va umumlashtirishni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, o'z-o'zini tahlil etish va o'z-o'zini anglash pedagogda o'zi va boshqalarning u haqidagi tasavvuri sifatidagi kasbiy "Men qiyofasi"ning shakllanishiga olib keladi. Ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchi tomonidan pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy metodlariga quyidagilar kiradi: talab, istiqbol, rag'batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikri.

Talab – ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchining tarbiyalanuvchiga nisbatan shaxsiy munosabatlarida namoyon bo'ladi. O'quvchining u yoki bu xatti-harakati o'qituvchi nazoratida bo'lib, ijobiy jihatlari rag'batlantirib boriladi yoki aksincha nojo'ya xatti-harakati to'xtatib qo'yiladi.

Istiqbol – ta'sirchan pedagogik usul bo'lib, o'quvchilarda mustaqil fikr yuritishni, ma'lum bir maqsadga, orzuga erkin intilish hissini takomillashtiradi. Bu maqsadlar ularning shaxsiy intilishlarida, qiziqish va muddaolarida namoyon bo'ladi. Ushbu usul maktab o'quvchilarini shaxs sifatida eng muhim insoniy fazilatlaridan biri bo'lgan maqsadga intiluvchanlikni rivojlantiradi.

Rag'batlantirish va jazolash – tarbiyaviy ta'sirning eng an'anaviy usuli bo'lib, o'quvchilar xulq-atvoriga ijobiy ta'sir etishdan iborat. Yaxshi xulq, foydali mehnat va xatti-harakat, axloqiy hislat, topshiriqlarning so'zsiz bajarilishi uchun o'quvchi rag'batlantiriladi. Nomaqbul xatti-harakat, tartibbuzarlik, o'z burchini bajarmaslik jazolash orqali bartaraf etiladi. Ushbu usul axloqiy ta'sir ko'rsatishni ta'minlaydi, uni qo'llash jarayonida o'qituvchidan nihoyatda ehtiyotkorlik, sezgirlik va hushyorlik talab etiladi.

Jamoatchilik fikri – tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning eng muhim usuli bo'lib, o'quvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatini bajarilish natijalariga qarab muntazam rag'batlantirib borishda namoyon bo'ladi. Jamoaning tarbiyaviy vazifalarini ma'lum bir yo'nalishda amalga oshirilishini ta'minlaydi, o'quvchilarning bir-birlariga do'stona munosabatini shakllantiradi.

Muloqotning ijtimoiy-psixologik nazariyasi va pedagogik tajribalarini o'rganish pedagogik ta'sir etishda ikki metod: ishontirish va uqtirishdan keng foydalanish lozimligini ko'rsatadi.

Ishontirish - o'quvchilarga xatti-harakatlarning to'g'riligi va zarurligini, shuningdek, ayrim xulq-atvorlarning noto'g'riligini tushuntirish va isbotlashdir. Ishontirish jarayonida o'quvchilarda yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda axloqiy sifatlar shakllantiriladi. Bular esa o'quvchilar va ularning atrofidaqilar uchun me'yor (mezon) bo'lib xizmat qiladi.

O'qituvchining har qanday tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi, oqibat natijada o'quvchi ruhiyatiga har tomonlama ta'sir ko'rsatishga, ya'ni o'quvchilarda ijobiy hissiyotlarni: xulq-atvor, munosabatlar, xatti-harakatlarni shakllantirish va mustahkamlashga yo'nalgan bo'ladi. Lekin ishontirish va uqtirishning texnologik mexanizmlari turlichadir.

O'sib borayotgan yoshlar ijtimoiy muhit va tabiat bilan ham o'zaro ta'sirlanadilar. Bu o'zaro ta'sir natijasida ularda ishonch, yangi bilimlar va munosabatlar, axloqiy me'yorlar majmui vujudga keladi.

Ishontirish haqiqiy va soxta bo'lishi mumkin. Haqiqiy ishonch real voqelikka mos keladi va shaxsning jamiyat oldidagi qadr-qimmatini oshiradi. O'zining haqiqiy ishonchiga sodiq bo'lishi uchun kishi hatto o'limiga ham rozi bo'ladi. Masalan, Vatanga sodiqlik ruhida tarbiyalangan askarlarimizning jang maydonida ko'rsatgan matonatlari. Soxta ishonch esa, avvalo sinf jamoasi, qolaversa, jamiyat uchun zararli bo'lgan odatlarning shakllanishiga olib keladi. Soxta ishonch o'quvchilarning o'zi va atrofida gilar ta'sirining umumlashuvi natijasida vujudga keladi.

Ayrim o'quvchilarda soxta ishonch hosil bo'lishining sabablari quyidagilar bo'lishi mumkin:

1) faqat a'lo bahoga o'qish - bu bilim olishda ko'r-ko'ronalik, quruq yodlashga olib boradi;

2) o'zini o'ta itoatkorona tutish - bu o'quvchi faoliyatini nihoyatda past bo'lishiga olib keladi. Me'yordagi o'quvchi o'qituvchidan ba'zan tanbeh olib turishi kerak;

3) o'qituvchini aldash - bu o'quvchini o'ta aqlli va topqirligidan dalolat beradi;

4) maktab ichki tartib-qoidasini buzish faqat kuchli xarakterga ega bo'lgan o'quvchigagina xos bo'lib, u o'qituvchi tomonidan tanqid qilib turiladi;

5) haddan tashqari ko'p mehnat qilish - bu kerak bo'lmagan tirishqoqlikdir.

Yuqorida keltirilgan ishonchning bunday turi o'quvchida shakllanib, asta-sekin boqimandalik, o'qish va mehnat faoliyatida sustkashlik kayfiyatini sodir qiladi.

Soxta ishonchni bartaraf qilish uchun o'qituvchi quyidagi uch yo'nalishda ish olib borishi kerak:

1. Sinf jamoasida sog'lom ijtimoiy fikrni shakllantirish.

2. Muhim ahamiyat kasb etuvchi shaxsiy hayotiy tajriba yaratish.

3. Soxta ishonchni asosiy tarzda inkor qilish.

Soxta ishonchni o'zgartirishning quyidagi usullari mavjud:

1) o'quvchini o'zini boshqalar bilan taqqoslashga undash. Uning fikriga qarama-qarshi fikrda bo'lgan kishi bilan yaqindan tanishish (masalan, bola o'qishni xohlamaydi, lekin uning tanish o'rtog'i ko'p o'qiydi va biladi, ammo o'zining "quruq yodlovchi" yoki "o'ta bilimdon" qilib ko'rsatmaydi);

2) noto'g'ri qarashlar va ishonch oqibatda nimalarga olib kelishini ko'rsatish (masalan, ana shunday xislatlarga ega bo'lib, o'z hayotini barbod qilgan, o'z erki, g'ururi va vijdonini yo'qotgan kishilar haqida so'zlab berish. Buning uchun hayotiy misollar, badiiy asarlar, kinofilmlar va boshqalardan foydalanish mumkin);

3) soxta ishonchni yoqlab, himoya qiluvchi o'quvchi fikrini mantiqiy rivojlantirib, uni hayratga soluvchi holatga yetkazish. Masalan, barcha

o'quvchilar o'qituvchilarni aldash, ichki tartib-qoidalarga rioya qilmaslik nimalarga olib borishi mumkin).

Ishontirishning biron tashkil etuvchisiga amal qilmaslik ham tarbiyaviy ish samaradorligini pasaytirib yuboradi. Bunday holatda o'quvchida faqat bilish shakllangan xolos. Inson o'zini qanday tutishi lozimligini bilishi, aynan shunday tutishi lozimligini tushunishi, lekin o'zini bunga majbur qilolmasligi mumkin.

Demak, bu uning irodaviy sifatlari rivojlanmaganligini, xulq-atvor qoidalariga amal qilish malakasi tarkib topmaganligini anglatadi. Ishontirish bilimlar, qarashlar va xulq-atvor me'yorlari tizimi bo'lib qolmay, balki ularni shakllantirish usullari hamdir. Ishontirish yordamida yangi qarashlar, munosabatlar shakllanadi yoki noto'g'ri fikrlar o'zgaradi.

## ZAMONAVIY TA'LIM TARBIYA JARAYONINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

*Tobakabulova N.K.,*

*Konimex tumani 23- umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada psixologiya fanida zamonaviy ta'lim jarayonini o'ziga xos xususiyatlari vujudga kelishining dastlabgi davrlarda o'rganilishi nazarda tutilgan.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, ta'lim jarayoni, ta'lim mazmuni.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasida ta'lim - tarbiya sohasidagi amalga oshirilayotgan tub isloxotlarning samarasi, avvalambor zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, mustaqil fikrlaydigan, mutaxasislarni tayyorlashdan iborat. Shundan kelib chiqib bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim jarayonida psixologik xususiyatlari inobatga olgan holda, ta'lim berishiga qaratilayotganligidan kelib chiqib ushbu mavzu o'rganishga qaratilgan.

XXI asr bo'sag'asida juda ko'plab davlatlarda bo'lgani kabi dunyo xaritasida munosib o'rin olgan mustaqil O'zbekistonda ham barcha sohalarda tub isloxotlar boshlandi. Bu isloxotlarning barchasi inson omilini har qachongidan ham yuqori saviyaga ko'tarib, inson va uning mukammalligi, o'z ustida ishlashi, o'z mukammalligi hususida qayg'urish muammosi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi.

Milliy Dasturda e'tirof etilgan yangicha modeldagi shaxsni kamol toptirish, yosh avlod ongining ta'lim olish davridagi rivojlanish tendentsiyalaridan tortib, toki yangicha o'qitish texnologiyalarini bola tomonidan o'zlashtirishi va undagi aqliy, intellektual qobiliyatlarga nechog'lik ta'sir ko'rsatayotganligini o'rganish, ma'naviy barkamollik tamoyillarini maktabda va yangi tipdagi ta'lim muassasalarida joriy etish ham shaxs psixologiyasini teran bilgan holda o'qitishning eng ilg'or va zamonaviy shakllarini amaliyotga tadbiiq etishni taqozo etadi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev yoshlarga tarbiya va psixologik yordam berish haqida "Shuningdek, tajribali pedagog va mutaxasislarni jalb etgan holda, o'quv reja va dasturlarini tubdan qayta ko'rib chiqish zarur. Oldimizdagi

yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha murakkab vazifalar turibdi", deb aytgan edi.

Ta'lim - o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi o'quv faoliyatlaridan iborat bo'lib, bilim, ko'nikma va malakalarni uzatish jarayonidir, hayotiy tajribani o'qituvchilardan o'quvchilarga uzatishdir. Ta'lim jarayoni bevosita muayyan axborotni, harakatlarni, xulq-atvorning shakllarini o'zlashtirishga qaratilganidir.

Ta'lim mazmuni deganda o'quvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarning aniq belgilangan hajmi va ko'lami tushiniladi. Zamonaviy sharoitda fan va texnika rivoji ta'lim va uning natijalariga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirishni talab etmoqda va ana shu asosdan kelib chiqqan holda ta'lim mazmunini moderizatsiyalashni davomining o'zi pedagoglarning oldiga muhim vazifa qilib qo'yilmoqda.

Mavzumizdan kelib chiqqan holda dastlab ta'lim, ta'lim jarayoni haqidagi antik davr, sharq mutafakkirlari qarashlarga to'xtalib o'tamiz. Ta'lim jarayonini vujudga kelishiga nazar soladigan bo'lsak uzoq davrlarni o'z ichiga oladi. Dastlab antik davrga murojaat qiladigan bo'lsak o'sha davrlardan bilim berish inson ruhiyati xaqida qarashlar intilishlar xaqida fikrlar mavjud bo'lgan.

Antik davr olim va faylasuflaridan Arastu va Demokrit o'z qarashlari bilan ta'lim-tarbiya rivojlanishiga juda katta xissa qo'shganlar. Arastu uch xil tarbiya ya'ni: jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiya aqidalami ishlab chiqib, tarbiyaning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Arastu birinchi bo'lib yoshni davrlarga bo'lish mezonini ishlab chiqishga uringan olimdir. Uning fikricha, bolalar 7 yoshgacha oilada tarbiyalanadi, go'dakning yoshiga mos keladigan ovqatlar bilan boqish, turli xarakterli mashqlar orqali uni chiniqtirib borish kerak deydi. O'g'il bolalar 7 yoshdan boshlab davlat maktablarida o'qishlari lozim deb uqtiradi. U jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiya bir-biri bilan uzviy bog'langan deb hisoblaydi. Demokrit, "Ta'lim mehnat asosidagina go'zal narsalami hosil qiladi" deb tarbiya ishida mehnatning roli beqiyos ekanligini takidlaydi.

Sharq mutaffakkirlaridan qomusiy olimlarimiz ham o'zlarining ta'lim jarayonida psixologik xususiyatlari to'g'risida fikrlarini aytib o'tishgan. Imom al-Buxoriy ilm o'rganishni yuqori darajaga qo'ygan. U o'z asarlarida quyidagi fikrlarni ilgari suradi; "Kishi ilm bobida nafaqat o'zidan yuqori yoki tengdoshlaridan, balki o'zidan past bo'lganlardan hadis olguncha, yetuk muhaddis bo'la olmaydi. Olim ushbu fikri bilan o'quv faoliyatining ijobiy motivlari ustoz-muallim tomonidan shakllantirilishiga urg'u beradi

Abu Nasr Farobiy ta'lim-tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchi yoki ta'lim oluvchi shaxsga yakka holda yondashuvni, uning tabiiy, ruhiy va jismoniy xislatlarini nazarga olish zarurligini ta'kidlaydi. Olim bu haqda shunday yozadi: "Bu barcha tabiiy hislatlarni, ularni oliy kamolotga yetkazish shu yoki kamolotga yaqin bo'lgan darajaga ko'tarishga xizmat qiluvchi vosita yordamida tarbiyalashga muxtojdir. Insonlar turli ilm, hunar faoliyatga moyilligi va qobiliyatligi bilan tabiatan farq qiladilar. Teng tabiiy xislatlarga ega bo'lgan

odamlar esa, o'z tarbiyasi bilan farq qiladi. Tarbiyasi jihatdan teng bo'lganlar esa, bu tarbiya natijalarining turlichaligi bilan bir-birlaridan farq qiladilar". Farobiy o'z asarlarida insonga tarbiya va ta'lim berish zarurligini aytadi va bunda ta'lim-tarbiya usullaridan kutilgan maqsad asosiy o'rinda bo'lishini aytgan

Abu Rayhon Beruniy ilm olishda takrorlashga zo'r berib, o'quvchilarni toliqtirib va zeriktirib qo'ymasdan, turli psixologik usullarni qo'llashni, shu orqali ularning tafakkurini boyitib, bilimlarini chuqurlashtira borishni ilgari surgan olimdir. Uning tafakkur operatsiyalari – analiz, taqqoslash umumlashtirish kabilarni shakllantirish orqali o'qishga qiziqish uyg'otish haqidagi fikrlari hozirgi kungacha ahamiyatini yo'qotmagan. Beruniy ilgari surgan insonparvarlik g'oyalari, ta'lim-tarbiya xususidagi fikrlari mustaqillik davrida xam yoshlarni barkamol qilib tarbiyalashga xizmat qilmoqda

Abu Ali Ibn Sino bolalarning o'qish, ta'lim olishlariga ma'suliyat bilan qarash tarafdorlaridan bo'lgan. U bola 6 yoshga yetgach muallimga bilim olish uchun topshirilishini aytgan. Hozirda ham bolalarning 6-7 yoshdan boshlang'ich sinflarga qabul qilinishi Ibn Sinoning o'sha davrdagi g'oyalari ahamiyatli ekanligidan dalolat beradi. Olim bolalarni bitta-bitta, alohida o'qitishdan ko'ra, jamoa tartibida o'qitishni afzal deb biladi va uning ustunligi xaqida shunday yozadi: "O'quvchilar o'qish va tarbiya davomida ilmga chanqoqolik sezadilar. O'z bilimlari bilan g'ururlanadilar, bir-birlarining bilimlariga xavas qiladilar. G'urur va o'ziga e'tibor ularni bir-biridan orqada qolmaslikka undaydi.

O'quvchilar birga bo'lganda, doim bir-birlari bilan gaplashadilar va bu bilan o'z xotiralari va nutqlarini rivojlantiradilar". Demak olim o'quv motivini rivojlantirish uchun qarashlarini bayon qilgan.

Buyuk mutafakkir va alloma Alisher Navoiy inson tafakkuri, aqli-farosati hamda ilmini yuksak qadrlagan. U: "Bilim va donishmandlik insonning bezagidir", - deb yozadi. Allomammizning bu fikrlari o'sha davrdan dunyoqarashlari tafakkuri rivojlantirishga e'tibor qaratganidan dalolat beradi. Shuning uchun ta'lim olishlariga xam e'tibor qaratgan desak bo'ladi.

Iste'dodli shoir va tarjimon, tarixchi Muhammad Rizo Ogahiy asarlarida inson bekamu ko'st kamolga yetishishi uchun yoshlikdan ilm va kasb-hunar egallashi shart ekanligini aytib o'tadi. Uning fikricha, ilm-ma'rifat insonning ma'naviy kamolotida va jamiyat taraqqiyotida kuchli vositadir. Ilm inson aqlini boyitadi. Ogahiy ilmni ko'proq xalq o'yinlari orqali yetkazib berish uchun harakat qiladi, chunki bu narsa ijobiy o'quv motivini shakllantirishga xizmat qiladi. Xalq o'yinlari, aslida psixologik o'yinlar hisoblanadi. Bu vaqtda bola ham ta'lim oladi, ham shakllanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, sharq mutafakkirlari o'quv motivlarini ehtiyojlar nuqtayi nazaridan tahlil qilishga harakat qilishgan. Mazkur ehtiyojlarni hosil qilishga, oshirishga, asosan o'qituvchilar tomonidan ta'lim jarayonining psixologik xususiyatlarini e'tiborga olish, ya'ni o'qish jarayonida bolalarning fiziologik va psixologik xususiyatlarini inobatga olib, ularga imkon qadar individual yondashish orqali erishish mumkinligini e'tirof etishgan. Shu

bilan birga, sharq mutafakkirlarining buyuk xazinasini, bolalarga ta'lim, tarbiya berishdagi ilg'or fikrlari hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Bugungi kunda xam ta'lim jarayonida bilim berish, yuqorida olimlarimiz qarashlari va fikrlariga amal qilgan holda olib borilayotgani buning yorqin misolidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T. O'zbekiston, 2017.45b
2. Nishanova, Z.T. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya [Matn] : darslik / Z.T. Nishanova va boshq. - Toshkent: « O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. - 600 b.
3. Xodjayev B.X Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2017-yil, 416 bet.
4. Bekmirov, T., Axmedova, M., Melibayeva, R., Askarova, N., & Nurmatov, A. (2022). Kasbiy pedagogika.
5. Bekmirov, T. (2022). "Shaxsning emotsional-irodaviy holatlari" mavzusini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish.

## **QOBILIYAT VA PEDAGOGIK QOBILIYATANING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TAVSIFI**

*Farmonova X. E.,  
Qiziltepa tuman 31-maktab psixologi*

Qobiliyat deb, shaxsning muayyan faoliyat turini muvaffaqiyatli bajarishga bo'lgan layoqat darajasini ifodalaydigan, turmush jarayonida hosil qilingan individual xususiyatlar yig'indisiga aytiladi. Qobiliyatlar bilim, ko'nikma, malaka orttirish xususiyatiga bog'liq bo'ladi. Lekin bilim, ko'nikma va malaka orttirish qobiliyat emas, balki u ularni o'zlashtirishdagi layoqati, mahoratida namoyon bo'ladi, ular asosida bilim, ko'nikma, malakalar osonlik bilan egallab olinadi. Qobiliyatlar faqat faoliyatda namoyon bo'ladi. Voqelikdagi narsa va hodisalarni idrok etishda, masalan, ranglarni tovlanishidagi nozik farqlarni ajratishda, narsalarni aniq ko'rishda, absolyut eshitish (musiqani farqlashda), kuzatuvchanlikda, xotirada, fikrlash (tez, mustaqil) jarayonida ixtirochilik va ijodda yaqqol ko'rinadi. Qobiliyat kishining muayyan faoliyatga bo'lgan layoqatidir.

Qobiliyat – kishining muayyan faoliyatiga bo'lgan layoqatidir. Kishilar qobiliyati nihoyatda xilma-xil bo'ladi. Har bir kasb kishidan mehnatda, ijodiyotda va o'qish faoliyatlarida tegishli qobiliyat talab etadi.

Kishi faoliyatining har xil turlariga muvofiq, nazariy va amaliy qobiliyatlarni, matematika, texnika, musiqa, adabiyot, pedagogika, xo'jalik, tashkilotchilik va boshqa sohalarga oid qobiliyat turlari bo'ladi.

Inson qobiliyatining barcha turlari hamma odamlarga xosdir – har qaysi odam ma'lum darajada kishi faoliyatini barcha turlariga layoqatli bo'ladi, lekin,



shu bilan bir qatorda, ko'pchilik faoliyatning bir necha sohasidan yoki hatto bir sohasida salohiyat ortiqroq bo'ladi.

Demak, layoqat-qobiliyat taraqqiyotining dastlabki tabiiy sharti sifatida namoyon bo'ladigan miya tuzilishining, sezgi a'zolari va harakatning morfologik hamda funksional xususiyatidir va u qobiliyatning fiziologik asosidir. Keyinchalik qobiliyatga aylanadigan layoqat nishonalarining majmui kishining iste'dodidir. Iste'dod inson qobiliyati taraqqiyotining eng yuksak darajasini ta'minlovchi tug'ma tabiiy imkoniyatlar yig'indisidir. Iste'dodning rivojlanishi shaxsning yashash sharoitiga, ijtimoiy ta'lim-tarbiyaga, uni faoliyatdagi faolligiga bog'liqdir.

Kishining "mudrab yotgan" imkoniyatlari faoliyatga kishi faollik ko'rsatmasa u imkoniyatlarni "uyg'onishi" mumkin emas. Buning uchun ijtimoiy shart-sharoit, qulay muhit, qulay ta'lim-tarbiyaviy sharoit, o'qish, o'z ustida tinmay ishlash zarur bo'ladi.

Kishining iste'dod darajasini undagi muayyan qobiliyatlarning qanchalik tez o'sishiga, bilim va malakalarni qanchalik egallashiga hamda o'z ishini qanchalik muvaffaqiyat bilan va samarali bajarishiga qarab aniqlaymiz.

### ***Qobiliyat turlari va uning xususiyatlari***

Qobiliyatlar umumiy va mahsus bo'ladi. Umumiy qobiliyatlar mavjud bo'lganda kishi faoliyatining turli xillari bilan muvaffaqiyatli shug'ullana oladi. Masalan: kuzatuvchanlik, konstruktiv hayol, tez fikrlay olish kabilar ma'lum darajada barcha faoliyat turiga xosdir. Umumiy qobiliyatga ega bo'lgan o'quvchilar odatda barcha fanlardan yaxshi va qiynalmay o'qiydilar.

Maxsus qobiliyatlar kishiga qandaydir bir muayyan faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanish imkonini beradi. Masalan: musiqa, texnika, matematika, rassomchilik qobiliyatlari maxsus qobiliyatdir. Qobiliyatlar o'zining sifat va miqdor darajasi bilan xarakterlanadi.

Qobiliyatning sifat xarakteristikasi – shaxsning qobiliyatlari nimaga nisbatan namoyon bo'lishini, qanday individual psixologik xususiyatlar faoliyat jarayoni muvaffaqiyatining zaruriy sharti ekanligi bilan xarakterlanadi. Masalan: O'qituvchi tashabbuskorlik, talabchanlik, mehribonlikni his qilish, kuzatuvchanlik, kashfiyotchilik, javobgarlik kabi shaxsiy sifatlarga ega bo'lishi kerak.

Qobiliyatlarning miqdor xarakteristikasi shaxsning bilim, ko'nikma va malakalarni qanchalik tez, yengil va mustahkam egallashi bilan xarakterlanadi.

### ***Qobiliyat va iste'dodning o'sishi***

Har bir odamning qobiliyat va iste'dodi taraqqiyot mahsulidir. Insonning qobiliyati uning tug'ma layoqati asosida, muhitga bog'liq ravishda olayotgan ta'lim-tarbiyasiga qarab, shuningdek, kishining o'z ustida ishlashi bilan bog'liq holda o'sib, kamol topib boradi. Inson o'z mohiyati bilan ijtimoiy tabiiy zotdir. Shuning uchun ham unga xos bo'lgan barcha ruhiy holat va jarayonlar tabiiy kuchga, hayotiy kuchga egadir. Bu tabiiy kuchlar har bir insonga ota-onadan bevosita o'tadi va ular instinktlar, tug'ma layoqatlar tariqasida ijtimoiy munosabat va faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi.

Tug'ma layoqat – tayyor, kamolotga yetgan qobiliyat emas, balki qobiliyatning o'sishi uchun faqat tabiiy zamindir, u kelgusida qobiliyatga aylanmog'i mumkin. Bunday imkoniyatlar faqat tegishli sharoit mavjud bo'lgandagina ro'yobga chiqa oladi.

Tug'ma layoqatni irsiyat bilan aynan bir narsa deb tushunish yaramaydi. Layoqat irsiyat natijasigina bo'lib qolmay, balki, shu bilan birga ona homilasida o'sish natijasi hamdir. Layoqat – kishidagi tug'ma imkoniyatdir.

Layoqat kishining butun umri davomida o'zicha o'sib, kamolotga yetmaydi. Layoqat hali kishida “mudrab yotgan” imkoniyatlardir. Bu layoqatning “uyg'onib” yuzaga chiqishi uchun tegishli ijtimoiy muhit ham bo'lmog'i lozim. Layoqatni xuddi uruqqa o'xshatish mumkin, urug'dan o'simlik ko'karib chiqishi, yetilib meva qilishi uchun qulay sharoit: tuproq, havo, quyoshning bo'lishi darkor. Kishidagi tug'ma layoqatning o'sib kamol topishi uchun zarur bo'lgan sharoitning asosi ijtimoiy muhitdir.

Ijtimoiy muhit layoqatlarning o'sib, kamol topishi uchun qulay yoki noqulay bo'lmog'i mumkin.

Qulay muhit kishidagi “mudrab yotgan” layoqatlarni uyg'otadi. Layoqatning o'smog'i uchun qulay sharoit bo'lishi kishining bolalik chog'larida, ayniqsa, muhimdir. Bolalar o'z o'yinlarida, odatda, kattalarga taqlid qiladilar. Taqlid qilish jarayonida bolalarda ma'lum bir layoqatlar dastlab uyg'ona boshlaydi. Musiqachilar, rassom yoki shoirlar, texnik xodimlar muhitida o'sgan bolalarning ko'pchiligida layoqatning juda barvaqt uyg'onishi sababi ko'proq mana shundadir.

Noqulay ijtimoiy muhit sharoitida kishidagi tug'ma layoqatlarning “uyg'onmay” qolib ketishi mumkin. Bunday noqulay muhit kishida tasodifiy ravishda ko'rina boshlagan biron qobiliyat va iste'dod alomatlarini yo'qotib yuborishi yoki ularning paydo bo'lish vaqtini cho'zib yuborishi ham mumkin.

Ta'lim jarayonida kishi maxsus ko'nikmalar va faoliyat texnikasini egallaydiki, ularsiz uning na iste'dodi yuzaga chiqadi va na qobiliyati o'sib yetiladi. “Men foydalangan texnikaning rivojlanganligi soyasidagina, – deb yozgan edi A. N. Rimskiy-Korsakov, – mening ijodiyotim yangi jonli kuchga ega bo'ladi va mening bundan buyon ijodiy faoliyatim uchun yo'l ochildi”.

Har bir shaxsning o'zi faol harakat qilgandagina ijtimoiy muhit, o'qish va tarbiya kishining layoqatini uyg'otmog'i va iste'dod hamda qobiliyatlarini o'stirmog'i mumkin. Kishining qobiliyatlari uning faoliyatini belgilabgina qolmay, balki kishining qobiliyatlari mana shu faoliyatda o'sadi va tarkib topadi.

## **XAVOTIRLANISH VA DEPRESSIYA - YOLG'IZLIK HOLATINI KELTIRIB CHIQARUVCHI OMIL SIFATIDA**

*Jumayeva G.J.,  
Qiziltepa tuman 30-maktab psixologi*

O'smirlik yoshi – inson rivojlanishining eng murakkab davrlaridan biri. Mazkur yosh davrida xavotirlanish va depressiya ko'plab sabablarga ega va

kutilmagan oqibatlariga olib keladigan o'ta murakkab hodisadir. Ushbu yoshda depressiv holatning vujudga kelishi qator sababli omillar natijasida ro'y beradi. Afsuski, mazkur holat o'ta og'ir holatga o'tmaguncha uni anglash, sezish nihoyatda qiyin. Ko'plab olimlar va faylasuflar eramizdan avvalgi davridayoq depressiv holat deb nom olgan holatdan qutilish borasida ko'plab tavsiyalarni barishgan.

Zamonaviy bolakay o'zining rivojlanish tendensiyalari va mazmuni jihatdan murakkab olamda yashaydi. O'smir bolalarning ruhiy holati har doim maktab psixologlari, o'qituvchilari, ota-onalarning diqqat-e'tiborida bo'lgan. Ruhiy tushkunlik holatidagi bolalarda stress holatiga kuchli reaksiya holati kuzatilib, ular nihoyatda emotsional hamda hama narsani ko'ngliga yaqin oladilar, oqibatda ularning depressiya holatiga zaifligi kuchayib boradi.

Shaxs uchun turli narsalar haqida tashvishlanish xususiyati xosdir, bu esa uning hayotga nisbatan befarq munosabatda emasligidan dalolat beradi. Biroq bu tashvishlanish ba'zida noadekvat shaklda bo'ladi, ya'ni shaxs asoslamagan holda bu holatni boshdan kechiradi. Psixik holat sifatida xavotirlanish tushunchasining ko'pqirraligi shundan kelib chiqadiki, turli xil tadqiqotchilar "xavotirlanish" tushunchasini turli ma'noda talqin qiladilar.

Xavotirlanish – bu odamning doimo o'zini tashvishli his etish, turli vaziyatlarni xatarli holat sifatida idrok etishga moyilligidir. Xavotirlanishning boshdan kechirishi ham individual xususiyat bo'lib, bunday his noaniq biror xavf oldidan paydo bo'ladi. Xavotirlanish ro'y berishi mumkin bo'lgan yoki ehtimol tushilgan noxushliklar, odat va vaziyatdagi o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. U tashvishli harakatlarda, holatning keskinligida va hokazolarda namoyon bo'ladi. Xavotirlanishning yuqori darajada bo'lishi odatda faoliyatning samaradorligini pasaytiradi, shaxsning har xil ziddiyatli xulq – atvori bilan birga kechadi. Odatda xavotirlanishning shaxs xususiyati sifatidagi vaziyat bilan bog'liq ikki turi farqlanadi. Shaxs xususiyati sifatidagi xavotirlanish asab tizimining xususiyatlari va uzoq davom etadigan noxush muloqot bilan bog'liq xavotirlanish yoki reaktiv xavotirlanishlar aniq vaziyat bilan bog'liq bo'lgan va undan tashqarida namoyon bo'lmaydigan tashvishli holatdir.

Ma'lumki, inson qanchalik ko'p vaziyatli xavotirni his qilsa, uni shaxsiy xavotirlanishi shunchalik barqarorlashadi.

O.P.Elesiyev, Ya.Strelyau, V.S.Merlin tadqiqotiga asoslangan holda shuni ta'kidlanadiki, shaxs faolligini o'zgarishida bu bog'liqlik o'zgarishi mumkin. Ya'ni shaxsiy xavotirlanish reaktiv xavotirlanishning pasayishi bilan barobar rivojlanib borishi mumkin. Shunday qilib, jiddiy xatar oldida faollik va shaxsiy xavotirlanish ortadi. Buning natijasida vaziyatli sust reaktiv xavotirlanish pasayadi. Inson tashqi tomondan anchagina tinch, chidamli bo'ladi. Ch.Spelberger yana biri xavotirni uch ma'nosini ajratadi, xavotir murakkab jarayon sifatida o'ziga stress va xatar tarkibiy qismlarini oliuvchi u xavotir holatini o'zgarishini stress darajasi funksiyasini vaqt va intensivligida tavsiflaydi.

Shu tariqa xavotirlanishni tushunishda psixologiyada quyidagi nuqtai nazarlar yuzaga keladi:

Xavotirlanish-bu -ichki xavotirni psixik holati, xavotirni his qilishdagi taranglik; yomon hislar, xatarni kutishni sub'ektiv his qilish; emotsional diskomfortni his qilish; nevroitik reaksiya (avtonom nerv tizimini faolligining oshishi bilan kechuvchi emotsional reaksiya); salbiy emotsiyalar: qo'rquv, jahl va g'amginlik kompleksi (ba'zilar bunga qiziqishni ham kiritadi); murakkab psixik holat, kognitiv emotsional va operatsional tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi, emotsionalni dominantligida; shaxs tuzilishida deffektlarni paydo bo'lishi ular turli kasalliklarning kelib chiqishidir; shaxs faol harakatini tabiiy va majburiy xususiyati shaxsni o'zini mukammallashtiruvchi stimul sifatida namoyon bo'ladigan holat.

Xavotirlanish-bu murakkab psixik holat, ma'lum vaziyatga reaksiya sifatida, o'ziga kognitiv, emotsional, harakat, fiziologik komponentlarni birlashtirgan. Emotsional diskomfortni his qiluvchi individ sog'lig'i va harakatiga zarar keltirishi mumkin, xuddi shunday emotsional jabhada ham faoliyatga yo'naltirilgan ichki kuch va samaradorlikni stimullashtiruvchi.

Xavotirli holat-bu jarayondir. Bunda affektiv fenomenlar bir-birlarini almashtirib turuvchi ketma-ketlik, bosqichlarning almashishi kelib chiqishdan bartaraf etish mexanizmlarigacha, ko'payish intensivligini o'zgarishi bo'yicha sustidan ortiqcha qo'rquvgacha bo'lgan jarayondir.

## PSIXOLOGIYANING RIVOJLANISHI HAMDA FANLARARO INTEGRATSIYA TUSHUNCHASI

*Karimova M. B.,*

*Nurota tumani 6-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi*

**Annotatsiya:** maqolada fanlararo integratsiya va psixologiyaning rivojlanish sohalari taraqqiyoti muammolari va yechimlari, g'oyasi, ta'lim muassasasining hozirgi bosqichi hamda integratsiya atamasi mazmun va mohiyat haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** integratsiya, sivilizatsiya, platforma, obyektivlik, psixologiya, taraqqiyot, ijtimoiy, referent, ijtimoiy-iqtisodiy.

XXI asrda O'zbekistonda psixologiya fanlarining istiqboli alohida ahamiyat kashf etadi. Chunki, u yoki bu fanning o'tmishini, shu fanlar mutaxassisleri tomonidan yaratilgan ilmiy qarashlar tarixini o'rganadigan bo'lsak, u fanlarning integratsiyada, yurtdoshlarimiz tomonidan bajarilgan ilmiy izlanishlar, u yoki bu fan yutuqlarini hayotga joriy etilishi borasida, hozirgi zamon psixologiyasi ta'limotlariga oid mislsiz ishlarning amalga oshirilganligini ko'rishimiz mumkin. Respublikamizda olib borilayotgan turli islohotlar bugungi kunda yosh avloddan ijobiy xulq-atvor me'yorlari va qoidalarini, kasb-hunar, malaka va ko'nikmalarini har tomonlama puxta egallab borishni talab qiladi. Arastu ta'kidlagani kabi "munosib odam bo'lmoq,-fazilatlar egasi- fozil

bo'lmog' demakdir"<sup>1</sup>

Shuni ta'kidlash lozimki, XXI asr insonlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanish davri hisoblanadi. Bas shunday ekan, sotsiologiya va psixologiya, matematika fanlarining o'zaro integratsiyasi asosida ijtimoiy muammo va masalalarni tezkorlik va obyektivlik bilan hal qilishga yordam beradigan matematik modellar turkumini yaratish davr talabidir. Bunday integratsion modellar tizimi orqali sotsial-psixologik masalalarni yechishda ilmiy-amaliy imkoniyatlar yaratiladi.

“Integratsiya” atamasi mazmun va mohiyat jihatdan uzoq tarixga ega. “Integratsiya” – lotincha “integration” so'zidan olingan bo'lib, “integr” – “to'liq, yaxlit”, “bir butun” degan ma'nolarni anglatadi. Bugungi kunga kelib, kishilar integratsiya jarayonining mohiyatini yaxshi anglashi, uning rivojlantiruvchi funksiyalaridan foydalana olishlari natijasidagina muhim ilmiy muammolarni hal qilishda unga ehtiyoj sezmoqdalar. Biz integratsiya bir nechta o'quv predmeti materiallarini metodikaning vazifasi va yagona maqsadiga tabiiy bo'ysundirish asosida tuzish usuli yoki predmetlararo bog'lanishning eng yuqori darajasi, umummetodologik prinsiplar asosida muammoni kompleks o'rganish yo'li deb hisobladik. Unga bir butun bilimlar “monoliti” ni yaratishga imkon beruvchi vosita, atrof-muhit haqida yaxlit tasavvurni yaratishda bilimlarni yaqinlashtiruvchi, umumiy platformani belgilovchi omil deya ta'rif berish maqsadga muvofiqdir.

Integratsiya g'oyasi – ta'lim muassasasi taraqqiyotining hozirgi bosqichida eng istiqbolli g'oyalardan hisoblanadi. Bir tomondan, o'quv soatlarining qisqarib borishi sharoitlarida fanlararo integratsiya dars doirasida didaktik maqsadlarga erishishga imkon beradigan resurs bo'lib qolishi mumkin. Boshqa tomondan esa, fanlararo aloqalardan foydalanish talaba va o'quvchining o'ziga atrofda duniyoni turli-tumanlikda va yaxlitlikda bilish imkonini beradi.

“Biz o'z tariximizni xolisona va haqqoniy baholab, ma'naviy merosimizni boyitish va rivojlantirishga o'z hissamizni qo'shishimiz, shu asosda bugungi jahon ilmiy fani va madaniyatining yuksak cho'qqilarini egallashdek buyuk vazifaga har tomonlama munosib va qodir bo'lishimiz darkor”<sup>2</sup>. Buning uchun bizda yetarli asos, buyuk o'tmishimiz, ulkan ilmiy merosimiz bor. O'tmish va kelajak haqida, shuningdek, boshqa fanlar yutuqlari haqida to'g'ri bilim va tasavvurga ega bo'lsak, fanlararo integratsiyadan psixologik ta'limotlarni rivojlantirish uchun oqilona xulosalar chiqarib, uni keng ilmiy jamoatchilik hukmiga havola etsak, bu ayni vaqtda fan taraqqiyotiga qo'shilgan munosib hissa bo'ladi.

Biz qadriyatlarimizni qadrlay olish sharoitida yashab ijod etayotgan ekanmiz, qator allomalarimizning fanlar integratsiyasida ijod etganlarini unutishimiz mumkin emas, albatta. Allomalarimiz eng kamida uch-to'rt fanlar

<sup>1</sup> Arastu. Poetika. Axloqi kabir- T, 2004.

<sup>2</sup> Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat engilmas kuch”.\_\_ T.: «Ma'naviyat», 2008.

integratsiyasida ijod etib, faqat ulug' g'oyalarni bunyod etib, jahon fani taraqqiyoti va sivilizatsiyasiga katta hissa qo'shganlar va bu borada bir-birlarini kamsitib yoki ayblagan emaslar.

Fanlararo integratsiyada, psixologiya fanlari sohalari taraqqiyoti uchun ma'naviy asos, ildiz bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan, milliy qadriyatlarimizga oid ma'lumotlar, milliy mafkura chig'irig'idan o'tkazilib, psixologik tahlil qilinib, sharhlanib, o'quvchilar e'tiboriga xavola etilsa, bu o'quvchilarda o'z o'tmishi, yurti, fanidan fahrlanish, g'urur hissini shakllantiradi. Bu esa, mutaxassislar tomonidan fanni o'rganish va uni rivojlantirish uchun kuchli ichki, shaxsiy ahamiyatli motiv bo'lib xizmat qiladi. Bunday motiv, O'zbekistonda mazkur fan rivojlanishida hal qiluvchi kuch hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlar shundan dalolat berayaptiki, turli xil fanlarning, shu jumladan, sotsiologiya va psixologiya fanlarining egizak bo'lishi muhim va nozik muammolarni hal etishda qo'l kelar ekan. O'z-o'zidan ravshanki, sotsiologiya va psixologiyaning bir-biri bilan chambarchas aloqasi mavjudligini ilg'or, taniqli sotsiologlar va psixologlar ta'kidlab, tasdiqlab kelishgan. Ilg'or psixologlarning fikricha, psixologik tadqiqotlar ta'lim va tarbiya ishida yangilikning keng miqyosda qidirilishini ta'minlaydigan yo'nalishda olib borilishi kerak. Psixologiya oldidagi muhim vazifalarga jumladan, kishining tarbiyasi va ruhiy jihatdan rivojlanishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ochib bergan holda talim va tarbiya jarayonida uning shaxsini shakllantirishning psixologik asoslarini ko'rsatib berish; odamlarning yoshi va individual xususiyatlari o'rtasidagi nisbatni o'rganish va shu kabilar kiradi.

Sotsiologiyada va psixologiyada odamlarning o'zaro yoqtirish tuyg'ulari asosidagi birlashuvlarini referent guruhlar atamasi orqali o'rganiladi. Hayotda insonlar ikki, uch, uzog'i bilan to'rt kishilik ko'ngilga yaqin odamlardan iborat o'zaro ahil kichik guruhlarga birlashadilar, hamda mazkur guruhlar doirasida kasbiy, maishiy va ijtimoiy masalalarni o'zaro hamkorlikda hal etib yashaydilar. Odamlarning o'zlariga mos odamlarni topib birlashishlari maktabgacha tarbiya muassasalaridan boshlanib, keksa yoshga etganlarida ham uzluksiz davom etadi. Odamlarning bunday yoqtirib birlashish holatlari oxir – oqibatda, o'zaro do'stlik darajasiga o'sib chiqishi ko'p martalab kuzatilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, fanlararo integratsiya bu albatta taraqqiyot, sivilizatsiya, samaradorlik posbonidir bunga shubha bo'lishi mumkin emas. Biroq, bir fan sohibi, boshqa fan yutuqlariga asoslanib o'z sohasini rivojlantirishga intilsa, albatta qandaydir og'ish va cheklanishlarga yo'l qo'yishi mumkin. Eng keraklisi – bu yo'lda soflik, poklik haqiqatgo'ylik, adolatga bo'ysunishi, bir fan sohasi sohibi boshqa fan sohasi sohibiga hayrixohlik, maslahat berishi, yordam qo'lini cho'zishidir. Faqat shundagina fanlararo integratsiya o'z mazmunini yo'qotmaydi, degan fikrdamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimov Islom., "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch", Toshkent "Ma'naviyat" 2010.

2. Mavlonova R. Raxmonqulova N. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. T.: O'qituvchi, 2006.
3. Социальная психология: История, теория, эмпирические исследования. Под ред е. С. Кузмина, В. е. Семенова Л. Г. У. 1979.

## TEKISLIKDA VA FAZODA VEKTORLAR MAVZUSINI O'QITISH METODIKASI

*Shodiyeva N.R.,  
Samarqand shahar 7-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi*

Vektor – lotincha so'z bo'lib, eltuvchi, ko'chuvchi ma'nosini bildiruvchi, to'g'ri chiziqning yo'nalishga ega bo'lgan kesmasi. Bu kesma uchlarining biri vektorning boshi, ikkinchisi esa oxiri bo'ladi [1].

Fizika, matematika va mexanikaning faqat son bilan emas, balki yo'nalish bilan ham ifodalanadigan miqdorlarni tekshiruvchi masalalari *vektor* tushunchasiga olib keladi [1].

Siljish, tezlik, tezlanish kabi miqdorlarni fazoning istalgan nuqtasidan chiqqan vektor bilan tasvirlash mumkin. Bunday vektor miqdorlar *erkin vektorlar* deyiladi. Kuch, burchak, tezlik singari vektor miqdorlarni to'la aniqlash uchun ularning son qiymatlari, yo'nalishlaridan tashqari yana ta'sir chiziqlarini ham bilish zarur (masalan, kuchni faqat shu kuch yo'nalishi bo'yicha ko'chirish mumkin). Bunday vektor miqdorlar *sirpanuvchi vektorlar* deyiladi [2].

Fazoda biror  $O$  nuqta ma'lum bo'lsa, shu nuqtaga nisbatan fazodagi istalgan nuqta, masalan,  $M$  nuqta vaziyatini  $OM=p$  bilan aniqlash mumkin.  $p$  vektor  $M$  nuqtaning *radius vektori* deyiladi.

Vektor haqida umumiy tushuncha bilan tanishtirilgach, vektorning koordinatalari haqidagi bilimlarni kiritgan ma'qul.

Tekislik yoki fazodagi har qanday vektorni koordinatalar boshidan chiqqan deb hisoblash mumkin. Shu sababli vektor uchining vaziyati koordinatalar bilan aniqlanadi. Shunga ko'ra, har qanday vektor tekislikda ikkita  $(x_1; x_2)$  (fazoda uchta  $(x_1; x_2; x_3)$  va  $n$  o'lchovli fazoda  $n$  ta  $(x_1; x_2; x_3 \dots x_n)$ ) son bilan aniqlanadi.

Masalalar yechishda va tushuntirishda qulaylik uchun vektorlarni kichik harflar bilan ularning koordinatalarini esa shu harflarga indeks qo'yish orqali ifodalash afzal. Masalan, vektor  $\vec{a}$  bo'lsa, uning koordinatalari  $(a_1; a_2)$  kabi bo'ladi.

Agar  $\vec{a} = (a_1, a_2)$ ,  $\vec{b} = (b_1, b_2)$  bo'lsa, vektorning yig'indisi va ayirmasi  $\vec{a} \pm \vec{b} = (a_1 \pm b_1; a_2 \pm b_2)$  kabi hisoblanadi.

O'quvchi vektorning yo'nalishi shu vektor qo'yilgan nurning yo'nalishi bilan aniqlanishini, vektorning uzunligi esa uning moduli yoki absolyut qiymati deb yuritilishini va  $|\vec{a}| = \sqrt{a_1^2 + a_2^2}$  - modulni hisoblash formulasini masala yechishga tatbiq eta olishi lozim.

O'quvchilarga kesma o'rtasining koordinatalari, kesmaning uzunligi haqida ma'lumot maktab geometriya o'quv rejasiga kiritilmagan bo'lsa-da, masalalar yechish jarayonida ushbu formulalarga ehtiyoj tug'iladi.

Uchlari  $A(x_1; y_1)$  va  $B(x_2; y_2)$  nuqtalarda bo'lgan kesmani qaraymiz.  $AB$  kesma o'rtasining koordinatalari quyidagicha topiladi:  $C = \left( \frac{x_1 + x_2}{2}; \frac{y_1 + y_2}{2} \right)$ .

$AB$  kesmaning uzunligi  $AB = \sqrt{(x_2 - x_1)^2 + (y_2 - y_1)^2}$  formula orqali, uchlari  $A(x_1; y_1)$ ,  $B(x_2; y_2)$  va  $C(x_3; y_3)$  nuqtalarda bo'lgan uchburchakning medianalari

kesishgan nuqtasining koordinatalari esa  $\frac{x_1 + x_2 + x_3}{3}$ ,  $\frac{y_1 + y_2 + y_3}{3}$  kabi hisoblanadi. Ushbu formulalarga doir turli mazmundagi masalalardan namunalar keltiramiz.

Masala.  $B(1;2)$  va  $C(-2;6)$  nuqtalar orasidagi masofani va  $BC$  kesma o'rtasining koordinatalarini toping.

$$\text{Yechish: } BC = \sqrt{(x_2 - x_1)^2 + (y_2 - y_1)^2} = \sqrt{(-2 - 1)^2 + (6 - 2)^2}.$$

$B$  va  $C$  kesma o'rtasini  $A(x; y)$  bilan belgilasak, u holda  $x = \frac{-2 + 1}{2} = -\frac{1}{2}$ ,  $y = \frac{6 + 2}{2} = 4$ .

*Vektor tushunchasini berishdagi turli xil yondoshuvlar.* Matematikaning asosiy tushunchalaridan biri bo'lgan vektor tushunchasi matematika, mexanika va texnikaning turli xil sohalarida keng qo'llanilishi tufayli doimiy ravishda takomillashtirilmoqda. K.Vessel, J.Argan va K.F.Gausslarning kompleks sonlar nazariyasida kompleks sonlar ustida arifmetik amallar va ikki fazoli tekislikda vektorlar ustida geometrik amallarni bajarish o'rtasida aloqa o'rnatilgan.

O'tgan asrning o'rtalarida V.Gamilton, C.Mebeus ishlarida vektor tushunchasi uch o'lchamli va ko'p o'lchamli fazolar xossalarini o'rganishda keng qo'llanilgan.

XX asrning oxiri va XXI asrning boshida vektor hisob keng miqyosda rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda vektor algebrasi va vektor analiz, maydonlar nazariyasi yaratildi. Bu nazariyalardan fizikada juda muhim rol o'ynaydigan umumiy va maxsus nisbiylik nazariyasini yaratilishida foydalanilgan.

Maktab matematika dasturi talabiga muvofiq vektor tushunchasi maktab geometriya kursining yetakchi tushunchalaridan biriga aylandi. Chunki, 9-sinf fizikasining birinchi darsidanoq materiallarning bayon qilinishida keng miqyosda vektor apparatidan foydalanilgan. Fizikada vektorlar yordamida kattaliklarning turli xil yo'nalishlari ifodalanadi: kuch, tezlik, tezlanish, moddiy nuqtaning harakati va boshqalar. Bunda ko'pincha vektor kattaliklar, vektor deb ataladi. Ba'zida bunday yo'nalishga ega bo'lgan kattaliklar ma'lum bir nuqta yoki tog'ri chiziq bilan mustahkam aloqada ekanligini ko'ramiz.

Matematikada esa *erkin vektor* deb ataluvchi vektor (hech qanday to'g'ri chiziq va hech qanday tayin nuqta bilan bog'lanmagan)dan foydalaniladi. Ta'kidlash lozimki, matematikada vektor, vektor fazoning elementi sifatida



qaraladi, ammo maktab matematika kursida “vektor fazo” tushunchasi o‘rganilmaydi. Shuning uchun vektor tushunchasini kiritishda turli xil yondoshuvlarni ajratish mumkin. Bu yondoshuvlarning har biri o‘zining yutug‘i va kamchiligiga ega. Shu sababli ulardan birortasi ideal va mantiqan to‘la mohiyatga ega emas.

Masalan, A.N.Kolmogorov tahriri ostida chiqqan qo‘llanmada vektorga shunday ta’rif beriladi: “Geometriyada parallel ko‘chirishlar boshqacha ham nomlanadi, ya’ni ular *vektorlar* deyiladi“. Ushbu ta’rif vektor -bu yo‘nalish va uzunlik bilan xarakterlanadigan ob’jekt degan mulohazaga asoslanadi. Ammo, ma’lumki xuddi shunday alomatga parallel ko‘chirish ham ega. Shuning uchun har qanday parallel ko‘chirishni vektor deyish maqsadga muvofiqdir [1].

Vektorning yangi ta’rifi yo‘nalishga ega kesma tushunchasi bilan bog‘lanmagan. Vektor deganda tartiblangan nuqtalar jufti to‘plami bilan berilgan qandaydir parallel ko‘chirish yoki shu ko‘chirishning o‘zi tushuniladi. Tekslidagi barcha nuqtalar jufti to‘plamini qaraymiz. Qaralayotgan to‘plam elementlari uchun quyidagi munosabatlarni kiritamiz:  $(A, B)$  va  $(C, D)$  juftliklar, agar  $[AB]/[CD)$  va  $\square AB\square = \square CD\square$  [12]. Ular aynan bitta parallel ko‘chirishni beradigan nuqtalar juftligidir. O‘zaro ekvivalent deb birinchi nuqta ikkinchi nuqta bilan ustma-ust tushadigan juftliklarni hisoblaymiz. Bunday munosabat ekvivalentlikning refleksivlik, semmetriklik va tranzitivlik xossalariga ega ekanligini tekshirish oson. Ekvivalentlikning ushbu xususiyati tekislikdagi nuqtalar juftligi to‘plamini elementlari ekvivalent juftliklar bo‘lgan kesishmaydigan qism to‘plamlarga (sinflarga) ajratadi. Bunday har bir qism to‘plamlarni vektorlar deb aytish mumkin.

A.V.Pogorelov qo‘llanmasida ushbu tushuncha “yo‘naltirilgan kesma, vektordir” deb berilgan. Hozirgi vaqtda bu darslik asosiy darsliklardan biri ekanligini e’tiborga olib, ushbu mavzuni shu qo‘llanmada ifodalanishiga e’tiborni qaratish lozim.

Bu yerda vektorlarni berishda koordinatalar metodidan keng miqyosda foydalanilishi alohida ahamiyatga loyiqdir. Bunda o‘zi ham koordinatalardan foydalanilib kiritiladigan parallel ko‘chirish xossalaridan foydalaniladi. Parallel ko‘chirish yordamida “bir xil yo‘nalgan vektorlar”, “vektorlarni tengligi” kabi tushunchalar kiritiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. М.Я. Выгодский. Элементар математикадан справочник. Т.: Ўқитувчи, 1971.-444 б.
2. О.В.Мантуров ва бошқалар. Математика терминларининг изоҳли луғати. -Т.: Ўқитувчи, 1974. -550 б.

## O‘SMIR SHAXSI VA OTA-ONALARNING OILADAGI BOLALAR - O‘SMIRLAR BILAN MUNOSABATLARI

*O‘roqova G. I.,  
Qizitepal tuman 18-umumiy o‘rta ta’lim maktabi psixologi*

Oiladagi shaxslararo munosabatlarning dolzarbligi va ularning o'smir bolalarning shaxsiyati va xulq-atvorining shakllanishiga ta'siri quyidagicha: bolaning hissiy muvozanati va ruhiy salomatligida juda muhim omil - bu oila muhitining barqarorligi. Oilaning "sifati", uning tarbiyaviy qobiliyati katta ahamiyatga ega. Tarbiyaga qodir bo'lmagan oila bolaning ijtimoiylashuvi jarayonida jiddiy buzilishlarga olib keladi.

Shaxsning shakllanishiga asosiy ta'sir oila - ota-ona va qarindoshlardir. O'zlariga yaqin odamlardan iborat kichik guruh hayotida bevosita va doimiy ishtirok etish imkoniyatidan mahrum bo'lgan bolalar taqdir tomonidan jiddiy qashshoq va noqulay ahvolga tushib qolishadi.

Ota-onalar har bir inson hayotida katta va mas'uliyatli rol o'ynaydi. Ular xatti-harakatlarning birinchi namunalarini taqdim etadilar. Bola ona va otaga taqlid qiladi va unga o'xshash bo'lishga intiladi. Ota-onalar bolaning shaxsiyatining shakllanishi ko'p jihatdan ularga bog'liqligini tushunganda, ular o'zlarini shunday tutadilarki, ularning barcha harakatlari va umuman olganda, bolada ana shu fazilatlarni shakllantirishga va insoniy qadriyatlarni shunday tushunishga yordam beradi, unga yetkazishni xohlaydi. Bunday ta'lim jarayonini juda ongli deb hisoblash mumkin, chunki o'z xatti-harakatlarini, boshqa odamlarga bo'lgan munosabatini doimiy nazorat qilish, oilaviy hayotni tashkil etishga e'tibor bolalarni har tomonlama va barkamol rivojlanishiga yordam beradigan eng qulay sharoitlarda tarbiyalashga imkon beradi.

Shaxsning shakllanishiga asosiy ta'sir oila - ota-ona va qarindoshlardir. O'zlariga yaqin odamlardan iborat kichik guruh hayotida bevosita va doimiy ishtirok etish imkoniyatidan mahrum bo'lgan bolalar taqdir tomonidan jiddiy qashshoq va noqulay ahvolga tushib qolishadi.

Ota-onalarning to'g'ri pozitsiyalari va normal rivojlanish, bir tomondan bolaning xatti-harakati, shuningdek, ota-onalarning noto'g'ri munosabatlari va bolalarning xatti-harakatlaridagi buzilishlar o'rtasidagi bog'liqlik mexanizmini aniqlashga harakat qilindi. boshqa.

Muammoni o'rganishda ota-onalar o'rtasidagi munosabatlarning bunday uslublari, masalan, haddan tashqari qiziquvchanlik, bolaga nisbatan kamsituvchi munosabat va uni haddan tashqari himoya qilish kabi uslublar ajratildi. Oxirgi pozitsiya bir qancha xususiyatlardan iborat, masalan, bolaga shunday ohangda muomala qilish, go'yo u juda kichik, ya'ni u haqiqatdan ham yoshroq. Xuddi shu pozitsiyani bolaning erkinligini cheklash, uning sog'lig'i haqida haddan tashqari tashvishlanish, haddan tashqari qiziquvchanlik va boshqalar bilan bog'lash mumkin. Ba'zi qisman pozitsiyalar ikkita murakkab turli pozitsiyalarning bir qismi bo'lishi mumkin. Masalan, bolaga haddan tashqari talablar yoki uning ijtimoiy izolyatsiyasi uning himoyasi kabi ko'rinishi mumkin. Bu ota-ona munosabatlari ota-onalarning bolaga e'tiborining haddan tashqari hissiy kontsentratsiyasining ifodasidir, bu ko'pincha salbiy oqibatlariga olib keladi. Bolani doimiy tanqid qilish, unga qo'pol munosabatda bo'lish ham haddan tashqari talabchanlik pozitsiyalariga xos bo'lishi mumkin. Ushbu

holatlarning har birida ota-onalarning bolalarga munosabatining umumiy xususiyati bola ustidan to'liq hokimiyatga intilishdir.

Murakkab pozitsiyalar orasida ota-onalarning bolalarga nisbatan xatti-harakatlarining turli uslublarini tushuntirishga imkon beradigan asosiy turlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Asosiy turlar sifatida biz quyidagilarni tanlaymiz:

1) ota-onalar va bola o'rtasidagi haddan tashqari hissiy masofa va bolaga juda ko'p e'tibor qaratish, va ular orasida, markazda, biz bolaga nisbatan hissiy jihatdan muvozanatli munosabatni joylashtiramiz;

2) bolalarga nisbatan ustunlik va itoatkorlik, o'rtada - ona va otaning ichki mustaqilligi pozitsiyasi, bu sizga bolani erkin boshqarish imkonini beradi.

Muvofiqlik ota-onalarning xatti-harakatlarining yumshoqlik, bolalarni boshqara olmaslik yoki qobiliyatsizligi kabi xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Bunday ota-onalarning talablari kam va o'zgaruvchan bo'lib, ularning buyruqlari va ko'rsatmalariga bolalar kamdan-kam amal qiladilar.

Ushbu hukmronlik pozitsiyasidan farqli o'laroq, hukmronlik ota-onalarning moslashuvchanligi, cheklovlarga moyilligi va jiddiyligi bilan tavsiflanadi. Intizom va rejim buyuriladi, bola ularni jazo tahdidi ostida o'rganadi, bu og'ir va hatto shafqatsiz bo'lishi mumkin, tashqi ko'rinishida yumshoq bo'lishi mumkin, lekin aslida bola uchun haqoratli va yoqimsiz, lekin har qanday holatda ham u tomonidan og'riqli qabul qilinadi.

Haddan tashqari hissiy masofa bilan ota-onalarning bola bilan aloqa qilish istagi etarli intensivlik bilan ajralib turmaydi. "Masofa" so'zi ota-onalarning boladan aqliy uzoqligini aniqlash uchun ishlatiladi. "Masofa" bilan ota-onalar bolaga emas, balki unga qarshi yoki undan tashqarida emas. Ularning aloqalari asosan yuzaki bo'ladi, ota-onalar yo befarq, yoki o'z his-tuyg'ularini ifoda etishda o'zini tutishadi yoki farzandiga nisbatan noroziligini ochiq ifoda etadilar.

Keling, bola bilan aloqani shakllantirishga nima yordam berishini ko'rib chiqaylik. Avvalo, bu bolalarga e'tiborni haddan tashqari to'plashsiz, balki haddan tashqari hissiy masofasiz, ya'ni tarang yoki juda zaif va tasodifiy emas, erkin aloqaga muhtoj bo'lgan yondashuv. Biz bolalarga bunday yondashuv haqida gapiramiz, uni muvozanatli, erkin, bolaning ongi va qalbiga yo'naltirilgan, uning haqiqiy ehtiyojlariga qaratilgan deb ta'riflash mumkin. Boshqa tomondan, bu haddan tashqari buyruq buyrug'i yoki itoatkor, passiv so'rov emas, balki ma'lum bir mustaqillikka asoslangan, o'rtacha qat'iy va qat'iyatli, bola uchun qo'llab-quvvatlash va vakolat bo'lgan yondashuv bo'lishi kerak.

Bolalarga e'tiborning haddan tashqari hissiy kontsentratsiyasi bilan, ota-onalarning o'jar va qat'iy istagi bolaning xatti-harakatlarini to'g'irlash, uni o'z-o'zidan saqlash va ijtimoiy aloqalarni cheklash kabi ko'rinadi.

Muvofiqlik faqat ota-onalarning bolaning xohish-istaklariga bo'ysunishini anglatmaydi. Bu uning butun borlig'iga mutlaqo bo'ysunishi bo'lishi mumkin, bu butunlay bolaning talablari va ehtiyojlariga bog'liq. Bunday ota-onalar o'z hayotlarini deyarli to'xtatadilar. Bolaga nisbatan itoatkor ota-onalar o'zlarining

passivligini, ma'naviy uzoqligini namoyish etadilar. Ko'pincha, ular bolaning hissiy ehtiyojlarini e'tiborsiz qoldirib, u bilan muloqot qilishdan qochadilar.

Bola bilan aloqa qilishning bunday turlari noto'g'ri pozitsiyalarning asosiy turlarini aniqlaydi: rad etish, qochish, haddan tashqari talabchan va haddan tashqari himoya. Haddan tashqari hissiy masofa va ota-onalarning hukmronligi bilan biz rad etuvchi pozitsiyaga duch kelamiz. Bola ota-onalar tomonidan "og'ir yuk" sifatida qabul qilinadi. Ular bolani sevmaydilar va unga ega bo'lishni xohlamaydilar, ular umidsizlik hissi va rejalarining barbod bo'lishini boshdan kechiradilar. Ular unga g'amxo'rlik qilishni yoqimsiz deb hisoblashadi.

Yuqoridagilarga asoslanib xulosa sifatida aytish mumkinki, ota-onalar bolaning faoliyatining namoyon bo'lishiga erkin, norasmiy munosabatda bo'lishadi, uning individualligini hurmat qilishadi. Ular o'z talablarini yoki qo'llanilgan jazoni tushuntirishga va asoslashga tayyor. Bunday oiladagi bola undan nima kutilayotganini biladi, bu umidlarni oqlay olishini tushunadi.

Ota-onaning qiyin pozitsiyasining yana bir turi, ota-onalarning bolaga haddan tashqari e'tibor qaratishlari bilan tavsiflanadi, lekin ular unga mos keladi. Bunday holda, ortiqcha himoya paydo bo'ladi. Ota-onalarning bolaga munosabati odatda tanqidiy emas. Ko'pincha ular o'z farzandlarini mukammallik namunasi deb bilishadi. Ota-onalar bolaga go'dakdek munosabatda bo'lishadi; haddan tashqari vasiylik va haddan tashqari indulgensiya; uning uchun qiyinchiliklarni, uning mustaqilligi yo'lidagi to'siqlarni hal qilish; bolaning hayotiga haddan tashqari qiziqish; bolaning ijtimoiy izolyatsiyasi; uning sog'lig'i uchun haddan tashqari tashvish; qobiliyatlarning bir tomonlama rivojlanishini rag'batlantirish.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abramova G.S. Rivojlanish psixologiyasi: Universitet talabalari uchun darslik. - M.: Akademik loyiha, 2001.
2. Zemska M. Oila va shaxs: Per. Polshadan. Vasilyeva L.V.: Progress Press, 1986 y.
3. Nartova-Bochaver S. Shaxs va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi. - M.: EKSMO-Pressdan, 2001 yil.
4. Nemov R.S. Psixologik maslahat asoslari: Uchebn. stud uchun. pedagogika universitetlari. - M.: Gumatit. Ed. VLADOS markazi, 1999 yil.

#### **RAHBARLARNING NIZOLI VAZIYATLARNI HAL ETISHDAGI SAMARALI BOSHQARUV FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH**

*Qo'ziyeva S. A.,*

*Buxoro innovatsiyalar universiteti magistranti*

Ma'lumki, pedagog-rahbarlar jamoasidagi muhim psixologik jihatlardan bir bu jamoa a'zolarining o'zaro hamjihatlikda samarali faoliyat olib borishlari bilan belgilanadi. Ayniqsa, pedagoglar jamoasidagi ziddiyatli holat ular faoliyatiga ham ta'sir qilmasdan qolmaydi. Bu esa ularning nafaqat faoliyat

tizimlariga balki o'quvchi shaxsini ta'lim-tarbiya olishiga, kasbiy kamolotiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi.

Pedagoglar jamoasidagi negativ ta'sirlardagi asosiy omil bu nizolardir.

**Nizo** - bu shaxsiy va ijtimoiy hayotdagi u yoki bu qarorlarni qabul qilishda yuzaga keladigan insonlar orasidagi qarama - qarshiliklardir. Biroq, har qanday qarama - qarshilik nizolarni keltirib chiqarmaydi. Insonlar turli qarashlarga ega bo'lishi mumkin, lekin bu ularning hamkorligiga xalal bermaydi. Agar qarama-qarshiliklar shaxs qiziqishlarini, mavqei, axloqiy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lsa, nizolarni keltirib chiqaradi. Nizolar jamoada nosog'lom muhitni yuzaga keltirib chiqaradi hamda o'zaro munosabatlarni "aniqlashtirib olish"ni talab qiladi. Nizolar o'zning mohiyat mazmuniga ko'ra, *destruktiv* va *konstruktiv* turlarda namoyon bo'lishi mumkin.

Nizoning ijobiy tomoni shundaki, u shaxsning o'zini o'zi anglashiga, o'z oldiga qo'ygan maqsadni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Insoniy munosabatlar tizimida nizolarni keltirib chiqaruvchi omillarni 5 guruhga kiritish mumkin ya'ni ular axborotlar, tuzilishlar, qadriyatlar, munosabatlar va xulq-atvorlardir.

Ko'pgina nizolar negizida bir tomon uchun noma'qul bo'lgan axborot tashkil etadi. Bu noto'liq va noaniq faktlar, mish-mishlar bo'lishi mumkin, ya'ni ma'lumotlarning aniqligiga, axborot manbasini ishonchliligiga shubhalanish, bahs- munozara va boshqalar.

Nizolarning tuzilishli omillari ijtimoiy guruhlarining rasmiy va norasmiy tashkil topgani bilan bog'liq. Bunda shaxsiyat, ijtimoiy mavqei, hukmronlik, turli ijtimoiy norma va standartlar, an'analar xavfsizlik tizimi, rag'bat va jazo, geografik joylashuvni, resurslar taqsimoti, tovarlar, xizmatlari, daromatlarni kiritish mumkin.

Qadriyatlar omili — bu biz tan oladigan yoki inkor etadigan tamoyillar. Bu guruhiy yoki shaxsiy e'tiqod ishonch va xulq-atvor tizimi ideologik madaniy, diniy, etnik, siyosiy, kasbiy qadriyatlarni kiritish mumkin.

Munosabatlar omili shaxslararo munosabatlardan qoniqqanlik bilan bog'liq. Bunda munosabatlar asosini, ularning mavjudligi, kuchlar muvozanatini, o'zi va boshqalar uchun ahamiyatini, o'zaro kutishlarni, munosabatlarini davomiyligini, tomonlarning qadriyatlar tizimini muvofiqligini, xulq-atvorni inobatga olish zarur.

Xulq-atvor omili ham qiziqishlar turli bo'lsa, o'z-o'ziga noadekvat baho, xavf tug'lsa emotsional holatlarni yuzaga kelishiga zamin yaratilsa, agar shaxs xulq-atvorida xudbinlik, mas'uliyatsizlik, adolatsizlik kuzatilsa, nizolarni vujudga keltirish mumkin.

Bunday guruhlashtirish nizolarning tabiatini chuqur tushunib etishga va ularni oldini olishga xizmat qiladi.

Ko'lamiga ko'ra nizolar ichki, shaxsiy, shaxslararo, shaxs va guruh orasidagi va guruh, guruhlararo nizolarga bo'linadi.

Ichki shaxsiy nizolar ishlab chiqarish talablari va shaxsning ehtiyojlari yoki qadriyatlarini o'zaro nomuvofiqligi, ish yuklamasining noadekvatligi natijasida kelib chiqadi.

Shaxslararo nizolar resurslar, kapital ishchi kuchining, asbob uskunalari, vakant o'rinning tanqisligi oqibatida kelib chiqadi.

Shaxs va guruh orasidagi nizo alohida shaxs kutishilari, talablari va guruhda qabul qilingan normal va xulq-atvorning nomuvofiqligi natijasida yuzaga keladi.

Ushbu nizo boshqaruv uslubining noadekvatligi, jamoaning to'liq etilmaganligi, rahbar va jamoa orasidagi munosabatlarning yaxshi emasligidan kelib chiqadi.

*Guruhlararo nizolar* - bu rasmiy guruh jamoasi ichidagi va norasmiy guruh jamoasi ichidagi, qolaversa, rasmiy va norasmiy guruh orasidagi nizolardir.

Nizolarning davomiyligiga ko'ra, qisqa vaqtli va uzoq muddatlilikiga ajratish mumkin. Birinchisida, tushunmovchiliklar va kamchiliklar tez anglanadi. Ikkinchisida, esa chuqur axloqiy - psixologik jarohatlar bilan bog'liq bo'lib, uzoq vaqt davom etadi. Nizolarning davomiyligi shaxs xarakteriga bog'liq. Uzoq vaqt davom etuvchi nizolar xavfli bo'lib, unda tomonlarning negativ holatlari kuzatiladi.

Nizolarni guruhlashtirishda ularning jamoa hayotidagi ta'sir darajasini inobatga olish zarur. Shu o'rinda jamoa hayotini zaharlovchi nizolarni ham aytib o'tish joiz. Bunday nizolarda arzimas narsalardan fojialar yasaladi.

Nizolarning jamoani kelgusidagi taraqqiyotiga qarab salbiy oqibatlarga va ijobiy oqibatlarga ega nizolarga ajratish mumkin. Nizodan keyingi holatda negativ emotsiyalar yuzaga keladi. Bu esa nizoning salbiy oqibatidir.

Nizolarni keltirib chiqaruvchi manbalarga ko'ra, ob'ektiv shartlanganlikka ajratish mumkin. Murakkab qarama-qarshiliklar vaziyatida ob'ektiv nizolar yuzaga keladi. Noqulay mehnat sharoiti, funksiyalarning noaniq taqsimoti va mas'uliyatsizlik, sharoitning o'zgarishi, ob'ektiv nizolarni yuzaga keltiradi. Sub'ektiv nizolar shaxsiy xususiyatlarga bog'liq ravishda yuzaga keladi. Bunda shaxsning qiziqishlari, istaklari, intilishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Insonlar nizoli vaziyatlarda o'zlarini turlicha tutadilar: ba'zilar yon bosadi, ba'zilar o'zlarining qarashida qat'iy turib oladilar. Iqtisod fanlari doktori N.Obidov nizoli vaziyatlardagi 3 xil xulq-atvor tipini ajratib ko'rsatadi: "Amaliyotchi" "Hamsuhbat" "Fikrlovchi" xulq-atvor tiplari. Ular nizoli vaziyatlarda turlicha harakat qiladilar. "Amaliyotchi" "Eng yaxshi himoya - hujum" tamoyiliga amal qiladi. Ular uchun eng muhimi harakatdir, mana shu nizolarni uzoq vaqt davom etishiga olib keladi. Atrofdagilarning fikrini o'zgaruvchanligi turli qaralsa qarshiliklarga olib keladi.

"Rahbar — rahbar" munosabatlarida biror muammoni hal qilishda nizodan qochib bo'lmaydi "Amaliyotchi"lar juda maydakash bo'lgani uchun munosabatlarda buzilishlar kuzatiladi.

"Hamsuhbatlar" uchun "Yaxshi urushlardan ko'ra, yomon dunyo yaxshi" degan tamoyilga amal qiladilar. Ular uchun insonlar bilan muloqotda bo'lish

birinchi o'rinda turadi. Bunday tipdagi shaxslar o'zgarar fikrini osonlik bilan qabul qiladilar. Shuning uchun ular ko'pincha jamoadagi norasmiy emotsional liderga aylanadilar.

“Fikrlovchilar” uchun “O'zlarini g'olib bo'ldim deb o'ylayversinlar!” tamoyili xosdir. “Fikrlovchi”lar o'zlari va muhitni anglashga moyil bo'ladilar. Nizoli vaziyatlarda ular o'zlarini haqliklarini va qarama-qarshi tomonni nohaqligini isbotlashda murakkab faktlarni keltiradilar. Nizolashayotgan tomonlarni murakkab vaziyatdan faqatgina uchinchi tomon chiqarib olishi mumkin. “Fikrlovchi”lar doim o'z xulq-atvorini o'ylab amalga oshiradilar.

## **YOSHLARDA MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISHNING**

*Shokirova Z. P.,*

*Qiziltepa tuman 25-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi*

*Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'naviyat tatbiq etilayotgan* yangiliklar, ta'lim-tarbiya borasida yaratilayotgan shart-sharoitlar, xalqimizning yashash va mehnat qilish sharoitlarining yaxshilanishi, umuman olganda erishilgan moddiy va ma'naviy salohiyat erkinligi mamlakat mustaqilligining tuhfasi bo'lib, erkin mehnat qilish va yashash, mustaqil fikrlash, e'tiqod va so'z erkinligi, diniy bag'rikenglik, umuminsoniy qadriyatlar va milliy urf-odatlarining hurmat qilinishi hamda qadrlanishi, kuchli ijtimoiy himoya hamda bularni xuquqiy asoslarini yaratilishi o'quvchi-yoshlarni mustaqillik, uning mazmun mohiyati, ahamiyati va zaruriyatini ob'ektiv baholashga o'rgatish yo'nalishida o'ziga xos vazifalar yuklaydi. Bular o'z navbatida uzluksiz ta'lim tizimi muassasalarida tashkil etiladigan ta'lim - tarbiya jarayonlarida aks ettirish, yani o'quvchi - yoshlarda mustaqillik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, ko'proq erkin va mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularning sub'ektivligini oshirish, mustaqil ta'lim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, mustaqil olgan ma'lumotlarini o'rganish asosida ularning ijodiy tafakkurini tahlil qilish eng yangi va ishonchli axborotlar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratish zaruriyati belgilandi.

Bugungi kunda jamiyatimizning barcha sohalarini qamrab olgan siyosiy va iqtisodiy tub islohotlar amalga oshirila boshlandi. Ta'lim sohasida, jumladan, uning birinchi pog'onasi hisoblanmish maktabgacha, xalq ta'limi va oliy ta'lim sohalarda ham katta o'zgarishlar qilinmoqda. Bu Islohotlar jarayonida bolalarga ta'lim va tarbiya berish vazifalari, mazmuni, shakl va uslublari, shuningdek, psixologiya, pedagogika fani taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari qamrab olinmoqda.

Bugungi maktab bolasidan aniq bilimlarga emas, fikrlash ko'nikmasi, kattalar hamda sinfdosh o'rtoqlarini tushunish, ular bilan hamkorlik qilish ham talab etiladi. Shuning uchun bolaning maktabga qadam qo'yayotganida nechog'li bilimga egaligi emas, balki uning yangi bilimlarni egallashga tayyorgarligi, atrof-olamga moslashish ko'nikmasi, voqea-hodisani mustaqil ravishda tahlil etishi va harakat qilishi muhimroq hisoblanadi.

Yoshlarimizga biror narsaga o'rgatishgina emas, unga o'z kuchiga ishonchini orttirish, o'z g'oyasini himoya qilish, mustaqil ravishda biror qarorga kelish ko'nikmasini shakllantirish ham muhimdir.

Bolalarni maktabga intellektual tayyorlashning maqsad va vazifalari tarbiyaning bolalar yosh xususiyatlari hisobga olingan umumiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqib belgilanadi. Bu bolalar bog'chasi va maktab o'rtasida izchillikni ta'minlashning haqiqiy asosini tashkil qiladi.

Bolalar bog'chasi va maktabdagi ta'lim va tarbiya vazifa, shakl hamda metodlarining turli yosh bosqichlarida bola shaxsini har tomonlama shakllantirishni amalga oshirish maqsadlarida o'zaro aloqasini qaror toptirish muhim ahamiyatga egadir.

Shaxs (ruhiy) tayyorgarligi, atrof-muhitga, kattalarga, tengdoshlariga, o'ziga, o'simliklar, jonivorlar dunyosiga, tabiiy hodisalarga, insonlar yaratuvchiligiga munosabatda yuzaga keladigan shaxsiy madaniyatning shakllanganligini nazarda tutiladi. Eng muhimi yoshlar ongida qanday umumiy axloqiy tamoyilning mustahkamlanganligi, u tomonidan ijtimoiy axloq me'yorlari va umuminsoniy qadriyatlarining tan olinganligi, "nima yomonu, nima yaxshi"ligini anglaganidir.

Shaxs (ruhiy) tayyorligida eng muhim jihat "yoshlarning ichki pozitsiyasi" shakllanganligidir yoki "motivatsion tayyorgarlik", ya'ni, yoshlarning kattalar va tengdoshlari bilan muomalada bo'lishga, topshiriqni bajarishga, tengdoshiga yordam berishga bo'lgan ehtiyoji bilan bog'liq sabablarga ko'ra mustaqil fikrlashga o'rgatib borishdir.

Yoshlarning rivojlanishi ko'pincha oiladagi tarbiyaga bog'liq.

Tortinchoq, ko'proq bolalar qat'iy nazoratda ushlab turiladigan, bola tashabbusi bo'g'ildigan oilalarda bo'ladi va oxir-oqibatda u faqatgina kattalar yoki birovning ruxsati bilan harakat qiladigan bo'lib qoladi.

Bolani maqtaydigan, noo'rin siylaydigan oilalarda ular ko'pincha boshqarilmaydigan, haddan tashqari faol, kattalar va tengdoshlari bilan muomala qilishni bilmaydigan, aniq asoslar unda bo'lmasa-da, buyruq berishga va yetakchi bo'lishga intiladi.

Bola o'z holiga qo'yib qo'yilgan, nazoratsiz, unga nisbatan befarqlik hukmron bo'lgan oilada voyaga yetayotgan bo'lsa uning fe'l-atvorida hissiy ojizlik, g'amginlik, serzadalik, jangarilik, qat'iyatsizlik kabi salbiy alomatlar paydo bo'la boshlaydi.

Intellektual tayyorgarlik bola obrazli va mantiqiy fikrlashi, tasavvurning, odamiylikning, bilimga qiziqishning, mustaqillikning, o'zini-o'zi nazorat qilishiga va boshqarishga imkoniyatning shakllanganligini hamda o'quv faoliyatining kuzatish, eshitish, eslab qolish, umumlashtirish, uyg'unlashtirish, solishtirish kabi asosiy turlarini bilishni o'z ichiga oladi;

Xotira intellektual rivojlanishning bir ko'rsatkichi sifatida qachonki bola eshitib, yaxshi eslab qolsa "eshitish" yoki qachonki bola ko'rib yaxshi eslab qolsa "ko'rish" va qachonki bola eshitgan va ko'rganlarining asosiy mazmunini, aytib bersa "mazmunini eslab qolish" kabi turlarga bo'linadi.



“Ko‘rib, eslab qolish” xotirasini rivojlanishi uchun mashq qildirish befoйда, chunki u har kimga tabiatan berilgan. “Mazmunini eslab qolish” xotirasini yaxshilash uchun esa albatta mashq qildirish kerak.

Yoshlarning maktabda ta'lim olish samarasi va uning fikrlash doirasini kengligi uning ona tilini bilishiga va nutqi qanchalik rivojlanganligiga ko‘proq bog‘liq bo‘ladi. Chunki butun o‘quv faoliyati shularga, ya‘ni nutqiy mantiqiy rivoji, bolaning kattalarning yordamisiz mustaqil fikrlashi, til rivojlanganligi, yutuqlaridan erkin foydalana olishi, hikoya qilish, mulohaza yuritish, o‘z tasavvurini izohlay olish, tushunarli qilib bayon etish kabi omillar asosida quriladi. Shuningdek, bolaning maktabda ta'lim olishi uchun amaliy intellekt rivoji ya‘ni, uning namunani oson va erkin takrorlay olishi; naqsh chizish, aytib turiladigan (grafik diktant) bayoniy topshiriqni bajarishi ham muhim sanaladi.

## UMUMIY O‘RTA TA‘LIM FANLARINI O‘QITISHGA INNOVATSION YONDOSHUVLAR

*Hamidova G.S.,  
Navoiy Innovatsiyalar Universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** maqolada ta'lim sifatini oshirish, boshlang‘ich sinflarda yangi metodikalar asosida yaratilgan darsliklarning mazmun-mohiyati, ta'lim sifatini oshirishga doir taklif va tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** industrial rivojlanish, najot, investisiya, kreativ, “A-level” ta'lim, kasbiy ta'lim, jamiyat, innovatsiya.

**Kirish.** Xalqimizga qancha imkoniyat yaratsak, buning foydasi jamiyatimizga o‘n karra, yuz karra bo‘lib qaytadi. Shu bois kirib kelayotgan yangi 2023-yilga yurtimizda “**Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili**” deb nom berildi. Ta'lim sifatini oshirish - Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir.

Mamlakatimiz 32 yil davomida bosib o‘tgan g‘oyat murakkab va sharafli yo‘l bosh qomusimizning hayotbaxsh kuchi va ulkan salohiyatidan dalolat beradi.

Yusuf Xos Hojib bobomiz aytganlaridek “Zakovat bor joyda ulug‘lik buladi, Bilim bor joyda buyuklik buladi”.

Maktabgacha ta'lim, uy-joy kommunal, “mahallabay” ishlash, investisiya, davlat xizmatlari, davlat-xususiy sheriklik sohalarida katta natijalarga erishdik.

Shu bois, birinchi navbatda, e‘tiborni Yangi O‘zbekiston uchun eng katta investisiya bo‘lgan ta‘limni qo‘llab-quvvatlashga qaratamiz.

**“Najot – ta‘limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi”.**

Shu bois, maktablarda ta'lim sifati hamda jamiyatda o‘qituvchi kasbining nufuzini oshirish, muallimlarning sharoitlarini yaxshilash 2023-yildagi eng asosiy vazifalarimizdan biri bo‘ladi.

O‘qituvchilarning maqomini, ularning sha‘ni va qadr-qimmatini himoya qilishni Konstitutsiyada alohida belgilash zarur, deb hisoblayman.

Kelgusi yildan boshlang'ich sinflarda mutlaqo yangi metodika asosida yaratilgan darsliklar bo'yicha o'qitish yo'lga qo'yiladi. Hozirgi vaqtda ular Xalqaro ekspertizadan o'tib, o'zimizda sinovdan o'tkazilmoqda. Lekin yuqori sinflarda-chi? Ochiq aytish kerak, ularda berilayotgan ta'lim va tarbiya sifati, o'qituvchilarning bilimi va mahoratini talab darajasida deb bo'lmaydi.

Bolalarimiz maktabdan ona tili va chet tillarini puxta o'zlashtirib, kompyuterda ishlashni o'rganib chiqishi zarur. Farzandlarimizni kasb-hunarlariga, san'at va madaniyatga qiziqtirishimiz lozim. O'quvchilarda erkin va kreativ fikrlashni, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish zarur.

Mana, maktablarimizga qanday muhit kirib kelishi kerak! Bu borada Prezident maktablarida 130 ta mamlakatda ma'qullangan "A-level" ta'lim dasturi yo'lga qo'yilgani o'z samarasini bermoqda.

Bu jarayonda har bir o'quvchi o'zining qobiliyatiga qarab, aniq yo'nalishlar bo'yicha chuqur o'qitiladi, dunyoning nufuzli oliygohlariga kirish imkoniyatlari kengayadi.

Shu bois, 2023-yildan maktab ta'limini Xalqaro ta'lim dasturlari asosida butunlay isloh qilishni boshlaymiz.

Bu ishlarni tizimli yo'lga qo'yish, yangi darsliklarni ishlab chiqish, ilg'or ta'lim standartlari va metodikalarini joriy etish uchun alohida ilmiy institut va laboratoriyalar tashkil qilinadi. Milliy o'zligimiz timsoli, ma'naviyatimiz asosi bo'lgan ona tilimizga e'tibor yanada kuchaytiriladi.

Maktablarga yuqori malakali xorijiy o'qituvchilarni olib kelishga majbur bo'lyapmiz. Shu boisdan Prezidentimizning ushbu so'zlarini bejizga aytib o'tmagan! Fursatdan foydalanib, yurtimizdagi barcha maktab jamoalariga murojaat qilmoqchiman.

Jondan aziz bolalarimiz maktabdan chet tillarni, kasb-hunar va kompyuter savodxonligini puxta o'rganib chiqsa, bilasizlarmi, jamiyatimiz qanday o'zgaradi?

Kelgusi yili 70 ta yangi maktab quriladi, 460 ta maktab kengaytiriladi. Xususiy investitsiyalar ishtirokida 100 ta maktab qurish loyihalari boshlanadi, kelgusi besh yilda ularning sonini 1 mingga yetkazamiz.

Ta'lim sohasidagi navbatdagi muhim yo'nalish, bu – yoshlarning zamonaviy kasb-hunar egallashi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

Maktab bitiruvchilarining 50 foizi mehnat bozoriga hech qanday kasbga ega bo'lmasdan kirib kelayotgani hammamizni o'ylantirishi kerak. Shu bois, 700 dan ortiq kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlar imkoniyatidan samarali foydalanish zarur.

Bu maqsadda 2023-yildan boshlab yangi dastur amalga oshiriladi. Har bir viloyatda 1 tadan texnikumda Yevropa kasbiy ta'lim standartlari joriy etiladi. Kelgusi besh yilda barcha kollej va texnikumlar ushbu tizim bilan qamrab olinadi.

So'nggi olti yilda bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 27 foizdan 70 foizga yetishi natijasida bugungi kunda 2 millionga yaqin bola bog'chaga bormoqda. Yaqinda Toshkent shahrida o'tkazilgan YUNESKOning Maktabgacha ta'lim bo'yicha Umumjahon anjumanida ham bu islohotlarimiz yuksak e'tirof etildi.

Kelgusi yili ilm-fan va innovatsiyalarga 1,8 trillion so'm ajratiladi.

Agar siz farzandingizga dang'illama uy qurib bersangiz - vaqti-soati kelib, u eskirishi mumkin. Agar eng zo'r mashina olib bersangiz - uyam tez orada eskirishi mumkin. Agar unga moddiy boylik, pul qoldirsangiz - uyam bir kun sarf bo'lib tugashi mumkin. Ammo dunyoda hech qachon eskirmaydigan, yo'qolmaydigan bebaho bir boylik borki, u ham bo'lsa, farzandingizga bergan bilim va hunardir. Lekin bilim va ma'rifatni qayerdan, nimadan olish mumkin? Avvalo, kitob degan xazinadan.

Biz bunday imkoniyatlardan o'z bilimimiz va ilmimiz bilan foydalana bilishimiz shart.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2023-yil- "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.02.2023 yildagi PF-27-son.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. Тошкент - «Ўзбекистон» - 2019.

### 3-SHO'BA: TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MA'NAVIY MEROS VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING O'QITILISHIDA INNOVATSION YONDOSHUVNING O'RNI VA AHAMIYATI.

#### YANGI O'ZBEKISTON: YANGILANISH VA TARAQQIYOT OMILLARI


*Pulatov J.N.,  
Navoiy viloyati PYMO'MM dotsenti,  
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD),*

**Annotatsiya:** maqolada Yangi O'zbekistonning rivojlanishida tarixiy-ma'naviy omillar, xalqimizning madaniy merosi, intellektual salohiyati, milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish mexanizmlariga oid fikrlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, tarbiya, madaniy meros, intellektual salohiyat, forovonlik, hamkorlik.

Mamlakatimizda so'ngi yillarda xalqimizning forovon turmushini ta'minlashga doir bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Xususan, 2023-yil 11-sentyabrda PF-158-sonli "O'zbekiston-2030" strategiyasini qabul qilinishi Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Barqaror rivojlanish maqsadlari"ga muvofiq amalga oshirilmoqda. Bu esa, mamlakatda sifatli ta'lim, malakali tibbiy xizmat, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, fuqarolarning hayot sifatini yaxshilash kabi sohalarda ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda va jamiyatning umumiy o'sishi va rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Har bir mamlakat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi insondir. Shu bois, mamlakatimizda ijtimoiy adolat tamoyili asosida aholining yordamga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, kambag'allikni bartaraf etish davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda. "Barcha orzu-niyatlarimiz, intilishimiz, ezgu amallarimiz, mashaqqatli mehnatimiz, kechani-kecha, kunduzni-kunduz demasdan amalga oshirayotgan sa'y-harakatlarimiz-hamma-hammasi bizga katta umid bilan boqib turgan xalqimiz uchundir"<sup>1</sup>. Bu borada ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishdagi islohotlarimiz Yangi O'zbekiston taraqqiyotiga zamindir.

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh., "Yangi O'zbekiston strategiyasi", T:, "O'zbekiston", 2021 y. 198 b.



Yangi O'zbekistonni dunyoning taraqqiy topgan, ijtimoiy-iqtisodiy barqaror o'sayotgan va inson kapitali yuqori bo'lgan demokratik davlatlari qatoriga kirishini ta'minlash-barqaror rivojlanish strategiyamizning mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Barqaror rivojlanish - bu kelajak avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish qobiliyatiga putur etkazmasdan, bugungi kun ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan tushunchadir. Bunda iqtisodiy o'sish, ijtimoiy tenglik, ekologik barqarorlik, kambag'allikni qisqartirish, ta'lim va ko'nikmalarni rivojlantirish, milliy xavfsizlik kabi tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi.

#### *Barqaror rivojlanish tamoyillari*

<b>Iqtisodiy o'sish</b>	Ko'pgina davlatlar barqaror iqtisodiy o'sishga erishishni asosiy maqsad sifatida ko'rishadi. Bu ish unumdorligini oshirish, investitsiyalarni jalb qilish, ish o'rinlarini yaratish va fuqarolarning turmush darajasini oshirishni o'z ichiga oladi.
<b>Kambag'allikni qisqartirish</b>	Hukumatlar ko'pincha o'z mamlakatlarida kambag'allik va tengsizlikni kamaytirishga ustuvor ahamiyat beradi. Bunga ijtimoiy ta'minot dasturlarini amalga oshirish, ta'lim va sog'liqni saqlashdan foydalanish imkoniyatini ta'minlash hamda inklyuziv iqtisodiy siyosatni ilgari surish kiradi.
<b>Ta'lim va ko'nikmalarni rivojlantirish</b>	Yaxshi ma'lumotli va malakali aholini rivojlantirish umumiy milliy maqsaddir. Bunga barcha darajadagi sifatli ta'limdan foydalanishni ta'minlash, kasbiy tayyorgarlikni targ'ib qilish va mehnat bozorida talab bo'lgan malakalarni oshirish kiradi.
<b>Infratuzilmani rivojlantirish</b>	Transport tarmoqlari, energiya tizimlari, aloqa tarmoqlari va boshqa muhim infratuzilmalarni qurish va yaxshilash iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlanish uchun juda muhimdir.
<b>Ekologik barqarorlik</b>	Ona tabiatga oqilona munosabatda bo'lish, o'simlik va hayvonot olamini asrab-avaylash, kelajak avlodga tabiat boyliklarini bus-butun yetkazish, global ekologik inqiroz asoratlarining oldini olish
<b>Yaxshi</b>	Kuchli institutlarni yaratish, oshkoralikni ta'minlash va

<b>boshqaruv va qonun ustuvorligi</b>	qonun ustuvorligini taminlash ko'plab mamlakatlar uchun muhim maqsadlardir. Bunga korrupsiyaga qarshi kurash, inson huquqlarini himoya qilish, adolatli va adolatli jamiyatni shakllantirish kiradi.
<b>Milliy xavfsizlik</b>	Fuqarolarning xavfsizligi va xavfsizligini ta'minlash har bir davlat uchun asosiy maqsaddir. Bu kuchli mudofaa tizimini saqlab qolish, terrorizmga qarshi kurashish va chegaralarni qo'riqlashni o'z ichiga oladi.

Ushbu tamoyillarga rioya qilish orqali biz odamlar, sayyora va farovonlik ehtiyojlarini muvozanatlashtiradigan yanada barqaror va mustahkam kelajak sari harakat qilishimiz mumkin. Barqaror rivojlanish tamoyillari yanada barqaror va adolatli kelajakka erishish yo'lidagi harakatlar va qarorlar qabul qilish uchun asos yaratadi. Barqaror rivojlanish tamoyillarini qabul qilish orqali biz sayyoramizni kelajak avlodlar uchun saqlab qolgan holda barchaning ehtiyojlarini qondiradigan yanada muvozanatli va inklyuziv dunyoga intilamiz. Mamlakatimizda so'ngi yillarda aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Ijtimoiy xizmatlar deganda shaxslar va jamiyatlarni hayotining turli jabhalarida qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan bir qator davlat dasturlari va tashabbuslari tushuniladi. Ushbu xizmatlar farovonlik dasturlari, sog'liqni saqlash yordami, uy-joy bilan ta'minlash, bandlik xizmatlari, bolalar parvarishi uchun subsidiyalar va boshqalarni o'z ichiga olishi mumkin. Ijtimoiy xizmatlarning maqsadi aholining zaif qatlamlari ehtiyojlarini qondirish va ularni zarur yordam va resurslar bilan ta'minlash orqali farovonlik, tenglik va ijtimoiy adolatni ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar aholining turli qatlamlari manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan "har bir fuqaro boy bo'lsa - davlat boy bo'ladi, har bir oila farovon bo'lsa – mamlakat forovon bo'ladi" ezgu tamoyili asosida rivojlanmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh., "Yangi O'zbekiston strategiyasi", T:, "O'zbekiston", 2021 y. 198 b.
2. Mirziyoyev Sh., "Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari", T:, "O'zbekiston", 2020 y.
3. Mirziyoyev Sh., "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir", T:, "O'zbekiston", 2018 y.

### **YOSHLAR ZAMONAVIY MADANIY QIYOFASINI SHAKLLANTIRISHDA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING O'RNI**

*Karimova D.A.,  
Navoiy viloyati PYMO'MM dotsenti,  
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Bugungi kunda yurtimizda ta'lim sifatini oshirishda o'quvchi - yoshlar zamonaviy madaniy qiyofasini shakllantirish uchun madaniy merosdan

foydalanish omillarini atroflicha yoritish orqali ijtimoiy hayotda uchraydigan salbiy hodisalarni va ularning oqibatlarini bartaraf etish yo'llarini aniqlash shartdir.

Yoshlarda madaniy qiyofasini to'g'ri shakllantirish oila, maktab, jamoada, umuman ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish bilan belgilanadi.

Ushbu yo'nalishdagi ishlarimiz samarasini oshirish uchun yana ko'plab tadbirlarni amalga oshirish zarur. Jumladan:

- ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;

- tarbiya jarayonida uzluksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda, avvalo, bo'lajak va yosh onalarga e'tiborni kuchaytirish;

- bolalarni go'dakligidan boshlab yuksak ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bo'yicha eng muhim yo'nalishlarni belgilash;

- yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, mustahkam iroda, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibat, mas'uliyat, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish;

- mavjud qadriyatlar tizimining to'laqonli davomchilarini tarbiyalash.

Ta'kidlash joizki, insonda madaniy qiyofa hamma davrda o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lgan hamda olam va odam munosabati o'zaro kelishuv va madaniyat asosiga qurilgan.

Darhaqiqat, madaniy qiyofa mavjud shart-sharoitlar, shaxslararo munosabat, olamni anglash va insonning undagi o'rnini baholash va hokazolarga mohiyatan bog'liq holda shakllanadi.

Insonning jamiyatdagi madaniy darajasi turli ko'rinishlarda o'z ifodasini topgan:

- ijtimoiy qatlamlarda;

- ijtimoiy-madaniy institutlar, tashkilotlar, uyushmalar, partiyalar;

- boshqaruv irerarxiyasi;

- oila, maktab, mehnat jamoalari.

Bu ketma-ketlik o'zining amal qilish doirasi tasnifida ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning in'ikosi sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, har bir pog'onada o'ziga xos tarzda ichki daraja ham mavjudki, bu bilvosita shaxslararo, guruhlararo, davlat va jamiyatlararo tarzda ko'rinadi.

Har bir pog'onada o'z ifodasini topgan madaniy qiyofa va uni tasniflovchi jihatlar inson faoliyati, uning turfa xususiyatlari bilan bir butunlikda kechadi.

Yoshlar davlatimizning, xalqimizning, el-yurtimizning maqsadli dasturlari asosida ma'naviy merosimizga hurmat ruhida tarbiyalanmoqda.

Madaniy qiyofa bevosita ma'naviy-axloqiy masalalar bilan uzviy bog'liq. Madaniy qiyofa shakllanishining prinsiplari quyidagilar:

- umuminsoniy qadriyatlarining muhim asos sifatida namoyon bo'lishi;

- ma'naviy merosga hurmat va ehtiromning oshishi;

- madaniy hayot tarzining bunyodkorlikka asoslanishi.

Ushbu tamoyillarning izchillik bilan bajarilishi yoshlarda zamonaviy madaniy qiyofa shakllanishiga imkon beradi.

Zamonaviy madaniy qiyofa milliy urf-odatlar, an'analarga sodiq va hurmatda bo'lishni taqozo etadi.

Zotan, milliy aynanlik insonning o'zi tug'ilib o'sgan va ajdodlari yashagan zaminga muhabbatida namoyon bo'ladi. Bu tuyg'uni nemis ekzistensialist faylasufi M.Xaydegger yuqori baholagandi: "Inson o'z ildizi bilan kuchli". Milliy o'zlikni anglash doirasida kishi gapirib, fikr yuritadigan ona tilining roli katta. O'z xalqi va uning tarixi bilan faxrlanish hissi millat o'zligini anglashning muhim elementidir.

Yoshlarning madaniy qiyofasi tadqiqi rivojlanish tarixi ham umuminsoniy qadriyatlar asosiga qurilgan va shu asosida rivojlangan. Umuminsoniy qadriyatlar insonlar ongi, tafakkuri va jamiyatda ijtimoiy fikrini shakllantirishda bosh omil rolini o'ynagan.

O'rta asr mutafakkirlari Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg'oniy va boshqa ko'plab allomalarning inson borlig'i, qadri, davlat va jamiyat rivojlanishiga doir ilmiy merosi o'z kuchini hanuzgacha yo'qotgani yo'q. Insonning sha'ni, qadr-qimmatini, axloqi, odobi, ilmi to'g'risidagi qarashlar Alisher Navoiy asarlarida markaziy o'rinni egallagan diqqatga sazovordir.

Bu jarayonda inson madaniy qiyofasini takomillashtirish, me'yorlashtirish asosida, jamiyat fuqarosi sifatida o'z xatti-harakatlarining mohiyatini tushungan holda, burch va majburiyatlarini to'liq anglab yetib, mas'uliyatni his etgan holda o'z faoliyati ustidan o'z nazoratini o'rnatish orqali madaniy muhit yaratadi. Insonning madaniy qiyofasi ijtimoiy munosabatlar orqali shakllanadi va namoyon bo'ladi. Chunki madaniy muhitni shakllantirish yuksak axloqiy fazilatni, milliy mentallik belgilarini taqozo etadi. Madaniy qiyofaning shakllanish bosqichlari ham bevosita madaniy muhit bilan bog'liq. Madaniy muhit, o'z navbatida, tizimli tasnifga ega umuminsoniy ahamiyat kasb etuvchi qadriyatlar tizimidir.

Mamlakatimiz kelajagi bugun yoshlarning qay darajada ta'lim-tarbiya olishi, malakali mutaxassislar bo'lib yetishishiga bog'liqdir. Yosh avlodning asosiy vazifasi o'zlari tug'ilib o'sgan mamlakatning munosib fuqarolari bo'lishidir. Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston" gazetasi bosh mutaxassisi savollariga bergan javoblari ahamiyatlidir: Yoshlar – xalqimizning asosiy tayanchi va suyanchi. Keng ko'lamli islohotlarimizni amalga oshirishda ular hal qiluvchi kuch bo'lib maydonga chiqmoqda. Aynan zamonaviy bilim olgan, ilg'or kasb-hunarlarini, innovatsion texnologiyalarni, xorijiy tillarni puxta egallagan o'g'il-qizlarimiz mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishda yetakchi o'rin tutadi.

Ma'lumki, yoshlar yangicha fikrlashga, yangi-yangi g'oyalarni dadil o'rtaga tashlab, ularni amalga oshirishga, muammolarni ijodiy va nostandapt yondashuvlar asosida hal etishga moyil bo'ladi. Shuning uchun hozirgi kunda yosh avlod vakillarining bilim olishi, ilm-fan, innovatsiyalar, adabiyot, san'at, sport sohasidagi iste'dod va salohiyatini yuzaga chiqarishi, ularning



jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishi uchun barcha sharoitlarni yaratishga ustuvor ahamiyat bermoqdamiz. Demak, yoshlar siyosati mudom mamlakat strategiyasining asosi, yadrosi bo'lib qoladi.

Darhaqiqat, vorisiylik asosida yangi qadriyatlar va madaniyat mavjud tizim bilan hamohanglikka erishishi yoshlar dunyoqarashida namoyon bo'ladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya inson kamolotining eng muhim omillaridan biridir. Jamiyat madaniyatsiz, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarsiz yashay olmaydi. Jamiyatda muhit sog'lom bo'lsa, yoshlarning istiqboldagi avlod hayoti, turmush tarzi, xulq-odobi barkamol, sermazmun bo'ladi. Yoshlarni zamon talabi darajasida ma'rifatli qilish eng dolzarb vazifadir. Abdulla Avloniy aytganidek, ma'rifat – shijoat, shijoat qalbning matonati, ruhning salomatligidir.

Ma'rifat, ma'naviyat yuksak maqsad bunyodkor g'oyalarga asoslanadi. Biz demokratik yangilanish, tezkor axborotlashish davrida yashar ekanmiz, ham ma'naviy, ham ruhiy poklanishni unutmashimiz lozim. Bu borada diniy madaniyat, ma'naviy meros va ma'rifatdan ijobiy foydalansak, nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Chunki diniy madaniyat hamda ma'naviy meros muqaddas boylikdir. Buyuk allomalarimizdan biri Imom Nasafiy "Kamil inson bo'lish uchun mukammallikka intilmoq lozim. Ya'ni, yaxshi aql, yaxshi so'z, yaxshi axloq, yaxshi bilim va yaxshi amallarni ado etmoq lozim. Ya'ni, kishilarni izzat-hurmat qilmoq, yaxshi axloq bilan o'rnatilgan bo'lmoq, adolatli, qanoatli, oriyatli, ma'rifatli, bilimni chuqur egallash, olamni balo-fitna g'iybatlardan saqlash, kishilar mushkulini oson qilmoq lozim", degan.

O'tmishda dindan avval keng tarqalgan afsona va rivoyatlarda yaxshilik va yomonlik, hayot va o'lim, odillik va adolatsizlik, nur va zulmat g'oyalari asosiy o'rinni egallagan. Yaxshi fikr, so'z va ish ezguliklarning asosi hisoblangan. Bu qarashlar keyinchalik "Avesto"da yaqqol namoyon bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

"Zardushtiylilik dinida ilgari surilgan axloqiy ijtimoiy ideal keyinchalik O'rta asr falsafasida har qanday adolatsizlik, zulmat va huquqsizlikka qarshi kurashib haqqoniy, insonparvar va erkin hayot yaratgan yaxshi va odil podshohlar haqidagi o'zining ma'naviy rivojini topdi".

Islom dinidagi mavjud axloqiy qadriyatlardan yoshlarni tarbiyalashda, umuminsoniy qadriyatlarga munosabatni shakllantirishda foydalanish muhimdir. Yusuf Xos Xojib fikricha, yaxshilik, ezgulik, mehr-muruvvat faqat aql-idrok egasi bo'lgan dono, bilimdon kishilardan chiqishi mumkin. Chunki dunyodagi barcha yaxshiliklar, ezguliklar idrok tufaylidir. Idrok insonni ravshanlikka, kamolot va saxovatga eltadi.

Bugungi globallashuv jarayonida yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada yuksaltirish, mafkuraviy immunitetni oqilona shakllantirish, ommaviy madaniyat ko'rinishlaridan, buzg'unchi va yot g'oyalar ta'siriga tushib qolmaqlik chora-tadbirlaridan ogohlantirish, ularning ijtimoiy mas'uliyatlarini to'g'ri shakllantirish orqali amalga oshadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorov savollariga javoblari // “Yangi O‘zbekiston” gazetasi. – Toshkent: 2021 yil 17 avgust.
2. Gobbs T. Filosofskie osnovaniya ucheniya o gpajdanine. – M.: AST, Xarvest. 2001.
3. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 291 b.
4. Nurmatova M.A. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlarning uyg‘unligi // Monografiya. – Toshkent: Universitet, 2009. – 52 b.
5. Maxmudov T. Avesto haqida. – Toshkent: Sharq NMAK. 1998. – 26 b.

## **OILADA ZO‘RAVONLIK HOLATLARINI OLDINI OLISHDA IJTIMOIY ISH XODIMINING VAZIFALARI**

*Astanaqulov K.M.,  
Navoiy viloyati PYMO‘MM dotsenti,  
Tursunqulov Q.A.,  
Navoiy viloyati PYMO‘MM katta o‘qituvchisi*

O‘zbek xalqi o‘z madaniyati va ma'naviyatida barkamol insonni tarbiyalab, voyaga etkazishga katta e'tibor bergan va bermoqda. Inson borliqdagi barcha narsalar ichida eng ulug‘i hisoblanadi. Insonni ulug‘lash, uning qadriga etish, ayniqsa, yosh avlodni kamolotga etkazishda milliy-ma'naviy madaniyatimizning tiklanishi va rivojlantirilishi muhim o‘rin tutadi.

Bu borada asosiy urg‘uni oilaga berilishi ham bejiz emas. Yuqorida ta'kidlaganimizdek oila muqaddas xilqat sifatida ta'riflanishi, “Oiladan boshlanur Vatan” deb aytilishi oilaning hayot mazmuniga aylanganligi bu tarixiy jarayonlar vositasida bugungi kunimizga o‘z an‘analari, urf-odatlar bilan yetib kelganligi diqqatga sazovordir. Prezidentimizning 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-146-son qarori qabul qilinishi ham bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Oilaning mazmun mohiyati uning ichidagi ijtimoiy-ma'naviy, demografik holatlar orqali asoslanadi va yashash turmush tarzini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2017-yil 5-iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmonlari hamda ushbu sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish shular jumlasidandir. Oilaning shakllanishida, ijtimoiy-ma'naviy tarbiyasida, farzandlar kamolotida mahallaning o‘rni kattadir.

Muhtaram prezidentimiz bu borada juda ko'p ijobiy fikrlarni aytganlarki, mahalla faolligi oila mustahkamligining tayanchi ekanligi har bir kunimizning shoriga aylanib qolgan. Sharq mamlakatlari ulamolari, mutafakkirlari bola tarbiyasiga juda katta e'tibor berib, xalq pedagogikasining o'zagini shakllantirishga hissa qo'shganlar.

“Bir bolaga etti mahalla javobgar” degan xalq naqli o'z ichiga ko'p ma'noni qamrab olgan. Mahalla, oila hamkorligi bo'lajak avlodning qanday bo'lishi, ota-ona va yaqin qo'shnilarining tanbehlari yo'nalishlarining barchasi faqat yaxshi niyatda bo'lishini ko'rsatgan.

Ota-bobolarimiz bolaga hech qachon do'q-po'pisa qilmaganlar, zo'ravonlik ishlatmaganlar. Ohista shirin ovoz bilan “yomon bo'ladi” degan birgina ibora orqali tarbiya o'g'itlarini singdirganlar, zo'ravonlik orqali o'z maqsadlariga erishganlar.

A.Qodiriyning “O'tkan kunlar” asarida Otabek va otasi, ota va ona o'rtasidagi munosabatlar hech bir urush-janjalsiz o'ta nozik davrdagi tarbiyaning murakkab va serqirra tomonlarini ochib bergan.

Oilada farzandning tarbiyaviy va ta'lim taraqqiyotiga quyidagi omillar sabab bo'ladi:

- ota-onalarning savodxonligi;
- oiladagi bolalar soni;
- oilaning to'liq va to'liqsizligi;
- ota-onalarning ma'naviy, axloqiy shakllanganligi darajasi;
- ota-onalarning kasbga nisbatan mas'uliyati;
- oilaning moddiy ta'minlanishi.

Ota-onaning ahilligi, mahalladagi katta yoshdagi kishilarning o'zaro ahilligi, kichiklarga g'amxo'rliqi oilaviy tarbiya asosini tashkil etadi. Bu ahillik munosabati har bir oilaga o'z ta'sirini o'tkaza oladi. Farzandlar buni ta'sirini sezgan holda munosabatini bildiradilar. Orqalarida aniq ta'sir etuvchi kuch borligiga ishonadilar va shu zaylda faoliyat ko'rsatadilar.

Shuni ta'kidlash kerakki, oilaviy tarbiyaning samaradorligi bolalarning tarbiyasi uchungina sarflangan vaqt bilan o'lchanmay, balki oilaning ijtimoiy bosqichi bilan ota-onalarning mahalladagi obro'si va ularning ma'naviy-axloqiy darajasi bilan aniqlanadi. Bundan ota-onalarning katta kishilarning bola tarbiyasi yuzasidan burch mas'uliyatini chuqur his qilishlari etakchi mezondir. Aniqroq qilib aytganda, oila davrasida mahallada ota-onaning ijobiy fazilat va munosabatlari bolalarning to'g'ri tarbiyalanishini birlamchi va zaruriy shartidir. Shu bilan birga keng jamoatchilik, ya'ni mahalla xalq pedagogikasiga tayangan holda, tajribalarini yoshlar ongiga singdirish, oiladagi nizoli vaziyatlarini oldini olish, oilaning moddiy ahvoli, ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Zero, bularning barchasi, yuqorida ta'kidlanganidek, bola tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Joylarda faoliyat ko'rsatayotgan mahalla fuqaro yig'ini raislari, xotin-qizlar qo'mitalari a'zolari, albatta, pedagogik-psixologik bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari shart.

Xalqimizda “Yomonlikka qarshi kurash bo‘lmagan joyda, yaxshilik tug‘ilmaydi” degan ma’noli hikmat bor. Ayrim yoshlarimizni tarbiyasida ko‘rinadigan ma’naviy-axloqiy nuqsonlarni bartaraf etish, ular ularda ma’naviy go‘zallikni hosil qilish uchun qunt va qat’iyat bilan kurashish lozim. Bu muhim vazifani bajarish faqat ota-onalarning burchi, mas’uliyati bo‘libgina qolmay, balki keng jamoatchilikning ham asosiy vazifasidir.

Milliy urf-odatlarimizga ko‘ra ko‘pgina hollarda qizlarni oila qurishiga uni qurshab turgan ijtimoiy muhitning ta’siri katta bo‘ladi. Kuyov tomonidan sovchilar kelishadi, qarindoshlar o‘rtaga tushishadi qarabsizki to‘y bo‘lib ketavermaydi-ku. Milliy qadriyatlarimizga ko‘ra qiz bolani roziligi ham so‘raladi. Yigit bilan qiz bola to‘ydan oldin albatta uchrashtiriladi. Qiz bola kuyovlikka da’vogar yigit bilan uchrashganda diqqat-e’tiborini jamlagan holda zimdan kuzatishi lozim bo‘ladi.

Kuzatishi jarayonida o‘z oldiga quyidagi savollarni qo‘yishi kerak: Men shu yigit bilan qolgan hayotimni birga o‘tkaza olamanmi? Uning injiqliklariga chidaymanmi? Bemor bo‘lib qolganida dardiga sherik bo‘lamanmi? Shu yigitning kiyimlarini yuvamanmi, degan savolarga “ha” deb javob bera olsa yigitga turmushga chiqishga rozilik berishi mumkin.

Turmush qurishga rozilik bergandan so‘ng eng murakkab jarayon, ya’ni o‘zida ruhan oilaviy xayotga ishonchni shakllantirish boshlanadi. Mazkur jarayonni amalga oshirishga vaqt qanchalik kam bo‘lishiga qaramay aniq reja asosida ulgursa bo‘ladi. Rejaga quyidagi qismlarni kiritish mumkin:

**Birinchi qism** - bo‘lajak turmush o‘rtog‘ining xulq-atvorini o‘rganish va unga dastlabki moslashuvni boshlash. Yigitga qanday muomala yoqadi? Nima yoqadi va nima yoqmaydi?

**Ikkinchi qism** - kuyovning oila a’zolarini umumiy xususiyatlari haqida ma’lumotlar to‘plash va ular bilan qanday munosabatga kirishiga fikran o‘zini tayyorlash.

**Uchinchi qism** - yangi oilaga borib moslashishi jarayoni muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun o‘zi o‘sib ulg‘aygan oila a’zolaridan asta-sekin uzoqlashish. Shuni ta’kidlash joizki turmushga chiqqan qizlar ulg‘aygan oilalariga nisbatan begonalashishni va uzoqlashishni tan olmasalar yangi oilalariga ko‘nikib, moslashib ketishlari juda qiyin kechadi.

**To‘rtinchi qism** - ruhiy niqobni tez vaziyatga qarab o‘zgartira olishni o‘rganish. Ya’ni ichidan zil ketib tursa ham tashqarisi kulib turishni o‘rganish. Sal narsaga arazlash, achchiqlanish, jahl qilishdan saqlanish umuman ruhiy holatini istasa-istamasa jilovlay olish sa’natini egallash.

Oila psixologiyasi bilan shug‘ulanuvchi mutaxassislarning ta’kdlashlaricha, oila qurishga o‘zida ishonchni shakllantirayotgan qizlar yuqoridagi rejani o‘z sharoitlarini hisobga olgan holda yozma ravishda amalga oshirsalar ijobiy natijaga erishishlari onson kechadi.

Oilada zo‘ravonlik holatlarini oldini olish ham avvalo oilaning o‘zidan boshlanadi. Buning uchun quyidagi yo‘nalishlarga amal qilinishi zarur bo‘ladi:

Oilada sog'lom muhitni saqlash, ma'naviy tarbiyaga alohida ahamiyat berish;

Farzandlarni har birini o'z xarakter, fazilatlariga qarab muomala qilish;

Oilada ota-onaning bir-birlariga bo'lgan munosabatini buzmaslik, farzandlarga bu borada tazyiq o'tkazmaslik;

Farzandlarning qiziqishi va iqtidoriga qarab aniq bir kasbga yo'naltirish;

Oiladagi umumiy ijtimoiy holatlarni oilaga singdirib holda, iqtisodiy tomonlarga e'tibor berish;

Oiladagi konfliktlarni yaxshilik yo'li bilan hal qilish.

Yuqoridagi tamoyillar oilada zo'ravonlik holatlarini oldini olish, farzandlar tarbiyasini asosiy omillaridan ekanligiga yana bir bor e'tiborni qaratadi. Barcha ishlar mahalla fuqarolar yoig'inlari raislari, xotin-qizlar qo'mitalari a'zolarining pedagogik va psixologik bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari bilan bog'liqligi zaruriy shart sanaladi. Xulosa qilib aytganda shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'zbek oilalarida ota va farzandlar o'rtasidagi an'anaviy munosabatlar tizimi ham pedagogik ham psixologik jihatdan juda katta ahamiyat kasb etadi, farzandlarimizni yaxshi xulqli, odobli va madaniyatli qilib tarbiyalashda ularning yosh jihatlariga ruhiyatiga va tushunchalariga alohida ahamiyat berish lozim, chunki ularning psixologik xususiyatlarini bilmay turib tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi, bugun bizni asosiy vazifamiz mana shu an'analarni mustahkam saqlagan holda o'rganishda davom etishdan iborat.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 18 - fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-son farmoni
2. O'zbekiston Respublikasining 2016 - yil 14 - sentyabrda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldagi «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi Farmoni
4. <https://zamin.uz/hayot-tarzi/21662-qizlarni-oilaga-tayyorlash.html>

### **FUQAROLAR O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARI FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR**

*Aslonova G.Z.,  
Navoiy viloyati hokimligi huzuridagi FO'O'BOXMOB  
o'quv kursi direktori*

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, mahalla institutini jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish, davlat organlarining fuqarolar bilan yaqin hamkorligini yo'lga qo'yish, ularning ochiq va oshkora faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, aholini

jamiyat va davlat ishlarini boshqarishga faol jalb etish, davlat organlari faoliyati ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatish yuzasidan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning jadal sur'atlari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari rolini yanada oshirish, davlat organlari ustidan samarali jamoatchilik nazoratini o'rnatish yo'nalishida ularning faoliyatini kuchaytirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish zarurligini taqozo etmoqda.

Fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy maqsadi mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hududidagi fuqarolarning manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek, milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda hal qilish, ularning huquqiy madaniyati va ijtimoiy faolligini oshirish, "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashdan iborat.

Fuqarolar yig'inlari o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishda fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalari va jamoatchilik tuzilmalari bilan birgalikda amalga oshiradi. Bugungi kunda mahallalarda 5 ta komissiya ("Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasi", "Xotin-qizlar bilan ishlash bo'yicha komissiya", "Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va jamoatchilik nazorati bo'yicha komissiya", "Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish bo'yicha komissiya" hamda "Taftish komissiyasi", shuningdek, "Ota-onalar universiteti" jamoatchilik tuzilmasi, "Keksalar maslahati" guruhi, "Ayollar maslahat kengashi", "Fidokor yoshlar" jamoatchilik patrul guruhi, Tadbirkorlik bo'yicha maslahat markazlari tashkil etilgan.

Mahallada ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, farzand tarbiyasiga oid masalalarda ota-onalarning malakasini oshirishda yordam berish, bu borada oilalardagi mavjud muammolarni bartaraf etish ishlarini yanada takomillashtirish maqsadida fuqarolar yig'ini huzurida "Ota-onalar universiteti" jamoatchilik tuzilmasi tashkil etiladi. "Ota-onalar universiteti" jamoatchilik tuzilmasi faoliyati mahalla xotin-qizlar faoli tomonidan tashkil qilinadi va muvofiqlashtiriladi.

Mahallada ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini saqlashda keksa avlod vakillari va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning nafaqadagi xodimlarining boy hayotiy tajribasidan unumli foydalanish maqsadida fuqarolar yig'inlari huzurida "Keksalar maslahati" guruhi tashkil etiladi. Ushbu guruh faoliyati fuqarolar yig'ini raisi tomonidan tashkil qilinadi va muvofiqlashtiriladi.

Mahallada ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarning muammolarini o'rganish va hal etishga ko'maklashish, oilalarni mustahkamlash va ularning farzand tarbiyasidagi rolini hamda ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan maslahatlar berish, "odobli qiz", "iffatli kelin" va "ma'rifatli ayol" g'oyalarini keng targ'ib etish maqsadida fuqarolar yig'ini huzurida "Ayollar maslahat kengashi" jamoatchilik tuzilmasi tashkil etiladi.

“Ayollar maslahat kengashi” jamoatchilik tuzilmasi faoliyatiga qoida tariqasida, xotin-qizlar faoli rahbarlik qiladi.

Kengash faoliyatiga mahalla hududida istiqomat qilayotgan, hayotiy tajribaga, aholi o'rtasida obro'-e'tiborga ega bo'lgan, salohiyatli, faol xotin-qizlar kiritiladi.

Mahallada jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi ishlarni kuchaytirish maqsadida harbiy xizmatga chaqiriluvchilar, oliy harbiy bilim yurtlari va ichki ishlar organlariga nomzodlar orasidan “Fidokor yoshlar” jamoatchilik patrul guruhi shakllantiriladi.

“Fidokor yoshlar” jamoatchilik patrul guruhi faoliyati fuqarolar yig'ini raisining huquq-tartibot masalalari bo'yicha o'rinbosari-proqilaktika inspektori tomonidan tashkil qilinadi va muvofiqlashtiriladi.

Mahallada tadbirkorlik faoliyatini, shu jumladan, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida fuqarolar yig'ini huzurida tadbirkorlik bo'yicha maslahat markazi tashkil etilishi mumkin.

Davlat organlari ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishning zamonaviy shakllari joriy etilishi munosabati bilan Vazirlar Mahkamasining 2023 - yil 22 - sentyabrdagi 489-sonli qaroriga asosan “Mahalla nazorati” va “Mahalla raisi so'rovi” institutlarini joriy etildi. Bunda:

- har bir fuqarolar yig'ini huzurida mahalla raisi rahbarligida mahalla nazorati guruhini tashkil etish;

- mahalla nazorati guruhini fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining namunaviy tuzilmasiga kiritish;

- mahalla nazorati guruhi tomonidan aholi e'tirozlariga eng ko'p sabab bo'layotgan muammolarni aniqlash maqsadida muntazam ravishda muhokamalar o'tkazish;

- mahalla fuqarolar yig'ini kengashida tegishli davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari hamda mas'ul xodimlarining amalga oshirilgan ishlar bo'yicha axborotlarini muntazam ravishda eshitib borish joriy etildi.

Mahalla nazorati guruhining maqsadi aholining davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirokini kengaytirish orqali davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishdan iborat.

Qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek, davlat, tarmoq va hududiy rivojlantirish dasturlarida jamoatchilik manfaatlari va jamoatchilik fikri hisobga olinishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini himoya qilish sohasidagi qonunchilik talablarining ta'minlanishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

davlat organlari va tashkilotlariga, ularning mansabdor shaxslari zimmasiga yuklangan, ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga daxldor bo'lgan vazifalar va funktsiyalar bajarilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha davlat organlari va tashkilotlari, ularning mansabdor shaxslarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

davlat organlari va tashkilotlari, ularning mansabdor shaxslarining ijtimoiy sheriklik doirasida amalga oshiriladigan bitimlar, shartnomalar, loyihalar va dasturlarni bajarishga doir faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi, mahalladagi yoshlar yetakchisi va xotin-qizlar faoli, ichki ishlar organlari tayanch punkti profilaktika (katta) inspektorlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish Mahalla nazorati guruhining asosiy vazifalari hisoblanadi.

Mahalla nazorati guruhi a'ziligiga mahallada obro'-e'tiborli, ijtimoiy faol, boshqalarga ibrat bo'ladigan, katta hayotiy tajribaga ega fuqarolar (davlat organlari va tashkilotlarining mansabdor shaxslari bundan mustasno), shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillari qabul qilinadi.

Mahalla nazorati guruhi tarkibini shakllantirishda gender tenglik tamoyiliga rioya qilinadi, shuningdek, uning tarkibiga nogironligi bo'lgan shaxslar ham kiritiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tizimida innovatsion yondashuvlarning joriy etilishi mahalla institutini aholga eng yaqin va xalqchil tuzilmagan aylantirish, fuqarolar yig'inlarining mushtarak manfaatlarini ifodalaydigan uyushmaga birlashish huquqlarini ro'yobga chiqarish hamda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirish ishlarini amalga oshirilishini nazarda tutadi. Bu esa mahalla institutiga mamlakatimiz rivoji va xalq manfaatlariga yanada ko'proq xizmat qilish imoniyatini beradi.

## INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QUVCHI-YOSHLARNI MA'NAVIY-AXLOQIY SIFATLARINI TARBIIYALASH

*Qarshiyev R.M.,*

*NavDPI tarix fakulteti dekani, tarix fanlari nomzodi, dotsent*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada innovatsion pedagogik texnologiyalarning ta'lim sifati oshishiga ta'siri xususida mulohazalar yuritilgan

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, pedagogik jarayon, pedagogik texnologiya.

Mamlakatimizning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish va uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda ta'lim tizimining o'rni beqiyosdir. Dunyoda ta'lim tizimida ro'y berayotgan ta'limning baynalminallashuvi, talabalarning xalqaro mobilligi, (almashuv dasturi) ta'lim dasturining tez o'zgaruvchanligi kabi global tendensiyalar bir qatoriga ta'lim sifatini ta'minlash masalasi ham alohida ahamiyat kasb etib bormoqda. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar



hamda bo'lajak mutaxassislarining ma'naviy-axloqiy, intellektual va kasbiy salohiyatiga nisbatan qo'yilayotgan yuqori talablar ta'lim muassasalari oldiga xalqaro talablarga javob bera oladigan sifatli kadrlar tayyorlash vazifasini qo'ymoqda. Bu vazifalarni bajarish yo'lida esa ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish talab etiladi. Aynan mamlakatimiz ta'lim tizimida zamonaviy tendensiyalarni, ayniqsa, rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi ta'lim tizimida foydalanayotgan innovatsion pedagogik texnologiyalarni isloh qilishning zamonaviy tajribalari nisbatan asta-sekin o'zlashtirilmoqda. Pedagog-olimlarning ko'p yillar davomida ta'lim tizimini yanada samaraliligi va natijaliligini oshirishga doir olib borgan ishlari zamirida o'sib kelayotgan kelajak vorislari hisoblanmish yosh avlodni yanada komil insonlar etib tarbiyalashga qaratilgan. Bugungi ta'lim-tarbiya sohasida turli xususiyatdagi, yo'nalishdagi ko'zga ko'ringan innovatsiyalar mavjud. Katta yoki kichik ko'lamli davlat islohotlari o'tkazilayotgan ta'lim-tarbiyaning tashkil etilishiga, mazmuniga, uslubiyotiga, texnologiyasiga yangiliklar kiritadi. Ana shu haqiqatni xalqimiz har tomonlama to'g'ri tushunib, tanlagan taraqqiyot yo'limizni ongli ravishda qabul qilgani va qo'llab-quvvatlayotgani oldimizga qo'ygan maqsadlarga erishishning asosiy manbai va garovi ekanini hayotning o'zi tasdiqlamoqda. Bularning hammasi axborotlashtirishning ulkan imkoniyatlaridan eng samarali foydalanishni, uning bozor munosabatlariga o'tish davridagi jarayonlariga ta'sirini kuchaytirishning eng dolzarb vazifasiga aylantirmoqda.

Axborotlashtirish zamonaviy dunyo taraqqiyotining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanib, jahon fan texnikasining iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgandir.

Bugungi kunda yoshlarni yuksak ma'naviyatli, ijtimoiy-siyosiy hayotda doimo o'z mustaqil fikriga ega, kasb-hunar mahoratini egallagan shaxs sifatida shakllantirish eng dolzarb, yurtimizning bugungi va ertangi hayotini belgilab beruvchi muhim masala hisoblanadi. Shaxsni shakllantirish keng qamrovli tushuncha hisoblanib, unda bevosita ta'lim va tarbiya masalalari ham o'rin olgan.

Ta'lim jarayonida yangi innovatsion texnika-texnologiyalardan foydalangan holda dars o'tish, so'nggi texnikalar bilan jihozlangan laboratoriya xonalaridan foydalangan holda mashg'ulotlar o'tkazish, mutaxassislik bo'yicha, o'z sohasidagi so'nggi innovatsiyalar haqida ma'lumotlar keltirib, jahon tajribasidan namunalar keltirib o'tish talabalarni kreativ fikrlash ruhida tarbiyalashga turtki bo'ladi.

Innovatsion tarbiya texnologiyalari asosida o'quvchi-yoshlarni ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash jarayonida quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

✓ axborotlarni saqlash, qayta ishlash, tarqatish va namoyish qilish tamoyillarini bilishi;

✓ tarbiyaviy jarayonda qo'llashi mumkin bo'lgan texnik vositalar va ularning tavsiflarini bilishi;

- ✓ ta'lim-tarbiya jarayoni va ilmiy izlanishlarda Internetdan foydalanishi;
  - ✓ tarbiya jarayonida kompyuter texnikasidan foydalanish metodologiyasini bilishi;
  - ✓ multimediali hujjat va loyihalarni yaratishni bilishi;
  - ✓ kompyuter tarmoqlari orqali olinadigan axborot xizmatlari turlarini tavsiflashi;
  - ✓ elektron pochta ishining asosiy tamoyillarini tushunishi;
  - ✓ tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda tarbiya texnologiyalaridan foydalanishi;
  - ✓ tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda tarbiya texnologiyalarini joriy etishning maqsadi, mazmuni va vazifalarini bilishi;
  - ✓ tarbiyaviy jarayonni tashkil etishning didaktik tamoyillarini bilishi;
- tarbiya texnologiyalaridan darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishi va uning mazmunini yarata olishi;
- ✓ ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va ulardan tarbiya jarayonida foydalanishi;
  - ✓ o'z-o'zini takomillashtirish, rivojlantirish, nazorat qilish ko'nikmasiga ega bo'lishi;
  - ✓ tarbiya jarayonida innovatsion tarbiya texnologiyalaridan samarali foydalana olishi.

Har bir dars jarayonini zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida tashkillashtirish ta'lim beruvchi pedagogdan juda katta ma'suliyatni talab etadi. Ta'lim berish jarayonida ta'lim metod va vositalarni tanlash hamda amalga oshirishda ta'limning didaktik maqsad va vazifalari, zaruriy shart-sharoitlar, ta'lim oluvchilarning imkoniyatlari va ularning soni, mashg'ulotlarning davomiyligi, ta'lim beruvchining mahoratiga ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish imkoniyatlariga tayangan holda, ta'limning metodi va vositalari bir-birini to'ldirib borgandagi amalga oshirilgan ta'lim tizimi samaradorlikka erishishi va kutilgan natijani berishi mumkin.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PF-5264 son "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida" gi Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrdagi PQ-3416 sonli "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori.
3. N.X.Avliyoqulov, N.N.Musayeva "Yangi pedagogik texnologiyalar"- Darslik 15-20 b.
4. N.A.Muslimov "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik" O'quv-uslubiy majmua. Toshkent: 2016. 30-31b.

## TO'YGA QADAR O'TKAZILADIGAN ETNOGRAFIK MULOHAZALAR HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR

*Suvanova M.,*

*Navoiy viloyati PYMO'MM katta o'qituvchisi, f.f.f.d. (PhD)*

**Annotatsiya:** Nikoh to'yi xalqimizning tarixiy rivojlanishi jarayonida sayqallanib, bizgacha yetib kelgan milliy ma'naviy qadriyatlarimizdan biridir. Nikoh to'yi qarindosh-urug'lar, do'stlar, tanish-bilishlar, qo'shnilar ishtirokida o'tkaziladi. To'y dasturxonini turli noz-ne'matlar bilan bezatiladi.

**Аннотация:** Обряд бракосочетания – одна из наших национальных духовных ценностей, отточенных в ходе исторического развития нашего народа и дошедших до нас. Свадьба проводится в присутствии родственников, друзей, знакомых и соседей. Свадебный стол украшают различными деликатесами.

**Abstract:** The marriage ceremony is one of our national spiritual values that have been refined in the course of the historical development of our nation and have reached us. The wedding is held in the presence of relatives, friends, acquaintances, and neighbors. The wedding table is decorated with various delicacies.

Nikoh – erkak va ayolning turmush qurishini rasmiylashtirish shakli, usuli[1]. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ham bu so'z o'z semantik mazmunini yo'qotgani yo'q. Hozirda nikoh erkak va ayolning qonuniy oila qurishini anglatadi. Ikki yoshga nikoh o'qilayotganda kuyovning yaqin qarindoshlaridan bo'lgan erkak kishi vakyl ota ishtirok etadi. Samar.v. Paxtachi shevalarida oldbga chbqqan ota deyiladi. Qoraqal. o'zbek shevalarida nikoh marosimida yigitga barcha narsalarni o'rgatib boruvchi kishiga jbgbt og'asb, qipchoq shevalarida o'kulata//okylota[2] leksemasi qo'llaniladi. Bu leksema Qashq. shevalarida aqlota, Surxan. vkillata//vaktota// pbdervakb//vaktbsorag'ych leksemasi bilan ifodalanadi [3].

Nikoh to'ylariga oid etnografizmlarni quyidagi qismlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq:

1) To'yga qadar marosimlarni ifodalovchi etnografizmlar: sovchilik, non sindirish, fотиha, oq yirtish, maslahat oshi, to'y eltish, oqsoqolga borish, qizlar

yig'ini, hina qo'yish (xostgori, nonshikanon, xayoshi, oshxurakon, fotiha, parchaburron, maslahat oshi, to'ybaron, oqsoqolravi, dugonatalbon, hinobandon). Kelin-kuyovni katta to'yga tayyorlash: soch o'rish, qosh terish, kiyim kiydirish va boshq.;

2) To'y paytida o'tkaziladigan marosimlarni ifodalovchi etnografizmlar: nikoh, kuyovning kelishi, to'y ziyofati, kelinni kuyovning uyiga kuzatish, yuzko'rar va boshqalar;

3) To'ydan so'nggi marosimlarga oid etnografizmlar: joy solish, joy yig'ish, kuyovcharlar, kelincharlar.

**To'yga qadar marosimlarni ifodalovchi etnografizmlar: sovchi** – turmush quradigan yigit va qizning ota-onalari qarindosh urug'lari bilan yoshlarning oila qurishlari borasida kengashuvchi, oilaning a'zosi yoki qarindosh urug'laridan biri bo'lgan shaxs. Surxan. shevasida **djo:chi//yovchi**. Bu o'zbek tilli hududlarning barchasida keng tarqalgan etnografizmdir.

**Non sindirish yoki ushatish** – qizni unashtirish, nikohga kiruvchilarning munosabatlariga rozilik berish ma'nosini ifodalaydi. Bu marosim O'zbekiston hududining barcha viloyatlarida bir xil tarzda o'tkaziladi. Quda tomonga (kelinnikiga) 3-5 kishi (kuyovning yaqin kishilari) patir non, holva va boshqa shirinliklar bilan boriladi. Ushbu marosimda ikkala tarafdin qudalar ishtirokida ustma-ust turgan butun nonlar o'rtasidan ikkiga bo'lib ushatiladi va har ikkala tarafga holva hamda shirinliklar birdek taqsimlanadi. Non sindirilgandan keyin **oqlak** beriladi. Har ikkala tomon ham yaqinlariga yoshlar unashtirilganini bildirish uchun non va shirinliklardan tarqatishadi. Tosh., Samar., Nav., Bux. viloyatlarida yaqinlarining qizlariga, ishxonalariga, turmushga chiqmagan dugonalariga holva, shirinliklar, chaq-chuqlar tarqatiladi. Bu marosimning nomi Nav., Bux. **nonshindirish** deyilsa, Toshk., Samar. **romalberdy**, Qashq. **patir shindirish**, Surxan. **nanshindirish//atashtirish**, Qoraqal. **nan shindirish** nomi bilan ifodalanadi. Bunday komponentlarning qo'shiluvidan hosil bo'lgan so'zning ma'nosi komponentlardan biri anglatgan ma'noga aloqador bo'ladi.

**Fotiha to'yi**. Qizni unashtirish fotiha to'yi marosimi bilan yakunlanib, unashtirilgan qiz – fotihali yoki boshi bog'liq deb ataladi. Surxan.da ushbu etnografizm **patiyatoy** deb nomlanib, fotiha to'yi kuni bo'yniga ro'mol bog'lab olib boriladigan qo'chqor – "**eshak ochar**" nomi bilan yuritilib, quda tomon katta to'y taraddudini ko'radi. Jiz. viloyatida kelinga "**yoqlav**" yuboriladi (jonliq – qo'chqor, guruch va boshqa mahsulotlar yuboriladi.).

To'y muddati cho'zilsa, qudalar qizga har bayram va bozor kunlari bayramlik, bozorlik yuborib turishadi. To'y kuni ma'lum bo'lgach, ikki tomon ham to'y taraddudini ko'ra boshlaydi. Bayramlik quda tomondan keladigan shirinliklar, oziq-ovqatlar va sarpolarni anglatadi.

Qiz uyida ko'rpa-to'shak tikish uchun hashar uyushtiriladi. Bu odat "**korpa beshar**" deb yuritilib, qarindoshlar bergan narsalar **qoshon** deb nomlangan. Xor.da bu "**odet qoshont**" deb nomlanadi.

To'y kundan bir kun oldin qiz uyiga to'ylik yuboriladi. Qiz tomon esa kuyov uchun sarpo, patir, qand-qurs solingan dasturxon jo'natadi. Ushbu

marosimda ikkala taraf vakillaridan 10-15 kishi ishtirok etadi. Ular to'yni o'tkazishni kelishib oladilar. To'yda qudalar bir-birlariga, qarindosh urug'larga **sarpoy** qilishadi. Bu o'zbek xalqining azaldan qo'llanilib kelingan urf-odatlaridan biri bo'lib, o'rganilayotgan barcha hududlarda keng tarqalgan. Bu **sarpoy** leksemasi "Alpomish" dostonida ham uchraydi: "*Qorajon: enamiz bizni katta yerdan uylantiribdi. Enamning bosh-oyoq sarpoyini qilib yuboribdi – ena bo'ri bo'lganingdan gapir! – deb turibdi*" [4].

**Haylik/hayitlig** – hayit arafasida qizga yuboriladigan kiyim-kechak, sovg'a-salomlar. Hozirgi kunda bayramlarda ham hayitlik berilyapti.

**Idish/qapkoti** – fотиha to'ydan keyin qiz tomondan kuyovga yuboriladigan bir qo'y, kiyim-kechak va shirinliklar (60 ta non, 4 ta qatlama, kuyovga sarpo, ota-onasiga kiyimliklar, 10 dona dastro'mol, belbog', 10 dona do'ppi, bir yashik konfet, bitta qo'y va b.). Hozirgi kunda qizning ota-onasi televizor, sovitkich, kir yuvish mashinasi, muzlatkich, gaz plitasi ham olib borishyapti.

**Qiz bazmi.** Bu marosimning o'tkazilishi ixtiyoriy bo'lib, nikoh to'yidan oldin qizning uyida o'tkaziladi. Qiz bazmiga kelinning dugonalari, qarindoshlar, qo'shnilar taklif qilinadi. Qizning ota-onasi uyida oila a'zolari bilan xayrlashishi, yangi oilada hurmatli, izzatli kelin bo'lishi uchun yig'ilganlar tomonidan yaxshi tilaklar bildiriladi. Bu urf-odatlar o'zbek tilli hududlarning barcha sheva vakillari turmush tarzida mavjud bo'lib, Bux., Samar., Nav. Karmana tum. **qъz bazmъ**, Nav. Konimex, Nurota tum. **qiz toyi**, Qarsh. **qъzlar davrasъ**, Xor. **qъzlar yъg'ъnъ**, Qoraqal. shevalarida **qъz yъg'ъn//qъz chaqъrъshma//qizъ chaqъrъq** kabi leksemalar bilan ifodalanadi va o'tkaziladi. Bu marosimning o'tkazilishi natijasida ota-onaga bo'lgan qadr-qimmat, hurmat, ota-onani e'zozlash kabi ma'naviy qadriyatlar yoshlar ongiga singdiriladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alpomish. O'zbek xalq qahramonlik dostoni. – T: Sharq, 1998. – B. 49.
2. Боровков А.К. Лексика среднеазиатского тѣфсира XII-XIII вв. – Москва, 1963. – С. 212.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik, 3-jild. – Toshkent, 2006. – B. 38.
4. O'zbek ensiklopediyasi. 2-jild. – Toshkent, 1972. – B. 472.
5. Mirzayev N. O'zbek tili etnografizmlarning izohli lug'ati. – T, 1991. – B. 37.
6. file:///C:/Users/User/Desktop/urf-odat-va-an'analar.html
7. Shomaqsudov Sh., Shorahimov Sh. Ma'nolar maxzani. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001. – B. 344–345.

## GLOBALLASHUV DAVRIDA MILLIY-MADANIYAT VA MILLIY O'ZIGA XOSLIKNING TRANSFORMATSIYALASHUVI

*Ramazonov J.D.,*

*Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada globallashuv davrida milliy-madaniyat va milliy o'ziga xoslikning turli ommaviy madaniyatlar ta'sirida

transfarmatsyalashuvining ijtimoiy psixologik xususiyatlari xususidagi nazariy hamda amaliy masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** globallashuv, milliy-madaniyat, milliy o'ziga xoslik, ommaviy madaniyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, manaviy xavfsizlik, transformatsiya, integratsiya.

XX asrning oxirlariga kelib insoniyat tomonidan yaratilgan fan, texnika va texnologiyalar sohasidagi kashfiyotlar insoniyatning turmush tarzi yuksalishida va mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning kuchayishi uchun yetakchi ahamiyatga ega bo'ldi. Bu jarayonning mazmun – mohiyati “globallashuv” atamasi bilan ongimizdan o'rin oldi. XXI asrga kelib uni muomalada qo'llash shu darajada ommaviylashib ketdiki, u qo'llanilmaydigan soha qolmadi, desak o'rinli bo'ladi. Chunki, globallashuv jarayoni bugungi kunga kelib, mamlakatlarning iqtisodiyot va moliyaviy hayot doirasidan chiqib, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy va axloqiy hayot doiralarini ham qamrab oldi. Globallashuv jarayonining eng asosiy vositasi sifatida yuzaga kelgan kompyuter, internet, televideniye va boshqa zamonaviy ommaviy axborot vositalari butun dunyo xalqlarining mulkiga aylandi va ularni o'zaro bog'lanish jarayonini yanada tezlashtirdi.

Globallashuv jarayonining hozirgi davrda fan, texnika va texnologiyalar sohasidagi yutuqlarini butun dunyo xalqlariga yetkazish, ularning mulkiga aylantirishdagi rolini qanchalik yuqori baholamaylik, aslida bu jarayonning dunyo xalqlarini xavotirga va tashvishga soladigan eng yomon va xavfli tomoni shundaki, texnikaviy va iqtisodiy jihatdan yuksak darajada rivojlangan mamlakatlarning, birinchidan, kam taraqqiy etgan yoki endi taraqqiyot yo'liga kirayotgan mamlakatlarning mavjud iqtisodiy resurslariga egalik qilish yo'li bilan o'z hukmronligini ta'minlashga intilishi kuchayayotganligi bilan belgilansa, ikkinchidan, o'z hukmronligini ta'minlash asosida o'zlarining g'oyalarini, mafkuralarini va dunyoqarashlarini ommaviy tarzda ularning ongi va qalbiga singdirish bilan ularning o'z manfaatlari yo'lida boshqarayotganliklari bilan belgilanadi.

Hozirgi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ularning ustuvor yo'nalishlarini, kimga va nimaga qarshi qaratilganini aniqlash, aholi turli qatlamlariga ta'sirini o'rganish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo'lgan zararli g'oyalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish, fuqarolarimiz qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy falsafiy va psixologik tahlillarimiz natijalariga ko'ra, globallashuvning milliy-madaniyat va milliy o'ziga xoslikning yemirilishiga o'tkazayotgan ta'sirini qirqishning asosiy va ma'rifiy omili bu milliy – ma'naviy immunitetni shakllantirish bilan bog'liq. Agar globallashuvning salbiy ta'siriga qarshi tura oladigan milliy – ma'naviy omillar shakllantirilsa, milliy – ma'naviy asos va tamoyillarni taraqqiyotimizning ehtiyoji darajasiga ko'tara olsak, globallashuvning milliy – ma'naviy hayotimizga o'tkazadigan ta'sirining payi qirqilishi tabiiy jarayon sifatida amalga osha boradi.

Milliy – ma'naviy immunitet deganda millatning barqaror rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ma'naviy ehtiyojini qondiruvchi keng ma'nodagi ma'naviy boylikning mavjudligini, unga xar doim ham ehtiyojning o'sishiga moyillik kuchliligiga va millat ma'naviy hayotiga tashqaridan ko'rsatiladigan har qanday ta'sirlarga qarshi tura oladigan, ulardan kuchli, ustun bo'lgan milliy – ma'naviy, ruhiy va yuksak darajadagi axloqiy salohiyatlarning amal qilishini tushunish mumkin.

Ko'rinib turganidek, milliy – ma'naviy immunitetni shakllantirish yo'li bilangina globallashuv ta'sirida milliy ma'naviyatda sodir bo'layotgan salbiy xususiyatlarga qarshi turish mumkin. Bu jarayon juda murakkab bo'lishiga qaramasdan, uni amalga oshirish millatimiz istiqbolini ta'minlash, urf – odat, an'ana, azaliy qadriyatlar va axloqimizni tashqi hujumlardan himoya qilishimiz kerak.

Ijtimoiy fanlar va psixologiya sohasida olib borilgan tadqiqotlarning asoslashicha, globallashuv ta'siri ostida milliy hayotimizga shiddat bilan kirib kelayotgan millatimiz uchun yot bo'lgan yuqorida ko'rsatilgan “Ommaviy madaniyat” dan himoyalanihning muhim imkoniyatlaridan biri – milliylikni yuksaltirishdir.

Bizga ma'lumki, milliy tarbiya millatimiz vakillariga, ayniqsa yoshlarda milliy meros, urf – odat, an'ana va axloqimizdagi eng ilg'or xususiyatlarni, qadriyatlarni singdirish orqali milliy ong, dunyoqarash, ruhiyatni shakllantirish, o'zligini anglash, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini mustahkamlash, milliy manfaat, millat istiqboli uchun mas'ullikni ongiga singdirish, boy merosimiz asosida ma'naviy boyitish borasida olib boriladigan amaliy faoliyatdir. Uning muhim hususiyatlari qatorida o'zga millatlar bilan inoq yashash, ularni hurmat qilish, yordam ko'rsatish, o'zlarining urf – odat, an'ana va qadriyatlarini yaratish kabi maqsadlarini ham o'z ichiga qamrab oladi.

Bundan tashqari, globallashuvning salbiy ta'siridan himoyalanihda mafkuraviy profilaktikaning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi.

Mafkuraviy profilaktika – ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan turli shakllardagi g'oyaviy-tarbiyaviy, ma'naviy-mafkuraviy qarashlar majmuasi bo'lib, butun g'oyaviy va axloqiy-ma'naviy tizimni qamrab oladi.

Har qanday tarbiyada bo'lganidek milliy tarbiyada ham aniq maqsadlar ko'zda tutiladi. Globallashuv avj olayotgan bugungi kunda milliy tarbiyaning strategik yo'nalishi millatimizga yot ta'sirlardan himoya qilishni tashkil qiladi. Buning uchun esa qo'yidagi yo'nalishlar nazarda tutiladi:

Birinchiidan, milliy ongni rivojlantirish, yoshlarimizda milliy o'zligini anglatish, ularda milliy iftixor, g'urur va millatimizga e'tiqod tuyg'ularini shakllantirish:

Ikkinchiidan, milliy meros - urf–odat, an'anamizni millatimiz vakillarining o'zlashtirishi va egallashlari uchun zaruriy ehtiyojga aylanishiga erishish, dunyoviy ilmlarni chuqur o'zlashtirishga qaratilgan ijobiy munosabatni shaqlantirish.

Uchinchidan, millatparvarlik, halqparvarlik, vatanparvarlik, millat taqdiri, manfaati uchun daxldorlik va ma'suliyatni anglash, uning xafsizligini hamda barqaror taraqqiyoti yo'lida fidoyilik ko'rsatishda bahamjihat faoliyat olib borish:

To'rtinchidan, millatdoshlarimizda milliy – ahloqiy qadriyatlarga bo'lgan e'tiqodini mustahkamlash orqali ularni e'zozlash, rivojlantirish hamda ularning boy, jozibali, go'zal, ustun va ahamiyatli ekanligini his etishga erishish, millat obro'sini, har qanday millat uchun umumiy qadriyatlarni, sadoqat tuyg'ularini himoya qilish, mustahkamlikka erishish kabilardir.

Ana shunday imkoniyat va zarur shart-sharoitlar ta'sirida har bir inson, u qanday jamiyatda yashashidan qat'i nazar milliy va umuminsoniy ahamiyatga daxldor huquq, qonun, adolat, jinoyat haqida ma'lum tasavvurlarga egaligi kuzatiladi. Xuddi shu bilim va tasavvurlar darajasiga qarab insonning huquqiy ongi va madaniyati belgilanadi.

Buning mohiyati shuki, milliy qadriyatlar asosida jipslashgan millat xech qachon o'z mustaqilligini birovga bermaydi va aksincha, milliy qadriyatlardan ajralgan millat o'z mustaqilligini himoya qila olmaydi.

Vatanga muxabbat vatanparvarlik hissida ifodalanadi. Vatanparvarlik – bu kishining so'zi bilangina emas, balki uning ishi bilan isbotlanadigan voqelikdir. Eng oliy vatanparvarlik esa bu – Vatan ozodligi, Vatan mustaqilligi, Vatan ravnaqi yo'lida ko'rsatiladigan jasoratdir. Haqiqiy vatanparvarlik bu kishining o'z Vatani istiqloli va istiqboli yo'lida fidokorona va halol mehnat qilishidir.

Demak, shaxs, inson manfaatlari, insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash milliy xavfsizlikning mohiyatini tashkil etadi. Milliy xavfsizlikning subyekti davlatdir, aynan u xalqaro munosabatlarda butun xalqi, axolisi, xududidagi insonlar nomidan milliy, umumxalq, umumdavlat xavfsizligini ta'minlashi mumkin.

Milliy o'zlikni anglash millatdan o'z ma'naviy boyligini tinmasdan rivojlantirish, tarixiy qadriyatlarini ehtiyot qilish, milliy an'analarga sodiq bo'lish, ularni doim umumbashariy qadriyatlar bilan boyitib borishni talab qiladi.

Biz o'zimizning axborot fazomizni turli xil ichki va tashqi ma'naviy – mafkuraviy taxdidlardan asrashimiz uchun yoshlarimiz ongi va ma'naviyatida o'z ona tilida mafkuraviy immunitetning shakllanishiga sharoit yaratishimiz va ularda milliy – ma'naviy qadriyatlarga sadoqat ruhini tarbiyalashimiz, bilim doirasi va ilmiy dunyoqarashini kengaytirishimiz zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi (22 dekabr, 2017 yil). T.: "O'zbekiston", 2017. -88 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 3-tom, Toshkent, -704 b.
3. Abdulatipov R.G. Chelovek. Natsiya. Obshestvo. –M.: 1991. -224 s.
4. Abu Rayxon Beruniy. T., 1968. Tanl. asar. 1 t. -488 b



5. Abulxanova-Slavskaya K.A. Tipologiya aktivnosti lichnosti // Psixologiya lichnosti i obraz jizni. – M., 1987. -10-11 s.

## **MATEMATIKA O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHNING O'ZIGA XOSLIGI.**

*Qurbonov M.I.,*

*Boboqulov J.Q.,*

*Navoiy viloyati PYMO'MM o'qituvchilari*

Yoshlarning ta'lim –tarbiyasi bugungi kungacha va bundan keyin ham eng muhim masaladir. Eng asosiysi, umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlarida belgilab qo'yilgan, o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kometentsiyalariga qo'yilgan majburiy minimal talablarni o'quvchilarimiz tomonidan to'liq o'zlashtirib olishlariga erishish, pedagoglarga katta ma'suliyat yuklaydi. Chunki davlat talablarini bajarishimiz shart ekanligini unutmasligimiz lozim.

Lekin ba'zan, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar ham uchraydi.

Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarga nisbatan hech qachon befarq bo'lmag'imiz lozim.

Psixologik jihatdan insonning haqiqiy qobiliyati ba'zan kechroq, ba'zan ertaroq nomoyon bo'ladi. Ba'zan vunderkentlarda yorqin istedod ko'rinsada afsus, negadir u tezda so'nadi. Bundan keyin, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarga nisbatan fikrimiz o'zgarishi aniq. Hech qachon iqtidorli yoki iqtidorsiz o'quvchi bo'lmaydi. Ta'limda yuqori samaradorlikka erishish o'qituvchidan juda katta ijodiy mehnat talab qiladi.

Jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarga, o'qishda har xil turdagi yordam uyushtirilmog'i lozim. Buning uchun ularga yaxshi o'qiydigan bolalar biriktirilishi, har xil fanlar bo'yicha maslahatchilar guruhini tashkil etilishi lozim. O'qish va jamoat faoliyatlarida bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning kichik muvaffaqiyati taqdirlanishi lozim.

Ba'zida, topshiriqlarni o'zgartirgan holda, oldindan turlicha yordam ko'rsatib, o'quvchilarni o'ziga ishonch va hissiy faollikka undash uchun o'qishda va mehnatda muvaffaqiyatli vaziyatlarni yaratish lozim.

Javobgarlik va tartib intizom evaziga o'quvchilarning o'zlashtirishi yaxshilanayotganligini doimo ta'kidlab turish maqsadga muvofiq. Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar, tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan ishlashda ba'zi hollarda so'zsiz bo'ysinish choralari ham qo'llash mumkin, lekin ulardan foydalanish vaqti-vaqti bilan bo'lib, tarbiyaviy ta'sirning boshqa usullari bilan birgalikda olib boriladi. Talabchanlik - adolatli, to'g'ri va me'yorida bo'lmog'i lozim.

Umumta'lim maktablarida tabiiy fanlarni o'qitishda, o'quvchilarning bo'sh o'zlashtiradigan, qiynaladigan mavzularini aniqlash va ularning kelib chiqish sabablarini bilish hamda ularni tuzatish uchun aniq vazifalarni belgilab olish o'qituvchi uchun muhim rol o'ynaydi. Bu muammoni hal qilmay turib

o'qitishda samaradorlikka erishish qiyin masaladir. Vaholanki, umumiy o'rta ta'lim maktablari ish faoliyatining asosiy yo'nalishi, qanday fan bo'lmasin, ta'limning sifat va samaradorligiga erishishga qaratilmog'i lozim.

Mavzu o'quvchilar tomonidan nima uchun bo'sh o'zlashtiriladi?

Bunga asosiy sabablar deb,- quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- o'quvchilarning darsda o'tilgan mavzularni oxirigacha tushunmasligi;

-ayrim sabablarga ko'ra darslarni qoldirishi;

-o'qituvchining ish tajribasidagi kamchiliklar;

-maktab jamoasida sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar, o'quvchilarning qiziqishi, istaklari, hohish va ehtiyojlariga suyangan holda, ularning darsdan bo'sh vaqtlarida o'quv - tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etilmasligi;

-ijodiy qobiliyatlar rivojini samarali amalga oshirish uchun o'quvchilar iste'dodini aniq tahlil etish, bolalarning o'ziga xos psixologik xususiyatlarini hisobga olish, turli yoshdagi iqtidorli o'quvchilarning iste'dodlarini namoyon etishidagi pedagogik jamoa, ruhiy-diagnostik tajribalardan unumli foydalanishlari zarur.

Ma'lumki, umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlari o'quvchilarga beriladigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarning majburiy minimal darajasini belgilaydi. Shunday ekan tabiiy fani o'qituvchisi, o'quvchilarga fan asoslarini o'rgatishda faqat darslik va dastur bilan chegaralanib qolmasdan, dars jarayonida qo'shimcha metodik qo'llanmalar va ta'limning ilg'or tajribalaridan ham samarali foydalanishlarini taqozo etadi.

Shu bilan birga, o'quvchilarning bilim, ko'nikma malaka va kompetentsiyalarini hisobga olish hamda ularni tekshirish, o'quv-tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismidir.

Nazorat ishlari orqali o'tilgan mavzularning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish darajasi aniqlanadi. Lekin maktab amaliyotida o'quvchilar bilimini tekshirish va baholashda, bu masalaga e'tiborsizlik bilan qarash natijasida o'quvchi, ba'zan bir mavzudan qoniqarsiz baholanib, boshqa mavzu bo'yicha bergan javobi hisobiga uning xatosi tuzatiladi.

Natijada tabiiy fanlardagi mavzularning uzviy bog'liqligi, fanning mantiqiy tuzilishi tufayli bir qancha mavzular yaxshi o'zlashtirilmay, o'quvchilarning bilim, ko'nikma malakalarini o'zlashtirishida uzilishlar va bo'shliqlar hosil bo'ladi. Shuning uchun tabiiy fanidan o'qituvchilari, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish va baholashda har bir mavzuning puxta o'zlashtirilishiga alohida e'tibor berish lozim.

Ma'lumki, o'quvchilar bilimini nazorat qilishning yetarlicha ko'p usullari mavjud. Shu jumladan yozma ish va uning tahlili, o'quvchilarning o'tilgan mavzu bo'yicha olgan bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirishning yakunlovchi bosqichidir. O'tkazilayotgan yozma ishdan kutilayotgan natijaning samaradorligini oshirish maqsadida, yozma ishlar jarayonida o'tilgan mavzularning o'ziga xos tomonlarini qay darajada o'zlashtirilganligini domiy ravishda qayd qilib borish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Yozma ish variantlari

o'tilgan mavzularning mazmunini to'la qamrab olmog'i lozim. Yozma ishdagi har bir topshiriqning to'g'ri yechimlari oldindan tayyorlab kelingan didaktik materiallar asosida sinf taxtasida namoyish etilgandan so'ng, yaxshi o'zlashtirilmagan topshiriqlar yuzasidan mustaqil ish o'tkaziladi. Mustaqil ishning natijasiga qarab, o'quvchilarga o'z ustida ishlash uchun qo'shimcha vazifalar beriladi. Zarurat tug'ilganda darsdan tashqari konsul'tatsiyalar uyushtiriladi. O'quvchilar har bir mavzu bo'yicha puxta o'zlashtirishga erishganlaridan so'nggina yakuniy sinov topshiradilar. Ularning barcha tekshirishlardagi o'zlashtirish darajasi sinov varaqasida doimiy qayd etib boriladi.

## BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

*Rahmonova D.M.,  
Navoiy viloyati PYMO'MM katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** maqolada bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning ilmiy-pedagogik asoslari, kasbiy mahoratning takomillash usullari haqida taklif va tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** kompetentlik, pedagogik mahorat, ta'lim va tarbiya, bolaning psixologik ruhiyati.

Ta'lim jamiyatda rivojlanishning asosiy bug'ini hisoblanadi. Xususan, mamlakatimizda ta'lim tizimi rivojlanishi uchun etarlicha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Jumladan, 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston-2030 strategiyasi"ning "Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish" deb nomlangan birinchi ustuvor yo'nalishining asosiy qismi ta'lim tizimi islohotlariga bag'ishlangan. Unda, "Bolalarni maktabgacha ta'lim va tayyorlov guruhlar bilan to'liq qamrab olish", "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini 100 foiz kompyuter sinfi bilan ta'minlash orqali tarbiyalanuvchilarda boshlang'ich kompyuter savodxonligi ko'nikmalarini shakllantirish" deb nomlanganligi ta'lim davlat siyosati darajasiga ko'tarilayotganligiga ishoradir. Ushbu ishlarni amalga oshirish ta'lim mazmunini yangilash, kompetentli yondashuvni amalga oshirish bilan bevosita bog'liqdir. Har qanday darsning asosiy vazifasi - uni faol o'quv faoliyatiga kiritish asosida bolada ma'lum bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdir. Ushbu muammoni hal qilish jarayonida o'qituvchi turli xil tushuntirish, namoyish qilish, tezkor savol-javob kabi usul va metodlardan foydalanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, ulardan faqat to'g'ri foydalanish bir vaqtning o'zida ta'lim va tarbiya muammolarini samarali hal qilishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bola faqat biron bir darajada uni qiziqtiradigan, zavq bag'ishlaydigan, tasavvur va hissiyotlarga ta'sir qiladigan narsaga katta qiziqish bildiradi. Shuning uchun tarbiyachi bolalarni dars mazmuniga qiziqtirishi, uni amaliy faoliyat bilan bog'lashi kerak. Maktabgacha ta'lim muassasalariga bormaydigan maktabgacha yoshdagi bolalarning 39,5% faqat

oilaviy muhitda tarbiyalanadi. Ularning maktabga tayyorgarligi asosan ularning ota-onalari yoki boshqa katta yoshli oila a'zolari tomonidan amalga oshiriladi. Ovqatlanish, uxlash, qattiqlashish, kasalliklarning oldini olish, yaxshiroq parvarish qilish va sog'liqni muhofaza qilish uchun individual sharoitlar yaratish imkoniyati, maktabga tayyorgarlikning individual tizimi va boshqalar kabi tortshuvsiz afzalliklar bilan bir qatorda bu yo'l ham bir qator kamchiliklarga ega. Avvalo, bu bolalar jamoasida shaxslararo aloqaning etishmasligi. Maktabgacha ta'lim muassasasida o'qigan bola tez va osonlik bilan yangi maktab jamoasiga qo'shiladi, chunki uning kommunikativ tayyorgarligi bolalar jamoasidan tashqarida tarbiyalangan bolaga qaraganda ancha yuqori. Bundan tashqari, katta yoshdagi oila a'zolari ko'pincha bolani o'qish, yozish, hisoblashni o'rgatish bo'yicha maxsus tayyorgarlikka ega emaslar, shuningdek, etarli darajada psixologik va pedagogik tayyorgarlikka ega emaslar va qabul qilish bosqichida bolaga qo'yiladigan talablar tizimida yomon yo'naltirilgan. birinchi sinf. Natijada, ko'plab ota-onalar aprel oyida o'z farzandini birinchi sinfga yozdirish uchun maktabga olib kelganida, u o'qish, yozishni noto'g'ri o'rgatishganini, she'rlarni yoddan bilmasligini, bilmasligini bilib hayron bo'lishadi. bolalar qo'shiqlari va u maxsus qo'shiqlarni ishlab chiqmagan, eng oddiy taqqoslash, umumlashtirish, tizimlashtirish qobiliyatlari, yuqori tashvish qayd etilgan, u qalamni qanday tutishni bilmaydi, nozik vosita mahoratiga ega emas va hokazo. Maktabga tayyorlik muammosini o'rganish doirasida Rossiya Ta'lim akademiyasining Ijtimoiy ish pedagogikasi instituti xodimlari so'rov o'tkazdilar, unda boshlang'ich sinf o'qituvchilari, maktab direktorlari, tarbiyachilar, maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlari va boshqalar. bu masalada vakolatli deb hisoblangan mutaxassislar ekspert sifatida qatnashdilar.

Ulardan odatiy belgilar ("+" - "Ha", "+ -" - "Yo'q" degan ma'noda ", " - + " - "Ha"dan ko'proq", "- " - "Yo'q"), maktabgacha yoshdagi bolaning turli xil sharoitlarda umumiy va maxsus tayyorgarligini rivojlantirishda muvaffaqiyat darajasini baholash: maktabgacha ta'lim muassasasi (maktabgacha ta'lim muassasasi), boshqa ta'lim muassasalari, oila. Kutilganidek, ko'pchilik mutaxassislar bolani maktabgacha tarbiya sharoitida maktabga tayyorlashni afzal ko'rishdi. Barcha respondentlarning fikriga ko'ra, jismoniy, shaxsiy va intellektual tayyorgarlikni shakllantirish bolaning umumiy psixologik tayyorgarligining tarkibiy qismlari sifatida bolalar bog'chasi devorlarida muvaffaqiyatli bo'ladi. Bu erda sog'liqni saqlash va mustahkamlashga, bolaning har tomonlama umumiy aqliy va jismoniy rivojlanishiga katta e'tibor beriladi. Buning uchun ochiq havoda o'yinlar tashkil etiladi, jismoniy tarbiya, ritm, suzish va boshqalar o'tkaziladi, qattiqlashuv elementlari kun tartibiga kiritilgan.

Ko'pgina bolalar bog'chalarida kun musiqa ostida ertalabki mashqlar bilan boshlanadi. Bularning barchasi bolada yaxshi holatni shakllantirishga yordam beradi, vosita mahoratini rivojlantiradi, harakatlarni muvofiqlashtirishni yaxshilaydi va jismoniy ish faoliyatini oshiradi.

Ko'pgina tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, bolalar bog'chasida bola o'zining aqliy va aqliy rivojlanishi uchun maqbul sharoitda: bu to'g'ri tashkil

etilgan kun tartibi va tengdoshlar va kattalar (o'qituvchilar) bilan ko'plab aloqalar va tayyorgarlik guruhlarida maxsus tashkil etilgan darslar.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, bolaning jismoniy tayyorgarligini shakllantirish boshqa sport muassasalarida yaxshi yo'lga qo'yilishi mumkin, u yerda bola har xil sport seksiyalari va to'garaklariga borishi kerak. Biroq, hamma ota-onalar ham farzandini bunday mashg'ulotlarga olib borish imkoniyatiga ega emas.

Shu bilan birga, mutaxassislarning yarmidan ko'pi, oilada ham bolaning maktabga jismoniy tayyorgarligini shakllantirish imkoniyati mavjud deb hisoblaydi. Biroq, respondentlarning 40% gacha bolani maktabga tayyorlashning oilaviy shakli sharoitida yuqori sifatli jismoniy tarbiya shubhali yoki mumkin emas deb hisoblashadi.

Bolaning maktabga shaxsiy tayyorgarligi uning hayotiy munosabatlarining uchta asosiy yo'nalishini qamrab oladi: atrofdagi kattalar bilan, tengdoshlari bilan, bolaning o'ziga bo'lgan munosabati. Maktabgacha yoshdagi bolada ijtimoiy vakolatlarni shakllantirish uchun maktabgacha ta'lim muassasasi sharoitlari afzalroq ekanligi aniq, chunki u yerda bolalar bolalar jamoasi va kattalar bilan o'zaro munosabatda bo'lish mumkin. Shu bilan birga, ko'plab respondentlar boshqa ta'lim muassasalarida ham, oilaviy sharoitlarda ham bolaning shaxsiy tayyorgarligini shakllantirish yuqori darajada bo'lishi mumkinligiga aminlar (mos ravishda 73% va 80% respondentlar).

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, bolaning o'qishga intellektual tayyorgarligini shakllantirish, uning kattalar a'zolarining ma'lumot darajasi yuqori bo'lgan oilada ham, maktabgacha ta'lim muassasasida ham (93%) teng ravishda muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, respondentlarning 40% i boshqa ta'lim muassasalarida yordamida bolaning intellektual tayyorgarligini shakllantirish muvaffaqiyatidan shubhalanmoqda. Bu yana bir bor tasdiqlaydiki, bunday trening, mutaxassislarning fikriga ko'ra, ko'pincha "o'qitish" ning bir turi bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolada ilmiy bilimlarning boshlang'ich asoslarini to'liq rivojlanishini ta'minlamaydi.

Kattaroq maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash bu o'qituvchilar va psixologlarning asosiy vazifalaridan biridir. Shu bilan birga, bolalar bog'chalarida maktabga tayyorgarlik ko'radigan dasturlarning bilimlari ko'pincha maktabning birinchi sinfida talab qilinadigan narsalardan sezilarli darajada oshib ketadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asqarova D.Q. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi. O'quv qo'llanma. "Navro'z" nashriyoti, T.: 2020. 338 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8-dekabrda "Boshlang'ich ta'limga bolalarni majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha choratadbirlar haqida"gi 999-sonli qarori.
3. "Bolalarni maktabga tayyorlashning pedagogik-psixologik, tashkiliy-metodik jihatlari". Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Toshkent, 2015.

## XORIJDAGI O'ZBEKLARNING JAHON FANI TARAQQIYOTIDAGI ISHTIROKI

*Fayziyeva F. I.,  
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya:** maqolada xorijdagi O'zbekistonlik olimlarning jahon ilmu fani rivojiga qo'shayotgan munosib hissasi, va ularning ilmiy faoliyati haqida so'z boradi.

Har bir mamlakatning dunyo taraqqiyotidagi o'rni ilm-fanni rivojlanishini qo'llab-quvvatlanishiga bog'liqdir. Xususan, so'ngi yillarda yurtimizda amalga oshirilayotgan amaliy tashqi siyosat sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida yuqori intellektual salohiyatga ega bo'lgan vatandoshlarimiz jahonni etakchi ilmiy-tadqiqot markazlarida o'zaro tajriba almashish bo'yicha xorijiy davlatlarga borish imkoniyatlari vujudga keldi. Bu esa, mamlakatga yangi innovatsion g'oyalar, investitsiyalar oqimining kengashi olib keladi. Jumladan, Nigoraxon Sodiqova – 2010-yilda Toshkentdagi Vestminster universitetining “Xalqaro tijorat huquqi” fakul'tetini tamomlagan. O'qishning so'nggi yilida Germaniyaning bir qancha yuridik universitetlarida DAAD granti asosida almashinuv talabasi sifatida tahsil oldi. 2010-yildan buyon O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi Huquqiy ekspertiza va tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish bo'limida huquqshunos lavozimida ishlab kelgan. 2017-2018- yillarda qonun hujjatlarining tadbirkorlik faoliyatiga ta'sirini baholash departamentida (SOVAZ) bosh huquqshunos lavozimida ishlagan. 2019-yilda u Amerikaning 7 ta eng yaxshi universitetlariga (Kolumbiya, Chikago, Jorjtaun, Michigan, Tufts, Garvard va Amerika universiteti) hujjatlarni topshirdi va ularning barchasiga o'qishga qabul qilindi va bir qancha grantlar oldi. Nigora Rokfeller biznes ma'muriyati a'zosi. U Klinton Global Initiative tomonidan AQShning 42-prezidenti Bill Klinton faxriy unvoni bilan taqdirlangan. O'zbekistonliklar Yevropada ham faoldirlar. Yevropadagi O'zbekistonliklarning jahon ilm fani rivojidagi ishtiroklarini tahlil etar ekanmiz, avvalo ulardan ilmiy maktab yarata olgan olimlarni keltirib o'tamiz. Nodir Sanaqulov Finlyandiyada marketing tadqiqotlari bo'yicha tadqiqot olib boradi. Asli samarqandlik, maktabni tugatgach, Samarqand davlat universitetining kimyo fakul'tetida o'qishni boshlagan. O'shanda ilmga qiziquvchi yoshlarning xorijga ketishi ko'paygan edi. Ikkinchi kursda o'qib yurganida, yoshlarni Hindistonga to'liq stipendiya bilan o'qishga olib borish haqida eshitgan. Ushbu tanlovga topshirib, grant yutib oldi. 2003-yilda Dehli instituti kollejaridan birida o'qishni boshladi. Shundan so'ng u magistraturada o'qish uchun Janubiy Koreyani tanladi. Koreyslik do'sti uni bu davlatga borib ta'lim olishga qiziqitirdi. 2008-2010-yillarda Kombuk universitetida marketing fakul'tetida tahsil oldi va shu yo'nalishda faoliyatini davom ettirdi. Ilmiy rivojlanishni Finlyandiya davom ettirib, doktorlik dissertatsiyasi muvofaqqiyatli himoya qilgan. Yana bir dunyo ilm- fani e'tirof etgan - Kolumbiya universitetining birinchi o'zbekistonlik professor Aziza Shanazarova. O'zbekistonliklar orasida birinchi bo'lib, Kolumbiya

universitetining yetakchi professori lavozimiga umrbod qabul qilingan Aziza Shanazarova Prezident Sh.Mirziyoyev farmoni bilan “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlanishi, har bir yosh iqtidorga g‘ayrat bag‘ishlaydi. Aziza Shanazarova 2007-yilda Toshkent davlat sharqshunoslik institutining Sharq falsafasi yo‘nalishini tamomlagan. 2011-yilda Indiana-Blumington universitetini imtiyozli diplom bilan tamomlab, 2019 yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Uning tadqiqot yo‘nalishi “Tasavvuf, gender tarixi va Markaziy Osiyo tarixida ayollarning o‘rni” bo‘lib, bir necha yillardan buyon ushbu mavzuda tadqiqot olib boradi. Aziza ilmiy faoliyat bilan bir qatorda xorijlik talabalarga ham dars beradi. U dastlab Indiana universitetida dars berishni boshlagan, keyin esa Stenford universitetida o‘qituvchi sifatida faoliyatini davom ettirgan. U dunyodagi eng qadimiy universitetlardan biri hisoblangan Oksford universiteti Islom tadqiqotlari markazida ilmiy xodim sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

Sharq mamlakatlarida ham o‘zbekistonliklar muvaffaqiyatli ilmiy faoliyat olib bormoqdalar. O‘zbekistonning 2016-yilda boshlangan ochiq va konstruktiv tashqi siyosat sharoitida arab davlatlariga munosabat o‘zgardi. O‘zbekistonning arab mamlakatlaridagi tashqi siyosati mintaqada barqarorlik va xavfsizlik kamarini o‘rnatish masalalarini o‘z ichiga oldi. O‘zbekiston Respublikasi bilan Saudiya Arabistoni o‘rtasidagi gumanitar aloqalar asosan madaniyat, ta’lim, fan, sport va din kabi sohalarini qamrab oladi. O‘zbekistondan har yili Saudiya Arabistoniga Haj va Umra ziyoratlarini ado etish uchun ko‘plab fuqarolar boradi va ularning soni yildan-yilga ortib bormoqda. Saudiya Arabistonida qabul qilingan “Vision – 2030” dasturida belgilangan rejalar jamiyatimiz hayotining barcha sohalarini transformatsiya qilishga qaratilgan Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish taraqqiyot strategiyasining maqsad va vazifalariga hamohangdir. O‘zbekistonliklarning boshqa xorijiy davlatlarda ham olib borayotgan ilmiy yutuqlari tahsinga sazovor. Xususan, o‘zbekistonliklar Markaziy Osiyo davlatlari, Yaponiya, Janubiy Koreya, Avstraliya, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari va boshqa mamlakatlarda o‘z salohiyatini namoyon etib kelmoqda.

## **BARKAMOL INSONNI TARBİYALASHDA ZAMONAVIY VA SHARQONA TA’LIM UYG‘UNLASHUVINING AHAMIYATI**

*Qarshiyev R.M.,  
NavDPI “Tarix” fakulteti dekani,  
tarix fanlari nomzodi, dotsent*

Barkamol insonni tarbiyalashda o‘zbek xalqining milliy va umuminsoniy qadriyatlari bilan uyg‘unlashgan zamonaviy ta’lim va tarbiya berish haqida bayon etilgan.

Zamonaviy va sharqona ta’limning uyg‘unlashuvi jamiyat taraqqiyoti va kadrlar salohiyati hamda yoshlarni jahon andozalari asosida tayyorlaydigan shunday ta’lim jarayoniki, bu ikki jarayonning hamohangligi yoshlarni fan cho‘qqilarini kengroq egallashlariga, ma’naviy bilimlarining kengayishiga,

o'zbekona va umuminsoniy qadriyat, an'ana va udumlarimizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylashga o'rgatadi.

Mamlakatimizda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Milliy dasturi"da belgilangan vazifalarga muvofiq yoshlarning yuragidagi cho'g'ni alanga oldirgan holda, uni har tomonlama rivojlantirib, bilimdan-bilimga yetaklab olib chiqish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Shuningdek, yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, ijodkor va tashabbuskor, qolaversa, tezkorlik bilan rivojlanib borayotgan bu davrda ularni vaqtdan unumli foydalanish, ishni puxta rejalashtirish va aqliy imkoniyatlaridan oqilona foydalanish kabi xususiyatlarni tarkib toptirish zamonaviy ta'limimizning oldida turgan muhim talablardan biridir. Bu to'g'risida birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov: "Ta'lim muassasasining modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O'zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz"-deb aytgan fikrlari bugungi kunda o'z ahamiyatini ko'rsatmoqda.

Zamonaviy ta'lim deganda, bugungi kun talablari asosida innovatsion texnika va texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish ya'ni bir so'z bilan aytganda, ta'lim jarayoniga yangicha qarash va yangicha yondashib o'quvchilarda ijodkorlik, tashabbuskorlik, mustaqillik, bunyodkorlik sifatlarini tarkib toptirishdan iborat bo'lgan ta'lim jarayonini tushunamiz. Bu jarayonda esa ta'lim samarasi yangi bosqichga ko'tariladi, ya'ni:

- Talaba, o'quvchining qiziqishi, talabi, moyilligi, istak-xohishi uning imkoniyatlari darajasida qondiriladi;
- Talaba, o'quvchining o'quv mehnatiga mas'uliyati, javobgarligi oshadi;
- Talaba, o'quvchining bilimlarni mustaqil egallash malakalari shakllanadi;
- Talaba, o'quvchida o'z bilimini o'zi boyitishiga ishonch paydo bo'ladi;
- Talaba, o'quvchida mustaqillik, ijodkorlik, tashabbuskorlik ixtirochilik kabi sifatlar rivojlanadi;
- Yoshlarning jamiyatda o'z o'rnini tezroq topib olish uchun muhit yaratiladi.

Yoshlar egallaydigan bunday zamonaviy bilim, malaka va ko'nikmalar sharqona ta'lim bilan uyg'unlashtirilsa, ularda vatanga muhabbat tuyg'usi, iymon – e'tiqod, mehr-oqibat, milliy an'ana va qadriyatlarga hurmat kabi insoniylik fazilatlar rivojlanadi. Bu esa jamiyatimizning har tomonlama taraqqiy etishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida "Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi - bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi " deb bejizga aytmaganlar.

Buyuk bobokalonlarimizning aql-zakovati bilan bunyod etilgan barkamol inson tarbiyasi haqidagi ilmiy ma'naviy meroslar bugungi zamonaviy ta'limimizni yuksaltirishga va undan ijodiy o'zlashtirishimizga asos bo'lib



xizmat qiladi. Ulug' mutafakkirlarimizning sharqona qarashlarida bu xususiyatlarni ko'rishimiz mumkin:

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy deyarli barcha asarlarida barkamol insonning ta'lim-tarbiyasi masalalariga alohida e'tibor berib tarbiya jarayonlarini, vositalarini talablarini ko'rsatadi va ta'limda ilmiylik, asoslanganlik, tarixiylik kabi talablarni asos qilib olish kerakligini aytadi. Zamonasining peshqadam ziyolisi bo'lgan Abdulla Avloniy esa bolalarni mustaqil mantiqiy fikrlashga o'rgatishda ularning fikriy tarbiyasiga to'xtalar ekan, bu - muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'liqdur",- deb fikr bildiradi. Shuningdek, O'rta asr Sharqining mashhur mutafakkiri Abu Nasr Forobiy inson shaxsini kamol toptirishning yo'l-yo'riqlarini ko'rsatib, tarbiyalash ikki xil uslub yordamida, ya'ni, ixtiyoriy-majburiy tarzda olib borilishi mumkinligi, agar tarbiyalanuvchi aqliy va axloqiy xislatlarni, bilimli bo'lish, hamda to'g'rilik, haqiqatni sevish, jasurlik, do'stlarga sadoqat kabi fazilatlarni egallashga intilmasa, uni tarbiyachi, muallim o'rgatishi kerakligi haqida aytadi.

Ulug' mutafakkirlarimiz Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy kabi buyuk insonlarning barkamol insonni tarbiyalashdagi sharqona qarashlari bilan yo'g'rilgan boy meroslari hamda o'zbek xalqimizning milliy va umuminsoniy qadriyatlarisiz zamonaviy ta'limimizni aslo tasavvur qila olmaymiz.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'zbek xalqining milliy an'ana va qadriyatlari ijtimoiy-madaniy hayotimizdagi uslublarning vorislik rishtalari uzib yuborilmasligi kerak. Qolaversa, bugungi zamonaviy ta'limimizning asosida sharqona ta'lim usullari mujassam. Fikrimizning isboti shundan iboratki, bizni o'zimizning o'zbek xalqimizdan chiqqan ulug' alloma bobokalonlarimiz bugungi ilg'or texnologiyaning usullaridan o'z zamonasida qo'llagan. Ulardan Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Sohibqiron Amir Temur, Ahmad Farg'oniy, kabi allomalar o'zlarini qiynagan muammolarini yechishda interfaol metodlardan keng foydalanishgan. Bu ulug' mutafakkirlar bu metodni "kengash", "mashvarat", "maslahat" deb atashgan. Masalan, Sohibqiron Amir Temur saltanatning oldida turgan muammolarni yechishda mashvarat chaqirib, barcha saroy ahlini, vaziru - ulamolari va farzandlarining fikrlarini diqqat bilan eshitgan va shular asosida yagona hukm chiqargan. Bu holatlar ko'proq harbiy yurishlar oldidan chaqirilgan mashvaratlarda namoyon bo'lgan. Sohibqiron Amir Temur jangu-jadallar oldidan g'anim ustiga lashkar tortmoqchi bo'lganda, u: "... urush-yarashdan o'rtaqa so'z tashlab, amirlarimning bu ikkovidan qay biriga moyilligini bilishga intilardim. Agar yarashdan so'z ochsalar, uning foydasini urush ziyoniga solishtirib ko'rardim, agar urushga moyil bo'lsalar, uning naf va foydasini yarash ziyoniga taqqoslab ko'rardim, qaysi biri foydaliroq bo'lsa, shuni ixtiyor qilardim"-degan fikrining zamirida bugungi zamonaviy ta'limimizning bilish, anglash, tahlil etish, sintez qilish, baholash, xulosalash, natijaga erishish kabi mezonlari yotganligini ko'ramiz.

Yuqorida aytilganlarni barchasining asosida birinchi prezidentimiz ta'бири bilan aytganda, "sharqona qarash va sharqona hayot falsafasi" mujassam. Bu birlikni biz pedagoglar hech qachon unutmashimiz va diqqat markazimizda doimo saqlashimiz lozim bo'ladi. Shunday ekan, bugungi zamonaviy ta'limimiz mazmunining markaziy komponenti o'zida g'oyalarning eng maqbul jihati hamda umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirishi zarur. Buni taniqli ruhshunos olim L. S. Vigotskiy jamiyat taraqqiyotidan ilgari ketgan ta'limigina samarali bo'lishi mumkinligini shunday ta'riflaydi: "Bugun bola kattalar yordamida amalga oshirayotgan ishini ertaga o'zi bajarishi kerak. Bunga bolani har tomonlama rivojlantiradigan, uni fikrlashga o'rgatadigan, qobiliyati qadamba - qadam o'sish imkonini yaratadigan tafakkurining yangi-yangi qirralarini ochadigan ta'lim va tarbiyaga, pedagogik metodlarga ega bo'lingan taqdiridagina erishish mumkin". Shuning uchun zamonaviy ta'limimizning asosiy maqsadi yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan barkamol insonlarni tarbiyalash, ma'naviy qadriyatlarimizni bugungi avlod mulkiga aylantirish, ajdodlarimizning an'ana va tajribalarini o'rganish asosida mustaqil fikrlaydigan, el-yurt sha'ni va qadr-qimmatini ko'klarga ko'taradigan, vatanining yuksalishi va taraqqiyoti uchun olijanob maqsadlar sari intiladigan, "Elim deb, yurtim deb yonib yashaydigan" vatan ravnaqi, el-yurt tinchligi va farovonligi uchun kurasha oladigan barkamol insonlarni tarbiyalab voyaga yetkazish ta'lim sohasida ishlaydigan barcha o'qituvchi pedagoglarning oldida turgan, zimmasiga yuklatilgan oliy vazifadir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Islom Abdug'anievich Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". Toshkent "Ma'naviyat" 2008 yil.
2. Chori Nasriddinov. "Inson, ong, hayot". Toshkent "O'zbekiston" 2010 y
3. Muhammad Qur'onov. "Ezgu g'oyalar ro'yobi". Toshkent "Ma'naviyat" 2011 yil.

### **ЖИСМОНИЙ МАДАНИЯТ ЎҚИТУВЧИСИ ШАХСЛИЛИК ХУСУСИЯТЛАРИНИНГ ИЛМИЙ АДАБИЁТЛАРДА ЁРИТИЛИШИ**

***Баротов Х.Ш.,***

***Бухоро психология ва хорижий тиллар институти  
проректори, психология фанлари доктори (PhD)***

Маълумки, ижтимоий психология фанида айнан шахслилик хусусиятлари муаммосига бағишланган ва унинг барча омилларини батафсил баён этишга қодир илмий адабиётлар етарли бўлмаса-да, бугунги кунда фан оламида ва жамият тараққиётида шахслилик хусусиятлари муаммосининг зарурлигини кўрсата олувчи ва унинг методологик илдизларини асослаб бера олувчи илмий тадқиқотларни алоҳида қайд этиш мумкин. Мазкур адабиётларни таҳлил қилар эканмиз, улардаги шахслилик хусусиятлари методологиясига тааллуқли айрим умумий жиҳатларни

ижтимоий психология фани нуқтаи назаридан тадқиқ қилишимизга тўғри келди.

Чунончи, барча тадқиқотчилар ҳам ижтимоий психологиянинг методологик тамойилларига амал қилган ҳолда шахслилик хусусиятлари учун муҳим бўлган у ёки бу жиҳатини назарий-илмий тарзда асослаб берадилар. Булар ичида социал интеллект учун муҳим назарий-илмий аҳамият касб этувчи ижтимоий психологик вазифаларни аниқлашга қаратилган бир қанча психологик ёндашувларни келтириб ўтиш мумкин.

Шахслилик хусусиятлари табиатини ёритишда интеллект бўйича мавжуд психологик ёндашувларнинг умумий ҳолатини таҳлил этар эканмиз, бугунги кунга қадар мавжуд ёндашувларнинг қуйидаги тартибдаги интеллект ёндашувлари сифатида қайд этиш мумкинлигига яна бир бор амин бўлдик.

Интеллектнинг таркиб топиши ва шаклланиши бўйича муайян ёндашувлар мавжуд бўлиб, улар бир қатор илмий манбаларда ўз аксини топган. Жумладан, интеллектга феноменологик ёндашув: интеллект онг мазмунининг асосий шакли сифатида қаралса (В.Келлер; К.Дункер; М.Вертгеймер; Дж.Кемпион ва бошқалар), интеллектга генетик ёндашувда эса интеллект инсоннинг ташқи олам билан ўзаро таъсирлашувининг табиий шароитидаги ўраб турган муҳит талабларига қийин мослашуви оқибати сифатида талқин этилади (У.Чарльзворт; Ж.Пиаже). Айни пайтда, интеллектга социо-маданий ёндашув тарафдорлари интеллект инсоннинг ижтимоийлашуви, шунингдек, маданиятнинг мақсадли таъсири натижаси, деган ғояни илгари сурса (Дж.Бруннер; Л.Леви-Брюль; А.Лурия; Л.Выготский ва бошқалар), интеллектга жараёнли-фаолиятли ёндашувда интеллект инсон фаолиятининг асосий шакли сифатида баён қилинган (С.Рубинштейн; А.Брушлинский; Л.Венгер; К.Абульханова-Славская ва бошқалар). Интеллектга таълимий ёндашув вакиллари эса, интеллект мақсадга йўналтирилган таълимнинг маҳсули деб эътироф этсалар (А.Стаатс; К.Фишер; Р.Фейерштейн ва бошқалар), интеллектга ахборот ёндашуви намоёндалари ахборотларни қайта ишлашнинг элементар жараёнлари мажмуи сифатида қарайдилар (Г.Айзенк; Э.Хант; Р.Штернберг ва бошқалар). Интеллектнинг функционал-даражавий ёндашувида, интеллект ҳар хил даражадаги билиш жараёнларининг тизими сифатида кўрсатилса (Б.Ананьев; Е.Степанова; Б.Величковский ва бошқалар), интеллектнинг регуляцион ёндашуви: интеллект ақлий фаолликни, ўзини ўзи идора қилиш омилидир, дея таъкидлайди (Л.Терстоун ва бошқалар) [1;2;3;].

Ақлий тараққиёт муаммоси Рубинштейн томонидан чуқур таҳлил қилинган. Унинг тафаккур жараёни муаммоли вазиятдан бошланади деган улуғвор фикри то ҳозирги кунгача ўз аҳамиятини йўқотмаган. Унинг фикрига кўра инсонда бирон нарсани англашга нисбатан эҳтиёж туғилгандан кейин у фикр юритишга ҳаракат қилади. Бу эса ўз ўзидан шахсда ақлий интеллектнинг ривожланишига олиб келади.

Бизнинг мақсадимиз интеллектнинг умумий ёндашувлари табиатига хос жиҳатлар ва улар борасидаги илгари сурилган илмий ғояларнинг чуқур таҳлиliga эмас, балки интеллектнинг умумий психологик табиатини ёритишга йўналтирилган.

Юқоридаги илмий ёндашувлар ва изланишлар борасидаги таҳлилларимиз шахслилик хусусиятларини ижтимоий фойдали мослашувнинг намоён бўлиши тарзида талқин этишимизга олиб келмоқда. Масалан, ушбу фикримизга мос В.Штерннинг интеллектга хос бўлган қўйидаги хулосаси, яъни интеллект «янги ҳаётий шароитларга мослашишга умумий қобилиятлилик» тарзда қараши ва «мослашув акти – ҳаётий масалаларни интеллект ёрдамида ҳал этиш, фикрлашда онгнинг онгсизлик устидан устунлик қилиши баробарида амалга оширилади», деган мулоҳазасини келтириб ўтишимиз мумкин.

Атоқли психолог Я. Пономарёв инсоннинг ақлий тараққиёти муаммосига алоҳида, ўзига хос қараш, оригинал ёндашиш билан кириб келганлиги муҳим аҳамият касб этади. Олимни кўпроқ интеллектнинг психологик механизмларини очиш масаласи қизиқтиради ва бу соҳада етарли даражада юксак натижаларга эриша олган. Муаллиф интеллектни психологик механизмининг марказий таркибий қисми сифатида икки бир-бирига кириша олувчи муҳитларни келтирган, яъни интуитив ва мантиқий.

Брушлинский фикрича, ижод-бу ривожланишдир, ривожланиш эса доим ўтмиш чегараларидан, олдиндан белгиланган намунадан келиб чиқади. Олдиндан сезиш ва олдиндан айтиб беришни (диагноз, прогноз кабилар) тақозо этади.

Д. Богоявленская (1992)нинг назариясига биноан, интеллектуал фаолиятнинг учта даражаси мавжуд. Репродуктив, эвристик, креативлик. Унинг фикрича, интеллектуал ташаббус янги ғояларнинг туғилиши интеллектуал фаолликнинг ўлчови, мезони ҳисобланади. Интеллектуал фаоллик атамаси интеллектуал сустлик (пассивлик) нинг қарама-қарши кўриниши сифатида вужудга келади.

Н. Менчинская (1989)нинг қайд этишича, ахборотлар ижобий бўлиши ва қабул қилиниши, ёки аксинча, салбий бўлиши ва инкор этилиши мумкин. Ҳар икки ҳолатда ҳам биз ахборотларни қайта ишлашнинг маълум темпи билан боғлиқ ақлий фаолликни намоён этишимизга тўғри келади. Олинган ахборотлар, ундан фойдаланиш имконияти, натижаларга реал эришиш даражаси, барча баҳолаш тизимини намоён этишни таъминлайди. Бу эса инсонни ўзини ўзи англаш жараёнида ўзини ўзи ва ўз мавжудлигини тушунишига олиб келади.

Ўтган асрнинг 60–70 йилларида социал билиш ва шахснинг коммуникатив қобилиятларини ўрганишга доир изланишлар кенг кўламда амалга оширилди. Бу эса шахслилик хусусиятлари муаммосига этибор қаратишга ва шахслилик хусусиятларининг табиати ва таркиби тўғрисидаги илмий

тасаввурлар асосида уни ўрганишнинг илмий асосларининг яратилишига олиб келди.

Социал интеллектни ўлчашга мўлжалланган биринчи ишончли тестни яратган Ж.Гилфорд уни умумий интеллект омилидан мустасно бўлган ва энг аввало, хулқ-атворга оид бўлган ахборотларни тушуниши билан боғлиқ бўлган интеллектуал қобилиятлар тизими сифатида ўрганган.

Юқоридаги мулоҳазалар шахслилик хусусиятларини қуйидаги таркибий қисмларга бўлиб ўрганишни тақозо этади.

–Ўзгарувчан ижтимоий шароитларда адекватликни ва мослашувчанликни таъминлаши;

–тактик ва стратегик йўналишларда ўзаро муваффақиятли мутаносиблик дастурлари ва режаларининг шаклланиши, жорий масалаларни ҳал қилиш;

–шахслараро муносабатлардаги воқеликни режалаштириш ва уларнинг ривожланишини прогноз қилиш;

–ижтимоий рақобатбардошликни кенгайтириш.

Дж.Гилфорднинг шахслилик хусусиятлари муаммосини ўрганишдаги улушини кўпроқ методик муаммоларга қаратилганлиги билан изоҳлаш ўринлидир. У шахслилик хусусиятларини ўрганиш асосида ўзининг шахсий интеллект концепциясини яратишга муяссар бўлди. Олим социал интеллект муаммосига умумий интеллект омилига боғлиқ бўлмаган хулқий ахборотларни билиш қобилияти тизими сифатида қарайди [1]. Социал интеллектнинг бу тарзда тушунилиши Дж.Гилфорднинг интеллект структураси умумий моделидан келиб чиқади [1;2;]. Ғояларнинг кейинги тараққиёти борасидаги янги тушунчалар шахслараро муносабат соҳасидаги масалаларни ечишга ёрдам берувчи малакаларни ўзида мужассамлаштирган «социал интеллект» тушунчаси мазмунига қўшимча тарзда «креатив социал интеллект» тушунчасини ажратиб кўрсатди. Демак, Дж.Гилфорд таклиф этган методикалар ёрдамида социал интеллектга нафақат мустақил феномен сифатида, балки, унинг билиш ва хулқий жабҳаларини ўрганиш билан боғлиқ ижтимоий-психологик жиҳатларига ҳам муҳим эътиборни қаратиш мумкин.

Демак, юқоридаги таҳлиллар натижасига таяниб, социал интеллектнинг илмий адабиётларда ёритилиши бўйича қуйидаги умумий хулосаларни келтирмоқчимиз:

1. Барча илмий адабиётларда социал интеллект муаммосига умумий ёндашув тенденцияси амалга оширилган бўлиб, унда шахснинг ижтимоий – психологик табиатидан келиб чиқувчи ўзига хос илмий мушоҳадалар тадқиқ қилинган.

2. Умуман, интеллект муаммосини таҳлил қилишда, хорижда, асосан, унинг феноменологик, генетик ҳамда регуляцион жиҳатлари нуқтаи назардан ёндашувлар тадқиқи намоён этилган бўлса, Россия ҳамда бошқа МДХ мамлакатларида эса интеллектнинг социо-маданий жиҳатлари, шахс ижтимоийлашуви билан боғлиқ имкониятлари ҳамда унинг таълимни

ривожлантиришдаги табиати нуқтаи назардан тадқиқ қилиш амалиётини кузатиш мумкин.

3. Умумий ҳолатда барча тадқиқотчилар фикри, илмий талқинлар ва ғоялари социал интеллектнинг муайян таркибий қисмларини (жумладан, ҳар қандай шароитда инсоннинг адекват ва ноадекват мослашуви, шахслараро муносабатларидаги когнитив, хулқий, эмоционал жиҳатлар мутаносиблиги, турли даражалардаги умумий социал алоқадорликнинг мавжудлиги, социал интеллектда шахс типларининг ўзаро адекват ва ноадекват таъсирчанлигининг намоён этилиши алоҳида изоҳлашга қаратилганлигини яққол кўриш мумкин.

4. Социал интеллектнинг талқин қилинишида унинг касбий компетентлик шаклланишида ҳам алоҳида ўрни борлиги ҳақида илмий тадқиқотлар олиб бориш лозимлиги қайд этилади. Зеро, социал интеллект касбий камолот маҳсули сифатида ҳам алоҳида илмий тадқиқотлар объектига айлантирилганлигини ва бу жараёнда маълум хулосалар қилинганлигини ҳам алоҳида таъкидлаш мумкин.

Юқоридаги барча мулоҳазалар шахслилик хусусиятларига ижтимоий психологик муаммо сифатида қарашни ва уни бугунги кунда касбий фаолият доирасида (айниқса, педагог ходимлари касбий фаолияти) янада чуқурроқ, мукамалроқ таҳлил қилиш учун ўзига хос эмпирик маълумотларга асосланган ҳам назарий, ҳам амалий жиҳатдан илмий ойдинликлар киритиш зарурлигини тақозо этади. Шундан келиб чиқиб, кейинги параграфда шахслилик хусусиятларини касбий фаолият доирасида тадқиқ қилинишига алоҳида эътибор қаратилади.

#### ***Фойдаланилган адабиётлар***

1. Guilford G. Isolation and prescription of occupational stereotypes of occupy// Psychologist. – 1967, vol. 41, №1, – pp.57-67.
2. Thorndike R. L. Factor analysis of social and abstract intelligence// Journal of Educational Psychology. – England: 1936, № 4. – pp. 124-128.
3. Thurstone L.L. Primary mental abilities /Psychometric monographs. – Chicago. University of Chicago Press, 1938, – 278 p.
4. Allport G.W. Personality: A Psychological Interpretation. – NY.: Holt, 1937, – 657 p.

## **TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MA'NAVYI-MA'RIFIY ISHLARNING O'RNI**

***Boboyev B.,***

***IIV Sirdaryo akademik litseyi o'qituvchisi***

XX asr – texnologiyalar asri. Shu boisdan pedagogik faoliyatda texnologiyalarni qo'llash, ulardan samarali foydalanish o'z-o'zidan davr talabiga aylanmoqda. O'quv jarayonini samarali tashkil etish uchun har bir dars rejasini puxta ishlab chiqish kerak. Davr talabidan kelib chiqadigan bo'lsak, darsning tashkiliy qismida nima ish qilinadi, yangi mavzu bayonida qanday metodni

qo'llash mumkin, mustahkamlash bosqichida qaysi texnologiyalardan foydalanish samarali bo'ladi, uy vazifasini qanday tartibda so'rasak yaxshi bo'ladi, baholash tizimini qanday yo'lga qo'yish mumkin, uyga vazifani qanday tartibda bersak hamma o'quvchilar tayyorlab kelishadi kabi savollarga javob topish zarur. O'qituvchilar ma'lum bir metodni bilishsa ham uni qo'llashga qo'rqishadi. Samara berish yoki bermasligini sinab ko'rishmaydi. Biz hozir bu metod bunday ishlatiladi, bunisi boshqacha ishlatiladi deyishimiz noto'g'ri, albatta. Ta'lim jarayoniga tadbiiq etilgan (professor R. J. Ishmuhammedovning fikricha) 785 ta metod va texnologiyalar mavjud bo'lsa, ularning ishlatilishi, kelib chiqishi va ma'no mazmuni haqida ma'lumotlar yetarli.

Olimlar biror narsa haqida fikr bildirishdan oldin, uzoq tajriba va kuzatishlar olib boradi. Pedagogika sohasi falsafaning tarkibida bo'lgan davrlardan tortib to bugungacha bo'lgan vaqt oralig'ida muntazam mukammallashib, to'ldirilib, o'ziga xoslanib kelindi. O'tmishdagi vaqtlar oralig'ida ro'y bergan turli o'zgarishlar va davrlarning ta'sirida bu soha yanada tavlendi. Bir vaqtlar quldorlar uchun xizmat qilgan pedagogika davlar osha jamiyat a'zolariga ta'lim va tarbiya berish uchun yo'naltirildi. Qaysi davrni olmaylik ilm fanni rivojlantirishga o'z xissasini qo'shish uchun xizmat qilgan bu soha bugun xam har doimgidek o'rin egallamoqda. Binobarin, har bir millat o'zini va o'zligini ko'rsatish uchun ilm-fanga bo'lgan munosabatini ko'rsatishga harakat qiladi.

O'qituvchi shaxsi bu ildam davr muhitini hisobga olgan holda o'z ustida olib boradigan izlanishlarini o'quvchi yoshlarga yetkazib berishi lozim. Bunda hayotiy tajriba muhum ahamiyat kasb etadi. Izlanishlardan to'plangan ma'lumotlar bazasini amaliyotga tadbiiq qilish ham ta'lim va tarbiya samaradorligini kafolatlaydi. O'qituvchi, avvalambor, o'qitishni o'rgatmog'i, uning o'qitish texnikasining boyligi, qiziqтира olish mahorati bilan bir qatorda, so'zlash san'ati, notiqlik madaniyati, ta'sir eta olish ko'nikmalariga ham ega bo'lishi maqsadlidir. Uning bu mahorati tufayli o'quvchi yoshlar kitob o'qish texnikasini egallashlari ko'zda tutilgan. Kitob o'qish va o'qitishni yaxshi bilgan ustoz o'quvchilarga yoqimlidir. Yoqimli inson bilan esa suhbatlashging keladi, baxs munozara yuritging keladi. Suhbatdoshning yoqimli bo'lishi uchun ham u istagan narsada suhbat qurish, yoki aksincha uning yoqimli suhbatini siz izlayotgan ma'lumotga burish maqsadga muvofiq. O'qituvchi ana shunday kasb egalari, ular oldin o'zlariga o'quvchilarni yoqimlantiradi, keyin suhbatiga chorlaydi. Natijada esa bolada yaxshi suhbatdosh yoki yaxshi o'qituvchi fazilatini uyg'otadi. Bu esa bilim berishda ancha qo'l keladi.

Kitob o'qishni va suhbatlashishni egallagan o'quvchida esa yozishga bo'lgan ehtiyoj ko'payadi. Bunda o'quvchining dastlabki holati, kerakli ma'lumotlarni yozib olish bilan belgilanadi. Kerakli ma'lumotlarni qoralab borish asnosida konspektlashtirish ko'nikmasi shakllanib boradi. O'quvchilarning yozma savodxonligi ularni sabr-qanoatli qilib tarbiyalaydi. Yuqorida keltirilgan Suqrotning fikrlarini tasdiqlagan holda aytish mumkinki,

bu fikrni o'qituvchiga nisbatan ham, umuman olganda, insoniyatga nisbatan ham qo'llah mumkin.

Ta'lim jarayonida sifatga erishishning turli yo'llari hali ham izlonmoqda. Bugungi kunda pedagogok texnologiyalar va turli xil metodlarni qo'llash yaxshi samara beradi. Biroq komyuter vositalaridan foydalanish ham ancha natijali hisoblanadi. Ammo shunisini ham hisobga olish kerakki, texnologiya va metodlarni ishlatish san'ati va qo'llash darajasi ham yuqori bo'lishi lozim. Aksariyat hollarda ko'rinib turgan natija sustkashlik bo'lmoqda.

O'qituvchi yutuqqa erishishi uchun ko'plab turli metodlarni qo'llashi emas, balki shu metod orqali o'quv jarayoniga yangilik olib kirish va shu yangiliklar bilan o'quvchilarni qurollantirish lozim.

O'z ustida ishlashi lozim bo'lgan o'qituvchi o'qishdan to'xtab qolishi mumkin, lekin ta'lim-tarbiya jarayonini tashlab ketmaydi. Bu esa o'quvchi yoshlarni bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini so'ndiradi. Qani endi, o'z ustida ishlamaydigan o'qituvchilarni bu tizimdan chetlashtirib, o'rniga ilmga chanqoq, izlanuvchan o'qituvchilarni qabul qilsak. Bunda qdars jarayonlarini noananaviy tarzda tashkil etib, quyidagi namunalarni qo'llashni tavsiya etamiz:

**O'qitish texnologiyalarida amalga oshiriladigan ayrim noana'naviy dars shakllari namunalari:**

**Matbuot konferentsiyasi darsi** – dars mavzusini savol-javoblar orqali o'zlashtirish mashqi.

**Quvnoqlar, zukkolar klubi darsi** – qiziqarli savollar va ularga javoblar topish orqali mustaqil fikrlashni o'rgatish mashqi.

**Guruhlarda ishlash darsi**-o'quvchilarning bir nechta guruhlarga bo'linib vazifalar bajarishini tashkil etish orqali bilimlarni mustahkamlash mashqi.

**O'zaro o'qitish darsi**-o'quvchilarning dars mazmuni bo'yicha matnning ayrim bandlari yoki shunga o'xshash kichik bo'laklarini bir-birlariga tushuntirishlarini tashkil etish orqali mavzuni o'zlashtirish darsi.

**O'quvchilar olib boradigan dars** - dars mavzusini o'quvchilar tomonidan tushuntirib berilishini tashkil etish orqali o'quvchilar faolligini oshirish mashqi.

**Tanlov darsi** - sinfdagi o'quvchilarning bir yoki bir nechta mavzu bo'yicha oldindan tayyorgarlik ko'rgan holdagi tanlovini tashkil etish, g'oliblarni aniqlash darsi.

**Juftlikda ishlash (binar) dars** – o'quvchilarning juft bo'lib, dars mavzusini birgalikda o'zlashtirishi yoki bir-birining bilimlarini mustahkamlashi darsi. Bunda zarur bo'lganda juftliklar dars davomida turlicha o'zgartirilishi mumkin.

**Dialog darsi** - o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish va o'z fikrlarini bayon etish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida dars mavzusini o'quvchilar bilan dialoglar tashkil etish orqali tushuntirish va mustahkamlash mashqlaridan iborat.

**“Aylana bo'ylab mashq” darsi**- o'quvchilarning ishtiroki asosida navbatma-navbat yangi mavzuni o'zlashtirish yoki o'tilgan darsni takrorlab, mustahkamlash mashqlaridan iborat.



**Innovatsiyalar darsi** - o'quv fani sohasidagi yoki maktab hayotiga tegishli yangiliklarni joriy qilish, shuningdek, o'quvchilarning ijodiy faoliyatlari natijalarini amalda qo'llash bo'yicha taklif va loyihalar bilan tanishtirish darsi bo'lib, o'quvchilarning bilimlarini oshirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'qituvchi tomonidan amalga oshirilgan noan'anaviy darslar ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi, o'qituvchi kompetentligini oshiradi. O'quvchilar qiziqishini uyg'otadi, yangicha fikrlashni shakllantiradi. Darslar juda qiziqarli bo'ladi, kutilgan natijalarni kafolatlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Avliyakov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar. T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008.
2. Turdiyev N va boshqalar. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. (I qism). T., 2015, 160 b.
3. Ishmuhammedov R, Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. T., 2016.
4. Ro'ziyeva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.

### **РОССИЯ И УЗБЕКИСТАН - ТРАДИЦИИ И СОВРЕМЕННОСТЬ В МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ**

*Бахронов Д.Д.,*

*Хужамов М.Е.,*

*Старшие преподаватели Университет науки технологий  
(USAT) г. Ташкент*

**Аннотация:** В статье освещены конкретные аспекты культуры наших народов, их развитие, культурные связи между Россией и Узбекистаном, деятельность национальных центров, развитие науки, взаимное сотрудничество с высшими учебными заведениями, практическая работа по изучению русского языка, вопросы культурного развития с научной и теоретической точки зрения.

**Ключевые слова:** Современность, культура, культурный аспект, духовность, межкультурная коммуникация, традиция, язык, образования, русский язык, конфессия, страна, сотрудничество.

В современном многостороннем процессе расширения и укрепления сотрудничества между народами культурный аспект приобретает новое возрастающее значение. Углубление духовного общения, взаимосвязь их культур, улучшение обмена информацией являются необходимыми предпосылками упрочения сотрудничества между народами различных стран, создания атмосферы доверия и взаимопонимания.

Взаимодействие национальных культур выступает как существенный фактор их собственного расцвета, усиления и в них общечеловеческого

начала. Каждая из активно взаимодействующих культурных систем переливает в этом случае подъём. Взаимодействие делает культурно-исторический процесс единым, но не единообразным, либо каждая отдельная культурная целостность благодаря взаимодействию становится более богатой, более конкретной, причём оно отнюдь не ведёт к исчезновению самобытности, но напротив, делает её более содержательной, более развитой.

На протяжении всей мировой истории действует закономерность, согласно которой заимствования повышают внутренний потенциал культур служат одним из основных источников их обогащения и совершенствования одним из важнейших факторов их прогресса. Поэтому судьба культуры каждого народа зависит от того диалога, который она ведёт с миром, человеком иной культуры.

Межкультурная коммуникация - это связь и общение между представителями различных культур, что предполагает как непосредственные контакты между людьми и их общностями, так и опосредованные формы коммуникации (в том числе язык, речь, письменность, электронную коммуникации). Определение межкультурной коммуникации, данное проф. А.П. Садохин: «Культура состоит из идеалов, ценностей и представлений о жизни, присущих людям и определяющих их поведение. Культура воспитывается и усваивается с детства и передается из поколения в поколение».[1]

Культура каждого народа выступает как существенный фактор их собственного расцвета. В Узбекистане народ с незапамятных времен чтит свои ценности и традиции, например, сохранение природы, ее продуктивное использование, не растрата воды признаны величайшей ценностью. Каждого ребенка учат важнейшим аспектам ценить человека, уважать его и не причинять ему вреда. В жизни узбекской семьи национальные ценности передаются из поколения в поколение по наследству. Например, самым серьезным считается уважение к старшим, уважение к детям, уважение к матери, поднятие руки на отца и мать считается грех. В узбекской семье мать и отец несли личную ответственность за воспитание ребенка. Особое внимание матери уделяли образованию девочек в семье. Они старались стать более образованными. Развитие узбекской культуры тесно связано с развитием образования. Сегодня Нового Узбекистана стоит важная задача подготовка высокообразованных граждан, способных к активной деятельности в свободном обществе. Для развития образования в Узбекистане было принято указ Президента Республики Узбекистан от 6 ноября 2020 года «О мерах по развитию сфер образования и воспитания и науки в новый период развития Узбекистана».[2]. Обучения проводятся на 7 языках, более чем 10 языках издаются газеты и журналы.

Между языком и реальным миром стоит человек, именно он воспринимает и осмысливает реальный мир. По этому между реальным

миром и языком осуществляет мышления. Язык мышления и культура это практическое единое целое не могут функционировать друг без друга. Сегодня в республике создано 130 направлений деятельности вузов:

- государственные высшие учебные заведения – 96;
- негосударственные высшие учебные заведения – 9;
- зарубежные ОТМ и их филиалы – 25.

Высшее образование имеет две ступени – бакалавриат и магистратуру. Ташкентский финансовый институт и Ташкентский международный Вестминстерский университет являются наиболее рейтинговыми высшими учебными заведениями на местном уровне. Первый был создан в 1991 году по инициативе Первого Президента Узбекистана. Позже, в 2002 году, в Ташкенте в сотрудничестве с Вестминстерским университетом (Великобритания) и Фондом Президента Республики Узбекистан «Надежда» был создан Международный Вестминстерский университет. В настоящее время эти университеты признаны лучшими вузами в своей области образования как в Узбекистане, так и в странах Центральной Азии. В 2007 году Ассоциация банков Узбекистана совместно с Институтом развития менеджмента Сингапура учредила Сингапурский институт развития менеджмента в Ташкенте. В 2009 году в Ташкенте в сотрудничестве с Министерством высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан был создан Туринский политехнический университет. ТТПУ предлагает программы бакалавриата в области машиностроения и аэрокосмической техники, строительства и архитектуры, а также компьютерной инженерии. В Узбекистане также развивается система частного и предпринимательского высшего образования. В 2020 году решением Кабинета Министров Республики Узбекистан № 241 от 18 апреля 2020 года [3] создан Университет ТЕАМ как университет частного предпринимательства. Университет действует на основании лицензии, выданной Г Государственной инспекцией по надзору за качеством образования (лицензия №ОТ 0007), а дипломы, выдаваемые Университетом ТЕАМ, признаются как документы о высшем образовании в Республике Узбекистан в соответствии с ПКМ№241 и статьей 31 Закона об образовании. Сегодня Узбекистане осуществляет практическое сотрудничество с Россией в области развития образования. Узбекистан привлекают такие аспекты, как знания и высокий уровень профессиональной подготовки кадров, подготовленных в российской системе образования. В Ташкенте действуют филиалы ведущих высших учебных заведений такие как Российского экономического университета имени Плеханова, филиал Российского государственного университета нефти и газа имени Губкина, филиал Московского государственного университета имени Ломоносова в Ташкенте.

Развиваются культурные связи между двух государств. В мае 2023 года Узбекистан и Россия провели заседание подкомиссии по культуре. Участники обсудили итоги совместных событий, сотрудничество в сфере

кинопроизводства и планы проведения обменных мероприятий. В 2023 году благодаря проекту Российского фонда культуры Национальная библиотека Узбекистана получил комплект классической и современной литературы для детей, подростков и молодежи, в том числе произведения С.В.Михалкова.[4]

С 22 по 25 июня 2023 года в Санкт-Петербурге прошли Дни узбекского кино, организованные Роскино при поддержке Министерства культуры России. На бесплатных показах Российской аудитории представили пять картин. Наибольшее количество зрителей собрала военная драма «Узбечка». Кроме этого, прошли показы фильмов «Тенгиз», «Наследие», «Волшебная шапочка» и «Эволюция». В рамках мероприятия узбекские кинематографисты также посетили киностудии «Ленфильм» и «Лендок». Агентства кинематографии Республики Узбекистан планируется несколько совместных документальных фильмов со студией «Лендок». [5]

#### Литература:

1. Садохин А.П. Межкультурная коммуникация. Москва. Альфа М. ИНФРА. М. 2004
2. Указ Президента Республики Узбекистан от 6 ноября 2020 года № УП-6108 «О мерах по развитию сфер образования и воспитания, и науки в новый период развития Узбекистана» (с изменениями и дополнениями по состоянию на 02.12.2022 г.)
3. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан о создании университета ТЕАМ. Г.Ташкент, 18 апреля 2020 г.
4. UzDaily. Узбекистан и Россия провели заседание Подкомиссии по культуре. UzDaily.uz. 26 мая 2023.
5. На «Ленфильме» прошел обмен опытом российских и узбекских кинематографистов. «Ленфильм». 29 июня 2023 г.

## NAVOIY VILOYATIDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH DAVLAT SIYOSATI

*Shirinova F.I.,  
NavDPI katta o'qituvchisi*

Мaktabgacha ta'limni boshqarishning amaldagi tizimi mavjud muammolarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, mazkur sohani yanada rivojlantirish uchun innovatsion qarorlarni ishlab chiqish va joriy etish imkonini bermay qolgan edi. Navoiy viloyati xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limlarining maktabgacha ta'lim uslubchilari, "Mahalla" hayriya jamoat fondi va boshqa hamkor tashkilot va idoralar vakillari bilan birgalikda maktabgacha ta'limga qamrab olinmagan 5 – 7 yoshli farzandli oilalar ro'yxati shakllantirilib, bunday oilalarga kutubxonalar orqali qo'llanmalar bepul tarqatildi. Ota – onalar qo'llanmadan yil davomida foydalangan holda o'z farzandini maktabgacha ta'limga sifatli tayyorlashga kirishdilar. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning yoshi

va dunyoqarashiga mos ravishda chet tillar o'yin tarzida o'rgatildi. Bog'cha yoshidagi bolajonlar chet tilida bemalol sanashni, o'zini tanishtirish, hafta kunlari va yil fasllari kabi boshlang'ich bilimga ega bo'lishdi. Shu bilan birga ta'lim tizimida islohotlarda muammo va kamchiliklarga yo'l qo'yildi. "Birinchi vazifa — maktabgacha ta'lim sohasida, — deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev, — Ochiq tan olishimiz kerak, biz bu muhim sohadagi ishlarni e'tibordan chetda qoldirdik"<sup>1</sup>, deb ta'kidladi.

Darhaqiqat, o'tkazilgan tahlillar maktabgacha ta'lim sohasida olib borilgan ishlarning samarasi va natijasi yetarli darajada emasligini ko'rsatdi. Bu sohadagi eng katta va dolzarb muammolardan biri, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olinishida bo'ldi. Agar mustaqillikka erishmasdan oldingi vaqtga nazar tashlasak, respublikada 80 – yillarning o'rtalarida bolalarning 39 foizi maktabgacha tarbiya muassasalariga jalb etilgan. Shu ko'rsatgich yuzasidan O'zbekiston Respublikasi umumittifoq darajasidan ancha orqada qolgan edi. Mustaqillik yillarida, ya'ni, 1991-yilda respublika bo'yicha 1-6 yoshgacha bo'lgan bolalarni MTMLarga qamrab olish 35,1 foizdan 2016-yilga kelib 17,3 foizga tushib qoldi. Navoiy viloyatida 1991-yilda 40,8 foizdan, 2016-yilga kelib 13,9 foizga qisqarib ketdi. Faqat 2017-yilga kelib bu ko'rsatkich biroz ko'payib, 22,5 foizni tashkil qildi. 1991-yilda viloyatda 456 ta MTM faoliyat yuritgan bo'lsa, 2016-yilga kelib ularning soni 251 taga tushib qoldi. 2018-yil 1-yanvar holatiga ko'ra bu ko'rsatkich 253 tani tashkil qildi. Bunday bo'lishiga MTMLari moddiy-texnik bazasi mustahkamlanmaganligi, sohada ishlovchi pedagog tarbiyachilar bilim saviyasining pastligi va boshqa ko'plab muammolar sabab bo'ldi.

2016-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" PQ-2707-sonli qaror qabul qildi. Qaror asosida yosh bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalashning istiqbolli rejalari ishlab chiqildi. Ular Prezidentning 2017-yil 9-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli qarori bilan yanada aniqlashtirildi. Natijada, yuqorida ta'kidlanganidek, Navoiy viloyatida 3-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish darajasi 2016-yilda 13,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2017-yilda bu ko'rsatkich 22,5 foizga ko'paydi. Maktabgacha ta'lim tizimida 2017-yilda 107 ta maktabgacha ta'lim muassasasi rekonstruksiya qilindi va qurildi, 195 ta bog'cha kapital ta'mirlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabr "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida" gi PF – 5198 – sonli Farmonning<sup>2</sup> ijrosini ta'minlash maqsadida Navoiy viloyat xalq deputatlari Nurota tuman Kengashi, "Adolat"

<sup>1</sup> O'zbekiston Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni tubdan takomillashtirish tadbirlari to'g'risida"gi 5198-sonli Farmoni

SDP hamkorligidagi chora – tadbirlar belgilab olindi. Kengash qarorida quyidagilar bayon etilgan:

1. Maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;

2. Ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda, har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlangan bolalarni tarbiyalash uchun shart – sharoit yaratish;

3. Milliy, madaniy – tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalaikdan kitob o'qishga qiziqishni uyg'otuvchi o'quv – metodik, didaktik materiallar, o'yinchoqlar, badiiy adabiyotlar bilan maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'minlash;

4. Maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirish tizimini yaratish, hamda tajribali, puxta tayyorlangan pedagog – kadrlarni ta'lim jarayoniga jalb etish;

5. Maktabgacha ta'lim tizimini oliy ma'lumotli kadrlarga bo'lgan ehtiyojini huduiy jihatdan o'rganish;

6. Eng muhimi, 2017-yil tuman byudjetini “Ijtimoiy soha” uchun nazarda tutilgan parametrlar doirasida mablag'lar ajratilsin, 2018-yildan boshlab mablag'lar ajratib borish nazarda tutilsin, tasdiqlangan davlat smetasiga 2018-yil uchun o'zgartirishlar kiritilsin”<sup>1</sup>

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish mumkin, tumanda maktabgacha ta'lim muassasalari moddiy texnika bazasini shakllantirish, zarur bo'lgan jihozlar va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini xarid qilish, ularning ma'muriy binolarini ta'mirlash uchun viloyat maktabgacha ta'lim boshqarmasidan mablag'lar ajratishni amalga oshirish deyarli qoniqarsiz ekanligi aniqlangan.

Tabiiyki, maktabgacha ta'lim sohasi mutaxassisleri, ota – onalar haqidagi maslahat masalalari ushbu metodik jurnalda yoritib borilishi rejalashtirildi. Mutaxassislar qisqa muddatda tizimning ahvoli va faoliyatini yaxshilashning imkoniyatlarini tahlil qilib chiqib, dunyoning yetakchi rivojlangan davlatlari Yaponiya, Janubiy Koreya bilan hamkorlik aloqalarini boshladilar. Bunday ijobiy tajriba almashinuvlar metodik jurnal sahifalaridan o'rin olib bormoqda.

Navoiy viloyatida ham barcha maktabgacha ta'lim muassasalar faoliyati qayta tekshiruvdan o'tkazildi, ularda tarbiyalanayotgan bolalar va ishlayotgan tarbiyachilar tarkibi tahlil qilindi. Natijada maktablarning 6 yoshdan boshlab “0” sinflariga qabul qilingan qobiliyatli bolalarning soni sezilarli darajada ko'paydi. 2017-yil davomida shahar va tumanlarda mavjud davlat va xususiy bog'chalardan 14 tasi kapital va 52 tasi joriy ta'mirlandi. 2018-yilda esa viloyatda 100 ta davlat va xususiy maktabgacha ta'lim muassasasi ochilib, bolalarni bog'chalarga qamrab olish 33 foizga yetkazildi.

2016 – 2020 yil investitsiya dasturida 18,2 milliard so'mlik 6 ta 750 o'rinli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida qurilish – ta'mirlash ishlari belgilangan bo'lsada, ishlar 58 foizga bajarilgan. Shuningdek, “Obod mahalla” va “Obod

<sup>1</sup> Navoiy viloyat xalq deputatlari Nurota tuman Kengashi, “Adolat” SDP hisoboti. 2018 yil 28 aprel.

qishloq” dasturi doirasida jami 41,6 milliard so‘mlik 14 ta 2630 o‘rinli davlat maktabgacha ta’lim tashkilotida qurilish – ta’mirlesh ishlari olib borilmagani o‘rganilgan. Ularning 2 tasi yangidan qurilsa, 8 tasida rekonstruksiya, 4 tasida esa mukammal ta’mirlesh ishlari amalga oshirish rejalashtirilgandi. Bu reja keyingi yilning oxiridagina bajarilgan.

2020-yil yanvaridan boshlab “Ochiq byudjet” Portali orqali tanlovlar e’lon qilinib, yurtdoshlarimiz amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq emasliklarini ko‘rsatmoqda. Boshqa yo‘nalishlarda bo‘lgani kabi maktabgacha ta’lim muassasalari qurilishi va ta’mirleshida bir qator loyihalar aholining tashabbusi bilan g‘olib bo‘ldi. Ayni paytgacha viloyatda 6,5 milliard so‘mga 57 ta davlat MTT va 1 ta Navoiy pedagogika kollejining moddiy – texnika bazasi yanada mustahkamlandi. Hokimliklar tomonidan ajratilgan 5,1 milliard so‘mlik qo‘shimcha mablag‘lar evaziga esa 23 ta maktabgacha ta’lim tashkiloti qayta ta’mirlandi.

Ta’kidlash kerak, qisqa davrda ayniqsa qishloq tumanlarida salkam yo‘qolayozgan ushbu tizim butkul yangicha ko‘lamda ish boshladi. 2017-yilda Qiziltepa tumanida maktabgacha talim tashkilotlari soni bor yo‘g‘i 10 tani tashkil etgan edi. O‘sha vaqtda ularning quvvati 2070 o‘rinli bo‘lib, 3-7 yoshli bolalar soni 11 ming nafardan ziyodni tashkil etardi. Qamrov bor yo‘g‘i 16,3 foizni tashkil etadi. 2020-yilga kelib esa tizimda 35 ta davlat bog‘chalari, 7 ta davlat va xususiy sheriklikdagi tashkilotlar hamda 48 ta oilaviy bog‘chalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Yoshlarni ushbu muassalarga qamrab olish darajasi 55 foizga yetkazildi.

Yangi bog‘chalarni tashkil etish va bevosita qurishda tadbirkorlar ham tashabbus ko‘rsatayotgani alohida e’tiborga molik. Ana shunday tashabbuslar natijasi bo‘lgan bir qator maktabgacha ta’lim tashkilotlari bugungi kunda nafaqat tumanda, balki viloyatdagi eng namunali shart-sharoitlarga ega dargohlardan sanaladi.<sup>1</sup>

Konimex tumanida maktabgacha ta’lim bo‘limiga qarashli 5 ta maktabgacha ta’lim muassasasi mavjud. Tumandagi maktabgacha ta’lim muassasalarining 3 tasi (“Buldirshin”, “Oltin kalit”, “G‘uncha”) tuman markazida, 1 tasi (“Aqmaral”) Sho‘rko‘l hududida, 1 tasi (“Saltanat”) Uchtepa ovulida joylashgan. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida (filiallar bilan birgalikda) 619 nafar bolalar ta’lim-tarbiya olmoqda. Filial bog‘chalari ham bugungi kun zamon talablari darajasida jihozlangan bo‘lib, bolalarning ta’lim-tarbiya olishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. “Aqmaral” va “G‘uncha” maktabgacha ta’lim muassasalarida 2 ta “Qisqa muddatli” guruhlar tashkil etilgan. Ushbu maktabgacha ta’lim muassasalarida bo‘sh xonalar ta’mirlesh, “Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’limni takomillashtirish” loyihasi doirasida jihozlar bilan ta’minlangan.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Maqsudov R., Rajabov Q., Qiziltepa tumani kecha va bugun. – Toshkent. «Sahhof» nashriyoti, 2021. B.344.

<sup>2</sup> . Mustafoyev J. A. K 67 Konimex tumani: kecha va bugun [Matn]. / ilmiy-ommabop – Toshkent: «SAHHOF» nashriyoti, 2020. B.309-310.

Navbahor tumanida ham qisqa davr ichida mazkur sohada keng ko'lamli o'zgarishlar amalga oshirildi. 2017-yilda tuman maktabgacha ta'lim bo'limi tasarrufida 9 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti mavjud bo'lib, tarbiyalanuvchilar qamrovi 12,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda bog'chalar soni 50 tadan oshib, bolalarning qamrovi qariyb 70 foizga yetkazildi. 2018 yilda 10-sonli "Yulduzcha" hamda 11-onli "Nilufar" maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati yo'lga qo'yildi.<sup>1</sup> 2019-yilda esa 12-sonli "Nafosat", 13-sonli "Nastarin", 14-sonli "Oltin kalitcha" davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda 9 ta davlat xususiy sherikchilik asosidagi va oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari ish boshladi.<sup>2</sup>

Xatirchi tumanida 1990 – 1992 yillarda bog'chalar faoliyatiga e'tibor berilmagani bois, kelajagimiz egalari ta'lim oladigan ko'pgina binolar qoniqarsiz holatga kelib qolgandi. Biroq so'nggi 4-5 yil ichida amalga oshirilgan sa'y-harakatlar natijasida tuman maktabgacha ta'lim tizimi qayta oyoqqa turdi. Avvalo, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq shu yilning o'zida tumanda Maktabgacha ta'lim bo'limi tashkil etildi. 2017-yilda bo'linga qarashli 12 ta maktabgacha ta'lim tashkilotida 1015 nafar, qisqa muddatli guruhlarda 370 nafar, jami bo'lib 1385 nafar bola tarbiyalangan. Maktabgacha ta'lim muassasalarida 107 nafar pedagog xodim faoliyat yuritib, ulardan 24 nafari oliy, 83 nafari o'rta maxsus ma'lumotli pedagoglarni tashkil etgan.

Eng muhimi, eng chekka qishloqlarda ham zamonaviy bog'chalar qad rostlamoqda. Bu jarayonda tegishli davlat idoralari bilan birga tadbirkorlar ham faollik ko'rsatayapti. Qolaversa, maktabgacha ta'lim borasida yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonini to'g'ri anglagan ota-onalarning o'z farzandlarini bog'chada yuborishga qiziqishi ancha yuqori. Buning zamirida maktabgacha ta'limda mustahkam bilim zaxirasi bilan maktabga qadam qo'yayotgan bolajonlarning fanlarni o'zlashtirishi o'ta yuqoriligi ko'rinib turibdi. Demakki, boshlang'ich ilm zamini mustahkam bo'lgan avlod kelgusida ulkan marralarni zabt etadi.<sup>3</sup>

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni tubdan takomillashtirish tadbirlari to'g'risida"gi 5198-sonli Farmoni.

<sup>1</sup> Narzullayev U. .Navbahor tumani: kecha va bugun . ilmiy-ommabop /– Toshkent: "SAHHOF" nashriyoti, 2020. B.383.

<sup>3</sup> Qurbonov X. Xatirchi tumani: kecha va bugun. Maktabgacha ta'lim: shart-sharoitlar kechagidek emas/– Toshkent: "SAHHOF" nashriyoti, 2020. B.368.. (376 b).



2. Navoiy viloyat xalq deputatlari Nurota tuman Kengashi, "Adolat" SDP hisoboti. 2018 yil 28 aprel.
3. Maqsudov R., Rajabov Q., Qiziltepa tumani kecha va bugun. – Toshkent. «Sahhof» nashriyoti, 2021. B.344.
4. Mustafoyev J. A. K 67 Konimex tumani: kecha va bugun [Matn]. ilmiy-ommabop – Toshkent: «SAHHOF» nashriyoti, 2020. B.309-310.
5. Narzullayev U. Navbahor tumani: kecha va bugun. ilmiy-ommabop – Toshkent: "SAHHOF" nashriyoti, 2020. B.383.
6. Qurbonov X. Xatirchi tumani: kecha va bugun. Maktabgacha ta'lim: shart-sharoitlar kechagidek emas/– Toshkent: "SAHHOF" nashriyoti, 2020. B.368. (376 b).

**O‘ZBEKISTONDA AHOLI SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASH  
MAQSADIDA OLIB BORILAYOTGAN TUB ISLOHOTLAR  
SAMARASI (Navoiy viloyati misolida)**

*Xamrayeva S.I.,  
NavDPI katta o‘qituvchisi*

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida aholining sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yish maqsadida uni amalga oshirish uchun o‘n uchta asosiy vazifalar belgilab berildi va aytish mumkinki, aholining aksariyat qismi sog‘lom turmush tarziga amal qilgan holda yashashga harakat qilmoqda. Buning uchun qishloq va tumanlarda, mahallalarda zarur dasturlar ishlab chiqib aholiga amaliy yordam berilmoqda. Aynan Navoiy viloyatida ham sog‘lom turmush tarziga alohida e‘tibor qaratilib kelinmoqda. Dunyo bo‘ylab har yili aprel oyining oxirgi haftasida jahon immunizatsiya haftaligi o‘tkazilib kelinadi. Hozirgi paytda O‘zbekistonda ham bu tadbir keng nishonlanmoqda. Yurtimizda oldini olish mumkin bo‘lgan bolalarning 13 xil turdagi kasalliklarga (difteriya, ko‘k‘yo‘tal, qoqshol, sil, virusli gepatit B, poliomielit, qizamiq, qizilcha, epidemik parotid, rotavirus, pnevmokokk, gemofilus inflyuentza tip V (XIB infeksiyasi, bachadon bo‘yni saratoni)ga qarshi davlat hisobidan profilaktik emlanmoqda. 2023-yilning 24 – 30-aprel kunlari Milliy emlash kalendari asosida odam papilloma virusiga qarshi emlash o‘tkazildi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma‘lumotlariga ko‘ra, har yili dunyo bo‘yicha 528 000 nafar ayol bachadon bo‘yi saratoni kasalligi bilan kasallanib, ulardan 266000 nafari nobud bo‘lmoqda. Mamlakatimizda bu xastalik barcha yoshdagi ayollar o‘rtasida ko‘krak bezi saratonidan keyingi o‘rinni egallaydi. O‘lim ko‘rsatkichi bo‘yicha esa barcha yoshdagi ayollar o‘rtasida ko‘krak bezi va oshqozon bezi saratonidan keyin uchinchi va tug‘ish yoshidagi ayollar orasida esa ikkinchi pog‘onada qayd etiladi.

Kasallikning profilaktikasi 9 yoshdagi qizlarni papilloma virusiga qarshi emlash hisoblanadi.

Jahon immunizatsiya haftaligi doirasida davom etayotgan ushbu tadbirlarda 3138 ta emlash punktida tibbiyot xodimlarining tayyorgarligi oshirilib, rejaga

asosan 307064 nafar 9 yoshdagi qizlarni qamrab olish rejalashtirilgan<sup>1</sup>. Yuqumli kasalliklarga qarshi emlash uchun sarflanadigan mablag'lar to'liq davlat byudjeti hisobidan qoplanib, emlash qamrovi 99,5 foizga yetkazildi. Natijada, 2017-yil Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti tomonidan O'zbekiston qizamiq va qizilcha kasalliklaridan xoli hudud deb e'tirof etildi.<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan "Virusli gepatitning "B", "S" turlarini barvaqt aniqlash usulini bosqichma – bosqich amaliyotga joriy qilish, ushbu kasalliklarning asoratlari keltirib chiqarishining oldini olish va davolashda maxsus terapiyani o'tkazish to'g'risida"gi buyrug'i asosida "CDAF" fondi (AQSh) bilan hamkorlikda loyiha samarali amalga oshirildi<sup>3</sup>. Natijalarga qaralsa, 2000-yilda O'zbekistonda 57,8 ming, 2010-yilda 36,4 ming nafar kishi virusli gepatitga chalingan bo'lsa, 2020-yilda bu ko'rsatkich 11,5 mingtani tashkil etgan. Ko'rsatkichlarning ijobiy tomonga o'zgarishiga bolalarning o'z vaqtida A, B gepatitiga qarshi emlanayotgani, C gepatitiga qarshi samarali davo choralari ko'rilayotgani asosiy omil bo'lmoqda<sup>4</sup>.

Mamlakatda aholining salomatligini mustahkamlash doirasida AQSh, Rossiya, Xitoy, Germaniya, Hindiston, Turkiya, Janubiy Koreya va Isroil kabi tibbiyoti rivojlangan davlatlar bilan hamkorlikda 100 ga yaqin xususiy klinikalar ochildi. Farmon va qarorlar chiqarilib, sohaga shuncha imkoniyatlar yaratildi, dolzarb masalalar hal qilib berildi. Lekin sog'liqni saqlash tizimida kutilgan natijalar ko'rinmayapti. Ayniqsa, tumanlar, chekka qishloqlardagi aholi tibbiy xizmatdagi jiddiy va tub o'zgarishlarni o'z hayotida sezayotgani yo'q, dedi Shavkat Mirziyoyev.

2021–2023 yillarda xorijiy tajriba asosida bu sohada katta ishlar qilindi. Avvalo, tibbiyotga ajratilayotgan mablag'lar hajmi keskin oshirildi, shifoxonalar va tez tibbiy yordam punktlarini dori – darmon, tibbiyot buyumlari va tibbiy yordam mashinalari bilan ta'minlashga ajratilayotgan mablag'lar 12 barobar ko'paytirildi. Navoiy viloyatida 2021-yil 1-apreldan boshlab tibbiyot birlashmalari ixtiyorida bo'lgan tez tibbiy yordam mashinalari viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasiga qarashli avtokorxonaga jamlanib, ixtisoslashtirilgan avtotransport korxonasi tashkil etildi<sup>5</sup>. 2018-yilda 1 dona "Labo", 2 dona "Damas", 1 dona "Tayyotta", 1 dona "Lasetti", 2019-yilda 1 dona "Isizu" avtobusi, 23 dona "Damas"<sup>6</sup>, shuningdek, 2020 yilda 3 dona "Damas"<sup>6</sup> hamda 2021-yilning aprel oyida 2 dona "UAZ – Gazel"<sup>7</sup> maxsus jihozlangan tez yordam mashinalari olindi. Bugungi kunda Ixtisoslashtirilgan avtotransport korxonasida 37 turdagi turli markadagi maxsus jihozlangan, jami 133 ta (74 tasi

<sup>1</sup> Соғлиқни сақлаш вазирилик матбуот хизмати. <https://t.me/ssvmatbuotkotibi/11835> 2023 йил, 25 апрель.

<sup>2</sup> <https://yuz.uz/yurtimiz> aholisi – 13 turdagi -kasalliklarga-qarshi-rejali-emlanmoqda (7.05.2022 yil.)

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазириликнинг 24.05.2021 даги 110 – сонли буйруғи Манба: <file:///C:/Users/Next/Downloads/942862cc35317d0acda7bd35297271fc.pdf>

<sup>4</sup> Гаффоров Ш. Вирусели гепатит, унга қарши курашишда мамлакатимиз тиббиётида эришилаётган натижалар//Янги Ўзбекистонб 2022 йил 5 февраль. №26(548) – Б.5.

<sup>5</sup> Навоий вилоят соғлиқни сақлаш бошқармаси жорий архиви. 2019 йил, 2 – жилд, 21 – varaқ.

<sup>6</sup> Навоий вилоят соғлиқни сақлаш бошқармаси жорий архиви. 2020 йил, 2 – жилд, 28 – varaқ.

<sup>7</sup> Навоий вилоят соғлиқни сақлаш бошқармаси жорий архиви. 2020 йил, 2 – жилд, 26 – varaқ.

Tez yordam maxsus mashinalari bo'lsa, qolgan 59 tasi tibbiy xizmat) mashina mavjud<sup>1</sup>.

Birlamchi tibbiyot bo'g'inini yaxshilashga e'tibor qaratilib, har bir mahallada "xonadonbay" ishlaydigan tibbiy brigadalar tashkil etildi. Agar raqamlarga qaralsa, 2016-yilda 800 ta tez yordam stantsiyalari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 1666 taga yetdi. 2016-yilda 4 ta reanimobil bemorlarga xizmat qilgan bo'lsa, 2021-yilga kelib ularning soni 435 taga yetkazildi. Qilingan ishlar natijasida shoshilinch yordamning kechikishi o'rtacha 10 – 12 foizdan 1 – 2 foizga qisqarib, tez tibbiy brigadalarining yetib kelishi 25 – 30 minut, ba'zan, 8 – 12 minutga qisqardi. 2021-yildan boshlab, birlamchi bo'g'inda aholini 66 turdagi dori vositalari bilan bepul ta'minlash yo'lga qo'yildi. Birgina gemotologiya va onkologiya kasalliklari uchun dori vositalari va jihozlar uchun 2016-yilda 2,8 mlrd. so'm ajratilgan bo'lsa, 2021-yilda bu raqam 217,4 mlrd. so'm (78 barobar ko'p)ni tashkil qildi. Shundan Navoiy viloyati misolida ko'radigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 3-maydagi 355 – F sonli farmoyishi va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 2016-yil 5-maydagi 213 – sonli buyrug'iga asosan Xitoy granti asosida Respublika ixtisoslashtirilgan Onkologiya va Radiologiya ilmiy – amaliy tibbiyot markazi Navoiy viloyat filialiga jami 434633,7 so'mlik mablag' evaziga 1 dona Raqamli rentgenodiagnostik mammograf apparati, 1 dona mikroplanshetli IFA rider analizatori, gistologik tekshiruvlar uchun biologik mikroskop hamda mikroumumiy tom, tibbiyot muzlatkichi bilan ta'minlandi. Islom taraqqiyot banki tomonidan grant asosida umumiy qiymati 1 milliard 359 million 992 ming so'm bo'lgan multispiral kompyuter tomograf, yuqori chastotali elektroxirurgik kalkulyator hamda duodenofibraskop jamlanmalaridan iborat apparaturalar keltirildi.

Ushbu filialga 2017-yil MSKT (multisrezov'y kompyutern'y tomograf) va 2019-yil distantsion gamma nur terapiya apparati "Gerabal't – 80" olib kelindi. Chexiya davlati mutaxassislari tomonidan nur apparati o'rnatilib, ishga tushirilgani bois Navoiy viloyati aholisining Toshkent, Samarqand, Buxoro va boshqa joylarga borib murojaat qilishlariga imkon qolmadi. Aholiga sifatli tibbiy yordamni kengaytirish maqsadida birlamchi tizimga 20 mingta o'rta tabbiyot xodimlari qo'shildi. 6 ta yangi tibbiyot oliygohi tashkil etilib, ularning soni 14 taga yetdi, qabul kvotasi esa 4 barobarga oshdi.

Prezident "Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonini imzoladi. Hujjatga ko'ra, 2021/2022 o'quv yilidan boshlab mavjud ehtiyojdan kelib chiqib Qarshi davlat universiteti, Jizzax davlat pedagogika instituti, Navoiy davlat pedagogika instituti va Guliston davlat universitetida tibbiyot fakultetlari tashkil qilindi. Shuningdek, ularda va boshqa

<sup>1</sup> Расулов З. Навоий вилояти тиббиёти. Кеча ва бугун. – Тошкент. "SAHHOF". 2021. Б. 39.

tibbiy oliy ta'lim muassasalarida yetakchi xorijiy tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlari bilan qo'shma dasturlari asosida o'qitish tizimi joriy qilinishi belgilangan.<sup>1</sup> Navoiy viloyatida ham kadrlar siyosatiga talab katta bo'lganligi sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga ko'ra Navoiy davlat pedagogika instituti tarkibida 2021–2022 o'quv yilidan boshlab Tibbiyot fakultetining ochilishi viloyat yoshlari uchun nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'lgan voqea bo'ldi.

Xullas, tibbiy ta'lim tizimini isloh qilish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Nufuzli xorijiy ta'lim muassasalari filiallarini ochish, oliy o'quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot institutlari va ixtisoslashgan tibbiyot markazlari o'rtasida integratsiyani kuchaytirish masalalari bo'yicha ham samarali ishlar olib borildi.

## **2016 – 2022 YILLARDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA QAMROV DARAJASI: MUAMMO VA YANGILANISH**

*Shirinova F.I.,  
NavDPI katta o'qituvchisi*

Navoiy viloyati Maktabgacha ta'lim tizimidagi mavjud muammolar yetarli bo'lib, ularni bartaraf etish yo'llari doimiy ravishda o'rganib kelingan. Viloyatdagi jami 22 ta (Qiziltepa tumanida 7 ta, Xatirchi tumanida 6 ta, Navbaxor tumanida 6 ta, Uchquduq tumanida 4 ta, Konimex tumanida 4 ta, Tomdi tumanida 3 ta va Nurota tumanida 2 ta) maktabgacha ta'lim muassasalarining binolari rekonstruksiya qilishga muhtoj hisoblangan. Viloyatdagi 20 ta (Xatirchi tumanida 6 ta, Qiziltepa tumanida 6 ta, Navbahor tumanida 5 ta va Uchquduq tumanida 3 ta) maktabgacha ta'lim muassasalarining atrofi o'ralmagan. Viloyatdagi jami 32 ta (Qiziltepa tumanida 7 ta, Xatirchi tumanida 6 ta, Navbaxor tumanida 6 ta, Uchquduq tumanida 4 ta, Konimex tumanida 4 ta, Tomdi tumanida 3 ta va Nurota tumanida 2 ta) maktabgacha ta'lim muassasalariga 2018 – 2020 yil davomida ichimlik suvi tashib keltirilishi rejalashtirilgan. Viloyatdagi jami 14 ta (Xatirchi tumanida 4 ta, Qiziltepa tumanida 3 ta, Uchquduq tumanida 2 ta, Nurota 2 ta, Navbaxor tumanida 1 ta, Konimex tumanida 1 ta va Tomdi tumanida 1 ta) maktabgacha ta'lim muassasalari issiqlik tizimi pech bilan isitilishi bois ko'plab noqulayliklar tug'dirib kelgan. Viloyat maktabgacha ta'limi tizimida faoliyat yuritayotgan 2788 nafar pedagog xodimlarning 1606 nafari (57,6 foiz) o'rta maxsus ma'lumotli bo'lganligi uchun Maktabgacha ta'lim muassasalarini 1606 nafar oliy ma'lumotli malakali mutaxassis kadrlar bilan ta'minlashga ehtiyoj mavjudligi ham zamon talablaridan kelib chiqqan holda zamonaviy muammo sanaladi. Shuni inobatga olib, Navoiy davlat pedagogika instituti qoshida tashkil etilgan maxsus sirtqi bo'limlariga qabul kvotalari sonini oshirish masalasini hal

<sup>1</sup> [4ta OTMda tibbiyot fakultetlari ochiladi https:\(kun.uz\)](https://kun.uz) 79451096?ysclid=1h0nplkxx2297692907. 12.11.2020.

etish zarurligi, nomutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash kurslaridan o'tkazish masalasi bir necha marta ko'rib chiqilgan.<sup>1</sup>

Echimi o'rganilib, Navoiy viloyati hokimligi tuman hokimliklari "Adolat" partiyasi faollari yig'ilishida, shuningdek, boshqa mas'ullar bilan birgalikda ushbu 22 ta maktabgacha ta'lim muassasalarining binolarini rekonstruksiya qilish bo'yicha 2018 – 2021 yillarga mo'ljallangan dastur ishlab chiqish va bu ishlarni bosqichma – bosqich amalga oshirish rejalashtirilgan.

2018 – 2020 yillar davomida yuqorida muammolari keltirilgan jihatlar uchun Investitsiya dasturi doirasida jami 40 ta, "Obod kishloq", "Obod mahalla", "Obod markaz" dasturlari doirasida jami 53 ta va boshqa mahalliy dasturlar doirasida esa jami 4 ta, shuningdek, jami 540 ta nodavlat (xususiy 10 ta, DXSHA 69 ta, oilaviy 461 ta) MTTlarini yangidan qurilishi, rekonstruksiya qilinishi (qo'shimcha bloklar qurilishi) va mukammal ta'mirlanishi hamda boshqa mavjud foydalanilmagan imkoniyatlarni amalga oshirilishi natijasida, so'ngi uch yil ichida viloyatda davlat MTTlari soni **89** taga va nodavlat MTTlari soni esa **540** taga ko'paydi.

Shuningdek, viloyatda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnika, bazasini mustahkamlash uchun xarajatlar smetasida nazarda tutilgan mablag'lardan tashqari, hokimliklar tomonidan 2018 – 2020 yillarda mahalliy byudjetdan qo'shimcha qariyib **100.0 mlrd** so'mga yaqin mablag' ajratilib, yil oxirida viloyatdagi jami **746 ta** MTTlarining 204 tasi davlat, 12 tasi xususiy, 69 tasini yirik davlat – xususiy sheriklik asosidagi va 461 tasini esa oilaviy MTTlari (qamrovda nodavlatni ulushi 30.2 foiz) *tashkil etgan.*<sup>2</sup>

2019-yilda viloyat bo'yicha jami 516 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyat yuritib, shundan 182 tasi davlat (35.3 foiz), 16 tasi (3,1foiz) tashkilot (NKMK DK)ga qarashli, 318 tasi (61,6 foiz) nodavlat (ularning 15 tasi xususiy, 52 tasi davlat – xususiy sheriklik asosida va 251 tasi oilaviy bog'chalarni tashkil etadi. Jami maktabgacha yoshdagi (3-7 yoshli) bolalar soni 76737 nafarni tashkil etib, hozirda ularning 47328 nafari (61,7 foiz) maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingan. Viloyatda 2005-yildan to 2018-yilga qadar muammo bo'lib kelayotgan narsa qamrovning pastligi, maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarini aksariyat ma'lumoti o'rta maxsuslik darajasini saqlanib qolayotganidir.

2020-yilning birinchi choragidan boshlab, mavjud davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moddiy – texnika bazasini mustahkamlash va kuz – qish mavsumini barqaror o'tkazish hamda qamrovni oshirish maqsadida, mahalliy byudjetdan xarajatlar smetasida nazarda tutilgan mablag'lardan tashqari qo'shimcha yana jami 50,0 mlrd so'mdan ortiq mablag' ajratilib, 100 ga yaqin maktabgacha ta'lim tashkilotlariga kerakli bo'lgan mebel va jihozlar, bolalar o'ynashi uchun atraksionlar olib berilib, issiqlik tizimlari va qozonlari yangilanishiga erishiladi, shuningdek, yangi maktabgacha ta'lim tashkilotlari qurilib, mavjudlari rekonstruksiya qilinadi va mukammal ta'mirlanadi.

<sup>1</sup> Navoiy viloyati maktabgacha ta'lim muassasalari boshqarmasi joriy arxivi, 2020 yil hisoboti.

<sup>2</sup> . Navoiy viloyati maktabgacha ta'lim muassasalari boshqarmasi joriy arxivi, 2019 yil hisoboti.

2019-yilda yangidan 39 ta davlat, 1 ta tashkilotga qarashli, 11 ta xususiy, 47 ta davlat – xususiy sheriklik asosida va 251 ta oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari tashkil etilgan. “Obod qishloq”, “Obod mahalla”, “Obod markaz” va boshqa mahalliy dasturlar doirasida jami 46 ta (shundan 15 ta yangi, 23 ta rekonstruksiya, 8 ta mukammal ta'mirlash) davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilib, ularga jami 107,2 mlrd so'm mablag' sarflangan.

Ushbu ishlarni amalga oshirilishi natijasida bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichi 2018-yildagi 41.8 foiz yoki 29314 nafardan 2019-yilda 61.7 foiz yoki 47328 nafar (19.9 foiz)ga o'sgan.

Viloyatda bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi Respublika bo'yicha Toshkent shahridan keyin 2 – o'rinda. Ammo shu o'rinda ta'kidlash joiz, Navbahor (41,5 foiz), Xatirchi (44,8 foiz),<sup>1</sup> Nurota (47,6 foiz) va Tomdi (48,4 foiz) tumanlarida bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi boshqa hududlarga nisbatan pastligi jiddiy muammo sanaladi. Viloyatda 54 ta (Navoiy shahri 25 ta, Karmana 11 ta, Qiziltepa 6 ta, Xatirchi 5 ta, Konimex 2 ta, Nurota 3 ta, Navbahor 1 ta, Zarafshon 1 ta) maktabgacha ta'lim tashkilotlarining binolari ta'mirtalab holda, 37 ta (Uchquduq 6 ta, Nurota 4ta, Konimex 2ta, Xatirchi 6ta, Navbahor 6 ta, Qiziltepa 10 ta, Tomdi 3 ta) maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ichimlik suvi tashib keltiriladi (markazlashtirilgan ichimlik suvi tarmog'iga ulanmagan).

Viloyat maktabgacha ta'lim boshqarmasi va uning 8 ta (Zarafshon, Karmana, Qiziltepa, Navbahor, Nurota, Xatirchi, Uchquduq, Tomdi) hududiy bo'limlari o'z balansidagi ma'muriy binolariga ega emas. Hududdagi davlat maktabgacha ta'lim tizimida 3337 nafar pedagog xodimlar faoliyat ko'rsatib, ularning 2185 nafari yoki 65.5 foizi, xususan Tomdi 90.0 foiz, Konimex 78.5 foiz, Nurota 76.3 foiz, Uchquduq 75.0 foiz tumanlarida va Navoiy shahrida 70.4 foiz o'rta maxsus ma'lumotli kadrlarni tashkil etganini hisobga olib, Xatirchi (12.1 foiz) va Navbahor (22.3 foiz) tumanlarida bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrov darajasi pastligi hamda aholining murojaatlarini inobatga olib, Xatirchi tumanida 2 ta 235 o'rinli, Navbahor tumanida 1 ta 160 o'rinli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini 2020 yil Investitsiya dasturiga kiritish hisobiga qurilishini tashkil etish taklifini bildirishgan. Shuningdek, Navoiy viloyati hokimligi, Moliya vazirligi, Maktabgacha ta'lim vaziri, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi tomonidan Xatirchi tumanidagi 4 va 10-sonli, Karmana tumanidagi 14-sonli, Nurota tumanidagi 8-sonli hamda Konimex tumani “Ko'kcha” MFY hududidagi 43-sondi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini rekonstruksiya qilinishi masalalari 2022-yil investitsiya dasturiga kiritilishini ta'minlash ko'rib chiqilgan.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Qurbonov X. Xatirchi tumani: kecha va bugun. Maktabgacha ta'lim: shart-sharoitlar kechagidek emas/– Toshkent: “SAHHOF” nashriyoti, 2020. B.368.. (376 b).

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Навоий вилоят Статистика бошқармаси. 2019 йил ҳисоботи.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, viloyatda imkoniyati cheklangan bolalar uchun ham barcha sharoitlar yaratilmoqda. Jumladan, olis va cho'l hududlari uchun Zarafshon shahrida "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ tomonidan homiylik asosida qariyb 30 milliard so'mlik 72 o'rinli imkoniyati cheklangan bolalar uchun barcha sharoitlarga, xususan, reabilitatsiya markaziga ega bo'lgan ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti qurilib, vazirlik tasarrufiga o'tkazib berildi va davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti sifatida faoliyati yo'lga qo'yildi. Ayni paytda 60 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ovqatlantirish autsorsing<sup>1</sup> usulida tashkil etilgan bo'lsa, 115 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari ijro.gov.uz tizimiga ulandi va 27 tasida tizimga ulash ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, 120 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari e-huquqshunos tizimi ulangan.

## NAVOIY VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR DINAMIKASI: TARIXIY TAHLIL

*Xamrayeva S.I.,  
NavDPI katta o'qituvchisi*

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligi yillarida boshqa sohaslar kabi sog'liqni saqlash tizimi sohasida ham katta yutuqlarga erishib kelmoqda. Sog'liqni saqlash tizimi faoliyatining tashkiliy masalasida Navoiy viloyatida ham bir qancha ko'zga ko'rinarli ijobiy natijalar qo'lga kiritilmoqda. Ma'lumki, sog'liqni saqlash tizimining ta'minoti sohasida O'zbekiston davlat ahamiyatiga ega bo'lgan tibbiyot mustaqilligiga erishish va uni saqlab qolishga alohida e'tibor qaratmoqda. Buni soha rivoji uchun qabul qilinayotgan juda ko'plab farmon, qonun va qarorlardan ham bilish mumkin. Shu jihatlarni olib qaraganda, ushbu bobning asosiy g'oyasini Navoiy viloyati sog'liqni saqlash tizimidagi yuksak o'zgarishlar, amalga oshirilgan islohotlar jarayonlarida tizim faoliyatining erishgan yutuqlari, muammo va kamchiliklar va ularning oldini olish uchun olib borilgan ishlar tashkil etadi.

Mazkur tadqiqotda tarixiy tahlil, qiyosiy taqqoslash, xronologik ketma – ketlik tamoyillari asosida Navoiy viloyati statistika boshqarmasi, davlat arxivi materiallari yordamida hamda qabul qilingan davlat dasturlari asosida Navoiy viloyatida bajarilgan vazifalar, xalqaro hamkorlik dasturlari doirasida sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilgan islohotlarning o'rganilishi natijasida olingan ma'lumotlar asosida aholi salomatligini tiklash, ayniqsa, viloyatning olis hududlarida bu boradagi e'tibor va sohaning moddiy – texnik bazasini mustahkamlash, onalik va bolalikni himoya qilish maqsadida olib borilgan vazifalar hamda o'zgarishlar bayon etiladi.

Tarixga nazar tashlansa, 2000 – 2001 – yillardan boshlab mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimidagi kamchiliklarni tuzatish, mavjud muammolarning

<sup>1</sup> **Autorsing** – ing. (outsourcing-out - tashqi, source - manba xizmat ko'rsatish funksiyasining bir qismini boshqa bajaruvchi tashkilotga berish.

oldini olish maqsadida qator ishlar amalga oshirildi. Birgina qishloq vrachlik punkt (QVP)larining faoliyatini rivojlantirish orqali o'sha davrda tibbiyot sohasida yuqori natija va o'zgarishlarga erishish mumkinligi ayon edi. Navoiy viloyatida ham QVPlar faoliyatini takomillashtirish islohotlar zahirida bo'lgan asosiy vazifalardan biri bo'ldi. Bu boradagi ishlarni sifatli va samarali tashkil etish va davlat dasturining bajarilishini nazorat qilish har doim davlatimizning diqqat markazida bo'ldi. Navoiy viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i A.Nosirovning 2001-yil 15-iyunda "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligining bir guruh mutaxassislarini kutib olish, joylashtirish va ish jarayonini tashkil qilish to'g'risida"gi №188 – sonli buyrug'i chiqarildi. Unda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligi tomonidan viloyatda faoliyat ko'rsatib turgan 62 ta vrachlik punkt (QVP)larining aholiga ko'rsatayotgan tibbiy yordamini yanada yaxshilash maqsadida bir guruh mutaxassislarni viloyatga 2001-yil 19-iyundan xizmat safariga yuborilishi, ularni kutib olish, mehmonxonalariga joylashtirish, ovqatlanish va ish jarayonidan unumli foydalanishni tashkil etish bo'yicha vazifalar mas'ullarga yuklatilishi to'g'risidagi masalalar aks etgan. Mazkur buyruqda belgilab berilishicha, vazirlik tomonidan yo'llangan ishchi guruhi viloyat tumanlarida quyidagi guruhlariga bo'lingan holda faoliyat olib borgan va QVPlar faoliyatining oshishiga, aholi salomatligi uchun olib borilayotgan ishlar ko'lamining rivojiga o'z hissasini qo'shgan. Buyruqqa binoan "Viloyat hududida joylashgan 62 ta QVP 4 guruhga bo'lingan."

I. "Birinchi guruhga – Yangi Zarafshon (Abay, Daugiztau, Muruntau) QVPlari, Tomdi va Uchquduq tumani QVPlari kiritilsin. Jami 7 ta QVP. Ushbu guruhga Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari Z.U.Sharipov qo'shilsin.

Ikkinchi guruhga – Qiziltepa tumanida 16 ta QVP, Navoiy tumanida 8 ta QVP. Jami 24 ta QVP. Ushbu guruhga viloyatda "Salomatlik" loyihasini hayotga tadbiiq etish byurosi direktori J.A. Abdulqodirov qo'shilsin.

Uchinchi guruhga – Nurota tumanida 7 ta QVP, Navbahor tumanida 6 ta QVP, Konimex tumanida 4 ta QVP, jami 17 ta QVP. Guruhga Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi terapevti N.Shodiev qo'shilsin.

To'rtinchi guruhga – Xatirchi tumani 14 ta QVP, ushbu guruhga Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari Yu.A.Avezov qo'shilsin".

II. "Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi yonidagi avtobaza direktori R.Sadikovga:

- har qaysi guruhga bittadan avtomashina va yetarli miqdorda yoqilg'i ajratilishi topshirilsin.

III. Tuman markaziy shifoxonasi bosh vrachlariga:

-borgan mutaxassislarni mehmonxonalariga joylashtirish, ovqatlanishlariga sharoit yaratib berish topshirilsin.

IV. Tuman sanitariya – epidemiologiya stantsiyalari (SES) bosh vrachlariga:



-mehmonlar yashaydigan mehmonxonalarining, ovqatlanadigan oshxonalarining sanitariya tozaligini tashkil qilish va qattiq nazorat qilish topshirilsin”.

Ushbu yillarda QVP shifokolarining sonini oshirilishiga ham katta e'tibor qaratildi. Respublika bo'yicha 1996 – 2005 yillarda QVP vrachlari soni 25 foizga ko'paydi. Ular orasida umumiy amaliyot shifokorlari (UASh) hissasi 2 marta 2002-yildagi 4,6 foizdan 2010-yilda 9,7 foizga ortdi. 1996 – 2001 yillarda Ona va bola sog'lig'ini muhofaza qilish va yaxshilashga qaratilgan e'tiborga loyiq ishlar amalga oshirildi. Butun Respublika bo'ylab Ona va bola sog'lig'ini yaxshilashda turli xalqaro, “XOUP”, davlat va nodavlat tashkilotlar, “Sog'lom avlod uchun” va boshqa tashkilotlar bilan birga bir qancha ishlar amalga oshirildi. Bunday chora – tadbirlarni muvofiqlashtirish va ularning samaradorligiga erishish uchun va sog'liqni saqlash vazirligining 2001-yil 9-apreldagi 146 – sonli buyrug'ini bajarish maqsadida Navoiy viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i A.Nosirovning 2001-yil 20-aprelda №107 – sonli buyrug'i chiqdi. Ushbu buyruqqa asosan:

1.Xalqaro hukumat va nodavlat tashkilotlar ishtirokida Ona va bola sog'ligini yaxshilashda qilinayotgan ishlarni muvofiqlashtiruvchi guruh tuzish;

2.Xalqaro hukumat va nodavlat tashkilotlar tomonidan Ona va bola sog'ligini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni muvofiqlashtiruvchi guruh a'zolariga:

3.xalqaro, hukumat va nodavlat tashkilotlar tomonidan Ona va bola sog'ligini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarga faol qatnashish va ishlarning natijasi samarali bo'lishi uchun zarur shart – sharoitlar yaratilsin.

4.Buyruqni bajarilish nazorati VSSB boshlig'ining o'rinbosari T.Ya.Ravshanovaga yuklatilsin”<sup>1</sup>.

Mazkur yo'nalish doirasida “VSSB ning 2001-yil 26-aprel №117 – sonli buyrug'iga asosan 2001-yil 1 – 3-may kunlari Qiziltepa tuman markaziy shifoxonasida “Ona suti bilan oziqlantirish” mavzusida XOUP tashkiloti bilan hamkorlikda seminar o'tkazildi. Buyruqqa asosan seminarni o'tkazish uchun Qiziltepa tuman markaziy shifoxonasi bosh vrachi O.Jumayev barcha shart – sharoitlarni yaratib berdi va seminarga akusher – ginekologlar, doya, hamshiralarning ilovaga muvofiq ishtiroki ta'minlandi<sup>2</sup>.

Navoiy viloyatida onalar va chaqaloqlar salomatligini himoya qilishda tug'ruq jarohatlarining oldini olish asosiy jihatlardan hisoblanadi. VSSBning 2001-yil 13-iyundagi №182<sup>3</sup> – sonli buyrug'iga binoan tug'ruq jarohatlarining oldini olish va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirining 2001-yil 16-apreldagi 157-sonli buyrug'ining bajarilishini ta'minlash maqsadida “Viloyat bolalar shifoxonasi Respublika shoshilinch tez yordam ilmiy markazi (RSHTYOIM) Navoiy filiali tug'ruq komplekslari, shahar va tumanlar markaziy shifoxonalari vrachlariga viloyat davolash profilaktika muassasalarida tug'ruq

<sup>1</sup>Навоий вилояти давлат архиви. 297 – Фонд. 1 – Рўйхат. 12 – жилд. 25 – varaқ.

<sup>2</sup>Навоий вилояти давлат архиви. 297 – Фонд. 1 – Рўйхат. 12 – жилд.. 154 – varaқ.

<sup>3</sup>Навоий вилояти давлат архиви. 297 – Фонд. 1 – Рўйхат. 12 – жилд.. 28 – varaқ.

jarayonlari profilaktikasiga e'tibor kuchaytirilishini, Sog'liqni saqlash vazirligining 2001-yil 16-apreldagi 157 – sonli buyrug'i yo'llanma va ijro uchun qabul qilinishi ta'kidlangan. Bundan tashqari joylarda sodir bo'layotgan tug'ruq jarohatlari va ular natijasida sodir bo'layotgan o'lim holatlari chuqur o'rganilib, ularning oldini olish chora – tadbirlarining belgilanishi to'g'risida, shuningdek, SSVning 2001-yil 16-apreldagi 157–sonli buyrug'i ilovalarida ko'rsatilgan tug'ruq jarohati, ularni oldini olish va davolashdagi uslubiy qo'llanmalar davolash – profilaktika muassasalarida amaliyotga tadbiriq etilishi uchun amaliy uslubiy yordam ko'rsatish belgilab berildi. Bundan tashqari tug'ruqning asoratsiz o'tishini ta'minlash, akusherlik amaliyotlarida zamonaviy og'riqsizlantirish usullarini qo'llash bo'yicha chora – tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Navoiy viloyati anesteziologlarining Toshkent shahar akusherlik va ginekologiya ilmiy tekshirish institutida malakasini oshirishga yuborish bo'yicha VSSBning 2001-yil 13-iyunda №181–sonli buyrug'i chiqarildi. Ushbu buyruqning 1 – ilovasiga muvofiq:

1. Qiziltepa tuman markaziy shifoxonasi anesteziologi – Bozorov Rustam. 20-iyundan 4-iyulgacha.
2. Navbahor tuman markaziy shifoxonasi anesteziologi – Yovqochev Alisher. 5-iyuldan 20-iyulgacha.
3. Xatirchi tuman markaziy shifoxonasi anesteziologi – Pirnazarov Olim. 20-iyuldan 4-avgustgacha.
4. Navoiy tuman markaziy shifoxonasi anesteziologi – Rizaev G'ayrat. 5-avgustdan 20-avgustgacha.
5. Konimex tuman markaziy shifoxonasi anesteziologi – Isabekov Beket. 4-avgusdan 19-avgustgacha.
6. RSHTYOIM anesteziologi – Bozorov Fayzullo. 21-avgusdan 4-sentyabrgacha<sup>1</sup>.

Xullas, aytish mumkinki, viloyatda sog'liqni saqlash tizimidagi o'zgarishlar dinamikasi, xususan, moddiy – texnik bazaning yuksalib borishi, kadrlar siyosatining amalga oshirilishi, QVPlar faoliyatining mustahkamlab borilishi, tug'ruq jarayonlarining asoratsiz o'tishini ta'minlash, onalar va bolalar o'limini oldini olish, ularning salomatligi va ijtimoiy himoyasi yo'lida olib borilgan chora – tadbilar, sarflangan mablag'lar o'z natijalarini berdi.

## **O'ZBEKISTONDA MA'NAVIY ISLOHOTLAR TIZIMIDA BURHONIDDIN MARG'INONIY ILMIY MEROSINING O'RNI**

*Ergasheva H.S.,  
NavDPI mustaqil tadqiqotchisi*

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'naviy islohotlar zamirida buyuk allomalarimiz ilmiy merosini o'rganish va ularning progressiv g'oyalarini jamiyat hayotiga targ'ib qilish muhim vazifaga aylanmoqda.

<sup>1</sup> Навоий вилояти давлат архиви. 297 – Фонд. 1 – Рўйхат. 12 – жилд. 34 – варақ.

Jumladan, IX-XII asrlarda ijod qilgan mutafakkir allomlarning asarlari va ularning adolat, tenglik, mehr-shavqat, tinchlik, go'zallik kabi axloqiy tushunchalari jamiyat taraqqiyotini asosi bo'lib xizmat qiladi. Bu kabi axloqiy va huquqiy tushunchalarni nazariy va amaliy jihatdan davlat va jamiyat hayotiga tadbiq qilish natijasida insonlar o'rtasida vujudga keladigan ijtimoiy, huquqiy, axloqiy muammolarning yechimi buyuk mutafakkir allomalarimiz asarlarida o'z tasdig'ini topgan. Sharqning eng yetuk huquqshunoslaridan biri Burhoniddin Marg'inoniy XII asrdayoq o'zining "Hidoya"<sup>1</sup> asarida har bir insonning haq-huquqini saqlash zarurligi to'g'risidagi g'oyalarning ahamiyati bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. ".....bugungi kunda Islom dinining ma'naviy axloqiy va diniy huquqiy meroslari nafaqat ahli din orasida, balki dunyoviy ilm sohiblari, keng miqyosdagi ahli jamoa orasida ham o'z qadrini topayotir".<sup>2</sup> Bu esa, Islom diyorida mashhur bo'lgan yurtdoshlarimizdan biri – fiqh ilmi, ya'ni islom huquqshunosligi ilmining eng yetuk vakillaridan biri sifatida e'tirof etilgan "Burhoniddin val-milla" (ya'ni, islom olami xalqlari va islom dinining hujjati, dalili, isboti degani) nomi bilan mashhur bo'lgan buyuk faqih Burhonuddin Abu al-Hasan Ali ibn Abu Bakr ibn Abd al-Jalil ibn Al-Xalil ibn Abu Bakr Al-Farg'oniy, Al-Marg'iloniy, Al-Rishtoniy<sup>3</sup>dir. O'rta asrlarda "Ilm daraxtining asosi Makadda-yu, ammo hosili Xurosonda pishadur" degan naql XIII-XV asrlarda mashhur bo'lgan edi. Binobarin, Movarounnahr diyorida jumladan, Farg'ona vodiysidan yetishib chiqqan va ushbu diyorda kamol topgan allomalar islom diyoringing yetuk vakillariga aylanganliklari barchamizga ma'lum. Allomaning tavallud sanalari xususida ixtiloflar bor. Ko'pgina manbalarda ul Zotning tug'ilgan kunlari umuman qayd etilmaydi. Abu Tohirxo'ja Samarqandiyning "Samaruya" nomli kitobida mavlono Burhoniddin Marg'inoniy hijriy 515- yilning 12-rajab oyida shanba kuni (milodiy 1123- yil 23-sentyabrda) tavallud topgan deb ma'lumot beriladi. Vaholanki, "Hidoya"ning qadimiy qo'lyozma nusxalaridan birida allomaning tug'ilgan kunlari 511- hijriy deb ko'rsatilgan. Abdulhay al-Laknaviy al-Hindiy (1304h) Hidoyaning muqaddimasida uch rivoyat keltiradi. Avval 535-hijriy sanada Samarqandda vafot qilgan deydi. So'ngra, Abdulhay al-Laknaviy o'z bobolaridan naql qilingan rivoyatda 511 hijriy sanada (yuqorida zikr qilingan) tug'ilib, 593-hijriy sanada 14-zulhijjada, chorshanba kechasi vafot qilgan deydi. "Kashf az-Zunun"<sup>4</sup> mana shunday rivoyat qilingan", deb bu rivoyatni quvvatlaydi. So'ngra yana bir rivoyatda 596-hijriy sanada vafot qilgan deyiladi<sup>5</sup>. Shunga asosan 2000 - yil 19-yanvardagi Vazirlar Mahkamasining 17-sonli qarori asosida alloma

<sup>1</sup> Sh. Mirziyoyev. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". T., "O'zbekiston", 2021 y.14 b.

<sup>2</sup> 2000 yil 19- yanvardagi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan Burhoniddin Marg'inoniy tavalludining 910 yilligiga bag'ishlangan 17-son qarori.

<sup>3</sup> Абдулхай Ал-Лакнавий Ал-Хиндий. Мукаддима ал-Хидоя. Карачи: "Идора ал-Куръон ва ал-улум ал-исломия". 1417 х.– Б.11.

<sup>4</sup> Бу китобнинг муаллифи Ҳожи Ҳалифа номи билан машхур бўлган Мустафо ибн Абдуллоҳ ал-Қистатиний, ар-Румий, ар-Ҳанафий.(-1067х). Китобнинг тўлиқ номи "Кашф аз-Зунун аън асоми алкутуб вал фунун". У китоб 15 000 китоб, 9 500 муаллиф ва 300 фан ҳақида маълумотларни ўзи жамлайди.

<sup>5</sup> Абдулхай Ал-Лакнавий Ал-Хиндий. Мукаддима ал-Хидоя. Карачи: Идора ал-Куръон ва ал-улум ал-исломия. 1417 х.– Б.12.

tavalludlarining hijriy 910-yilligi nishonlandi. Bu hisobga ko'ra, Burhoniddin Marg'inoniy tavalludlari 511-hijriy yilga to'g'ri keladi.

Alloma ijodi o'ziga uslublarga ega edi. Burhoniddin Marg'inoniy o'zining asarlaridagi ijtimoiy qarashlaridagi fikrlarini birinchi shaxs lafzida izhor etmaganliklari o'zining manfaatidan o'zgalar manfaatini ustun qo'yishga ishoradir. Buning sababini ayrim tarixchilar "alloma hatto o'zining qalbiga manmanlik tuyg'usi bir lahza bo'lsada oralab qolish ehtimoli xavfidan cho'chib shunday qilar ekan"<sup>1</sup> degan ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin. Burhoniddin Marg'inoniy asarlarida o'zlarining fikrlarini ifoda etsalar "U zaif qul (Alloh uni kechirsin) dedi" shaklida bayon etganlar. Jumladan, allomaning bayon uslublaridan yana biri o'z fikri va dalilin o'zgalar fikridan keyingi o'rinlarda keltirishdir. Biron bir huquqiy masalaga yechim topishda turli nuqtai nazarlar oldin bayon qilinib, keyin esa, hanafiya mazhabida tanlangan fikrlar keltirilgan. Bundan tashqari hanafiya mashabi doirasidagi faqihlarning zaifroq dalillari ham oldin keltirilib, kuchlisi keyinga qoldiriladi. Shu tariqa keltirilgan dalillarning eng so'ngi o'rinlarda keltirilgani eng to'g'risi hisoblanadi va bu masalaning javobi bo'lib qoladi.

Dalil sifatida Qur'oni Karim oyatlaridan keltirilgan misollar o'tsa, bu misollarga ishora qilishda "Tilovat qilganimizdek" iborasi ishlatilgan. Bu bilan Qur'oni Karimga alohida hurmat namoyon qilingan va o'tgan boshqa dalillarga ishora qilishda "Yuqorida zikr qilganimizdek, bayon qilganimizdek shaklida ta'bir qilish uslubi qo'llanilgan.

Burhoniddin Marg'inoniy buyuk alloma darajasiga yetishishiga quyidagi ijtimoiy – ma'naviy omillar sabab bo'lgan:

**Birinchi**dan, u yuksak iste'dod, o'tkir intellektual salohiyat egasi va diniy, huquqiy bilimlar shaydosi edi. Allomaning bilim olishga ishtiyoqi uni o'z davrining yetakchi ilmiy markazlar sari uzoq safarlarga yo'l olishi, o'sha davr ilmlarining egallashga imkon yaratdi. Natijada diniy va huquqiy ilmlarni Imom Bahouddin Ali ibn Muhammad ibn Ismoil al-Asbijobiy, Abdulaziz Marg'inoniy, Faxruddin Abulmafoxir Hasan ibn Mansur O'zgandiy (Qozixon fatovosi), Najmuddin Abuhafs Muhammad ibn Ahmad an-Nasafiy (Al-Aqoid un-nasafiya), As-Sadrush-shahid Hisomuddin Umar ibn Abdulaziz ibn Umar Ibn Moza, Abu Amr Usmon ibn Ali al-Baykandiy kabi ustozlaridan ilm sirlarini o'rgandi. Ba'zi manbalarga ko'ra Burhoniddin Marg'inoniy o'z ustozlaridan ko'ra yuqori natijalarga erishgan edi.

**Ikkinchi**dan, alloma yashagan davr IX-XII asrlar Sharq Uyg'onish davrining birinchi bosqichiga to'g'ri kelishi, ya'ni Movarounnahrda jamiyat ma'naviy barqaror taraqqiyoti uchun hayotiy ehtiyoj tug'ilgan bir davrga to'g'ri keladi. Burhoniddin Marg'inoniy tomonidan yozilgan asarlar o'z davri uchun insonlar o'rtasidagi munosabatlar, jamiyatdagi muammolarni yechimi sifatida xizmat qilgan.

<sup>1</sup> Кориєв О. "Ал-Марғиноний машхур фикхшунос".Т.: "Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти", 26,6

**Uchinchi**dan, Burhoniddin Margʻinoniy hanafiy mazhabi asosida huquqiy ilmlarning qunt bilan oʻrganishi uning mashhur fiqh ilmi sohibi sifatida kamolotga yetishida asosiy omil boʻldi. Jumladan, uning asarlari fiqh amaliyotida asosiy qoʻllanmalardan biri sifatida ham, ilmu-toliblarni oʻqitishda foydalaniladi.

Yuqorida taʼkidlangan omillar Burhoniddin Margʻinoniyning oʻz ustida tinimsiz izlanishi, Islom huquqi falsafasining mazmun-mohiyatini anglab olishi, jamiyatdagi muammolarga ilmiy yechim topish uchun munosib sharoit yaratib berdi.

Burhoniddin al-Margʻinoniyning asarlari oʻzining soddaligi va ravonligi bilan, bayon qilish uslubi, ortiqcha soʻzlar ishlatilmagan-moʻjazligi, misollardagi maftunkorligi, mantiqi bilan oʻquvchini keltirilgan ilmiy, huquqiy, diniy dalillariga ishoniradi. Ayniqsa alloma asarlarining huquqiy qiymati shundaki, uning oʻz fikrlarini turli dalillar vositasida qurʼon, hadis, sahobalar asari, toʻrt mazhab imomlari ijtihoatlari, oʻzlaridan oldingi buyuk faqihlar fatvolari, hamda aqliy-mantiqiy dalillar bilan isbotlab, mustahkamlagan. Bu hozirgi davr huquqshunoslariga, umuman oʻtmish tariximizga qiziquvchi barcha tadqiqotchilarga maʼnaviy ruh va kuch bagʻishlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh. “Yangi Oʻzbekiston strategiyasi”. T., “Oʻzbekiston”, 2021 y. 14 b.
2. Абдулхай Ал-Лакнавий Ал-Хиндий. Муқаддима ал-Хидоя. Карачи: “Идора ал-Қуръон ва ал-улум ал-исломия”. 1417 х.– Б.11.
3. Қориев О. “Ал-Марғиноний машхур фикҳшунос”. Т.: “Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти”, 26,б

### **TARIX FANLARINI OʻQITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA ULARNING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

*Ibragimova M.,*

*Nurota tumani 57- umumiy oʻrta taʼlim maktabi oʻqituvchisi*

**Annotatsiya:** maqolada tarix fanini oʻqitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning dars samaradorligiga erishishning oʻziga xos xususiyatlari bayon qilingan.

**Kalit soʻzlar:** metod, usul, hikoya, maʼruza, suhbat, anaʼnaviy, noanaʼnaviy, illyustratsiya metodi, laboratoriya, mashq.

Yurtimizda amalga oshirilgan islohotlar tufayli barcha, jumladan, ijtimoiy - iqtisodiy sohalarda, shuningdek, taʼlim tizimida ham keskin oʻzgarishlar yuz bermoqda. Xususan, bugungi kunda xorijiy davlatlarda samarali qoʻllanilayotgan “Keys-study”, “Loyiha”, hamkorlikda oʻqitish texnologiyalari, “T-sxema”, “Blits-soʻrov” va boshqa interfaol usullar haqida maʼlumot, hamda ularni dars jarayoniga tatbiq etish mexanizmini yoritib berishga harakat qilinmoqda. Shu vaqtgacha anʼnaviy taʼlimda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egalashga oʻrgatib kelingan edi. Bunday usul talabalarda mustaqil

fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so'ndirar edi. Endi o'quv jarayonini yangilangan dastur va standart talablariga javob beradigan zamonaviy darslar asosida tashkil etish davri keldi. Boshqacha qilib aytganda zerikarli darslar o'rniga zamonaviy darslarni tashkil etishga ma'suliyat bilan yondashadigan, kasbiy bilimdon, metodik mahoratga ega, ma'suliyatli, interfaol pedagogik texnologiyani mukammal o'zlashtirib olgan, innovatsiyalar asosida ta'limni tashkil eta oladigan o'qituvchilarga talab oshib bormoqda. Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari-interfaol uslublari, innovatsion texnologiyalarning o'rnini va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularni ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba talabalarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

**Metod** - yunoncha "metodos" so'zidan olingan bo'lib, izlanish, bilish yo'li, nazariya, ta'limot, biror narsaga yo'l ma'nosini anglatadi. Aniq vazifani echishga bo'ysundirilgan, borliqni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish yo'llarining yig'indisidir. Shuningdek, maqsadga erishishning aniq, qisqa va maqbul yo'li hisoblanadi. Metod-tarixiy tadqiqotlar jarayonida aniq maqsadga olib boruvchi usullar va jarayonlar yig'indisidan iborat. O'qitish metodi esa ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning ma'lum maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyat usullari yoki ta'limda maqsadga erishish, masalalarni hal qilish yo'llari, usullari tushuniladi. O'qitish metodi tarkibida usullar alohida ajralib turadi.

**Usul** – metodning tarkibiy qismi, metodni amalga oshirishda bir martagina qo'llaniladigan va alohida qadam hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, o'qitish metodlari har ikkala faoliyatning, ya'ni o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ahloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish hamda o'quvchilar tomonidan o'sha nazarda tutilgan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish faoliyatida ko'llaniladigan usullarni o'z ichiga oladi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda o'qitish metodlariga katta ahamiyat beriladi. Didaktika bilan shug'ullanuvchilar metodni o'quv jarayonining o'zagi, ko'zlangan maqsad va pirovard natijani bog'lovchi vosita deb izohlaydilar.

**O'qitish metodi "o'qitishning maqsadi – mazmuni, metodi, shakli, usullari" tizimida muhim o'rin egallaydi.** O'qitish metodi – murakkab, ko'p qirrali, ko'p sifatlarga ega bo'lgan ta'limdir. O'qitish metodida o'qitishning ob'ektiv qonuniyatlari, maqsadlari, mazmuni, tamoyillari, shakllari o'z aksini topadi. Metodlar boshqa didaktik kategoriyalarga dialektik bog'liq va biri boshqalarini taqozo qiladi, ya'ni o'qitishning maqsadi, mazmuni, shakli hosilasi sifatida metodlar didaktik kategoriyalarga aks ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim metodlari o'quv tarbiya jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, ularsiz ta'lim maqsadi, vazifalarini amalga oshirish, o'quv materiallarimazmunini o'zlashtirish mumkin emas. Ta'lim metodi vositasida o'qituvchi va o'quvchining faoliyati o'zaro muvofiqlashadi. Ta'lim metodi - o'qituvchi va o'quvchilarning ma'lumot mazmuniga yo'naltirilgan faoliyatni tartibga solish yo'lidir.

Ayrim adabiyotlarda pedagoglar tomonidan metod bilan usul tushunchalarini chalkash ishlatish holatlari mavjud. O'qitish metodlarini muvaffaqiyatli amalga oshishi albatta usullarning mahorat bilan qo'llanilishiga bog'liq. Aksariyat pedagoglar metod tushunchasini usul deb tarjima qilib o'zlarini va tadqiqotchilarni ham chalg'itadilar. Bizningcha metod tushunchasini tarjima qilish kerak emas. Ta'limda metodlar tizimidan keng foydalanilgan taqdirdagina ta'lim-tarbiya ishlari sohasida natijarga erishish mumkin. G.Fuzailovning "Tarix o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanmasida an'anaviy metodlar umumlashtirilib to'rtga ajratilib, ularning usullari ko'rsatilgan.

*Ta'lim metodlari tizimi deb, eng muhim umumiy belgilari bilan o'zaro bog'langan, bir-biriga ta'sir ko'rsatadigan metodlar guruhiga aytiladi.* Bu metodlarning umumiy muhim belgilari - o'qitish va o'rganish usullari hamda o'qituvchi va o'quvchilarning tafakkur faoliyatidan iboratdir.

O'qitish metodlari usullari va o'quvchilar tafakkur faoliyatining turli shakllari o'rtasidagi o'zaro aloqa va ularning bir-biriga ko'rsatadigan ta'siri asosida bir tizimdagi metodlarning o'zaro bog'liqligi yuzaga keladi. Ta'lim tizimi tajribasida ko'rsatmali o'qitish deyarli hech qachon o'qituvchining bayonisiz qo'llanilmaydi, o'qituvchining bayoni ham doim ko'rsatmali vositalarga suyanadi. O'quvchilarning texnika vositalari, matnlar va boshqalar ustidagi amaliy faoliyati ta'limning ko'rsatmali va og'zaki usullari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

## **O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXINI O'RGANISHNING SIYOSIY VA IJTIMOIIY, ILMIY VA AMALIY AHAMIYATI**

*To'ydanova D.,*

*Qaxxorova S.,*

*Uchquduq tumani 18- umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi*

**Annotasiya:** maqolada O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganishning metodologik asoslari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, eng yangi tarix, ilmiy-nazariy metodologiya, siyosat, ijtimoiy, ilmiy, amaliy, mustaqillik, iqtisodiyot, taraqqiyot, integratsiya, jarayon, manbaviy asos, qiyoslash, taqqoslash.

Mustaqillik yillari ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning tezkorligi, voqea va hodisalarning shiddatliligi, olam-u odam taqdiriga daxldor bo'lgan dunyoviy muammolar-u serqirra hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan umumiy qarashlarimizdan tortib, eng kichik, eng shaxsiy yumushlarimizgacha bo'lgan barcha hodisalarni o'zida mujassam etadi.

Tabiiyki, bunday yalpi yangilanishlar jarayoni ijtimoiy-gumanitar fanlar qatorida tarix fani oldiga ham yangi vazifalar qo'yadi. Tadqiqotchilar birinchi navbatda xalqimizning mustaqillikka erishish yo'lidagi asrlar osha olib borgan tinimsiz kurashini, uni qo'lga kiritish yo'llari va vositalarini, milliy davlatchilik qurilishiga doir tajribani, mustaqillikni mustahkamlashning siyosiy, iqtisodiy,

ijtimoiy va ma'naviy omillarini o'rganish va milliy g'oyani yaratish kabi bir qator muhim muammolarni har tomonlama mushohada qilmoqlari lozim. Darhaqiqat, tarix xotirasi inson taraqqiyotiga kuchli ta'sir o'tkazadi, milliy g'oyaning shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Milliy ong, milliy tafakkur xalq tarixi, uning rivojlanish bosqichlarini nechog'li o'rganish, undan saboq chiqarish bilan bog'liq. Ulug' allomalar aytganidek, tarix insonni istiqbolga da'vat etadi, ulkan yaratuvchilikni rag'batlantiradi. Zotan, uning ulug' murabbiylik, tarbiyachilik, yo'naltiruvchilik qudrati ham xuddi ana shunda.

Insoniyat tarixida XX asrning so'nggi choragi va–XXI asr boshi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarning yangi pallasini boshlab berib, O'zbekistonning milliy davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi aynan shu davrga to'g'ri keldi. Bu holat tarix fanida ham tub o'zgarishlarni, nazariy va metodologik yangilanishni, bir so'z bilan aytganda mustaqil O'zbekiston nufuziga munosib bo'lishni taqozo qildi. Mustaqillik yillarida tarix fani arsenali yangilanib, o'zgardi. Tarix fanida kechgan chuqur ichki transformasiya jarayoni fanning nazariy-metodologik, konseptual, mazmuniy, strukturaviy o'zgarishlarida aks etdi.

O'zbekistonning eng yangi tarixi tarix fanida ana shunday yangi ilmiy yo'nalishlardan biri bo'ldi. Bu bevosita milliy mustaqil davlatning tashkil topishi bilan vujudga kelib, zamonaviy tarixiy jarayonlarning rivojini o'rganish, tahlil qilish, tarixiy tajribani umumlashtirish va bu orqali milliy o'zlikni anglashga yo'naltirilgandir.

Bozor munosabatlari qaror topib, tadbirkorlikni rivojlantirishga katta ahamiyat berilayotgan mustaqillik sharoitida an'anaviy hunarmandchilik sohasini qayta tiklash, uni milliy asosda yangidan rivojlantirish jarayonlarini o'rganish tarixchilarning tadqiqot ob'ektiga aylandi.

Mustaqillik davri ijtimoiy jarayonlarini turli jihatlarini ma'lum xronologik doirada o'rgangan tadqiqotlar vujudga keldi. O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'li ta'lim tizimini isloh qilishni taqozo qildi. Bu sohada O'zbekiston o'z milliy strategiyasini ishlab chiqib, ta'lim tizimini isloh qilishning o'ziga xos yo'lidan bordi. Ta'lim tizimidagi islohotlar jarayoni, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining ishlab chiqilishi va amaliyotga tadbiiq etilishi natijasidata'limning uzluksizligi, umumta'lim va professional ta'limning chuqurlashib borishini yorituvchi, shuningdek O'zbekistonda ilm-fan rivojlanishi holati va taraqqiyot yo'nalishlarini tahlil qiluvchi tadqiqotlar amalga oshirildi.

O'zbekistonda diplomatiya xizmatining shakllanishi va rivojlanishi o'rganish O'zbekistonning sovet davri va mustaqillik yillaridagi tashqi aloqalari tarixini qiyosiy tahlil etish orqali bu soha rivojida muhim o'rin tutgan omillarni aniqlash va tarixiy jarayonlarni umumlashtirib, ilmiy xulosalar chiqarish imkonini berdi.

O'zbekistonning mustaqillik davri masalalarini o'rganishda faylasuflar, iqtisodchilar, huquqshunoslar, sosiologlarning izlanishlarini e'tirof etgan holda, ularning tadqiqotlarida mujassamlashgan ma'lumotlar va xulosalarni tarixiy tadqiqotlarga jalb qilish asnosida, fanlararo yondoshuvga asoslangan



O'zbekistonning eng tarixini yaxlit yorituvchi asarning yaratilishi fursati yetdi. Bu asar jamiyat tarixiy tafakkurida mamlakatimizning dunyoda munosib o'ringa egaligi va O'zbekiston tarixi umumjahon tarixiy jarayonlarining ajralmas bir qismi ekanligi haqidagi tasavvurlarni shakllantirmog'i lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Jo'rayev N. Mustaqil O'zbekiston tarixi. Uchinchi kitob. - T.: Sharq, 2010.
2. Quvvatov N. O'zbekistonda o'tish davri va jamiyat taraqqiyoti. - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013.
3. Levitin L. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida.–T.: O'zbekiston, 2001. – 368 b.
4. Levitin L., Karlayl D. Islom Karimov-Yangi O'zbekiston Prezidenti. - T.: O'zbekiston, 1992.
5. Mavlanov O., Abduvasitova I. Tarixiy-madaniy meros–milliy g'oyani anglash omili. – Toshkent: Akademiya, 2014.
6. Saidov U. Globalashuv va madaniyatlararo muloqot. – T.: Akademiya, 2008. – 232 b.

### **XALQ TA'LIMI TIZIMIDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR (Navoiy shahri xalq ta'limi tizimi) MISOLIDA**

*Ismatilloeva Z.I.,  
NVPYMO'MM tadqiqotchisi*

O'zbekistonda so'nggi yillar davomida Harakatlar strategiyasi va uning mantiqiy davomi bo'lgan Taraqqiyot strategiyasi doirasida, rivojlangan davlatlar kabi uzluksiz ta'lim tizimini muntazam takomillashtirib borish, sifatli ta'lim-tarbiya berish borasida sezilarli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'z navbatida, mazkur islohotlarning salmoqli qismini xalq ta'limi tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar tashkil etmoqda. Yuqoridagi islohotlarni amalga oshirish uchun ta'lim berish sifatiga e'tibor berish va ushbu sohada ishlashning jozibadorligini doimiy ravishda oshirish zarur. Zero, millat va xalqning rivoji, uning intellektual salohiyatini oshirish o'qituvchilar faoliyatiga bog'liq. O'qituvchi ilm-fan sirlari, ma'naviy va madaniy merosni yoshlarga yetkazishda muhim bo'g'in hisoblanadi. Demak, o'qituvchilarga o'zlarining salohiyatini to'liq namoyon etishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ularni ijtimoiy, huquqiy, moddiy qo'llab-quvvatlash zarur. Respublikamizda ana shunday o'zining pedagogik salohiyatini soha rivoji uchun safarbar etayotgan o'qituvchi pedagoglar mehnati samarasi natijasida Navoiy shahri ta'limi alohida e'tirof va e'tibordadir.

Navoiy shahar umumta'lim maktablarida 38074 nafar o'quvchilarga 3041 nafar pedagog xodimlar tomonidan ta'lim – tarbiya berib kelinmoqda. 2022-yilgi so'nggi attestatsiya natijalariga ko'ra, Navoiy shahar umumiy o'rta ta'lim maktablarining 82 foiz o'qituvchilari toifali bo'lib, oliy toifali o'qituvchilar 7,2 foizga, birinchi toifali o'qituvchilar 6 foizga ko'tarilishi natijasida oliy toifali o'qituvchilar 21,2 foizni, birinchi toifali o'qituvchilar 31,3 foizni tashkil etadi.

Ta'limga berilayotgan imkoniyatlar natijasida Navoiy shahar xalq ta'limi tizimidagi maktablar respublikamizda 200 dan ortiq tuman shaharlar orasida, 2019-yilda birinchi o'rinni, 2020 va 2021-yillar yakuni bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan tahlil qilingan reytinglarida ham uzluksiz uch yil birinchi o'rinni egallayotganligidan ham Navoiy shahar xalq ta'limida islohotlarning qay darajada o'sish suratlarda borayotganligini e'tirof etish mumkin.

Darhaqiqat, ta'limni isloh qilish, maktab ta'limini rijojlantirish- yangi O'zbekiston taraqqiyotining mustahkam poydevori bo'lishi va islohotlarning samaradorligi aynan shu soha bilan bog'liq ekaniga jamiyatdagi o'zgarishlar dalildir. 1992-yildan Navoiy shahri umumiy o'rta ta'lim sohasi islohotlar zamirida qayta qurildi. Yildan yilga ta'lim muassasalarining soni oshib, 30 yildan ortiqroq vaqt mabaynida shahar maktablari zamonaviy o'quv mebellari, qurollari va laboratoriya xonalari, moddiy texnik jihatdan tubdan yangi jihozlandi. Navoiy shahridagi maktablar soni 2010-yilda 19 ta, 2016-yilda 20 ta, 2021-yilda 23 ta 2023-yilga kelib 26 tani tashkil etmoqda. Demografik jihatdan tahlil etilsa, Navoiy shahri aholisi 2000 yillarda 144,0 kishi (ming kishi hisobida), 2023-yilga kelib aholining o'sish surati 156,0 tani tashkil etadi. 90-yillar boshida O'zbekiston aholisi 20 mlndan ortiq, maktablar soni esa 9600 atrofida edi. Hozir esa, aholi 36 mln.dan oshdi, maktablar soni esa taxminan 10 522 ta. Aholining o'sish suratlari nisbatan maktablar mutanosibligi past darajada. Bu masalaning yechimiga doir Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ilgari surgan "Yiliga 500 ming o'quvchi o'rni" dasturining ishlab chiqilishi va hayotga tadbiiq etilishi bilan hal etishini nazarda tutadi. Masala yechimining ikkinchi jihati, 2020-yilda shaharda xususiy mulkchilik shaklidagi 1 ta umumta'lim muassasasi o'z faoliyatini boshlagan. Yangi va zamonaviy ta'lim dargohlarining tashkil etilayotganligi, ta'lim- tarbiya olish borasida yangi imkoniyatlar ochib berayotganligi dalildir.

Bilim qanchalik mustahkam bo'lsa, o'quvchi dunyoqarashi, intellektual salohiyati shunchalik rivojlanadi va kamol topadi. 2022-yilda Navoiy shahar xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida Ma'naviy – ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish maqsadida ijtimoiy muhit barqarorligini ta'minlash maqsadida, 5- sinfdan boshlab, yagona sinf rahbarini tayinlash amaliyoti qo'yilganligi ham yurtimizdagi tarixiy tajribaning natijasi o'laroq, tizimda ta'lim- tarbiya sifati mustahkamlanib, 11-sinf bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasalariga kirish ko'rsatkichlarining yaxshilanishining omillaridan biri bo'lib xizmat qildi. 2022-2023-o'quv yilida umumta'lim maktablarini tamomlaydigan 11-sinf bitiruvchilarining oliy ta'limga kirish ko'rsatkichlari o'tgan o'quv yili bilan taqqoslaganda 79 foizdan 82 foizga o'sganligini keltirish mumkin. Islohotlar natijada Navoiy shahar xalq ta'limi tizimidagi yutuqlar soni oshib bormoqdaki, bu kelajakdagi quyidagi muammolarni hal etish bilan yanada mustahkamlanadi. Navoiy shahridagi demografik o'sishlarni hisobga olib, keyingi 2024- 2025-o'quv yiligacha 3 ta

yangi maktab qurilishi va mavjud maktablarni quyosh panelli bilan ta'minlanishi bilan, ta'lim sifatiga o'zining ta'sirini ko'rsatish mumkinligini ifodalash o'rinlidir.

Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish jahon ta'lim standartlari darajasida bilim berish orqali har tomonlama yetuk ma'naviy boy, kasb-hunarli, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, o'z mustaqil fikriga ega intellektual salohiyatli avlodni tarbiyalash masalasi dolzarb ahamiyatli bo'lgan davrda yashamoqdamiz. Xulosa shuki, inson kapitali sifatini oshirmasdan turib, keyingi iqtisodiy o'sishni ta'minlash qiyin kechadi. Shu bois, zarur kuch va resurslarni ta'lim sifatini oshirishga, malakali kadrlar tayyorlashga yo'naltirish nafaqat bugun, balki ertaning ham ustuvor vazifasidir.

## ПСИХОЛОГИК САЛОМАТЛИКНИНГ КАСБИЙ ФАОЛИЯТ ДОИРАСИДА ТАДҚИҚ ЭТИЛИШИ

*Ҳайдаров Ш.Ш.,  
БухДУ тадқиқотчиси*

**Аннотация:** Ушбу мақолада бўлажак муҳандисларнинг психологик саломатлигини шаклланишининг илмий-назарий асослари ҳамда унга таъсир қилувчи омилларнинг ўрни ва аҳамияти очиқ берилган. Айни пайтда, бугунги ислохотлар даврида бўлажак муҳандисларнинг психологик саломатлигига алоқадор омилларни тадқиқ қилиш долзарб муаммолардан бири бўлиб қолмоқда.

**Аннотация:** В данной статье раскрываются научно-теоретические основы формирования психологического здоровья будущих инженеров, а также роль и значение факторов, влияющих на него. Подводя итог, можно сказать, что исследование факторов, связанных с психологическим здоровьем будущих инженеров, остается одной из актуальных проблем современной эпохи реформ.

**Ключевые слова:** психологическое здоровье, «Я-концепция», социальное восприятие, рефлексия, стресс, агрессия, альтруизм, агрессия, социальная смелость, социальная зрелость, социально-психологическая компетентность

**Annotation:** This article reveals the scientific and theoretical foundations for the formation of the psychological health of future engineers, as well as the role and significance of the factors influencing it. Summing up, we can say that the study of factors related to the psychological health of future engineers remains one of the urgent problems of the modern era of reforms.

Жаҳонда ҳар томонлама етуқ, соғлом кадрларга бўлган эҳтиёж тобора ортиб бормоқда. Хусусан ёшларнинг психологик саломатлигини мустаҳкамлаш ва шу орқали фаолият самарадорлигини оширишга оид амалга оширилаётган тадқиқотлар доимий эътиборни торттиб келмоқда. Айни пайтда, Бугунжаҳон соғлиқни сақлаш ассамблеяси томонидан

«...психик саломатликсиз саломатлик мавжуд бўлмайди» тамойилига асосланган ҳаракатлар стратегиясини амалга ошираётганлиги ушбу муаммонинг долзарблигидан дарак бермоқда. Халқаро стандартларга мос, рақобатбардош кадрларни тайёрлаш учун уларни психологик жиҳатдан юксалтириш талаб этилади. Жумладан, таълим муассасаларидаги психологик саломатлик тизимини бугунги замонавий усуллар асосида янада такомиллаштириш муҳим аҳамият касб этади.

Бугунги кунда, замонавий психологияда психологик саломатликнинг педагогик-психологик хусусиятлари ҳамда унга таъсир қилувчи омилларни илмий-назарий асосларини таҳлил этишга бағишланган адабиётлар ниҳоятда озчиликни ташкил этади. Айти пайтда, психологик саломатлик ва унинг функцияларини очиб берувчи ҳамда унинг методологик илдизларини асослаб бера олувчи илмий тадқиқотларни алоҳида ўрни бор.

Психологик саломатлик бу – психологик ва ижтимоий фаровонлик ҳолати бўлиб, унда инсон ўз имкониятларини англаб этади, ҳаётдаги қийинчиликлар ва стрессларга самарали қарши туради, самарали, онгли фаолият олиб боради ва жамият ривожига ҳисса қўшади. Аввало, бу психиканинг барқарор, етарли даражада ишлаши, шунингдек, асосий билиш жараёнлари: идрок, хотира, диққат, тафаккур туфайли амалга оширилади. Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилотининг таъкидлашича, руҳий бузилишлар дунё аҳолисининг тахминан 12 фоизига таъсир қилади – тахминан 450 миллион киши ёки дунё бўйлаб ҳар тўртинчи одам психологик саломатлик билан боғлиқ муаммоларга дуч келмоқда.

Психологик саломатлик тушунчасининг таърифига мурожаат қилишдан олдин, умуман соғлиқ тушунчасига мурожаат қилиш керак. Шунинг таъкидлаш керакки, Жаҳон Соғлиқни сақлаш ташкилоти (ЖССТ) низомига мувофиқ, "саломатлик-бу нафақат касалликлар ва жисмоний нуқсонларнинг йўқлиги, балки тўлиқ жисмоний, руҳий ва ижтимоий фаровонлик ҳолати." ЖССТ таърифига кўра, соғлиқни сақлаш статистикасида саломатлик икки даражада –индивидуал ва аҳоли даражасида кўриб чиқилади. Шахсий даражада саломатлик-бу аниқланган касалликлар ва паталогияларнинг йўқлиги, аҳоли даражасида бу касалланиш, ногиронлик ва ўлимни камайтириш жараёни (ЖССТнинг 2013-2024 йилларга мўлжалланган руҳий Саломатлик соҳасидаги комплекс ҳаракат режаси).

Психологик саломатлик психология, назарий ва амалий психотерапия, психиатрияда энг кескин муҳокама қилинадиган муаммолардан биридир. "Психологик саломатлик" тушунчаси қадим замонлардан бери кўплаб олимларнинг тушунчаларида пайдо бўлган. Унга файласуфлар Алкмаеон, Цицерон, Эпикур, каби турли мактаб ва йўналишдаги психологлар З.Фрейд, А.Адлер, К.Г.Жунг, Ф.Перлс, А.Маслоу, В.Франклар қизиқиш билдиришди.

Юртимиз психолог тадқиқотчилари орасида бу муаммо, Э.Ғ.Ғозиев, Ғ.Б.Шоумаров, В.М.Каримова, А.М.Жабборов, Ш.Р.Баротов,

З.Т.Нишонова, Д.Ғ.Мухамедова, Н.С.Сафоев, Р.С.Самаров, З.Г.Гаппаров, М.Маматов, А.А.Собиров томонидан ўрганилган. Бироқ, соғлиқни сақлаш тоифасининг кўплаб назарий ва амалий ишланмаларига қарамай, бугунги кунда унинг ҳолати жуда ноаниқ. Ушбу ҳодисанинг кўп ўлчовлилиги ва уни ўрганишга ёндашувларнинг хилма-хиллиги ҳали ҳам унга тўлиқ таъриф беришга, руҳий саломатлик даражасини баҳолашнинг ишончли ва ишончли мезонларини ишлаб чиқишга имкон бермайди. Ушбу концепциянинг мазмуни кўп жиҳатдан тарихий даврга, жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий тузилишига, шахснинг миллати ва ижтимоий келиб чиқишига, ахлоққа ва бошқа кўплаб омилларга боғлиқ. Инсон саломатлиги билан бевосита ёки билвосита боғлиқ бўлган ҳар қандай ижтимоий амалиётда мутахассис муқаррар равишда асосий саволларга дуч келиши керак: соғлиқ нима ва касалликнинг энг умумий таърифи нима? Бугунги кунга келиб, биз бу саволга аниқ ва жуда тўғри жавоб топа олмаймиз.

МДХ давлатлари психологлари томонидан ушбу соҳага илмий қизиқишнинг ортиши XX асрнинг сўнгги ўн йиллигига тўғри келади. "Бўшлиқни" тўлдириш ва руҳий саломатликнинг сўнгги тушунчалари асосида шахсият назариясини қайта кўриб чиқишга аниқ уринишлар бугунги кунда энг йирик рус олимлари томонидан амалга оширилмоқда: Б.С.Братус, В.Я.Дорфман, Е.Р.Калитеевская, Й.М.Орлов, Д.А.Леонтиев ва ҳоказо. Ушбу тадқиқотчиларнинг асарларида инсоннинг руҳий саломатлиги муаммосига табиатшунослик ва гуманитар ёндашувлар синтези баён етилган, кадриятлар ва маъно-ҳаёт йўналишлари, унинг фаровонлигини белгиловчи омил сифатида инсоннинг маънавий ва ахлоқий ўлчовлари ўрганилган.

Соғлиқни сақлаш масалаларини ўрганиш (хусусан, шахснинг руҳий саломатлиги, ҳаёт сифатининг психологик компоненти) хориж психологиясининг устувор йўналишларидан бири бўлиб, саломатлик психологияси деб номланган мустақил психологик интизомнинг асосини ташкил этади, Хориж психологлари К.С.Счоу, Ж.Хюисон, У.Флик, Ж.Гордон, М.Мюррей, К.Чемберлен, Р.Шварцер, Ҳ.Стам, С.Уилкинсон томонидан талабаларнинг психологик саломатлигини белгиловчи асосий омиллар кўрсатиб ўтилди. Таъкидланишича, ушбу соҳадаги илмий билимларни кенгайтириш ва чуқурлаштириш зарурати соғломлаштириш амалиётининг тиббий ва психологик эҳтиёжларидан келиб чиқади.

Инсоннинг атроф-муҳитга мослашишига имкон берадиган ва шахснинг психологик саломатлигини ифодаловчи фазилатлар, муносабатлар ва функционал қобилиятларнинг умумийлиги. ЖССТ таърифига кўра, бу инсон ҳаётининг стрессларни енгишга, самарали ишлашга, ўз салоҳиятини максимал даражада рўёбга чиқаришга ва жамият ҳаётига ҳисса қўшишга қодир бўлган фаровонлик ҳолатидир. Инсон-бу фаолияти турли даражаларда тартибга солинадиган, бир-бири билан ўзаро боғлиқ бўлган мураккаб тирик тизим бўлиб ҳисобланади. К. Рожерс психологик соғлом инсонни, "ўзини намоён қиладиган" шахснинг ўзига хос

хусусиятлари: фикрлар ва ҳаракатлардаги эркинлик, ўзига ишонч, ўзини тута билиш, ижодкорликни сақлашда тажрибаларга очиқлик каби фазилатларга эга бўлишини таъкидлайди. Таъкидлаш жоизки, ўзини намоён қилишга муносабат гуманистик йўналтирилган психологлар орасида ноаниқ баҳо олди.

Ўз-ўзини англаш инсоннинг якуний тақдири эмас, деб таъкидлаган В. Франклиннинг нуқтаи назари қуйидагича: "психологик соғлом инсон фақат инсон ташқи дунёда топадиган маънони англай оладиган даражада, ўзини тушунади олади. В. Франклиннинг фикрича, ҳар бир инсон учун асосий ҳаётий тамойил-бу ўз ҳаётининг маъносини англаш ва тақдирини амалга ошириш истаги. Маъно ҳаётий қадриятларда акс этади, уларни уч хил тоифага бўлиш мумкин: ижодкорлик қадриятлари, ҳиссиётлар қадриятлари ва муносабатлар қадриятлари. Франкл шунингдек, инсон мавжудлигининг уч даражасини аниқлади: биологик, психологик ва маънавий. Франклиннинг сўзларига кўра, ирода эркинлиги қабул қилинаётган қарор учун жавобгарликни ўз зиммасига олиш билан узвий боғлиқдир, бу ҳолда у бепарволикка айланади. Шунини таъкидлаш керакки, боғланиш ҳисси кўп жиҳатдан функционал нуқтаи назардан ҳам, тузилиш нуқтаи назаридан ҳам чидамлилик тушунчасига ўхшашдир. Маънолилик, А.Антоновскийнинг сўзларига кўра, чидамлилик тузилишининг бир қисми бўлган иштирок этиш ва таваккал қилиш билан бир хил функцияга эга, аммо механизмлар бошқача бўлиши мумкин. А.Антоновский ҳиссиётларнинг ролини таъкидлайди, С.Мудди эса асосан когнитив жараёнлар ҳақида гапиради (Осин 2007) А. Адлернинг индивидуал психологиясининг асосий ғояси шундаки, у Фрейд ва Юнгнинг одамнинг шахсияти ва хулқ-атворида онгсизликнинг устунлиги ҳақидаги позицияларини инкор этган. А.Адлер туғма ҳислатлар, туғма архетиплар эмас, балки бошқа одамлар билан ҳамжамият ҳисси, ижтимоий алоқаларни ва бошқа одамларга йўналишни рағбатлантириш - бу инсоннинг хулқ-атвори ва ҳаётини белгилайдиган асосий кучдир, деб ҳисоблаган (1986). Бироқ, бу учта психологнинг тушунчаларини бирлаштирадиган умумий нарса бор: уларнинг барчаси инсоннинг ўзига хос ички табиати бор деб тахмин қилишган, бу шахснинг шаклланишига таъсир қилади. Бу ерда биз ўз-ўзини қабул қилишнинг когнитив томони (ҳаётнинг турли соҳаларидан қониқишни интеллектуал баҳолаш) ва ҳиссий томони (ёмон ёки яхши кайфиятнинг мавжудлиги) ҳақида гапираемиз. Натижада, ушбу ёндашув доирасида хорижий психологияда фаровонликни тушуниш уни "фаровонлик" деб тушунишга асос беради.

Адабиётлар таҳлили психологик саломатликнинг шаклланиши индивидуал ва шахслилик хусусиятларига мос тарзда намоён этилиши мумкинлигини кўрсатди. Бу эса бўлажак муҳандислар учун характерли бўлган психологик саломатлик мезонларини ишлаб чиқиш ва амалиётда тадбиқ этиш учун муҳим аҳамият касб этади.

Ўрганилган илмий адабиётлар таҳлили, бугунги кунда муҳим бўлган бўлажак муҳандисларда психологик саломатлик билан боғлиқ жараёнлар динамикасини эмпирик жиҳатдан ўрганиш муқаррарлигини кўрсатди. Бунинг учун эса, энг аввало улардаги ҳиссий барқарорлик, ўзини ўзи ҳиссий адекват баҳолаш, шахсинг динамик хусусиятлари ва ўзига хос индивидуал психологик имкониятлари ўртасидаги мутаносиблик кўрсаткичларини тадқиқ этиш талаб қилинади. Айни пайтда, тадқиқ этилган барча назарий мушоҳадалар бўлажак муҳандислар учун характерли бўлган психологик саломатлик доирасидаги педагогик-психология фани истиқболларини янада кенгроқ очиб беришга хизмат қилади.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Гринь Е. И. Личностные ресурсы преодоления психического выгорания у работников: автореф. дис. ... канд. психол. наук. Краснодар, 2009. 24 с.
2. Карпов В. Е. Совершенствование средств саморегуляции психического состояния хоккеистов высшей квалификации в игровой деятельности: автореф. дис. ... канд. пед. наук. Челябинск, 2002. 21 с.
3. Sobirov A. Психическое здоровье //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2022. – Т. 9. – №. 9.

## О‘SMIRLARDA PSIXOLOGIK XAVFSIZLIK VA PSIXOLOGIK HIMOYA MEKANIZMLARINI SHAKLLANTIRISH

*Ikromova S.A.,*

*Osiyo xalqaro universiteti assistenti*

**Аннотация:** Ushbu maqolada o‘smirlarda psixologik xavfsizlik va psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish haqidagi ilmiy qarashlar va bu muammoga ilmiy yondashuvlar haqida so‘z boradi. Mavzu yuzasidan dolzarb masalalar aynan maqolada yoritilgan.

**Калит со‘злар:** Psixologik xavfsizlik, psixologik himoya, himoya mexanizmi.

**Abstract:** This article talks about scientific views on the formation of psychological safety and psychological protection mechanisms in adolescents and scientific approaches to this problem. Actual issues related to the topic are covered in the article.

**Key words:** Psychological safety, psychological protection, defense mechanism.

**Аннотация:** В данной статье говорится о научных взглядах на формирование механизмов психологической безопасности и психологической защиты у подростков и научных подходах к этой проблеме. В статье освещены актуальные вопросы, связанные с данной темой.

**Ключевые слова:** Психологическая безопасность, психологическая защита, защитный механизм.

Yoshlarning turli oqimlarga kirib qolish sabablari qatorida ularning dunyoqarashi torligi, diniy ilmlarni egallashga bo‘lgan qiziqishi, o‘ta

ishonuvchanligi, birdaniga hamma narsaga (boylik, shon-shuhrat, martaba va h.k.) ega bo'lishga intilishi, umuman olganda maksimalizm kabi ma'naviy-ruhiy omillarni alohida ajratib ko'rsatish lozim. "Sen bu tashkilotga kirish yoki mana bu vazifani bajarish bilan alohida, har kimga ham nasib qilavermaydigan sharaflig'ga qo'l urgan bo'lasan, kerak bo'lsa, sen millat, din, insoniyatning xaloskoriga aylanasan!" – degan qarashlarni singdirish jarayoni aynan mana shu kabi xususiyatlarga alohida e'tibor berilayotganini ko'rsatadi.

Mafkuraviy jarayonlar tarixiy va ijtimoiy shart-sharoitlar bilan uzviy aloqador bo'lib, davrlar almashinuvi bilan yangilik tomon o'zgaradi. Bunday o'zgarishlar qadimdan turon va turkiston mintaqasi deb nomlangan, bugungi kunda uning markazi hisoblangan hozirgi O'zbekiston hududida yuz bergan jarayonlarga ham tegishlidir.

Inson kamoloti bilan bog'liq islom dini g'oyalarini o'zida mukammal mujassam etgan "Naqshbandiya" tariqati kishilarda mehr-oqibat, samimiyylik, halollik, mehnatsevarlik, rostgo'ylik, sabr-qanoatning tarkib topishiga yo'llar ekan, ulardagi yomon illatlar – harom sanalgan ishlar, ya'ni o'g'rilik, nopoklik, xasislik, yolg'onchilik, firibgarlik, ta'magirlik, boylikka hirs qo'yish kabi destruktiv xususiyatlarni qoralaydi.

Shuningdek, hadisi muborakda "Qaysi bir musulmon ikkinchi bir musulmon birodari boshiga tig' ko'tarsa, Allohu Taoloning farishtalari to o'sha tig'ni qaytarib o'rniga qo'ymaguncha la'nat aytib turadilar" kabi fikrlar keltirilgan. Bular esa islom dinining insonparvarlik mohiyatidan darak berib, o'smir shaxsida mafkuraviy immunitetni shakllantirish va barqarorligiga erishishimizda asos bo'lib xizmat qilmog'i darkor.

Alisher Navoiy fikriga ko'ra, yaxshi xulqning asosi odob bo'lib, u barcha insoniy xislatlarning boshlanishi sanaladi. Zero, haqiqiy insonga xos xislatlar – qanoat, sabr, tavozu', ishq, vafo, saxovat, himmat, karam, muruvvat, hilm (yumshoq ko'ngillik) aynan odobli kishilarda tarkib topadi.

Alisher Navoiy ta'lim-tarbiya jarayonida insonning o'zini o'zi tarbiyalashi, xato va kamchiliklarini anglab, ularni tuzatishi maslasiga alohida e'tibor beradi.

Darhaqiqat, Alisher Navoiy o'zining qarashlarida komil insonga xos bo'lgan axloqiy sifat va fazilatlar orasida destruktiv axborotlardan saqlanishga alohida urg'u beradi. Unga ko'ra, inson o'zligini anglashi, sog'lom xulq-atvoriga ega bo'lishi, iymon-e'tiqod va pok vijdon, kuchli iroda kabi muhim sifatning shaxsda shakllanishi uning komillikka yetishida o'ta muhimdir. Ulug' mutafakkir, ayniqsa, o'zini-o'zi tarbiyalash masalasiga katta e'tibor qaratib, bu jarayon bevosita o'zini-o'zi anglash, o'zini-o'zi nazorat qilish orqali amalga oshishi va unda qo'llaniladigan usul va vositalarni oqilona tanlay olish muhimligini ta'kidlaydi.

Ko'plab tadqiqotlar shaxsning psixologik himoya mexanizmlariga quyidagicha ta'rif berishimizni taqozo qiladi.

Psixologik himoya – bu shaxsni salbiy kechinmalardan himoya qilishga yo'naltirilgan anglanmagan psixik jarayondir.



Endi shaxslarda psixologik himoya mexanizmlarining shakllanish qonuniyatlari va shu asosda yuqorida tug'ilgan savollarga javob topib boramiz. R.Plutchik psixologik himoya mexanizmiga ob'ektiv vaziyatning inson tomonidan real tarzda idrok etilishi natijasida vujudga keluvchi ziddiyatli, tashvishli holatlarni hissiy-emotsional tarzda yumshatish, ruhiy zo'riqishni pasaytirish sifatida qaraydi. Bu o'rinda ikkita bir-biriga qarama-qarshi fikr maydonga keladi. Psixologik himoya mexanizmi birinchi holatda insonning o'z-o'zini rivojlantirishiga, o'z-o'zini qayta qurishiga monelik ko'rsatadi, sababki, "Men-obrazi"ni xavfdan saqlash uchun inson xotirjamlikka beriladi, tashqi shart-sharoitga, vaziyatga moslashishga undaydi; ikkinchi holatda esa inson ichki ruhiy va tashqi to'siqlarni, ziddiyatlarni yengishga, uni bartaraf etishga chog'lanadi. Bu o'rinda "Men obrazi"ni rivojlantirish maqsadida kuchli emotsional zo'riqish holatini boshdan kechirishga rozi bo'ladi, u o'z ustida ishlaydi, muammoning yechimini izlaydi.

"Himoya" va "kurashish" psixikaning maxsus mexanizmlari unga yoqimsiz tuyg'u va xotiralardan xalos bo'lishga yordam beradi. Ularni ongdan tashqarida tutadi, ya'ni xavotir va stressni ushlab turadi hamda ongsiz kompensatsiyani bajaradi.

Rus psixologiyasida himoya mexanizmlari fenomenologiyasi ko'p vaqt mobaynida umumiy tahlil predmeti bo'lmagan. Buning asosiy sababi 20-yillarning oxiri 30-yillarning boshida katta tortishuvlarga sabab bo'lib, psixoanalizning likvidatsiya qilinishidir. Rus psixologiya maktabining rivojlanish mantig'i ma'lum ma'noda psixologik himoya nazariyalari bilan kesishuvchi nazariyalar paydo bo'ldi. Bunday nazariyalar qatoriga D.B.Uznadzening ustanovkalar nazariyasi va V.N.Myasishevning munosabatlar nazariyasini kiritish mumkin. Avval rus psixologiyasida psixologik himoya tarqoq tarzda o'rganilgan.

Demak, har qanday axborotning mazmuni, mohiyati, ta'sir etish darajasi, jamiyatga foydali yoki zararliligi, kishini ezgulikka yoki yovuzlikka da'vat etishi bilan shaxs, jamiyat, davlat mutanosibligiga ijobiy yoki salbiy ta'sir etadi. Ana shu jihatdan qaraganda, yoshlarni destruktiv axborotlardan asrashishlarida psixologik muhofazaning roli yana ham oshadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики М.: Издательство Академии педагогических наук РСФСР, 1959, - 345 с.
2. Мясичев В.Н, Психотерапевтическая энциклопедия. Под. ред.Б.Д. Карвасарского. - Изд. 2-е, доп. и перераб.СПб.: Питер, 2000,-.394 с.
3. Морозов А.М. Психологическая война. - Киев, 1996, 254 с.
4. Mamashokirov S., Tog'aeV Sh. "Erkin va farovon hayot qurilishining g'oyaviy-mafkuraviy masalalari". – Toshkent: "Ma'naviyat", 2007, – 80 b.

## БОЖХОНА ХИЗМАТЧИЛАРИГА ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТ КЎРСАТИШНИНГ ПСИХОЛОГИК ДЕТЕРМИНАНТЛАРИ

*Баратов Ш.Ш.,*

*Бухоро психология ва хорижий тиллар институти магистранти*

**Аннотация:** Ушбу мақолада божхона хизматчиларига психологик хизмат кўрсатишнинг психологик детерминантлари очиб берилган.

**Калит сўзлар:** психологик хизмат, ижтимоий психология, эмоционал ҳолатлар, мотивация.

**Аннотация:** В данной статье раскрываются психологические детерминанты оказания психологической помощи работникам таможни.

**Ключевые слова:** психологическая служба, социальная психология, эмоциональные состояния, мотивация.

**Annotation:** This article reveals the psychological determinants of psychological service delivery to customs officers.

**Key words:** psychological service, social psychology, emotional states, motivation.

Жаҳонда ижтимоий фаровонликни таъминлашга хизмат қиладиган, инновацион усуллар билан қуролланган психологик хизматнинг ташкил этилиши бўйича замонавий стратегияга асосланган технологиялар амалиётга татбиқ этилган. Жумладан, Халқаро психология фанлари академияси (Ярославль) талабларига мувофиқ психологик хизматни ташкил этиш ва ривожлантиришнинг илғор принциплари мунтазам равишда такомиллашиб бормоқда. Шу жиҳатдан психологик хизмат ва уни бевосита амалга ошириш механизмларини такомиллаштириш, психологик хизматнинг шахс ижтимоийлашувига кўрсатадиган таъсири, психопрофилактик ишларнинг модели ва тузилмасини ишлаб чиқиш ҳамда унинг ижтимоий-психологик истиқболларини назарий ва эмпирик жиҳатдан тадқиқ қилиш масалалари бўйича тизимли ишлар амалга оширилмоқда.

Жаҳон таълим ва илмий тадқиқот муассасаларида психологик хизмат муаммоларини ўрганиш бўйича изланишлар олиб борилмоқда. Жумладан, ЮНЕСКО ташкилоти қошидаги Халқаро психология фанлари иттифоқи – IUPsyS (International Union of Psychological Science) томонидан 2016-2021 йилларга мўлжалланган психологик хизмат концепцияси яратилди. Шу жиҳатдан аҳолининг турли гуруҳларидаги муаммоларнинг келиб чиқишига сабаб бўлувчи ижтимоий-психологик омилларни ҳудудлар кесимида тизимли равишда ўрганиш, профессионал даражада психологик тавсиялар бера олувчи психологлар фаолиятини такомиллаштириш, психологик хизматнинг шахс ижтимоийлашувига кўрсатадиган таъсирини ёритиш, муайян жамиятнинг шахс шаклланишига таъсирини ўрганувчи психодиагностик методикаларни ва аҳолининг турли гуруҳларига психологик хизмат кўрсатишнинг ижтимоий-психологик механизмларини ишлаб чиқиш каби тадқиқотларга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Республикамизда амалга оширилаётган барча ислохотлар шароитида божхонада хизмат қилувчи ҳар бир шахнинг ўзига хос ижтимоий-психологик тараққиётини таъминлаш, турмуш шароитини амалий ҳал қилиш механизмларини жорий этиш, уларга кўрсатиладиган ижтимоий-психологик хизматни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш бўйича илмий асосланган концепцияларни ишлаб чиқишга катта эътибор берилмоқда. Божхонада хизмат қилувчиларнинг турли гуруҳларига психологик хизмат кўрсатишнинг ижтимоий-психологик механизмларини ишлаб чиқиш юзасидан илмий изланишларни чуқурлаштиришга имкониятлар яратилди.

Психологик хизмат йўналишининг назарий-илмий ва методологик асослари умумий психология фани шаклланиши билан боғлиқ узоқ тарихий илдизларга бориб тақалади. Қолаверса, психологик хизмат жараёни дастлабки психологик тушунчаларнинг пайдо бўлиш ва ривожланиш давлари билан бевосита боғлиқдир. Қолаверса, дастлабки “психика”, “онг” тушунчалари тиббий физиологик билимлар билан бир мунча сайқал топди. Айти пайтда, француз олими Р.Декард (1596-1650) томонидан индивид хулқ атворининг рефлекторлик табиатига хос жиҳатларнинг илк бор кашф этилиши ва унинг кейинчалик рус олимлари И.С.Сеченов ва И.П.Павловлар томонидан ўзига хос илмий асослар билан ривожлантирилиши инсоннинг психологик таъсир доираларини белгилашда муҳим аҳамият касб этди.

Бинобарин, инглиз файласуфи, педагоги ва эмпирик психология асосчиси Жон Локк (1632-1704) барча билимларнинг тажрибадан келиб чиқиши ҳақидаги психологик қонидани илгари сурди. Чунки, у руҳий ҳаётнинг муайян омиллари, оддий ҳодисалардан мураккаб ҳодисаларга ўтиш йўллари илмий жиҳатдан изоҳлаб беришга уринди. Локкнинг фикрича, тажрибанинг иккита манбаи бор: бири ташқи сезги аъзоларининг фаолияти (ташқи тажриба) ва иккинчиси ўзининг хусусий ишини идрок этувчи ақлнинг ички фаолияти (ички тажриба)дир. Киши ҳеч қандай ғояларга эга бўлмаган ҳолда дунёга келади. Унинг руҳи — «тоза тахта» (tabula rasa) бўлиб, кейинчалик унга тажриба ёзувлари битилади. Тажриба оддий ва мураккаб ғоялардан таркиб топади. Бу ғоялар ё сезгилардан, ё ички идрок (рефлексия)лардан ҳосил бўлади. Иккинчи ҳолатда онг реал нарсаларга эмас, балки ўз хусусий маҳсулига йўналтирилиб, ўзи билан ўзи бўлиб қолади. Жон Локкнинг рефлексия таълимоти («рефлекс» тушунчаси билан аралаштириб юбормаслик керак) киши психологик далилларни (физика далилларидан фарқли ўлароқ) интроспектив тарзда билиб олади, деган тахминга асосланган эди.

Кейинчалик И.М.Сеченовнинг «Бош мия рефлекслари» (1863) асаридаги «онгли ва онгсиз ҳаётнинг барча ҳаракатлари рўй бериш усулига кўра рефлекслардан иборатдир», деган хулосаси психологик хизмат фанининг физиологик тамойилларини илмий жиҳатдан асослашга хизмат қилди. Зеро, онгнинг ҳаракати (психик ҳодиса) руҳнинг танасиз моҳият хусусияти эмас, балки Сеченов тили билан айтганда, «рўй бериш усулига

кўра» рефлексга ўхшаш жараёнدير. Психик ҳодиса кишига ўз сезгиларини, ғояларини, ҳис-туйғуларини кузатиш чоғида бериладиган нарсалардангина иборат эмас. У худди рефлекс каби ташқи кўзғовчининг таъсирини ва унга жавобан ҳаракат акс таъсирини ҳам ўз ичига олади.

Мазкур концепция психологик хизмат методологиясини яратишда муҳим ўрин эгаллаши билан ҳам аҳамиятлидир. Қолаверса, психологик хизмат кўрсатиш тизими таъсир кўрсатувчи объектлари бўлган субъектнинг ички, психик ҳолатига ташқи таассуротлар натижасида рўй берадиган ўзгаришлар жараёни қандай кечишини ўрганади. У акс этувчи нарсанинг субъектнинг фаолиятини бошқаришни, режалаштиришни, жавоб фаолиятини йўналтиришни таъминлайдиган ўша инъикосга айланиш жараёнини амалга оширишга ёрдам берадиган механизмларни тадқиқ қилади.

Чунончи, ғарбда яратилган когнитивизм доирасидаги назариялар психологик хизмат методологияси учун муҳим аҳамиятга эга. Чунончи, Л.Фестингернинг когнитив диссонанслар назарияси (инсоннинг фаолият объектига нисбатан хулқ-атвори ёки муносабатини онгли равишда ўзгартиришга асосланган), Т.Ньюхоннинг ҳамкорлик коммуникатив назарияси (ўзгаларга ва умумий фаолият объектига ижобий муносабатларни таркиб топтиришга асосланган), Ч.Осгуд ва П.Таненбауманинг “конгруентлик” (инсон когнитив тузилиши асосидаги объектни баҳолашга қаратилган) назарияси, Г.Олпорт, А.Маслоу, К.Роджерснинг гуманистик психология назарияларини алоҳида таъкидлаш мумкин. Яна шуни қайд этиш керакки, америкалик таниқли психолог Абраҳам Харолд Маслоунинг “Инсонга бир бутун ёндашув концепцияси” психологик хизмат жараёнида инсонни тушуниш ва ижтимоий мотивацион ривожлантириш муаммоси устида тадқиқотлар олиб борилиши учун муҳим аҳамият касб этади. Маслоунинг фикрича, инсоннинг барча туғма салоҳият имкониятлари фақатгина ижтимоий шарт-шароитнинг яратилиши билан рўёбга чиқиши ва камол топиши мумкин. Албатта, мазкур фикрларнинг не чоғлиқ ҳақиқат эканлигини бугунги кунда ҳар бир инсоннинг ўзига хос ва унинг ижтимоий тараққиётини таъминлашга хизмат қилувчи имкониятлари кўламини ўрганиш ва тарбиялашни асосий вазифа қилиб олган психологик хизматнинг ташкил этилишини мунтазам кузатишларимиз натижалари тасдиқлаб турибди.

Демак, божхона тизими шахс руҳияти билан боғлиқ кенг кўламли муаммолар мажмуасини ўз ичига олганлиги боис бугунги кунда маҳаллада яшовчи аҳолининг турли гуруҳларига психологик хизмат кўрсатилиши шарт ва зарур экан юқоридаги назарий таҳлилларга асосланиб мазкур муаммо ечимлари бўйича қуйидагиларни алоҳида таъкидлаш жоиз.

1. XX асрга келиб психологлар ўзларининг навбатдаги жаҳоншумул илмий мақсадлари – инсонга, айти пайтда, жамиятга психологик хизмат кўрсатиш тизимининг муқаррарлигини назарий-илмий жиҳатдан асослаб беришга муваффақ бўлдилар.

2. Ўзбекистондаги психологик хизматнинг бугунги ҳолатига илмий-ташкилий нуқтаи назаридан баҳо берар эканмиз, бу борада талайгина ютуқлар, камчиликлар ва тез орада бартараф этилиши лозим бўлган муаммолар мавжудлигини кўрамиз.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Баротов Ш.Р. Психологик хизматнинг назарий ва амалий муаммолари. Бухоро, 2008.
2. Баротов Ш.Р и др. Психологическая служба образования: от теории к практике. (Учебно - методическое пособие). – Бухара: Дурдона, 2017. – 172 с.
3. Баротов Ш.Р ва бошқ. Экспериментал психология. – Магистрлар учун ўқув кўлланма. – Т.: Фан нашриёти, 2008. - 108 б.
4. Баратова Д.Ш. Ахолининг турли гуруҳларига психологик хизмат кўрсатишнинг ўзига хос хусусиятлари. /Психология. илмий журнал. – Бухоро, 2016. №2. – Б. 73-75.
5. Нишонова.З.Т. Психологик хизмат (ўқув кўлланма) –Т.; 2006. – 156 б.

## VATAN TUYG‘USI VA FUQAROLIK MAS‘ULIYATI

*Mahkamova G.K.,  
NavDPI talabasi*

Shaxs — alohida individ, mohiyatan yaxlit ijtimoiy-axloqiy olam. U o‘zida insonni, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etadi. Shaxs ijtimoiy-gumanitar fanlarda o‘z yo‘nalishi, tadqiqot ob‘yekti va maqsadi nuqtai nazaridan turlicha talqin qiladi. U o‘ta murakkab, ziddiyatli, qarama qarshi, o‘zini o‘zi inkor mahsulot mavjudot sifatida, biologik, fiziologik, ijtimoiy, ma’naviy, ruhiy, axloqiy va estetik aql-idrok, tafakkur ob‘yekti belgilangan, hatto, falsafi hayotiy va mantiqiy, yashash huquqi va mantig‘ini tekshirish manbaga vaziyat. Shaxs, qarashga ko‘ra, madaniylashgan, mumkin bo‘lgan, aql bilan tajribaga ega bo‘lgan, ijtimoiy-tarixiy an‘ana, turmush tarzi va tajribaga nisbatan aniq avlodlar vakillari. Shaxs fenomeni inson olamining butun murakkabliklarini o‘zida mujassam etadi. Uni har tomonlama o‘rganish turli davrlarda tadqiqot olib borilgan. bu borada, sharqda u yuksak axloqiy ma’naviy me’yorlar orqali tushunilgan va oliy xilqat, bebaho qadriyat deb hisoblangan. Inson shaxs sifatida komillikka intiladi, hayot mazmunini boyitadi, shu asosda kishilik jamiyatining go‘zal va farovon bo‘lishi mumkin sezadi. “Har bir millat, har bir xalq o‘z ma’naviyatini, uning qadriyatini bilsa va asrab-avaylasa, unday millatning, unday davlatning kelajagi. buyuk bo‘lishi muqarrar .

Birinchi Prezident Islom Abdug‘aniyevich Karimov o‘zining “Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch” asarida : ”Ma’naviyat haqida gap ketar ekan, men avvalo, insonni ruhiy poklanishi va yuksalishga da’vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, e’tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg‘otadigan qudratli botiniy kuchni tasavvur qilaman” - deb ta’kidlaydi. Mazkur ta’rif o‘zining mazmuni va mohiyati bilan “Ma’naviyat”

ning barcha qirralarini o'ziga qamrab olgan. Unda insonning ichki ruhiy olamini ifodalovchi barcha komponentlar o'z ifodasini topgan va uning inson barkamolligini ta'minlaydigan katta kuch ekanligi belgilab berilgan.

Ma'naviyat - taqdirning ehsoni emas. Ma'naviyat inson qalbida kamol topishi uchun a qalban va vijdonan ,aql va qo'l bilan mehnat qilishi kerak.

Hayotda eng ko'p ishlatiladigan so'zlardan biri Vatan desak, xato bo'lmas. Inson inson bo'libdiki, bu so'zning ma'nosini anglashga intiladi. Ammo buyuk ajdodlarimiz merosiga murojaat qilish, boshqa el va xalqqa mansub ulug' insonlar ijodini o'rganish, xalq donishmandligining ajoyib namunalari bo'lgan maqollar, rivoyatlarga quloq tutish jarayonida bu muqaddas tushunchaning yangidan–yangi qirralarini kashf etamiz. Ammo shunga qaramay, har bir avlod “Vatan” tushunchasini yangidan kashf etadi, o'z ijodi, kashfiyotlari va faoliyati bilan uning ma'no-mazmunini kengaytiradi. Darhaqiqat, “Vatan” tushunchasining qamrovi nihoyatda keng. Vatan deganda tasavvurimizda, dastlab, insonning kindik qoni to'kilgan tuproq, uni kamolga yetkazgan hayotiga ma'no-mazmun baxsh etadigan maskan gavdalanadi.

Vatan oiladan boshlanadi albatta. Oilamiz naqadar baxtiyor hamda totuv bo'lsa, ishtiyoqimiz, hayotsvarlik tuyg'ularimiz ham shunchalik yuksak bo'ladi. Shu o'rinda yurtboshimizning bu to'g'risidagi fikrlarini eslab o'tishni joiz topdim: “Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo'lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi. O'sha baxtli kunlarni, vatanimizning, yoshlarimizning kamolini hozir niyat qilayotganimiz kabi ko'rish hammamizga nasib etsin!”

Zero, har bir kishining o'z tug'ilgan yeri, o'sib-ulg'aygan yurti bor. Turli sabablarga ko'ra Vatandan uzoqda yashashga majbur bo'lgan musofirlarning o'z kindik qoni to'kilgan o'lkaga talpinib yashagani, yurt sog'inchi bilan o'rtangani ham shundan. Hind zaminida ulkan davlat barpo etgan, ilmu fan, adabiyot va san'atda o'chmas iz qoldirgan shoh va shoir Mirzo Bobur Andijondan keladigan har bir xabarga mushtoq bo'lgani, yurtdan mujda keltiruvchi meva-chevalarni ko'rganida yosh bola yanglig' o'zini tuta olmagan ham shundan. Inson yuragini larzaga soluvchi quyidagi o'tli misralar ham ana shu tuyg'ularning ifodasi o'laroq bitilgani shubhasiz:

Ko'pdin beriki yoru diyorum yo'qdir,

Bir lahzayu bir nafas qarorim yo'qdir,

Keldim bu sori o'z ixtiyorim birla,

Lekin borurimda ixtiyorim yo'qdir [1; 108 b.].

***Vatandan tashqarida baxt yo'q, har kim jonajon yerida ildiz otsin.***  
***I.S.Turgenev***

Shu o'rinda aytish joizki, daraxt ham bir joyda ko'karadi. Insonlar ham tug'ilib o'sgan yurtida, jonajon tuprog'ida kamol topib, yuksak cho'qqilarni zabt etadi. Buni faqatgina bir joyda yashab, shu joyda olamdan o'tib ketaverish kerak deb tushunmaslik kerak, albatta.

Sababi biz hozirgi zamon talablaridan kelib chiqqan o'z ilmimizni, ma'naviy olamimizni boyitishimiz, har tomonlama mukammal bo'lishga chin dildan harakat qilishimiz lozim.(garchi mukammal inson bo'lmasa ham) Zamon –o'qiganniki. Shunday ekan, o'z bilimimiz bilan jahonga yuz tutmog'imiz . Kerak bo'lsa chet mamlakatlarda ham tahsilni davom ettirishimiz lozim. Nafaqat ta'limni, balki faoliyatimizni ham chet elda shakllantirishimiz mumkin. Shu tariqa o'z o'rnimizni hamda nomimizni toparmiz. Lekin millat, xalq degan insoniy tuyg'ularni topa olmaymiz. Ijtimoiy hayot-ku kishinng aql salohiyati, izlanuvchanligi hamda iqtidoriga bog'liq holda rivoj topishi mumkin, lekin kundalik turmush (faoliyatdan tashqari hayotimiz) doim ham aql-zakovat bilan emas, balki insoniy tushunchalar: el-urug', mahalla–ko'y, qadriyatlar hamda o'zaro hamjihatlik bilan yashash orqali ham ma'no-mazmunga ega bo'lib boradi. O'zaro mehr ulashish, baxtni his qilish bilan hayotimizga rang kiritishimiz mumkin, buning uchun esa atrofimizda ko'nglimizga yaqin insonlar, vatan mehri hamda kelajakka yuksak ishonch bo'lmog'i lozim.

“O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q”.

“Bizning qadimiy va go'zal diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon tsivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e'tirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar etishib chiqqani, umumbashariy tsivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini bilan bog'liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko'tarilishida ona yurtimizda tug'ilib kamolga etgan ulug' allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi.”

O'zbekiston xalqi hayoti va tafakkurida sodir bo'layotgan ijobiy o'zgarishlarni yaqqol ko'rsatuvchi bunday misollarni yana istagancha topish mumkin. Ammo millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish serqirra va murakkab jarayon ekanini, u kundalik faoliyatning uzviy qismiga aylangan taqdirdagina ijobiy samara berishini hech qachon yoddan chiqarmaslik lozim.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, joylarda millatlararo munosabatlarni yanada uyg'unlashtirishga qaratilgan ishlar mazmunan boy va shaklan rang-barang bo'lishini ta'minlash zarur. Zero, har bir insonning hayoti muayyan bir tashkilot va yashash joyida kechadi. Aynan mana shu nuqtalarda targ'ibot ishlarining to'g'ri tashkil etilishi fuqorolarning nazariya va amaliyot birligini chuqur anglashlariga yordam beradi. Uzoq davr mobaynida hukmron bo'lgan bir xil fikrlash illatidan qutulish, tafakkurni ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy aqidalar kishanidan ozod qilish, kishilarimizda demokratik tamoyillar, qonunning ustuvorligiga hurmat tuyg'usini kamol toptirish ham muhim vazifadir.

Istiqlol yillarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarga davlat siyosatining muhim masalasi sifatida qarala boshlandi. Sababi, mustaqillik erkinlik, milliylik, vatanparvarlik darvozalarini ochib, insonlarni ezgulik sari boshladi.

Davlatimiz rahbari Mirziyoyev: “Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida

tarbiyalash, ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, sohadagi vaziyat va amalga oshiriladigan tadbirlar tahlili yoshlarning keng qatlamlariga dahldor bo'lgan dolzarb masalalar, ayniqsa uyushmagan yoshlarning hayotda o'z o'rnini topish uchun, munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kasbga yo'naltirish va bandligini ta'minlash, tasahbuslarini rag'batlantirish borasidagi ishlar talab darajasida tashkil etilmaganidan dalolat bermoqda" deb bu borada qilishimiz kerak bo'lgan ishlar haqida aniq ko'rsatmalarni berib o'tdilar .

Bundan tashqari bugungi kunda amalga oshirilayotgan tadbirlar yuzasidan olib qaraydigan bo'lsak Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadida: Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasining tasdiqlanishi davlatimiz tomonidan aholiga ko'rsatilayotgan e'tiborning oliy ko'rinishlaridan darak beradi, fuqarolarning esa huquqlari bilan bir qatorda davlat oldidagi burch va vazifalarini anglashga beminnat xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, insonparvarlik mohiyatiga ega bo'lgan milliy siyosat modelining ishlab chiqilishi va amalga tatbiq etilishi mamlakatimiz hayotida tub ijobiy o'zgarishlarning sodir bo'lishiga zamin yaratdi. Bundan keyin ham yurtimizda istiqomat qilayotgan turli millat va ellatlar vakillari o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik respublikamizdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va taraqqiyotning muhim omillaridan biri bo'lib qolaveradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. -Toshkent. "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. -464 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
3. Abidova S. Milliy axloqiy qadriyatlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati. O'zR FA, "Fan", 2000. -20 b.;
4. Avloniy A. Turkiy Guliston yohud axloq.-Toshkent: O'qituvchi, 1992; 100.Avesto // Tarixiy-adabiy yodgorlik: Asqad Mahkam tarjimai. – T.: Sharq, 2001. – 400 b.



## HUQUUQ NORMALARINI SHARHLASH USULLARI

*Ibodullayeva D.S.,  
Navoiy viloyati Yuridik texnikumi talabasi*

Huquqni sharhlash maxsus yuridik kategoriya sifatida o'zining alohida mazmun va mohiyatiga ega. Amaliyotda huquq normalarining to'g'ri tatbiq etilishi uchun ularni sharhlash zarur. Shu asosda huquq normalarining matndagi ifodasi bilan qo'llanilayotgan ijtimoiy munosabat mazmun- mohiyatining bir-biriga mos kelishi aniqlanadi.

Sharhlash muayyan faoliyat, jarayon bo'lib, u o'z ichiga ikkita mustaqil jihatni, ya'ni anglab olish va tushunishni qamrab oladi.

Huquq normalarini sharhlash- bu huquq normalarining maqsadi, mazmun va mohiyatini aniqlash hamda tushuntirishga yo'naltirilgan faoliyat.

Huquq normalarini sharhlash quyidagi bir qator xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

**birinchidan**, mazkur faoliyat natijasida har qanday yozma manbalarning emas, balki huquq normalarining mazmun va mohiyati sharhlanadi;

**ikkinchidan**, huquq normalarini sharhlash huquqiy tartibga solishning zarur- riy sharti sifatida maydonga chiqadi;

**uchinchidan**, qonunda belgilangan hollarda mazkur faoliyat vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi;

**to'rtinchidan**, sharhlash natijalariga majburiylik tusi beriladigan bo'lsa, max- sus huquqiy (sharhlash) hujjatlar bilan mustahkamlab qo'yiladi.

Huquq normasini sharhlash usullari-bu huquq normasining mazmuni va mohiyati hamda unda aks etgan huquq ijodkorining irodasini anglash imkonini beradigan usul va vositalar majmuidir.

### Sharhlash usullari

- 1.Grammatik
- 2.Tizimli
- 3.Mantiqiy
- 4.Tarixiy-siyosiy
- 5.Funksional
- 6.Maxsus-yuridik

Grammatik usul- bu normativ-huquqiy hujjatlarning mazmuni va matnini til qoidalariga asosan tahlil qilib berishdir. Sharhlashning bunday usuli orqali qo'llaniladigan alohida iboralarning ahamiyati hamda tushunchalar mazmuni aniqlanadi.

Tizimli sharhlash usulida muayyan ijtimoiy munosabatni tartibga soluvchi huquq normasi aniq bir hujjat doirasi bilan cheklanilmaydi. Bunda tegishli munosabatni tartibga soluvchi barcha normativ- huquqiy doirasi mazmunan sharxlanadi.

Tizimli sharhlash usulida huquq normasining ma'no va mazmuni uning normativ- huquqiy hujjatdagi, huquq normasi, huquq instituti, huquq sohasi va butun huquq tizimidagi o'rni va roli, o'zaro nisbati orqali aniqlanadi.

Tarixiy- siyosiy usul- huquq normasini qabul qilish jarayonidagi muayyan tarixiy va siyosiy shart-sharoitlarni tahlil qilish yordamida sharhlash. Bu normativ- huquqiy hujjatni qabul qilish maqsadini, uning vujudga kelishiga sabab bo'lgan ijtimoiy - siyosiy vaziyat, joyi, vaqti va normativ- huquqiy hujjatni qo'llash amaliyotini aniqlab olishni taqazo etadi.

Funksional usul-huquq normasi tatbiq etiladigan shart- sharoit va omillarga asoslanib qilinadigan sharhlash. Muayyan holatlarda huquq normasi mazmunini aniqlash uchun faqat uning rasmiy tahlili va uni amalga oshirishning umumiy shartlarini e'tiborga olishning o'zi yetarli emas. Bunda sharhlashni amalga oshiruvchi subyekt norma amalga oshiriladigan shart-sharoit va omillarni ham hisobga olishi lozim.

Maxsus yuridik usul maxsus yuridik bilimlar asosida qonunchilikda qo'llaniladigan yuridik terminlarning mazmunini tushuntirib berish.

Huquq normalarini aynan sharhlash sharhlanayotgan huquq normasi ma'nosini tushunish huquq manbayi matniga to'liq mos kelishida o'z ifodasini topadi. Bunday sharhlashning natijasi huquqiy ko'rsatmaning so'zlardagi ifodasiga to'liq mos keladi. Ya'ni qonun shakli bilan uning mazmuni bir- biriga to'g'ri kelganligi yaqqol namoyon bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining "Normativ- huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi (yangi tahriri) O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 52-son, 583- modda; 2017- y., 37- son, 978- modda.
2. Davlat va huquq nazariyasi (yuridik texnikumlar uchun darslik) Toshkent-2021.

#### 4-SHO'BA: TA'LIMDA SIFAT VA SAMARADORLIKNI OSHIRISH UCHUN XORIJIY TILLAR O'QITILISHINING O'RNI VA MA'SULIYATI.

##### MUALLIFLIK KORPUSLARINING IJTIMOY HAYOTDAGI AHAMIYATI VA ULARDAN FOYDALANISH OMILLARI

*G'ulomova N. S.,*

*Navoiy viloyat PYMO'MM dotsenti,*

*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya:** Maqolada korpus lingvistikasini rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha jahonda olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlar, mualliflik korpuslarini yaratish, rivojlantirish zamonaviy korpus lingvistikasining eng ilg'or yo'nalishlaridan biriga aylanib borayotganligi va bu borada amalga oshirilgan tadqiqotlar ilmiy tahlil qilingan. Shuningdek, mualliflik korpuslarining ijtimoiy hayotdagi ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** korpus lingvistikasi, mualliflik korpusi, metama'lumot, reprezentatsiya, semantik teg.

Raqamli texnologiyalar asrida korpus lingvistikasini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganishga bo'lgan ehtiyojning oshib borishi korpusshunoslik sohasining rivojlanishi va takomillashgan til korpuslarining yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Natijada XXI asrda jadallik bilan rivojlanayotgan kompyuter lingvistikasi sohasida tilga ishlov berish, so'rov-javob tizimi sifatini yaxshilash, lingvistik tadqiqot, lingvodidaktika (til ta'limi), leksikografiyada til korpuslaridan foydalanish samaradorligiga erishilmoqda. Korpus lingvistikasi rivojlangan mamlakatlar tilshunosligida chuqur o'rganilgan soha hisoblanadi. Korpus lingvistikasining paydo bo'lishidan oldin korpus usullarini qo'llash va matn korpuslarini yaratish bo'yicha izlanishlar boshlandi. Ushbu korpuslarni saqlashning elektron shakli, shuningdek, ma'lumotlarni qayta ishlashning avtomatik usullari bo'lmagan, shu bilan bog'liq holda korpusshunoslikning rivojlanish tarixida raqamli texnologiyalar oldingi davr, ya'ni qo'l ishi yuzaga kelgan. Kompyuterning ixtiro qilinishi korpus lingvistikasining rivojlanishi va taraqqiy etishi uchun yangi bosqichni boshlab berdi—yaratilgan korpuslar oldingilaridan nafaqat saqlash formatiga ko'ra, balki hajm jihatidan ham farqlanadigan bo'ldi. Matnlarni elektron shaklga aylantirishda raqamli vositalardan foydalanish nafaqat tilshunoslik, tarix, sotsiologiya va boshqa gumanitar fanlarning dolzarb muammolarini hal qilish uchun yangi korpuslarni yaratishga, balki eski korpuslarning salmog'ini oshirishga, ularni raqamlashtirish va turli eslatmalar hamda izohlar bilan to'ldirishga, shu bilan mazmunan kengayib borishiga imkon berdi.

O'zbek tilshunosligida korpus lingvistikasi nazariy tadqiqotlari jadallashgan, amaliy ishlanmalari foydalanuvchilar e'tiboriga taqdim etilayotgan, o'zbek kompyuter lingvistikasi zamirida shakllangan navqiron soha

hisoblanadi. Hozirda mazkur sohada soʻz turkumlarini teglash, korpus birliklarini grammatik va semantik teglash, teg modellarini shakllantirish, korpusda morfoanalizatorni yaratish, teglash algoritmini ishlab chiqish, shu asosda avtomatik semantik teglash dasturini yaratish boʻyicha ham amaliy ishlar amalga oshirilmoqda.

Korpus lingvistikasida koʻplab tadqiqotlar amalga oshirilgan, ammo mualliflik korpuslariga qaraganda muayyan til korpuslari keng koʻlamli ishlangan. Xususan, Britaniya milliy korpusi va Chex milliy korpuslari, rus tili milliy korpuslari shunday korpuslar sirasiga kiradi. Chex milliy korpusi Praganing Karlova universiteti tadqiqotchilari tomonidan tuzilgan boʻlib, slavyan tillari orasida koʻlami va oʻziga xosligi bilan ajralib turadi. Rus tilining milliy korpusi 2004-yil 24-apreldan boshlab Internetda ishga tushirilgan, 2022-yilning avgustidan yangi versiyasi taqdim etilgan boʻlib, hozirda korpus hajmi 1.5 mlrd soʻz shaklini tashkil etadi, korpus muntazam ravishda toʻldirilib borilmoqda. Rus tili milliy korpusi maʼlumotlari tilshunoslar tomonidan tayyorlangan boʻlib, XVIII asr oʻrtalaridan XXI asr boshlarigacha boʻlgan davrni qamrab oladi hamda davr tilini sotsiolingvistik jihatdan adabiy, soʻzlashuv, xalq tili, qisman dialektal koʻrinishlarda ifodalaydi. Dastlab korpus asosini zamonaviy rus tili shakliga keltirilmagan asliy (tabdil va zarur oʻrinlari tarjima qilinmagan variantda) badiiy matnlar (nasr, dramaturgiya va sheʼriyat) kiritilgan. Keyinchalik badiiy matnlardan tashqari, tilning boshqa namunalari: xotiralar, insholar, publitsistika, ilmiy-ommabop adabiyotlar, ommaviy nutqlar, shaxsiy yozishmalar, kundaliklar, hujjatlar bilan kengaytirilgan. Korpus bazasi asosini badiiy matnlar tashkil etishi natijasida rus adabiy tili korpusining yaratilishiga zamin boʻldi.

Mualliflik korpus muayyan bir muallif tili, yozish uslubi, asarlaridagi til, matn xususiyatlari haqida maʼlumot beruvchi tizim sanaladi. Jahon tilshunosligida hozirgi kunga qadar mualliflik korpuslarini yaratish borasidagi tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 1956-1961-yillarda Pushkin tilining lugʻati, shuningdek, alohida asarlarning lugʻatlari, masalan, 1978-yilda Lev Tolstoyning “Urush va tinchlik” romanining chastotali lugʻati nashr etildi. Ushbu tadqiqot yoʻnalishi, shubhasiz, dolzarb hisoblanib, hozirgi kunda lingvistika sohasidagi tadqiqotchilar va yozuvchilarning zamonaviy mualliflik korpuslarini yaratish borasidagi masalasiga eʼtiborlarini tobora koʻproq jalb qilmoqda. Rus tilining mualliflik korpuslari jahon, shuningdek, rus tilshunosligida shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonaviy soha hisoblanib, uning taraqqiyoti natijasida juda koʻplab ijodkorlarning elektron lugʻat va korpuslari yaratildi. Mualliflik korpuslarining yaratilishi bir qancha yozuvchi, shoir tili konkordansini tuzish, milliy korpusda ularning asarlari bazasini yaratish imkonini berdi. Bu borada rus korpus lingvistikasida amalga oshirilgan ishlar va erishilgan yutuqlar diqqatga sazovor hisoblanadi.


F.M.Dostoyevskiy publitsistikasining lugʻat-konkordansi Dostoevskiyning jurnalistikaga oid chastotali muvofiqlik lugʻati Petrozavodsk davlat universiteti va Kareliya davlat pedagogika universiteti xodimlari hamda Rus tili institutining

eksperimental leksikografiya sektori xodimlari hamkorligida yaratilgan. Ushbu lugʻat har qanday soʻz yoki soʻz shaklining foydalanish konteksti va chastota xususiyatlarini, yozuvchining 30 jildidan iborat toʻliq asarlari haqida metamaʼlumotni olish imkonini beradi. Muallifning badiiy boʻlmagan asarlari, shu jumladan, “Yozuvchining kundaligi” asari ham yozuvchining akademik toʻplangan asarlariga kiritilgan. Dostoevskiyning publitsistik matnlari lugʻat-konkordansdan oʻrin olgan, lugʻat-konkordans IRYa RAS Rus tili mashina fondi boʻlimida tayyorlangan klassik adabiy asarlarning chastotali lugʻati va bir qator matnlarning lugʻat-konkordansini yaratishga asos boʻlgan. A.P.Chexovning mualliflik korpusi tarkibiga barcha tugallangan badiiy asarlari kiritilgan boʻlib, unga yozuvchining mukammal asarlar toʻplami asos qilib olingan[6]. Korpus tarkibida 600 ta matn (asar) mavjud.

Shu oʻrinda milliy korpus, elektron kutubxonalar va mualliflik korpuslari oʻrtasidagi farqli jihatga eʼtibor berish lozim. Milliy korpuslarning oʻziga xos ikki muhim xususiyati mavjud. Birinchidan, u meʼyorlashtirilgan muayyan tarkibga ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Bunday korpus muayyan tildagi (turli badiiy janrlar, publitsistik, oʻquv, ilmiy, ish yuritish, soʻzlashuv, shevaga oid va boshq.) oʻzaro proporsional tarzda korpusga kiritilgan ogʻzaki va yozma matnlarni oʻz qamroviga olgan boʻlishi talab qilinadi. Ikkinchidan, korpusning talab darajasida boʻlishi uchun uning hajmiga eʼtibor qaratish kerak. Masalan, oʻn va yuz milliongacha soʻz qoʻllansa, maqsadga muvofiq keladi. Shunda korpusdan asosiy oʻquv vositasi va tadqiqotda muhim ish quroli sifatida foydalanish mumkin boʻladi.

Korpus matnlarning oʻziga xos jihatlari toʻgʻrisidagi muhim qoʻshimcha maʼlumotlarni annotatsiya yoki lingvistik izoh koʻrinishida saqlaydi. Lingvistik izoh (rus tilida *разметка*, ingliz tilida *tag*) – korpusning asosiy bosh maʼlumotnomasi boʻlib, u korpusni zamonaviy internet tarmogʻida mavjud boʻlgan oddiy matnlar toʻplami (yoki kutubxonalar)dan ajratib turadigan, masalan, Ziyonet kutubxonasi, Hilol virtual kutubxonasi, Maksim Morshkov kutubxonasi yoki rus virtual kutubxonasi kabilardan farqlaydigan omildir. Hozirgi vaqtda mutaxassislar tomonidan “Fundamental elektron kutubxona” yaratildi va u doimiy ravishda rus mumtoz adabiyoti namunalari bilan toʻldirib borilmoqda. Unga nashriyotlarda chop etilgan adabiy matnlar muntazam kiritilib boriladi. Biroq kutubxonalarda qayta ishlanmagan matnlar ham mavjud boʻlib, bu ilmiy tadqiqotlar uchun foydalanishda baʼzi noqulayliklarni yuzaga keltiradi. Shuni taʼkidlash kerakki, bunday kutubxonalar til xususiyatlaridan koʻra matnning mazmun-mohiyati bilan qiziquvchilar tomonidan yaratiladi. Manbalarni jamlash va saqlashga moʻljallangan bunday tizimlar arxiv tizimlar ham deyiladi. Milliy korpus kutubxonalardan farqli ravishda, asosan, til oʻrganish uchun xizmat qiluvchi manbadir. Korpus bazasida oʻrtamiyona yozuvchilarning romanlari ham, oddiy soʻzlashuv matnlari va ijara shartnomalari ham, mumtoz badiiy adabiyot namunalari ham boʻladi. Korpusning rang-barang ilovalar bilan boyitilishi uning ilmiy va oʻqishlilikini baholaydi. Umuman, koʻp maqsadli va polifunksional til korpusi – muayyan

tilning Milliy korpusi hisoblanadi. Bunday korpus bazasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:



Mazkur talablar Milliy korpusning zaruriy lingvistik va lingvodidaktik texnologik vositaga aylanishini ta'minlaydi. Mualliflik korpuslarining yuzaga kelish omillari qanday va ularning bazasiga kiritiladigan matnlarga qanday talablar qo'yiladi? Yuqorida milliy korpuslarga qo'yilgan talablar ko'rib chiqildi. Ta'kidlanganidek, milliy korpus tilning barcha imkoniyatlarini namoyon etuvchi matnlar majmui hisoblanadi, shu bois u umumlingvistik tizim sanaladi. Mualliflik korpuslari esa muayyan ijodkor asarlari matnlarini o'zida jamlashi bilan xarakterlanadi.

Mumtoz adiblar asarlarini o'rganish, adib shaxsiga oid ma'lumotlar va yozish uslubini raqamlashtirish natijasida muallifi noma'lum asarlarning muallifini topish, muayyan mashhur ijodkorlar ijodini keng targ'ib etish va ularning asarlaridan tadqiqotlar jarayonida foydalanish, asosan, qo'l mehnatiga asoslangan kartotekalash jarayonidan voz kechib, asarlardan leksik birliklarga misollar massivini topish maqsadida mualliflik korpuslari yuzaga kelgan. Aniqroq aytganda, axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan yirik hajmdagi materiallar bilan ishlashi mualliflik korpusi imkoniyati oshganligi sababli mualliflik korpuslari ham vujudga keldi. Mualliflik korpusi bazasini yaratish uchun tanlab olingan ijodkorning davridan qat'i nazar, sotsiolingvistik ko'rinishdagi badiiy, so'zlashuv, jonli so'zlashuv, qisman dialektal matnlar tashkil qiladi. Korpusga badiiy qimmatga ega bo'lgan va til o'rgatishga qiziqish uyg'otadigan, original (tarjima qilinmagan) badiiy adabiyot namunalari kiritiladi (nars, nazm, drama ham). Badiiy asarlardan tashqari, yozma adabiyotning boshqa namunalariidan publitsistika, ilmiy-ommabop va ilmiy adabiyotlar, ma'ruzalar, shaxsiy yozishmalar, kundaliklar, hujjatlar va boshqalar ham kiritiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, kompyuter texnologiyasi imkoniyatlaridan keng foydalanish, tilni lingvistik, lingvodidaktik, leksikografik tadqiq qilish natijasida korpus lingvistikasi sohasining ilmiy-nazariy asoslari yaratildi va amaliyotga joriy etildi. Natijada til korpuslarining maqsadi va vazifasilariga ko'ra bir qancha turlari vujudga keldi. Tilning ko'p asrlik boy milliy merosidan foydalanish imkoniyatini oshirish, ularni saqlab kelgusi avlodlarga to'liqligicha yetkazib berish maqsadida yaxlit bir elektron korpus ko'rinishiga keltirish nafaqat o'zbek tilshunosligi, balki butun jahonda dolzarb masala hisoblanadi. Shu ma'noda, jahonda mualliflik korpuslarini yaratish va qo'llash ijtimoiy talabga aylanib bormoqda va mualliflik korpuslari tadqiqotchilar uchun eng qulay axborot manbai hisoblanishi bilan zamonaviy tilshunoslikda nazariy hamda amaliy sohalarining muhim qismiga aylanib ulgurdi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Якубовский К.И., Якубовская К.А. Обзор современных лингвистических технологий и систем // Вестник МГУП. 2015. №2 – С. 315.
2. Суровцева Е. В. Общеязыковые корпуса русского языка: подкорпусы художественных текстов. “Молодой учёный”. № 49 (235) 2018 . – 420 с.
3. Rus adabiy tilining korpusi. Электрон ресурс: <http://www.narusco.ru/>.
4. Национальный корпус русского языка (Rus tilining milliy korpusi). Электрон ресурс: <http://www.ruscorpora.ru/search> (murojaat vaqti 15.03.2022).
5. Словарь-конкорданс публицистики Достоевского Ф.М. – <http://dostoevskij.karelia.ru/>
6. Чехов А.П. Полное собрание и писем в 30 т. – М.: Наука, 1974-1983.
7. Pirmatov A., Qurbonova X. Tilshunoslikning dolzarb muammolari. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Urganch, 2019. – B. 2.
8. Abjalova M. Korpus lingvistikasi. [Matn]: uslubiy qo'llanma / M.A. Abjalova. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – B. 39.
9. <https://ruscorpora.ru/new/corpora-usage.html>

## ОРГАНИЗАЦИЯ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА НА ОСНОВЕ ВНЕДРЕНИЯ SMART ТЕХНОЛОГИЙ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

*Тухфатуллина Д.Т.,*

*Руководитель отдела методической службы при  
национальном центре обучения педагогов новым методам.*

**Аннотация:** В статье освещены вопросы использования SMART технологий, предполагающих реализацию требований Национальной программы по подготовке кадров в Республике Узбекистан.

**Ключевые понятия:** SMART технологии, SMART-образование, педагогический процесс, современное образование, мультимедийная презентация, реализация, гармонически развитая личность.

**Annotatsiya:** Maqolada O'zbekiston Respublikasi kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablarini amalga oshirishni ko'zda tutuvchi SMART texnologiyalardan foydalanish masalalari yoritilgan.

**Tayanch tushunchalar:** SMART texnologiyalar, SMART-ta'lim, pedagogik jarayon, zamonaviy ta'lim, multimediyali taqdimot, amalga oshirish, shaxsning uyg'un rivojlanishi

**Annotation:** The article describes the use of SMART technologies, which provides for the implementation of the requirements of the national personnel training program of the Republic of Uzbekistan.

**Basic concepts:** SMART technologies, SMART education, pedagogical process, modern education, multimedia presentation, implementation, harmonious development of personality

Широкое использование новых образовательных и информационных *SMART* программы по подготовке кадров в Республике Узбекистан. Для анализа педагогической работы требуется знать критерии педагогического мастерства, которые помогают учителям - новаторам качественно осуществлять педагогический процесс.

Любые образовательные концепции и новшества в системе требуют для своей реализации определенной системы действий. Если же эта система достаточно вариативна, многопрофильна и гибка, ее чаще всего называют – методической, если же она задается в более или менее алгоритмической последовательности с расчетом на получение точного результата, ее называют – технологией.

Если проанализировать любую технологию обучения, то можно заметить, что в них используются различные методы обучения. Но особенность *SMART* технологии в том, что все это соединено вместе и дает эффективный и интересный результат работы не только учителей, но и учеников.

К основным принципам SMART-образования относятся:

1. Использование в образовательной программе актуальных сведений для решения учебных задач: скорость и объем информационного потока в образовании и любой профессиональной деятельности стремительно нарастает, существующие учебные материалы необходимо дополнять сведениями, поступающими в режиме реального времени, для подготовки учащихся к решению практических задач.

2. Организация самостоятельной познавательной, исследовательской, проектной деятельности учащихся. Данный принцип является доминирующим при подготовке детей к творческому поиску решения поставленных задач, самостоятельной информационной и исследовательской деятельности.

3. Реализация учебного процесса в распределенной среде обучения. Образовательная среда не должна ограничиваться территорией учебного заведения или пределами системы дистанционного обучения. Процесс обучения должен быть непрерывным.



4. Гибкие образовательные траектории, индивидуализация обучения. Многообразие образовательной деятельности требует предоставления широких возможностей для учащихся по изучению образовательных программ и курсов, использованию инструментов в учебном процессе в соответствии с их возможностями здоровья, материальными и социальными условиями.

В школах и других образовательных учреждениях Smart Education (умное образование) – концепция, которая предполагает комплексную модернизацию всех образовательных процессов, а также методов и технологий, используемых в этих процессах, что позволяет по-новому построить процесс разработки контента, его доставки и актуализации.

Что обеспечивает?

- ❖ Обучение в режиме онлайн
- ❖ Обучение в неформальной обстановке
- ❖ Дистанционное обучение
- ❖ Мобильное образование

В целом, SMART-образование - образовательная парадигма, которая предполагает адаптивную реализацию образовательного процесса, возможную на основе использования информационных SMART-технологий. На пути создания системы SMART-образования много трудностей, которые предстоит преодолеть, прежде всего силами преподавателей, имеющих глубокие знания в области IT технологиях и в предметных областях.

Как могут помочь обучению смартфоны, мобильные телефоны, планшеты и другие умные устройства?

В образовательной практике школьников мобильные технологии используются для:

- ✓ получения информации из интернет-энциклопедий;
- ✓ поиска необходимой информации;
- ✓ перевода слов или фраз через программу-переводчик;
- ✓ визуализации информации;
- ✓ просмотра видеолекций
- ✓ тестирования или анкетирования в режиме онлайн;
- ✓ проведения различных лабораторных экспериментов.

Широкое распространение SMART-обучения связано, **во-первых**, с совершенствованием интернет-технологий.

**Во-вторых**, с развитием беспроводных технологий, таких как Wi-Fi, 3G, 4G, 5G ... и, в-третьих, широкой распространённостью в сети интернет интерактивных обучающих ресурсов.

Основой формирования Smart Education послужило также развитие технологий Web 2.0 (Приложение 1.), таких как Facebook, YouTube, Twitter и блоги, которые позволяют людям создавать собственный интернет-контент.

А как применять возможности технологии Web 2.0 в педагогической практике?

На этот вопрос есть ряд ответов:

- ✓ самостоятельное создание учебных материалов;
- ✓ общение с родителями своих учеников (ЭЖ, соц. сети);

✓ профессиональное развитие и обучение (Интерактивная доска SMART Boards, ПО SMART Notebook, Smart Classroom Suite - программное обеспечение, помогает учителям и ученикам создавать материалы для интерактивного обучения с использованием пакета программ, специально разработанного для совместной работы).

Уже стало нормой проведение учебных занятий с использованием мультимедийных презентаций, сделанных в таких программных пакетах, как Microsoft Power Point или Macromedia Flash. Однако, наряду с привычными презентационными технологиями (Microsoft Power Point, Macromedia Flash), в сферу образования проникают новые, так называемые, интерактивные технологии, которые позволяют уйти от презентации в виде слайд-шоу.

Новая форма подачи материала с помощью интерактивного оборудования, например, интерактивной доски SMART Boards, представляет собой презентацию, создаваемую докладчиком во время своего выступления - презентацию, создаваемую здесь и сейчас. На интерактивных досках SMART Boards можно писать специальным маркером, демонстрировать учебный материал, делать письменные комментарии поверх изображения на экране. При этом все написанное на интерактивной доске SMART Board передается учащимся, сохраняется на магнитных носителях, распечатывается, посылается по электронной почте отсутствующим на занятии. Учебный материал, созданный во время лекции на интерактивной доске SMART Board, записывается встроенным видеорекордером и может быть многократно воспроизведен.

Таким образом, педагог и ученики становятся равноправными участниками образовательного процесса: всем в одинаковой степени доступна необходимая информация и каждый дополняет общий вывод исследования результатами своей работы.

Современное образование без использования гаджетов в своих новых подходах преподавания сложно представить. Для того чтобы создать из

гаджета SMART-инструмент для обучения необходимо установить дополнительное программное обеспечение. При этом возникает ряд вопросов: Какое программное обеспечение необходимо установить в смартфон или планшет? Как это сделать?

Для решения этих вопросов система Google предлагает приложение «Play Маркет», с помощью которого устанавливается любое SMART-приложение на мобильное устройство.

Play Market – это приложение, установленное в стандартных средствах мобильной операционной системы Android смартфонов и планшетов. Для того чтобы пользоваться данным приложением необходимо зарегистрировать аккаунт в системе Google. Зарегистрированные пользователи получают доступ ко всем сетевым приложениям системы Google. Приложение предлагает пользователю широкий спектр категорий, как для досуга, так и для обучения.

Для каждого учебного предмета существует огромное количество приложений.

Действительно, в формате мобильного обучения можно сделать очень многое, но, чтобы мобильное обучение было по-настоящему успешным, учебный контент нужно либо специально создавать для этого формата, либо тщательно адаптировать. В процессе принятия решений по использованию компьютеров, планшетов или других технических средств обучения необходимо руководствоваться правилом: учит не устройство, а преподаватель. Гаджет же только помогает и делает процесс обучения более эффективным и интересным. Их главный потенциал состоит в простой адаптации к учебной программе и возможности его использования учителем на уроке.

Применение Smart-технологий в обучении школьников неоднозначно. Много проблем связанных с отсутствием единого подхода, концепции, технического обеспечения, наличия платного контента и т.д. Но время таково, что отношение к Smart – технологиям как к чему-то фантастическому должно смениться серьезной работой и практическими шагами по использованию полезных ресурсов Сети в образовательных целях.

#### **Список литературы и источники:**

1. Алексеева, Л. Н. Инновационные технологии как ресурс эксперимента/ Л. Н. Алексеева// Учитель. - 2004. - № 3. - с. 78.
2. Тихомиров В.П. Мир на пути Smart Education: новые возможности для развития // Открытое образование. 2011. - № 3. - С.22-28.

## TA'LIM TIZIMIDAGI INNOVATSIYALARNI PEDAGOGIK JARAYONLARGA KIRITISHNING O'ZIGA XOS BOSQICHLARI

*Mirzayeva X.,  
Navoiy viloyati PYMO'MM o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** maqolada oliy ta'lim muassasalari professor–o'qituvchilarining muntazam kasbiy o'sishida interaktiv metodlar, pedagoglarning tahliliy, tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion metodikalar, mustaqil ta'lim olishni kengaytirishni nazarda tutuvchi texnika va texnologiyalardan foydalangan holda mashg'ulotlar olib borish malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri ekanligi asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim sifati, kasbiy kompetentlik, pedagogik innovatsiya, innovatsion texnologiyalar, innovatsion jarayonlar, axborot texnologiyalar.

Hozirgi davrda har bir pedagogning o'z ustida ishlashi ta'lim jarayoniga ilg'or texnologiyalarni tatbiq etishi hamda talabalarga eng so'ngi yangiliklar asosida bilimlarni yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundun-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalarda esa, ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni o'zlari keltirib chiqarishlarga o'rgatadi. Pedagog bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida talaba asosiy figuraga aylanadi [2, 4, 6]. Shuning uchun oliy o'quv yurtlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari - interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Chunki, pedagogik texnologiya va interaktiv metodlar talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Bizning mamlakatimizda pedagogik innovatsiyani yaratilishi va rivojlanishi keng jamoatchi pedagoglar harakati, ta'lim tizimidagi maktablarning tez rivojlanishi, modernizatsiya qilinishi, standartlarni takomillashtirilishi va dasturlarni yangilanishiga bo'lgan katta ehtiyoj tug'ildi. Yangiliklarni izlash, yaratish, qo'llash ishlari jadallashib bordi. Shu sababli yangi bilimlarga bo'lgan talab, "yangilik", "innovatsiya" va "innovatsion jarayonlar" paydo bo'ldi. Ilmiy tadqiqotlarda "Pedagogik innovatsiyalar" ko'pincha ta'limni yangilash, isloh qilish jarayoni sifatida, material (g'oya, harakat, shakl, vosita, kontseptsiya, dastur) sifatida, ilg'or o'qitish metodlarini aniqlash va zamonaviy sharoitlarda qo'llanish uchun eng ma'qul va eng moslashganini tanlab olish tariqasida ta'riflanadi [1, 2, 3, 4, 5]. M.S.Burgin pedagogikada "yangilik"- ning quyidagi tavsiflarini taklif etadi: boshqa narsada ma'lum bo'lganini takrorlash; ma'lum narsani uncha muhim bo'lmagan o'zgarishlar bilan takrorlash; avval ma'lum

bo'lganini aniqlashtirish; avval ma'lum bo'lganini jiddiy yangi elementlar bilan to'ldirish; sifat jihatidan yangisini yaratish. Innovatsion jarayonlarning mikrostrukturasini o'rganib, olimlar yangilik kiritishning "hayotiy qismi (davri)" kontseptsiyasini ishlab chiqdilar, ular yangilik kiritish vaqt davomida o'tib boradigan jarayon degan fikrni ilgari surdilar. Shu davrga kelib ilmiy adabiyotlarda innovatsion jarayonlar quyidagi bosqichlarga ajratilmoqda:

1. Yangi g'oya paydo bo'lishi yoki yangilik kontseptsiyasi yuzaga kelishi bosqichi. Uni shartli ravishda fundamental va amaliy ilmiy tekshirishlar (yoki birdan paydo bo'ladigan) natijalardan kelib chiqadigan yangilik bosqichi deb ataydilar.
2. Kashf etish vaqti, ya'ni amalga oshgan ob'ekt, moddiy yoki ma'naviy mahsulot namuna ko'rinishdagi yangilik yaratish.
3. Yaratilgan yangilikka amaliy ko'rinish topilib, uni qo'shimcha ishlash orqali mukammallashtirish amalga oshiriladi. Bu bosqich yangilik kiritishdan mustahkam samaradorlikka erishish bilan yakunlanadi. Shundan so'ng yangilikning mustaqil mavjudligi boshlanib, yangilik kiritish jarayoni keyingi bosqichga o'tadi. Bu bosqich faqatgina yangilikni qabul qilish shartida amalga oshadi.
4. Yangilikning biror sohada tarqalishi, uning boshqa sohalarga diffuziyalanib (qo'shib) keng tatbiq etilishi bilan yakunlanadi.
5. Yangilikning biror sohada hukmron bo'lishi, bunda xususan yangilik o'z yangiligini yo'qotib, yangilik sifatida mavjud bo'lmay qoladi. Bu bosqich yangi samarali yangilik paydo bo'lishi yoki undan ko'ra yanada samaralirog'i bilan almashtirilishi bilan yakunlanadi.
6. Yangilik doirasi qisqarib, uni yanada mahsuldorligi bilan almashtirilishi bilan yakunlanadi. Innovatsion jarayon boshqa sifatli holatga eskirib qolgan hamda vaziyat va ahamiyatlarini qayta ko'rib chiqish bilan bog'liq bo'ladi. Bir darajali qator yangiliklar yig'indisi (umumiyli) innovatsion yaxlitlikni tashkil etadi.

Innovatsion faoliyat davrida yangiliklar, innovatsiyalar, tom ma'noda ta'lim jarayoniga kirib keladi. Shu sababli ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni pedagogik jarayonlarga kiritish to'rt bosqichda amalga oshiriladi:

1. Muammoni tahlil asosida aniqlash;
2. O'zgarishlarni amalga oshirish ;
3. O'zgarish va yangiliklarni rejalashtirish;

4. Mo'ljallanayotgan ta'lim tizimini loyihalash. Yuqorida keltirilgan innovatsion jarayonning bir – birini vaqtlar davomida yangi bosqichga ketma – ket almashtirib borilishi, uning rivojlanib borishining soddalashtirilgan ko'rinishlarida ifodalanadi. Biroq aniq innovatsion jarayon bu bosqichlarni o'z ichiga olib, ularning ketma – ket va bog'liqliklariga har doim rioya qilinishi shart emasligini ham ko'rsatadi. Ko'pchilik pedagog olimlar ishlarida pedagogik innovatsiyalar quyidagicha guruhlanadi: Innovatsiyalar ob'ekti bo'yicha ta'lim mazmunida innovatsiyalarga; o'qitish va tarbiyalashning texnologiyasida innovatsiyalarga; ta'lim muassasalarini boshqarish tizimida innovatsiyalarga; ta'lim muhitida innovatsiyalarga bo'linadi. Kelib chiqish xususiyatiga ko'ra esa tashqi va ichki innovatsiyalarga ajratiladi. Shu bilan birga tashqi innovatsiyalar

yuqori tashkilotning buyrug'i yoki yo'riqnomasi bo'yicha qabul qilinadi va amalda joriy qilinadi. Pedagogik tizimga ichki innovatsiyalarni joriy qilish amaliyotga nisbatan pedagogik refleksiylar natijasida yuz beradi. Innovatsiyalar texnologik ta'lim jarayoni kiritishni yangilik yaratish va amalga oshirishning kompleks va maqsadga muvofiq jarayon sifatida qarab, uning maqsadi inson talab va ehtiyojlarini yangi vositalar bilan qondirilishi bo'lib, uning samaradorligi muntazam va hayotiy yangilikni ta'minlovchi uslub va tizimlarni ma'lum sifatli o'zgarishiga olib keladi. Pedagogning innovatsiyalardan samarali foydalanishi asosan pedagogning kasbiy tayyorgarligiga hamda uning shaxsiy tajribasiga bog'liq. Pedagogda shaxsiy tayyorgarligining yetarli emasligi, yangiliklar haqida tasavvurlarining va shaxsiy imkoniyatlarining torligi o'quv muammosini anglab yetilmasdan qolishda namoyon bo'lishi mumkin. Shunday qilib, pedagogik innovatsiyalar deganda biz vosita, metod, usul, texnologiya va hokazo emas, balki ularni yaratish, o'zlashtirish va amalda qo'llash, baholashni hamda boshkarishni tushunishni taqozo etadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsiyalarning qo'llanilishi bir jihatdan ta'lim jarayonini doimiy takomillashtirish zarurligidan iborat bo'lgan pedagogik amaliyotning ob'ektiv ehtiyojlariga bog'liq, ikkinchi jihatdan esa ularni qo'llanish samaradorligi pedagoglarning sub'ektiv sifatlariga, ularning pedagogik innovatsiyalarning ob'ektiv zarurligini anglaganlik darajasiga bog'liqligini ko'rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdulkarimov H., Suvonov O. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O'quv-metodik qo'llanma. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010.-76 b.
2. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. -Toshkent, 2001. – 69 b.
3. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat – Toshkent: Moliya, 2003. – 174b.
4. Беспалько В.Р. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – Москва: IRPO, 1996.- 336 s.
5. Jo'raev R.H., Raximov B.X., Xolmatov Sh..F. Yangi pedagogik texnologiyalar: muammoli ta'limga asoslangan o'quv-metodik qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2005.- 66 b.
6. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – Toshkent: Iste'dod jamg'armasi, 2010. – 142 b.
7. Olimov Q.T. va boshqalar. Kasb ta'limi metodikasi. Darslik. –Toshkent: "Fan va texnologiyalar", 2016.– 328 b.

## O'ZBEK TILI DARSLARDA IJODIY ISHLARNI TASHKIL ETISH (BOSHLANG'ICH SINFLAR MISOLIDA)

*Shopulatova N.U.,*

*Konimex tumani 2-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** maqolada o'zbek tili ta'limida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish muammolari nazariy tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** kompetentlik, darslarida nutqiy kompetensiyalar, interfaol ta'lim, kommunikativ sifatlar.

Mustaqillik yillarida umumiy o'rta ta'limning uzluksiz rivojlanishi uchun bir qancha shart-sharoit yaratildi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Milliy dasturi" qabul qilindi. Natijada o'zbek maktabi raqobatbardosh yoshlarni yetishtirib chiqarishning yetakchi maskaniga aylandi.

Ta'limni, jumladan, boshlang'ich sinflarda o'zbek tili ta'limini ijodiy tashkil etishni hech kim inkor qilmaydi. Aksincha, ta'limni ijodiy tashkil etish yo'li bilan uning samaradorligini oshirish, yoshlarni hayot, ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlarga tayyorlashning sifatini yaxshilash mumkinligini o'qituvchilar ham, ilmiy jamoatchilik ham e'tirof etadi.

Ta'limni ijodiy tashkil etish muammosining pedagogik jihatlarini B.R.Adizovning "Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari" nomli doktorlik dissertatsiyasida keng o'rganilgan. U ta'limni ijodiy tashkil etishni kompleks muammo sifatida ajratib, uning tarkibini mantiqiy tahlil qilishga alohida e'tibor qaratgan. "Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etish obyektiv reallik-ta'lim jarayonining izlanish hamda tahlil qilish maqsadida ajratilgan alohida nuqtai nazari bo'lib, kompleksning realligi o'zida (ta'lim jarayonining real amal qilishi ko'zda tutilgan-A.H.) zuhur etadi. Shunday bo'lgach, muammoni tashkil etgan tarkibiy qismlarni aniq tasavvur qilmasdan turib, ilmiy izlanishni asoslash mumkin emas.

Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etish masalalarini B.R.Adizov "tadqiqotchi-muammo" tizimida tahlil qilib, uning quyidagi tarkibiy qismlarini ajratadi:

- ijodiy ta'limni tashkil etish;
- bolalarning o'quv materiallarini ijodiy o'zlashtirishi;
- o'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni tarbiyalash.

B.R.Adizovning yozishicha, ijodiy ta'limni tashkil etish-bu o'quv materiali bilan o'quv faoliyati o'rtasidagi aloqalarni yuzaga chiqarishdir. U o'quvchi va o'quv materiali o'rtasidagi to'rt xil aloqa turini tasnif etgan:

- mazmun aloqa;
- maqsad aloqa;
- funksional aloqa;
- vositaviy aloqa

Bu aloqalarning amal qilishi uchun o'quvchining ta'lim jarayonidagi maqomini o'zgartirishga ehtiyoj tug'iladi. Shu tufayli muallif ta'limda o'quvchilarning faol ishtirokini, ularning o'quv-biluv faoliyatini asosli tahlil

qilgan. Ushbu tadqiqotda bolalarning o'quv-biluv faoliyati ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida qaralib, o'quvchi ijodkorligining qator tamoyillari ajratilgan:

- ziddiyatlilik;
- onglilik;
- mustaqillik;
- faollik.

Tahlil qilinayotgan tadqiqotda bolalarning o'quv-biluv faoliyatining to'rt asosiy komponenti ajratilgan. Bular maqsad, motiv, vosita, natijadir. Faoliyatning shu jihatlari keng tahlil qilinib, unga quyidagi umumiy ta'rif berilgan: "Faoliyat-bu ijtimoiy qimmatli motivlarga ko'ra maqsadga yo'nalgan, o'ziga oid vositalar asosida ma'lum natija bilan yakunlanadigan xatti-harakatlar tizimi". Keltirilgan umumiy ta'rifga rioya qilib, bolalar faoliyatining ikki nuqtai nafari ajratilgan: o'quv faoliyati; biluv faoliyati. Muallif faoliyatning mazmuni, maqsadi, vositasi, natijasiga umumiy tavsif berib, bolalarning o'quv faoliyati va biluv faoliyatining har biriga xos belgilarni ajratib ko'rsatgan.

B.R.Adizov ijodiy ta'lim muammolarini bayon qilishda "o'rganish" atamasiga alohida diqqat qilib, bola o'quv faoliyatida ham, biluv faoliyatida ham o'rganadi, deb yozadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatida o'qish, hisoblash, buklash, qirqish, o'lchash, yozish, chizish, kuzatish, taqqoslash, tinglash, javob qaytarish kabi o'quv harakatlari qo'llanadi. Bolalar natijaga ikki yo'l bilan erishadi: tayyor bilimlarni o'rganish. Bunday bilimlar o'quv faoliyati mahsuli sanaladi. O'quv predmetiga oid dalillarni tahlil qilish, xulosalar chiqarish yo'li bilan o'rganish. Bunday bilimlar biluv faoliyati, binobarin, ijodiy faoliyat mahsuli hisoblanadi.

B.R.Adizov o'quv faoliyati va biluv faoliyatini o'zaro taqqoslab, boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning qator o'lchovlarini asoslab bergan. Ta'limni ijodiy tashkil etish-bu:

- ta'limda o'quvchi maqomini o'zgartirish, uni ta'lim jarayoni subyektiga aylantirish,
- me'yoriy ta'limlar doirasidan chiqib, ta'limni o'tkazish,
- bolalar faoliyatini bilim, ko'nikma-malaka, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlar kompleksiga yo'naltirish,
- o'ziga xos maqsad, vosita, natija, motivlarni ko'zlab ta'limni tashkil etish,
- ta'limni tafakkurga mo'ljallab o'tkazish,
- bolalar o'zlashtirishini istiqbolga (kelajakda bilimdon fuqaro bo'lib etishish) rag'batlantirish demakdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli qarori. 6-aprel 2017y
2. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Ta'lim sohasini isloh qilish, kasb-hunar ta'limi tizimini yanada rivojlantirish va oliy ta'limning bakalavr yo'nalishiga qabul bo'yicha test sinovlarini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan"



yig'ilishdagi nutqidan. T. 2017-y.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" farmoni. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjati. – T.: 2017-yil, 6-son, 70-modda.

4. Turdiev N.SH., Asadov YU.M., Akbarova S.N., Temirov D.SH. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. -T.: T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI, 2015.- 8 b.

## O'ZBEK TILI (TA'LIM BOSHQA TILLARDA) FANI DARSLARIDA ROLI O'YINLAR VA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

*Xakimova D.I.,*

*Navoiy viloyati PYMO'MM metodisti*

**Annotatsiya:** Maqolada o'zbek tili (ta'lim boshqa tillarda) darslarida o'quvchilarni faollashtiruvchi metodlar, ularni tashkil qilish yo'llari, interaktiv doskadan foydalanishning dars samaradorligini oshirishdagi ahamiyati to'g'risidagi masalalar o'z aksini topgan.

**Аннотация:** В статье отражены вопросы методов активизации учащихся на уроках узбекского языка (обучение на других языках), способы их организации, а также значение использования интерактивной доски в повышении эффективности урока.

**Annotation:** The article reflects the issues of methods for activating students in Uzbek language lessons (teaching in other languages), methods of organizing them, as well as the importance of using an interactive whiteboard in increasing the effectiveness of the lesson

**Tayanch tushunchalar:** o'zbek tilini o'rganish, rolli o'yinlar, hamkorlik, multimediyaga vositalaridan foydalanishning afzalligi, o'qituvchi va tahsil oluvchining faoliyati, faollashtirish jarayoni, ijodkorlik.

**Ключевые понятия:** изучение узбекского языка, ролевые игры, совместная работа, преимущества использования мультимедийных средств, деятельность учителя и учащихся, процесс активизации, креативность.

**Key Concepts:** learning the Uzbek language, role-playing games, teamwork, advantages of using multimedia, teacher and student activities, activation process, creativity.

Til-millat ruhi sanaladi. O'zbek tiliga e'tibor, uni o'rganishga bo'lgan qiziqish yildan yilga ortib bormoqda. Bu borada respublikamizda ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, umumta'lim maktablarida o'zbek tili(ta'lim boshqa tillarda) fanining o'qitilishi bo'yicha ham yangiliklar talaygina. Ta'lim-tarbiya sohasidagi samarali islohotlar ta'lim mazmunini

yaxshilashga pedagogik vositalarni qo'llash, innovatsion texnologiyalarni tatbiq qilishga keng yo'l ochmoqda.

Hozirgi davrda o'zbek tili fanini takomillashtirib o'qitish-davr talabi. Bu jarayonda zamonaviy o'qitish uslublari-interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga faol tatbiq etish hisobiga ta'lim jarayonining rag'bati (motivatsiyasi) kuchaytirilishi mumkin. O'quv omillarini yaratishga asoslangan pedagogik texnologiya o'qituvchilarning o'quvchilarga muloqot asosida ta'sir etish yo'llarini ham o'z ichiga oladi. [1] O'zbek tilini o'rganishda o'qituvchi va o'quvchi muloqoti biryoqlama va hamkorlikda bo'lishi mumkin. Biryoqlamalikda o'qituvchi so'raydi, o'quvchi javob beradi. Hamkorlikda guruh va jamoa bo'lib har bir o'quvchi mustaqil va faol ishtirokchiga aylanadi. Bunda barcha o'quvchilar o'zaro muloqotga kirishadi hamqo'zlarining qobiliyatlarini namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'quv hamkorligini ta'minlash muammosi so'nggi yillarda mutaxassislarining e'tiborini o'ziga jalb qilmoqda. Hamkorlik-birgalikda faoliyat, o'zaro munosabatga kirishuvchi sub'yektlarning faolligini namoyon qiluvchi pedagogik jarayon sifatida o'ziga xos xususiyatga ega. [2]

Hamkorlikda ishlash axborot almashish, bir maqsad sari intilish, qoidalar asosida diskussiya qilish imkoniyatini beradi. Hamkorlikda ishlash o'quv materialini o'zlashtirishda juda muhim bo'lib, bunda o'quvchilarning har biri o'zining individual hissasini qo'shadi, bilim almashish, turli loyihalar taklif etish, yangi g'oya berish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada do'stona muhit, bir-birlarini qo'llab-quvvatlash kabi ijtimoiy ko'nikmalar shakllanadi.

O'qitishning shunday usullarini tanlash kerakki, o'quvchilarning faolligi oshishi, dars sifatining natijadorligi rivojlanishi kerak. Bu uchun zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan unumli foydalanish zarur. Bular: turli o'yinli mashg'ulotlar, internet-texnologiya va multimedia vositalaridir.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, interfaol usullar orqali o'qitish o'quvchilarda kuchli motivatsiyani, mustahkam bilimni, ulardagi ijodkorlik va tasavvurni, kommunikativlik, yani o'zaro muloqot ko'nikmasini, hayotiy ko'nikmalarni, jamoaviy ko'tarinki ruhni, erkin mustaqil yashab keta olishni, o'z ustida ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi.

O'zbek tili fani o'qituvchisining oldidagi eng asosiy masala shundaki, u o'quvchilarni hamkorlikda ishlash jarayonida o'zbek tilini anglagan holda, bilimlariga tayangan holda egallashishiga ko'maklashi lozim.

Rolli o'yinlar-produktiv o'qitishning samarali usullaridan biridir. O'yin texnologiyalari ta'lim samaradorligini ta'minlash, o'quvchilarda faollikni yuzaga keltirish, bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, vaqtni qisqartirish, ta'limni jadallashtirishga yordam beradi. [3]

Rolli o'yinlarning muhim bosqichlarining ketma-ketligi quyidagicha bo'ladi:

- biror kommunikativ vaziyat ko'riladi va muhokamasi o'tkaziladi;
- muammoli vaziyatlarga yechim topiladi, rollar aniqlanadi;

- o'yinning qoidasi, ketma-ketligi ko'rib chiqiladi;
- rollar bo'lib beriladi, o'yinning ssensriysi aniqlanadi;
- jihozlar, emblemalar, plakatlar tayyorlanadi;
- har bir o'quvchining alohida tayyorgarligi boshlanadi;
- rolli o'yinni o'tkaziladi;
- yakuniy xulosa chiqariladi, muhokama qilinadi.

Metoddan kutiladigan natija (xulosa qismi juda muhim) juda samarali, ya'ni jarayonni tayyorlash va o'tkazishda ishtirokchilarining har birining qo'shgan hissasi, o'quvchilarning o'z-o'zini baholashi, didaktik materialni o'zlashtirish sifati, ijroda o'zbekcha talaffuz me'yorlariga amal qilishi, hayotiyliigi va ifodaliligi, o'ziga ishonchi, ijodkorligi, xotirasi, diqqati, fikrlashi, o'zaro munosabati, suhbatlashish ehtiyoji, kasbiy, ijodiy fikrlashi rivojlanadi, o'rganilgan bilim va ko'nikmalar mustahkamlanadi.

Rolli o'yinning maqsadi shuki, unda har bir ishtirokchi o'ziga xos tarzda rol uchun tayyorgarlik ko'radi. Rolli o'yinlarning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

rolli vaziyat yagona syujetga egaligi, boshqa ishtirokchilar bilan muloqotga kirishishi holati bilan ajralib turadi;

ishtirokchilar rol ijro etayotganda ular yo o'zini, yo vaziyat bo'yicha biror timsolni ijro etadilar. Shuning uchun rolli o'yinlar o'kazilayotganda tomoshabin bo'lmaydi va ishtirokchilar erkin o'zlarini namoyon etadilar;

fanga doir kompetensiyalar, ya'ni izlanuvchanlik, kommunikativlik. tashkiliy-boshqaruvchilik, hamkorlikda ishlash bilim va ko'nikmalari shakllantiriladi.

Bu shakldagi mashg'ulot "Dorixonada", "Shifokor huzurida" kabi mavzularda o'tkazilishi mumkin.

### **O'yin nomi: "Quyosh urishida birinchi yordam ko'rsatish"**

Bu o'yin suhbat o'tkazish ko'nikmasini shakllantiradi. Uni o'tkazishda o'quvchilar bir-birlarini ko'rib turishlari va o'yin ishtirokchilarining so'zlarini diqqat bilan kuzatadilar. Guruh ikkiga bo'linadi: biri yordam beruvchilar, biri esa birinchi yordam ko'rsatilishi zarur bo'lganlar.

Har bir guruhga dialog tuzishda foydalanishi mumkin bo'lgan, faol so'zlar yozilgan kartochkalar beriladi. Interaktiv doskada videorolik (yoki rasmlar jamlamasi) beriladi, shu asosida o'quvchilar rolikning bosh qahramonlariga ovoz berishlari zarur bo'ladi.

O'qituvchi shunchaki yo'lovchi sifatida o'yinni savol bilan boshlaydi. "Uning ko'rinishi bugun yaxshimas" deb suhbatni boshlashi mumkin. O'quvchilardan biri bu savolga javob beradi. Keyingi o'quvchi kartochkasidagi so'zdan foydalanib suhbatni davom ettiradi.

Lug'at:

1. quyosh urishi—солнечный удар;
2. sovitish, salqinlatish—охлаждать, (здесь) прохладный;
3. soyali—тенистое;
4. qo'llab-quvvatlash—поддерживать;

## 5. qon aylanishi—кровообращение

O'yin paytida o'qituvchi o'ziga yo boshlovchilik, yo ikkinchi darajali rollardan birini tanlaydi. Sababi shuki, o'yin jarayonida qatnasha oladi, suhbatga passiv-nofaol o'quvchilarni jalb qiladi, kerakli o'rinda o'yinning borishini yo'naltirib boradi.

Rolli o'yinlar o'quvchilarning o'qish faoliyatining samaradorligini oshiradi, ularning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantiradi, bolalarning jarayonga psixologik tayyorgarligini hosil qiladi. Shu tariqa o'quvchilarning lug'atdan unumli foydalanishi, o'rganilgan grammatik mavzularni izchilligi ta'minlanadi. So'nggi bosqichda o'quvchilarga test berish ham mumkin. Natijalar jamlangach, butun guruhga baho qo'yiladi yoki eng yaxshi guruh nomi aniqlanadi.

O'zbek tilini o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanish hozirda juda dolzarb. Bu usul o'qitishdagi o'ziga xos yondashishga yordam beradi hamda o'quvchilarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlaydi. Keyingi yillarda interaktiv doskalardan keng foydalanilmoqda. Oldindan tayyorlangan tekstlar, jadvallar, qo'shiq, kuy, videofragmentlar darsni dinamikasini ko'tarishda, materiallarni mazmunli effektli berishda, ijodiy faollikni oshirishda, eng muhimi, til o'rganishda ijobiy natija beradi.

Interaktiv doskaning afzalligi shundaki, u orqali berilgan materialni faol izohlash mumkin, elektron marker bilan rangni o'zgartirish, qalinlatish, belgilash imkoniyati bor, natijalarni alohida faylda saqlash imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, bir vaqtning o'zida ham tekst, ham grafik-tasvir, ham video va audiomatn bilan ishlash imkoniyati bo'ladi, vaqtdan unumli foydalanish mumkin. Avvaldan tayyorlanib qo'yilgan matnlar ("Sinfda", "Kutubxonada", "Bog'da") samarali dars o'tish yoki darsni faollashtirish uchun, o'tilganlarni takrorlash, nutqni o'tirish uchun juda qulay. Bunday matnlar o'zbek tilda mukammal gapira olish, so'zlarni qo'llay olish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Interaktiv materiallarni tayyorlashda quyidagi saytlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

1. **ta'lim.uz** platformasi orqali milliy ta'lim dasturiga to'liq mos keluvchi o'zbek tilidagi virtual laboratoriyalar, onlayn mashg'ulot va mashqlar, test topshiriqlari, video, audio va multimedia ko'rinishidagi 100 000 dan ortiq o'quv manbalari hamda umumiy o'rta ta'limning amaldagi o'quv dasturi asosida matematika, tarbiya, ingliz tili fanlari (boshlang'ich sinflar uchun), ona tili, kimyo, biologiya, fizika, astronomiya, matematika, algebra, geometriya, adabiyot fanlaridan (yuqori sinflar uchun) interfaol darslar;

2. **twig-talim.uz** platformasi orqali qo'shimcha ta'lim olishlari uchun rus va ingliz tillarida o'quvchi yoshiga mos har xil videofilmlar, olam haqidagi tasavvurlarini kengaytirish va mavjud ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan video kontentlar hamda kimyo, geografiya, matematika, fizika fanlaridan maktab dasturi asosida yaratilgan har xil filmlar, interfaol vazifalar va multimedia materiallari taqdim qilingan.

Interaktiv doskani ishlatish tajribasi yakka tartibda, hamkorlikda ishlash, kommunikativ faolligini oshirish, didaktik materiallardan, ko'rgazmalardan foydalanish bilan uyg'unlashtirishni talab qiladi. O'qitish jarayonida interaktiv metodlardan, internet resursdan foydalanish orqali loyiha ishi, bahs-munozara, musobaqalar o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin.

Interaktiv metodlar va usullar o'quvchilarning kommunikativ bilim va ko'nikmasini rivojlantiradi. O'quvchilarning bir-birlari bilan emotsional muloqoti ta'minlanadi, guruh bo'lib ishlash ko'nikmasi shakllantiriladi, o'rtoqlarining fikrini tinglashni o'rganadi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida do'stona munosabatni vujudga keltiradi, asab tarangligining oldini oladi, faoliyat shakllarini o'zgartirish imkoniyatini beradi, mavzu bo'yicha savollarga diqqatini jamlaydi, mavzuni o'zlashtirish samaradorligi oshadi, o'zbek tilini o'rganishga ishtiyoqi ortadi.

O'zbek tilini o'qitishda o'quvchilarning tilni o'rganishidagi natijadorlikning ko'proq bo'lishi o'qituvchining zamonaviy o'qitish texnologiyasini qay darajada bilishiga bog'liq. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, boshqa tilni o'rganishda kompyuter texnologiyasidan unumli foydalanish repetitor, "matn redaktori", consultant, partnyor vazifasini bajarishi aniq. Shu bilan birga, bu o'qituvchiga bajarilgan ishni tahlil qilish, nazorat qilish va baholash imkoniyatini ham beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Tolipov O'. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. -Toshkent: "Fan", 2006. -50-bet.
2. Safarova R.G., Yusupova F.I. O'quvchilarda o'zaro do'stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirishga oid nazariy-amaliy yondashuvlar. -Toshkent: "Fan va texnologiya", 2012. -18-bet.
3. Tolipov O'. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. -Toshkent: "Fan", 2006. -175-bet.

### **LINGVISTIK TAHLIL KOMPETENSIYASINI O'QUVCHI-TALABALARDA SHAKLLANTIRISH USULLARI**

*Haqnazarova O.,*

*Nurota tumani 3-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi*

O'zbek tilshunosligida amaliy mashg'ulotlardan biri bo'lgan lingvistik tahlil metodikasi nazariy va amaliy jihatdan mustaqillikdan keyin ishlab chiqilmagan. Tilshunoslikning ma'lum sohalari bo'yicha tahlil o'tkazish qoidalari va tartibi belgilanmagan. Holbuki, oliy o'quv yurtlari, umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollej va litseylarining o'quv-o'qituv tajribasida o'quvchi hamda talabalar bilimni yanada oshirish uchun lingvistik tahlil mashg'ulotlariga va bu xil mashg'ulotlarni o'tkazish yo'l-yo'riqlari bayon qilingan qo'llanmaga ehtiyoj katta.

Til hodisalari lingvistik tahlil asosida amaliy o'rganiladi. Lingvistik tahlil – olingan nazariy bilimlar asosida til haqidagi har bir fanning talabiga ko'ra aniq bir til yoki nutq birligini (so'z yoki gapni) parchalab o'rganishdir. O'quvchi va

bo'lajak o'qituvchilarning til hodisalarini tez va to'g'ri ajrata olish malakasini egallashlarida nazariy bilimlar bilan bir qatorda lingvistik tahlil ham muhim rol o'ynaydi. Lingvistik tahlil – o'quvchi-talabalar bilimining ko'z gusi. Bilim – turli qoidalar va atamalarni o'zlashtirishdan iborat. Biroq undan amalda foydalana olmasa, u faqat yodaki qoida va atamalardan iborat bo'lib qoladi, xolos. Kishining ma'lumoti, madaniyati uning faoliyatida ko'ringanidek, haqiqiy bilim amaliyotda qo'llanilishi bilan belgilanadi. Agar o'quvchi yoki talaba tilshunoslikdan nazariy dars o'tilgandan so'ng shu darsda berilgan bilimni ma'lum bir matnni parchalab o'rganishda mustaqil qo'llay olsa, bunday bilim haqiqiy lingvistik bilim sanaladi. Ularning olgan bilimining haqiqiyliigi, mustahkamligi tahlil jarayonida ko'rinadi. Lingvistik tahlil talaba va o'quvchida bilimni amalda ishlata bilish malakasini hosil qiladi. Lingvistik tahlil orqali talaba va o'quvchilar berilgan nazariy bilimning – lingvistik qoidalari mohiyatiga ongli, amaliy tushunib yetadilar. Talaba lingvistik tahlil jarayonida, tilning aniq bir hodisasiga bog'liq holda, nazariy darslarda olingan bilim, qoidalar ustida mustaqil mushohada qiladi, o'z ongida ularni qayta ishlab chiqadi. Bu esa mazkur hodisalar mazmunini ochuvchi fikrlarning o'quvchi-talaba xotirasida nisbatan uzoq saqlanib qolishini ta'minlaydi. Faqat tahlil orqaligina ayrim murakkab til hodisalarining mohiyatini yaxshiroq anglash mumkin.

Lingvistik tahlil o'quvchi-talabalarga mustahkam bilim berish yo'lidagi metodik usullardan biridir. Tilshunoslikning har bir tarmog'i o'qitilayotganda o'qituvchi lingvistik tahlildan, albatta, foydalanishi lozim. Lingvistik tahlil uy vazifasi sifatida ham berilishi mumkin. Ammo buning uchun o'quvchi-talabalarda til dalillarini tahlil qila olish malakasi bo'lmog'i lozim. Morfologiya va sintaksis bilan bir qatorda fonetika, leksikolodiya, orfoepiya, orfografiya, so'zning morfologik xususiyati, so'z yasalishi kabi sohalar o'tilayotganda shularga aloqador lingvistik hodisalar yuzasidan tahlil uyushtiriladi.

O'quvchi-talabalar bilan olib boriladigan lingvistik tahlilni amaliy jihatdan ikki turga ajratish mumkin:

1. Og'zaki lingvistik tahlil.
2. Yozma lingvistik tahlil.

Tahlildagi bu ikki usulning ham o'z afzalliklari bor. Og'zaki tahlil kam vaqt talab qiladi o'quvchi-talabalarining lingvistikadan olgan bilimni qisqa muddat ichida aniqlashga imkon beradi. Bundan tashqari, tahlil qilayotgan o'quvchi-talabalarga, agar u xatolarga yo'l qo'ysa, o'z vaqtida yordamlashish imkoniyati ham bo'ladi. Tahlilning bu usulidan dars jarayonida ko'proq foydalaniladi.

Yozma lingvistik tahlilning ham o'ziga xos ijobiy tomonlari bor. Yozma tahlil qilayotgan o'quvchi-talabalar bemalol fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Hatto, u nazariy manbalardan ham foydalanishi mumkin. Yozma lingvistik tahlil ko'proq uy vazifasi qilib beriladi.

Lingvistik tahlil til hodisalarini qamrash chegarasiga qarab to'liq va to'liqsiz tahlil deb ham ajratiladi. Matnni to'liq lingvistik tahlil qilish ko'p vaqt

talab qiluvchi murakkab ishdir. Matnni til haqidagi fanning hamma tarmoqlari bo'yicha tekshirish, tom ma'noda, to'liq lingvistik tahlil hisoblanadi. Dars jarayonida bunday tahlildan foydalanib bo'lmaydi. Umuman, bunday tahlilga ehtiyoj ham sezilmaydi. To'liq lingvistik tahlildan fakultativ kurslarda, tilni chuqur o'rganuvchi to'garaklarda foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Biz "to'liq lingvistik tahlil" tushunchasini ma'lum bir tarmoq, bo'lim yoki turkumga nisbatan ishlatdik: to'liq morfologik tahlil, to'liq sintaktik tahlil kabi.

Lingvistikaning biror tarmog'i yuzasidan o'tkaziladigan to'liq tahlil shu predmet uchun berilgan soatlarning oxirgi qismida yoki tilshunoslikning boshqa tarmoqlari o'rganilayotganda o'tkaziladi. Masalan, to'liq fonetik tahlilfonetikadan berilgan hamma mavzular o'rganilib bo'lingach yoki orfografiyadan bo'ladigan darslar orasida o'tkazilgani ma'qul. To'liq tahlildan yozma ish sifatida foydalanilsa ham bo'ladi.

To'liqsiz yoki tematik tahlil ma'lum bir tarmoqning ayrim mavzulari yuzasidan o'tkaziladi. Masalan, "Ot haqida ma'lumot", "Atoqli va turdosh otlar", mavzulari o'tilgandan keyin to'liqsiz tahlil o'tkaziladi. Bunda diqqat uch masalaga qaratiladi: ot, atoqli ot, turdosh ot. Bundan keyingi tahlil darslarida e'tibor qaratiladigan masalalar soni oshib boraveradi, ya'ni ot, otning ma'no turlari (atoqli, turdosh, aniq, mavhum, yakka, jamlovchi otlar), otlarda son, egalik, kelishik kategoriyalari kabi. To'liqsiz tahlilni ma'lum bir kichik mavzuning o'zigagina bog'lab o'tkazishning didaktik nuqtai nazardan ahamiyati kam. Oldin o'tilgan, shu mavzuga aloqasi bor materiallarni ham tahlil talabiga kiritish kerak. Masalan, kelishiklar yuzasidan bo'ladigan tahlil darsida faqat kelishik qo'shimchalari va ularning ma'nosiga e'tibor berish shu mavzuni unga (kelishiklarga) aloqador oldingi soatlarda o'tilgan mavzulardan uzib qo'yadi. Ot turkumi bo'yicha kelishik kategoriyasiga qadar o'tilgan manbalarni o'rganishni ham tahlil talabiga kiritish o'rinlidir. Bunga oldin kelishik qo'shimchalari va ularning ma'nosi, so'ng otning ma'no turlari hamda boshqa kategoriyalari tahlil etiladi. To'liqsiz tahlildan har bir amaliy mashg'ulot darsida foydalanib, vazifalar soni oshib borilaversa, o'quvchi-talabaning bilimi qat'iylashib, kengayib, mustahkamlanib boradi.

Ma'lumki, til materiallari tahlili ilmiy va uslubiy adabiyotlarda "Grammatik tahlil" nomi bilan yuritilib kelinmoqda. Biroq bu atamani tushunishda bir xillik ko'rinmaydi. Maktabda tahlil muammosini keng o'rgangan uslubchi olim A.V.Tekuchev o'zining "Grammatik tahlil metodikasi" (1952), "Maktabda Grammatik tahlil" (1963) asarlarida "grammatik tahlil" atamasi ostida fonetik, morfologik, etimologik, sintaktik va grammatik uslubiyat yuzasidan bo'ladigan tahlillarni tushunadi. Muallif etimologik tahlilga morfologik tahlilning bir turi sifatida yondashadi. N.N.Staxovskiy, G.P.Domashenkina, T.B.Ivanovalar ham A.V.Tekuchev izidan boradi. Lekin ular uslubiy tahlilni grammatik tahlil tarkibiga kiritmaydilar.<sup>1</sup>R.I.Lixman va O.Ya.Prik grammatik tahlil deganda faqat morfologik va sintaktik tahlilni

<sup>1</sup>Стаховский Н.Н. О грамматическом разборе по русскому языку, Львов – 1962.

tushunadilar. Biz ham grammatik tahlil deyilganda, morfologik va sintaktik tahlilni tushunishni to'g'ri deb bilamiz. Grammatika morfologiya va sintaksisdan iborat ekan, grammatik tahlil ham shu tarmoqlarni o'z ichiga olishi kerak. Garchi fonetikasiz grammatika bo'lmasa-da, u grammatikaning tarkibiy qismi emas. Etimologik, uslubiy tahlillar haqida ham shu xilda gapirish mumkin. Demak, tahlilning morfologik va sintaktik turlaridan boshqa turlarini ham o'z ichiga olgan ishni, ravshanki, "grammatik tahlil" deb atab bo'lmaydi. Shunday ekan, uni qanday nom bilan atash kerak? degan savolga filologiya fanlari doktori, professor A.Hojiyev tahriri ostida T.Qudratov hamda T.Nafasovlarning fikrlaridan kelib chiqib, bunday ishni til haqidagi fanning umumiy nomiga moslab, "Lingvistik tahlil" deb yuritishni lozim topdik. Bunday nomlashda, nazarimda, hech qanday qarama-qarshiliklar sezilmaydi. Aksincha, "grammatik tahlil" atamasiga qaraganda u umumlashtiruvchi xususiyatga ega va tilshunoslik fani tarmoqlarining hammasini o'zida mujassamlashtiradi.

Dars turi sifatida lingvistik tahlil ma'lum didaktik va metodik talablarga javob berishi lozim. Lingvistik tahlil til haqidagi fanning har bir tarmog'i uchun tuzilgan muammo talabiga to'la mos bo'lishi kerak. Uning oldida ham til haqidagi fanlarni o'qitish oldiga qo'yiladigan metodologik va uslubiy talablar qo'yiladi.

Lingvistik tahlil oldiga qo'yiladigan qat'iy talablar quyidagilar:

1. Ilmiylik qonuniyati.
2. Ma'lum jadval asosida ish ko'rish qonuniyati.
3. Bir tur tahlilni boshqa bir tur tahlil bilan almashtirib yubormaslik qonuniyati.
4. Tahlilni doimiy o'tkazib borish qonuniyati.

Tahlilda ilmiylikka amal qilish qonuniyati juda muhim bo'lib, til hodisalariga jiddiy munosabatda bo'lishdan kelib chiqadi. Ilmiylik – til hodisalarining tabiatini to'g'ri ko'rsatish, qanday mavjud bo'lsa, shunday ta'riflash demakdir. Har bir til hodisasiga aniq yondashish, uning boshqa hodisalarga munosabatini, uzoq yoki yaqinligini; ayrim yoki umumiylikni ko'rsatish til dalillariga ongli munosabatda bo'lishni talab etadi. Til dalillarini tarixiylik nuqtai nazaridan yoritish ham ilmiylik talabidir.

Ikkinchi qonuniyat belgilangan tahlil jadvali bo'yicha o'quvchi-talabanning mustaqil harakat qilishini talab qiladi. Xuddi shu qonuniyat orqali o'quvchi-talabanning nazariy bilimlarni qay darajada egallaganligi kuzatiladi. Ma'lum jadval asosida erkin tahlil eta bilish malakasini hosil qilish jiddiy ahamiyatga ega. Tahlil jadvali yaxshi o'ylangan, tarmoq, fan yoki ayrim bo'limlarning asosiy xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi, sodda, tushunarli bo'lmog'i kerak. Jadval qismlarini o'ta murakkablashtirib yuborish tahlilning ma'nosi va qonuniyatlarini tushunishni qiyinlashtiradi.

Har bir tahlil turning maqsadi va chegarasi qat'iy bo'lmog'i zarur. Bu o'quvchi-talabaga bir xil tahlil bilan boshqa xilini ham aralashtirmaslik ko'nikmalarini mustahkamlaydi.



Lingvistik tahlilni doimiy o'tkazib borish qonuniyati ham zamonaviy pedagogikaning didaktik talablaridan kelib chiqadi. Doimiy o'tkazilmaydigan tahlil orqali til fanidan o'quvchi-talabalarni chuqur bilimli qilib bo'lmaganidek, olingan bilimlarni ham yaxshi aniqlash mumkin emas.

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA GRAMMATIK VA NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH**

*Shopulatova N.U.,*

*Konimex tumani 2-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** maqolada o'zbek tili ta'limida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish muammolari nazariy tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** kompetentlilik, nutqiy kompetensiyalar, interfaol ta'lim, kommunikativ sifatlar.

Respublikamizda so'nggi yillarda o'zbek tili darslarida mustaqil va ijodiy fikrlaydigan, o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda ravon ifodalay oladigan, o'zgalar fikrini anglaydigan barkamol shaxsni kamol toptirish, o'zbek tili ta'limining bosh maqsadi sifatida belgilangani, o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. Mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish"[1] ustuvor vazifa etib belgilandi. Natijada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish imkoniyatlari kengayadi. N.SH.Turdiyevning "Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari" [2] qo'llanmasida "kompetentlilik", "kompetensiya" tushunchalari tavsiflarida bilimlar majmuining amalda qo'llanilishi shaxsning professional faoliyatini ta'minlovchi bilim, ko'nikma, malakalar yaxlitligi, shaxsning maqsadli yo'naltirilgan emotsional iroda kuchi holatlariga e'tibor qaratish tavsiya qilinadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarda nutq faoliyatining asosiy turlarini o'stirish bilan bir qatorda, quyidagi muhim masalalarni hal etishni ko'zda tutadi. Birinchidan, boshlang'ich sinflarda o'zbek tilidan beriladigan bilimlar mazmunini o'zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi, so'zlarning o'zgarishi va gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi, so'zlarning morfemik tarkibi va so'z yasalishi, so'zlarning leksik-semantik guruhi haqidagi, o'zbek tilining to'g'ri yozuv qoidalari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi bilimlar tashkil etadi.

Berilgan bu bilimlar o'quvchilar nutqini o'stirishga xizmat qiladi. R.A.Yo'ldoshev, L.R.Mirjalolovalarning fikricha, "Nutqiy kompetensiya deganda bilim nutqiy birlik ko'nikma malaka chizig'idagi ishlar mahsuli tushuniladi. Bu yerdagi bilim nutqda bexato yoki xato qo'llanadigan, shuningdek, o'quvchilar uchun yangi til hodisasi bilan bog'lanadi, asosiy e'tibor, ayni shu til hodisasini amalda to'g'ri qo'llash ustidagi ishlarga qaratilib,

uni anglash, o'zlashtirish, nutqda qo'llash jarayonini ifoda etadi; dastlabki ko'nikma asta-sekin malakaga aylana boradi" [3] Ilmiy, metodik adabiyotlar va tadqiqotchilar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda, ushbu atamani quyidagicha izohladi: nutqiy kompetensiyani rivojlantirish – bu o'zbek tili darslari jarayonida o'quvchining o'z nutqida leksik, grammatik, so'z yasalishi, sintaktik, uslubiy me'yorlarga amal qilishi, tinglab tushunish, o'qish, so'zlash, yozishni mukammal o'rganishi natijasida hosil bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalarning nutqiy vaziyatlarda o'rinli va amaliy qo'llay olish layoqatidir. Ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga sub'ektiv munosabat bildirish, turli nutqiy jarayonlarda o'zining qat'iy pozitsiyasiga ega bo'lish, og'zaki va yozma nutqi rivojlanishining yuksak darajasi takomildir.[4] O'zbek tili o'qitishning mazmuni va metodlari o'quvchilarga dastur talab qilgan hajmda puxta bilim berish, ko'nikma va malakalar hosil qilishga ko'maklashishi lozim.

O'zbek tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi, o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'z g'alar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish, o'quvchilarda grammatikaga oid bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) shakllantirish va rivojlantirish hamda o'zbek tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda o'qigan, ko'rgan, eshitganlarini nutqiy to'g'ri va ravon bayon eta olish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. O'zbek tili darslarida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga oid kommunikativ, innovatsion, kreativ yondashuvlarning asosiy omillaridan biri og'zaki va yozma nutqini adabiy til me'yorlari asosida rivojlantirish hisoblanadi. Bu jihat, o'quv faoliyatining jamoaviy xususiyati va bilimlarni qat'iy o'zlashtirilishi natijasida, nutqiy ko'nikmalarga ega bo'lish, o'quvchilarda tinglab tushunish, eshitish, so'zlash, yozish ko'nikmalarining sub'yektiv munosabat bildirish bilan bog'liq bo'lgan ko'nikma va malakalarni nazorat qilish, ta'lim oluvchining intilishlari va qobiliyatlari, uning hayotiy tajribalaridan chiqargan xulosalarni inobatga olish kabi nutqiy vaziyatlarda namoyon bo'ladi. O'zbek tili darslarida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish innovatsion metodlar asosida amalga oshirildi. Jumladan, o'zbek tili darslarida innovatsion, interfaol ta'lim texnologiyalar ("Emotsional -ekspressiv bo'yoqdor so'zlar ustida ishlash" metodi, "Onlayn topshiriq berish" metodi, "Savodxon" metodi, Grammatik-assotsiativ metod, va "Qiziqarli taqdimot", "Zukkolik", "Sub'ektiv munosabat", "Ma'nosiga izoh", "Bahs-munozara" o'yinlari) tushunib so'zlash, ifodali o'qish, adabiy til me'yorlariga amal qilib yozma nutqini o'stirish uchun samarali natijalar beradi. Shuningdek o'zbek tili darslarida:

"Savodxon" metodi yordamida imloviy me'yorlarni aniqlashtirish;

"Grammatik-assotsiativ metod" metodidan foydalanib, o'quvchilarda mavzu doirasida tilshunoslik asoslari bo'yicha grammatik qoidalar negizida matn turlarini tuzish va yozish ko'nikmalarini shakllantirish;

“Onlayn topshiriq berish” metodi vositasida masofaviy ta'limda lingvistik kompetensiyalar negizida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish; “Qiziqarli taqdimot” o'yinini o'tkazish orqali rasmiy matnning rekvizitlariga rioya qilib tuzish; bahs-munozara asosida davra suhbatini tashkil etish;

“Ma'nosiga izoh” o'yini yordamida o'quvchilarning olib borilayotgan dars mashg'ulotlari doirasida so'zlarning ko'chma ma'nolarini og'zaki va yozma nutqida foydalanish mumkin. Darsliklarni o'rganib chiqib, shunday xulosa qilish mumkinki, o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga asosli ravishda o'zbek tili darslarida o'quvchilarning erkin so'zlash qobiliyatining to'liq holatda rivojlanmagani, tinglovchi va so'zlovchining nutqiy vaziyatlarda tilning turli sath birliklari, leksik, morfologik, sintaktik birliklarini qo'llash mahorati, adabiy til me'yorlariga muvofiq mustaqil matn tuzish va yozish ko'nikmalariga yetarli darajada ega emasligini inobatga olgan holda nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun, ularda nutqning madaniyligini ta'minlovchi kommunikativ sifatlari nutqida ishlatishni mukammal o'rganish lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Turdiyev N.Sh., Asadov Yu.M., Akbarova S.N., Temirov D.SH. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. -T.: T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI, 2015.- 8 b.
2. Yo'ldoshev R.A., Mirjalolova L.R. O'zbek tili ta'limida kompetensiyaviy yondashuv: Metodik qo'llanma. – T.: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti, 2019. – 9 b.

## **YOSHLAR HUQUQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR**

*Shadiyev B.M.,*

*Navoiy viloyati PYMO'MM katta o'qituvchisi*

Mamlakat rivojlanishida huquqiy madaniyatni bugungi kunning talabiga mos ravishda yuksaltirish jamiyatdagi insonlarning kelajakka bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlaydi. Huquqiy madaniyati yuksak rivojlangan davlatning kelajagi ham ravnaq topib boradi. Yoshlarning har tomonlama barkamol inson bo'lib yetishishlari uchun huquqiy ong va madaniyatni yanada rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. "Huquqiy madaniyat deganda jamiyatda qaror topgan huquqiy tizimning darajasini, xalqning bu huquq tizimidan xabardorlik darajasini, fuqarolarning qonunga bo'lgan hurmati, huquqiy normalarning ijro etilish darajasi, huquqqa rioya qilmaganlarga murosasiz bo'lish, qonunga itoatkorlik darajasini tushunamiz"<sup>1</sup> - deb ta'rif berilgan.

Mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bir vaqtda yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yanada yuksaltirish, ularni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash mamlakatimiz oldida turgan muhim masalalardan biridir. Huquqiy demokratik davlat qurish va

<sup>1</sup> Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. 1-tom. - T.: O'zbekistan Respublikasi IIV Akademiyasi, 1998, 11-bet.

jamiyat taraqqiyotining rivoji, o'sib kelayotgan avlodning ta'lim darajasi, huquqiy savodxonligining yuqoriligiga bog'liqdir. Yaxshi ta'lim - tarbiya olgan barkamol avlod hech qanday huquqbuzarlikning ko'chasiga kirmaydi, uning botqog'iga botmaydi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2018-yil 21-sentyabrdagi "2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-son, 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son Qarori hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga yoshlar huquqiy madaniyatini yuksaltirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Lekin, hozirda jamiyatdagi insonlarning huquqiy saviyasini yetarli emasligiga, huquqiy ta'lim va tarbiya doirasida tizimli va uzviy olib borilmayotganligidir. Bu haqda Prezident Sh.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida huquqiy ong va madaniyat darajasiga alohida to'xtalib quyidagi fikrni ya'ni "Kanadaning 1 milliondan ortiq transport vositasi mavjud bo'lgan Kalgari shahrida joriy yilning 10 oyida avtohalokatlar tufayli 10 nafar shaxs nobud bo'lgan. O'zingiz solishtirib ko'ring: jami 2 yarim milliondan ziyod avtotransport mavjud bo'lgan bizning yurtimizda esa, shu davrda 1 ming 600 dan ortiq kishi avtohalokat qurboni bo'lgan. Bu - og'ir kulfat, katta yo'qotish emasmi?! Biz yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirdik. Lekin shuning o'zi bilan muammoni to'liq yechish mumkinmi? Menimcha, yo'q! Buning sababi jamiyatda huquqiy madaniyatning yetarli darajada shakllanmagani bilan bevosita bog'liq. Biz jamiyatimizda huquqiy madaniyatni lozim darajada shakllantirmas ekanmiz, huquqbuzarlikka chek qo'ymas ekanmiz, qonunni buzish holatlari davom etaveradi"<sup>1</sup> deb ta'kidlab o'tdi. Bugungi kunda yoshlarning huquqiy bilimlari yetarli emasligiga, huquqiy ta'lim borasidagi olib borilayotgan ishlar tizimli va uzviy olib borilmayotganligi kabi holatlar sabab bo'lmoqda.

Yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda avvalo ularning o'z huquq va erkinliklarini yaxshi bilib olishlari hamda ulardan hech qanday to'siq va moneliklarsiz to'liq va keng foydalanish imkoniyatlarini amalda ta'minlanishi muhim mezon bo'lib hisoblanadi. Yoshlarni jamiyat talablariga davlatning qonun-qoidalariga, milliy urf-odatlar va qadriyatlarga chuqur hurmat-ehtiromli bo'lishga o'rgatish huquqiy ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biridir. Jamiyatda yoshlarning huquqiy ongini rivojlantirish uchun yoshlar tarbiyasida huquqiy ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish

<sup>1</sup> <https://uza.uz/uz/posts/bilimli-avlod-buyuk-kelazhakning-tadbirkor-khal-farovon-ayet-08-12-2018>

zarur. Yoshlarni tarbiyalashda huquq nazariyasini uni o'qitish metodologiyasini va globallashtirish jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish zarur. Ta'lim muassasalarida huquqiy ta'lim fanlarini mazmunan yangilash. Oliy ta'lim muassasalarini mutaxassisligidan kelib chiqib huquqiy ta'lim fanlarini moslashtirish. Shu bilan bir vaqtda fuqarolarning huquqiy savodxonligini ta'minlashda ommaviy axborot vositalari katta ahamiyatga ega. Ommaviy axborot vositalarining huquqiy mavzulardagi ruknlariga e'tiborini kuchaytirish, aholi o'rtasida ko'proq ko'tarilayotgan huquqiy muammolarni davriy nashrlar saxifalarida, televidenie va radio eshittirishlari, ijtimoiy tarmoqlar orqali tushuntirish hamda huquqiy targ'ibot masalasi bugungi kunda huquqiy madaniyati shakllantirishning asosiy omili hisoblanadi.

"Huquqiy targ'ibot-jamiyat va davlatning huquqiy siyosatini, strategik maqsadini kishilarga, ommaga yetkazishga qaratilgan ma'rifiy va targ'ibiy usullar. Huquqiy madaniyatning shakllanishi huquqiy targ'ibot ta'sirchanligi va xalqqa tushunarli ekaniga bog'liq. Shuning uchun, huquqiy targ'ibot huquqiy jamiyat nazariyasi, huquq loyihasi, huquq sotsiologiyasi kabi ilm sohalarining natijalariga tayanadi"<sup>1</sup>.

Har bir davlatning rivojlanishining asosiy omillaridan biri bu huquqiy madaniyat hisoblanadi. Shunday ekan yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

## UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARINI BOSHQARUVDA PSIXOLOGIK IJODIY FAOLIYAT

*Otamuratov S.Q.,  
Samarqand viloyati Payariq tumaniga qarashli 44-umumiy  
o'rta ta'lim maktabi Tarix fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** maqolada ta'lim jarayonida boshqaruv metodlaridan samarali foydalanishda psixologning ijodiy faoliyati va jihatlariga e'tibor berishning ta'lim jarayonidagi ahamiyati haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** metod, ijodiy muhit, muomala, qadr-qimmat, e'tibor, psixik jarayon, motiv, ijtimoiy psixologik, motivatsiya.

Umumta'lim maktab boshqaruvida mas'uliyatli va keng qamrovli vazifalarni amalga oshirish strategik ta'lim boshqarivini talab etadi. Chunki, samarali boshqaruv asosida ta'lim muassasasining nufuzi, salohiyati, bu ta'lim muassasida tahsil olayotgan yosh avlodning har sohada (fan bo'yicha bilimlar bellashuvi, sport, san'at va hokazo) erishgan yutuqlari asosiy o'rinni egallashi bilan bir qatorda bu yutuqlarning boshida turgan ta'lim muassasasi rahbari va pedagogik jamoaning ham qanday faoliyat olib borayotganliklari muhim ahamiyatga ega.

Umumta'lim maktablarida boshqaruv faoliyatini yuritayotgan rahbar avvalo keng pedagogik - psixologik bilimlarga ega bo'lishi, kompetentli, o'z-

<sup>1</sup> O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi. -Toshkent: Adolat, 2009. 654-b.

o'zini doimo nazorat qila oladigan, rahbarlik faoliyati jarayonida mavjud huquqiy-me'yoriy mezonlarga tayanadigan va bugungi kundagi innovatsion jarayonlarga asoslanadigan mutaxassis bo'lishi maqsadga muvofiq. Bu jarayonlar umumta'lim maktablarida faoliyat olib borayotgan pedagoglarning ijodiy faoliyati bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Innovatsion jarayonlarni ta'lim muassasasi pedagoglarining ijodiy faoliyatisiz va bunda psixologik yondashuvlarsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Buning uchun rahbar pedagogik jamoani boshqaruvida ijodiy muhit yaratishning psixologik jihatlarini bilishi va buni amalga oshirish uchun boshqaruv metodlaridan oqilona foydalana olish mahoratiga ham ega bo'lishi kerak.

Boshqaruv metodlaridan samarali foydalanish pedagogik jamoaning ijodiy faoliyatini kengaytirib ishchanlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

P.X.Djurayev, S.T.Turg'unov, N.Q.Ahmedovlarning "Ta'lim boshqaruvi" nomli o'quv qo'llanmasida zamonaviy ijtimoiy - iqtisodiy shart-sharoitlarda umumiy o'rta ta'lim muassasalarini boshqarishda ko'p darajada mos keladigan metodlarning to'rtta asosiy guruhi ko'rsatib berilgan. Bular: Iqtisodiy, tashkiliy, ma'muriy, ijtimoiy psixologik va axborotlar to'plash metodlari hisoblanadi.

**Boshqaruvda iqtisodiy metodning** jamoada ijodiy muhit yaratishdagi bog'liqlik tomoni shundaki, bu metod orqali muassasaning iqtisodiy ko'rsatkichlarining yig'indisini tavsiflash bilan bir qatorda pedagoglarning zamonaviy talablar darajasida faoliyat ko'rsatishlari uchun sharoitlar yaratadi. Ya'ni, ta'lim muassasasi faoliyatini takomillashtirish va innovatsion jarayonlarni kuchaytirish, xodimlarning innovatsion faoliyatlarini tashkil etish, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining faolliklarini rivojlantirishda foydalaniladi.

Ikkinchi metod bu **tashkiliy-ma'muriy metoddir**. Bu metod orqali esa qarorlar, buyruqlar, farmoyishlar va ko'rsatmalar tayyorlash, ularni o'z vaqtida tegishli shaxslarga yetkazish va bajarilishini nazorat qilish orqali ta'sir ko'rsatish bilan birgalikda belgilangan maqsadlarga erishishda jamoada mavjud bo'lishi zarur bo'lgan o'zaro munosabatlar, aloqalar, tashkiliy barqarorlik, intizom, o'zaro mutanosiblik va kelishuvchanlik, tartibli hamda uzluksiz rivojlanishni huquqiy va me'yoriy hujjatlarga mos ravishda ta'minlashdan iborat. Jamoada ijodiy muhit bo'lishi uchun esa o'zaro munosabatlar juda muhim.

Pedagogik jamoani boshqaruvidagi ijtimoiy-psixologik metodlar esa jamoada ijodiy muhit yaratishning asosi bo'ladi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, bu metod jamoa xodimlarining bema'lol, erkin harakat qilishi, o'z-o'zini namoyon qilishi, tegishli jarayonlarda erkin ishtirok etishi, fikr bildirishi uchun sharoit yaratib ijodiy faoliyatlarini o'stiradi. Demak, sog'lom muhitda sog'lom fikr va sog'lom dunyoqarash va e'tiqod shakllanadi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, pedagogik jamoani boshqaruvida ijodiy muhit yaratishning psixologik jihatlarini bo'yicha o'z fikr va tavsiyalarimizni bayon qilamiz. Bular:

- moddiy va ma'naviy rag'batdan o'z o'rnida foydalanish;
- pedagogik jamoa o'rtasida musobaqalar, ko'rik tanlovlar tashkil etish;

- boshqaruv muomalasining mexanizmlaridan samarali foydalana olish;
- pedagog xodimlarning faoliyat motivlarini kuchaytirish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, pedagogik jamoani boshqaruvida ijodiy muhit yaratishning psixologik jihatlariga e'tibor berish, boshqaruv metodlaridan oqilona va samarali foydalanish pedagogik jamoada ish unumini oshirib ijodiy faoliyatlarini kengaytirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. R.S. Nemov. "Psixologiya", Kniga 2. Moskva, Vldos, IMPE im. A.s. Griboyedova, 2001
2. Djurayev R.X., Turg'unov S.T., Axmedova N.Q. Ta'lim boshqaruvi (nazariya va amaliyot masalalari) . Toshkent - 2013

## МУНДАРИЖА

Kirish.....3

**1-SHO'BA: TA'LIMDA INNOVATSION TADQIQOTLAR VA  
 TEXNOLOGIYALAR: IMKONIYATLAR, TAHLILLAR VA  
 ISTIQBOLLAR**

<i>Ro'ziqulov F. R.</i>	Nikoh-oila munosabatlarining tashkiliy-psixologik jihatlari mustahkamligini ta'minlash	5
<i>Xolbayev Sh.</i>	Yoshlarni intellektual salohiyatini oshirishda ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalashning strategik yondashuvi	7
<i>Ortiqboyev F.Q.</i>	Onlayn ta'limning paydo bo'lishi va uning imkoniyatlari	10
<i>Suvonov O.O., Jurakulov T.T.</i>	Ta'lim jarayonlarini raqamlashtirishda multiparametrli o'qitish jarayonining matematik modeli haqida	12
<i>Pulotov A.M.</i>	Umumta'lim maktablarida matematika fanini o'qitishning o'ziga xos jihatlari	17
<i>Xolmirzayev N.</i>	Pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy: ijtimoiy-madaniy kompetentligini takomillashtirish	19
<i>Xoliqulov Sh.</i>	Ta'limga e'tibor – kelajak kafolati	23
<i>Hamdamova N.X.</i>	Boshlang'ich ta'lim o'quv mashg'ulotlarida interfaol metodlardan foydalanish	25
<i>Narzullayev N.H.</i>	Geografiya darslarida innovatsion va interfaol metodlardan foydalanish	28

**2-SHO'BA: UMUMIY O'RTA TA'LIM FANLARINI O'QITISHGA  
 INNOVATSION YONDOSHUVLAR**

<i>Yuldashev S.U.</i>	Ta'lim va yoshlar intellektual salohiyatini yuksaltirishning ijtimoiy omillari	31
<i>Safarov D.X.</i>	Jahon tajribasida zamonaviy pedagog rahbarni yetishtirishga doir pedagogik-psixologik yondashuvlar tahlili	33
<i>Qlichev U.A.</i>	Tarixiy xaritalar va illyustratsiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	36
<i>Boboyorov Sh.S.</i>	Kasbga tayyorlash jarayonida bo'lajak tarix o'qituvchilarining kompetentligini shakllantirishning integratsion pedagogik shart-sharoitlari	38
<i>Sobirov D.S.</i>	Dars tuzilmasida axborot texnologiyalaridan foydalanishning metodik jihatlari	41
<i>Xasanova Sh.B.</i>	Tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarini shakllantirish tajribalari	44



<i>Dusanov E.A.</i>	O'smirlar xulqida paydo bo'ladigan psixologik muammolar	46
<i>Shaymatov R.</i>	Tarix va huquqshunoslik fanlarini o'qitishda pedagogik texnologiyani qo'llash va noan'anaviy darslarni tashkil etish	48
<i>Baxronov D. D., Xujamov M.E.</i>	Ta'lim tizimida raqamli pedagogikaning o'rni va ahamiyati	51
<i>Yuldashev U.</i>	Tarix fanini o'qitishda axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanish	54
<i>Djurayeva P. S.</i>	Umumiy o'rta ta'limda innovatsion usul va texnologiyalarni ta'lim jarayoniga qo'llanish	56
<i>Raxmatullayev B. R.</i>	Hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirishda iqtisodiy tarbiyani zamonaviylashtirish masalasi	60
<i>Esimbetova D. M.</i>	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "oqsillar, yog'lar, uglevodlar" mavzusini o'qitishda interfaol usullardan foydalanish imkoniyatlari	63
<i>Rahmatova N. S.</i>	Shaxsda irodaviy sifatlarining rivojlanish va uning psixologik xususiyatlari	66
<i>Axmadov N. R.</i>	Dezadaptatsiya va uning o'smir xulqida namoyon bo'lishi	68
<i>Qurbonova X. T.</i>	Boshlang'ich sinf o'quvchilari kompetensiyasini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning o'rni	72
<i>Xaliqova G.T.</i>	Zamonaviy ta'lim sharoitida informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchisining kompetensiyasini rivojlantirish	75
<i>Ilyasova U.A.</i>	Tasviriy san'at yo'nalishida innovatsiyalar, investitsiyalar va intellektual salohiyatni oshirishda elektron ta'lim resurslardan foydalanish metodikasi	78
<i>Rahmonova D.M.</i>	Maktabga tayyorlashning ilmiy pedagogik asoslari	80
<i>Rahmonov U. U.</i>	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika fanini loyiha ishlari asosida rivojlantirishning afzalliklari	83
<i>Niyozova G.E.</i>	Yangi baholash tizimining afzalliklari	86
<i>Rahmonqulova S.</i>	Ta'lim jarayonida zamonaviy innovatsion texnologiyalarning ahamiyati	89
<i>Eshonqulova X. A., Bobojonova N.R.</i>	Boshlang'ich ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish	92
<i>Shukurova M. E.</i>	Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ ko'nikmalarini shakillantirish	93
<i>Tobakabulova N.K.</i>	Zamonaviy ta'lim tarbiya jarayonining psixologik-pedagogik xususiyatlari	97
<i>Farmonova X. E.</i>	Qobiliyat va pedagogik qobiliyatning psixologik-pedagogik tavsifi	100

<i>Jumayeva G.J.</i>	Xavotirlanish va depressiya - yolg'izlik holatini keltirib chiqaruvchi omil sifatida	102
<i>Karimova M. B.</i>	Psixologiyaning rivojlanishi hamda fanlararo integratsiya tushunchasi	104
<i>Shodiyeva N.R.</i>	Tekislikda va fazoda vektorlar mavzusini o'qitish metodikasi	107
<i>O'roqova G. I.</i>	O'smir shaxsi va ota-onalarning oiladagi bolalar - o'smirlar bilan munosabatlari	110
<i>Qo'ziyeva S. A.</i>	Rahbarlarning nizoli vaziyatlarni hal etishdagi samarali boshqaruv faoliyatini takomillashtirish	113
<i>Shokirova Z. P.</i>	Yoshlarda mustaqil fikrlashga o'rgatishning	115
<i>Hamidova G.S.</i>	Umumiy o'rta ta'lim fanlarini o'qitishga innovatsion yondoshuvlar	117

### 3-SHO'BA: TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MA'NAVIY MEROS VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING O'QITILISHIDA INNOVATSION YONDOSHUVNING O'RNI VA AHAMIYATI

<i>Pulatov J.N.</i>	Yangi O'zbekiston: yangilanish va taraqqiyot omillari	120
<i>Karimova D.A.</i>	Yoshlar zamonaviy madaniy qiyofasini shakllantirishda umuminsoniy qadriyatlarning o'rni	122
<i>Astanaqulov K.M., Tursunqulov Q.A.</i>	Oilada zo'ravonlik holatlarini oldini olishda ijtimoiy ish xodimining vazifalari	126
<i>Aslonova G.Z.</i>	Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini samarali tashkil etishda innovatsion yondashuvlar	129
<i>Qarshiyev R.M.</i>	Innovatsion texnologiyalari asosida o'quvchi-yoshlarni ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash	132
<i>Suvanova M.</i>	To'yga qadar o'tkaziladigan etnografizmlar haqida ba'zi mulohazalar	135
<i>Ramazonov J.D.</i>	Globalashuv davrida milliy-madaniyat va milliy o'ziga xoslikning transformatsiyalashuvi	137
<i>Qurbonov M.I., Boboqulov J.Q.</i>	Matematika o'qitish samaradorligini oshirishda o'quvchilar bilan ishlashning o'ziga xosligi	140
<i>Rahmonova D.M.</i>	Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning pedagogik jihatlari	143
<i>Fayziyeva F. I.</i>	Xorijdagi o'zbeklarning jahon fani taraqqiyotidagi ishtiroki	145
<i>Qarshiyev R.M.</i>	Barkamol insonni tarbiyalashda zamonaviy va sharqona ta'lim uyg'unlashuvining ahamiyati	147
<i>Баротов Х.ИИ.</i>	Жисмоний маданият ўқитувчиси шахслилик хусусиятларининг илмий адабиётларда ёритилиши	150
<i>Boboyev B.</i>	Ta'lim sifatini oshirishda ma'naviy-ma'rifiy	154

	ishlarning o'рни	
<i>Бахронов Д.Д., Хужамов М.Е.</i>	Россия и Узбекистан - традиции и современность в межкультурной коммуникации	157
<i>Shirinova F.I.</i>	Navoiy viloyatida maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish davlat siyosati	160
<i>Xamrayeva S.I.</i>	O'zbekistonda aholi salomatligini mustahkamlash maqsadida olib borilayotgan tub islohotlar samarasi (Navoiy viloyati misolida)	165
<i>Shirinova F.I.</i>	2016–2022 yillarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qamrov darajasi: muammo va yangilanish	168
<i>Xamrayeva S.I.</i>	Navoiy viloyatida sog'liqni saqlash tizimidagi o'zgarishlar dinamikasi: tarixiy tahlil	171
<i>Ergasheva H.S.</i>	O'zbekistonda ma'naviy islohotlar tizimida burhoniddin marg'inoniy ilmiy merosining o'рни	174
<i>Ibragimova M.</i>	Tarix fanlarini o'qitishning zamonaviy metodlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari	177
<i>To'ydanova D., Qaxxorova S.</i>	O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganishning siyosiy va ijtimoiy, ilmiy va amaliy ahamiyati	179
<i>Ismatilloeva Z.I.</i>	Xalq ta'limi tizimidagi muammo va yechimlar (Navoiy shahri xalq ta'limi tizimi) misolida	181
<i>Хайдаров Ш.Ш.</i>	Психологик саломатликнинг касбий фаолият доирасида тадқиқ этилиши	183
<i>Ikromova S.A.</i>	O'smirlarda psixologik xavfsizlik va psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish	187
<i>Баратов Ш.Ш.</i>	Божхона хизматчиларига психологик хизмат кўрсатишнинг психологик детерминантлари	190
<i>Mahkamova G.K.</i>	Vatan tuyg'usi va fuqarolik mas'uliyati	193
<i>Ibodullayeva D.S.</i>	Huquuq normalarini sharhlash usullari	197

#### 4-SHO'BA: TA'LIMDA SIFAT VA SAMARADORLIKNI OSHIRISH UCHUN XORIJIY TILLAR O'QITILISHINING O'RNI VA MA'SULIYATI

<i>G'ulomova N. S.</i>	Mualliflik korpuslarining ijtimoiy hayotdagi ahamiyati va ulardan foydalanish omillari	199
<i>Тухфатуллина Д.Т.</i>	Организация учебного процесса на основе внедрения SMART технологий в общеобразовательных школах	203
<i>Mirzayeva X.</i>	Ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni pedagogik jarayonlarga kiritishning o'ziga xos bosqichlari	208
<i>Shopulatova N.U.</i>	O'zbek tili darslarda ijodiy ishlarni tashkil etish	211

	(Boshlang'ich sinflar misolida)	
<i>Xakimova D.I.</i>	O'zbek tili (ta'lim boshqa tillarda) fani darslarida rolli o'yinlar va kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari	213
<i>Haqnazarova O.</i>	Lingvistik tahlil kompetensiyasini o'quvchi-talabalarda shakllantirish usullari	217
<i>Shopulatova N.U.</i>	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida grammatik va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish	221
<i>Shadiyev B.M.</i>	Yoshlar huquqiy madaniyatini yuksaltirish: muammo va yechimlar	223
<i>Otamurotov S.Q.</i>	Umumiy o'rta ta'lim maktablarini boshqaruvda psixologik ijodiy faoliyat	225

**“TA’LIMDA INNOVATSIYALAR, INVESTITSİYALAR VA  
INTELLEKTUAL SALOHİYAT: MUAMMOLAR,  
TAHLILLAR VA ISTIQBOLLAR” MAVZUSIDAGI**

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA  
MATERIALLARI**

**2023-yil, 27-oktyabr.**

Texnik muharrir

Axmedov S.T.

**«Qo‘ldovli yangi obod» x/κ matbaa bo‘limida chop etildi.**  
Adadi 100 nusxa. Buyurtma №30. hajmi 233 bet. Format A5. 2023-yil.